

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

M.M. MUHAMMADSIDIQOV

**ZAMONAVIY XALQARO
MUNOSABATLARNING MINTAQAVIY
JIHATLARI**

Darslik

Toshkent - 2019

УЎК 327 (5)
КБК 66.4 (5)
М - 96

Muhammadsidiqov M.M. *Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari.* Darslik. – T.: Qaqnus media, 2019. – 207 b.

Darslikda zamonaviy xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni keng va atroflicha o'rganadi. Shuningdek, darslikda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida mavjud muammolar, ularga nisbatan yangicha yondashuvlar yoritib berilgan. Darslik Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilab berilgan talablar asosida tayyorlandi.

Darslik xalqaro munosabatlar va siyosatshunoslik yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar, bu borada faoliyat olib borayotgan mutaxassislar va umuman mazkur masala bilan qiziquvchilarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar: **Z.I. MUNAVVAROV**, *siyosiy fanlar doktori, professor*
S.A. JO'RAYEV, *siyosiy fanlar doktori, professor*
D.I. MADAMINOVA, *siyosiy fanlar nomzodi, dotsent*

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 27-dekabrda 1186-sonli buyrug'iga asosan 5A121101 - Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlar magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim oluvchi talabalar uchun asosiy darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6125-3-2

© O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2019.
“Qaqnus media” nashroyoti, 2019
© Muhammadsidiqov Muhammadolim, 2019

KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimining globallashuvi va uning transformatsiyasi sharoitida xalqaro hayotning barcha sohalarida keskin o'zgarishlar natijasida davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar shaffoflashib, integratsiyalashuv jarayonlari kuchayib bormoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning yangi ishtirokchilari sifatida xalqaro hukumatlararo moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar, hamda, yangi mustaqil davlatlar yangi sub'ekt sifatida kirib kelishi bilan harakatlanmoqda. Shu bilan birga xalqaro tashkilotlarning rivojlanishi, ayniqsa hukumatga tegishli bo'lmagan xalqaro nodavlat, nohukumat tashkilotlar faoliyatining kuchayishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda yangi mustaqil davlatlarning xalqaro maydonga kirib borishi va o'z milliy manfaatlarini himoya qilish masalalari o'ta dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, hozirgi zamon xalqaro munosabatlarining mazmun va mohiyatini, o'ziga xos xususiyatlarini chuqur anglab yetishni hamda uning ishtirokchilarining asosiy maqsad va vazifalarini ham yakuniy ham amaliy jihatdan tahlil etishni talab qiladi. Shu bilan birga zamonaviy xalqaro munosabatlarda kechayotgan o'ziga xos jarayonlarni to'g'ri baholay olish hamda davlatlararo o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha yetarli bilimlarga ega bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularni bu yo'nalishdagi tajriba va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etib borayotgan vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlarini, tashqi siyosat va diplomatik qoidalar, xalqaro siyosat va jahon siyosati, siyosiy jarayonlar va xalqaro muammolar, ularni hal etish usul va uslublarini o'rganishga urg'u berish muhimdir.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha ijtimoiy islohotlarning negizida asosiy bosh g'oya qilib yurt tinchligi va xalq farovonligi maqsad qilib olingan ekan, shubhasiz xalqaro maydondagi tajribalarni o'rganish va tegishli xulosalar chiqarish orqali bu maqsadlarga osonroq va jadallik bilan erishish mumkin.

“Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari” kursida ham aynan zamonaviy xalqaro munosabatlarda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni keng va atroflicha yoritishni maqsad qiladi.

Ushbu o'quv kursning maqsadlaridan yana biri talabalarda mazkur fanning oliy o'quv yurtlarida zamonaviy talablar asosida o'qitish ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgan.

Talabalar zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari o'quv kursini o'rganish jarayonida fanning asosiy kategoriyalari bilan tanishish bilan birga, bu fanning xalqaro munosabatlar va jahon siyosati

fanlari tizimidagi oʻrnini aniqlaydilar. Bundan tashqari magistrantlar jahon siyosati va bugungi kundagi zamonaviy siyosiy jarayonlar borasida tushunchaga ega boʻladilar.

Talabalar oʻquv kursi mavzulari boʻyicha tahliliy materiallar bilan tanishtiriladi. Ular oʻqish jarayonida zamonaviy siyosiy jarayonlar tendensiyalari va bugungi kundagi ijtimoiy muammolarni tahlil etishda koʻnikmalar hosil qiladilar. Natijada talabalarda yuz berayotgan siyosiy hodisalarni muhokama etishda faollik va bashorat qilish mahorati oshib boradi. Oʻquv mashgʻulotlari maʼruzalar va amaliy mashgʻulotlarning ketma ket ravishda olib borilishi shaklida amalga oshiriladi.

Mazkur oʻquv kursini oʻqitish davomida jahon mamlakatlarining, qator integrasion birlashmalarning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi oʻrni va roli toʻgʻrisida umumiy maʼlumotlar beriladi. Ushbu kursni oʻqitishda Osiyo, Afrika va Yevropa davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimida tutgan mavqeini tahlil etishga alohida eʼtibor qaratadi. Shu bilan birga magistratura talabalarida davlatni har tomonlama rivojlantirish jarayonida oʻta muhim, oʻziga xos rol oʻynovchi tashqi siyosat, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xususan xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanish mamlakatimizning chet mamlakatlar bilan oʻzaro munosabatlarini yanada mustahkamlashda va tashqi siyosatining yoʻnalishlarini belgilashda nazariy bilim va amaliy mahoratni shakllantirishdan iborat.

1-BOB. O'QUV KURSINING PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. O'quv kursiga kirish

Ma'ruza maqsadi:

- Mazkur ma'ruzani o'qitishdan ko'zlangan maqsad talabalarning zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari fani yuzasidan bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar jahon mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- usul va uslublardan foydalanish tajribasini oshirish hamda ilmiy tadqiqot ishlari, axborot-tahliliy yozishmalarni olib borish qobiliyatlarini rivojlantirish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *xalqaro hamjamiyat, konsepsiya, demokratik dunyo g'oyasi, xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, xalqaro siyosat, mojaro, raqobat, xalqaro huquq, davlat, xalqaro tashkilotlar, xalqaro nodavlat tashkilotlari, globallashuv, tendensiya, global muammolar, mintaqalashtirish, ko'p qutblilik, kuch markazlari, geosiyosiy jarayonlar, noharbiy vositalar, mintaqaviy integratsiya, global erkin savdo, "sovuq urush" davri, xalqaro tizim, aktor.*

Xalqaro munosabatlar – bu xavfsizlik, barqarorlik va rivojlanishni ta'minlash maqsadida uning sub'ektlari bo'lmish davlatlar, xalqaro tashkilotlar, xalqaro nodavlat tashkilotlar va transmilliy korporatsiyalar, firmalar, guruhlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik shakli va metodlari, siyosiy, huquqiy, harbiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalar hamda bog'liqliklar tizimidir. Bu davlat faoliyatining muhim sohasi bo'lib, busiz hozirgi sivilizatsiyani, uning rivojlanishining asosiy tendensiyalari va kelajak istiqbolini tasavvur etish qiyin. Bundan tashqari, har bir insonning hayoti u yoki bu darajada xalqaro munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida, odatda, milliy, diniy, mintaqaviy, global, shuningdek, xususiy manfaatlar xalqaro munosabatlarning predmeti bo'lib maydonga chiqmoqda. Shu bilan birga manfaatlar tizimida iqtisodiy tashkil etuvchi qism va xavfsizlik manfaatlari nufuzli o'rin tutadi. Bir qator mamlakatlarning manfaatlari jamiyatdagi hukmron qadriyatlar va mafkuraviy ko'rsatmalar bilan belgilanishi kam uchraydigan hodisa emas. Shunday davlatlar borki, ularda din bosh mavqega ega, shunga muvofiq diniy va mafkuraviy omillarning ta'siri tashqi siyosatda ancha yuqori bo'ladi.

Odatda, milliy manfaatlar to'qnashuvi natijasida davlatlar o'rtasida yuz beradigan mojarolarni hal qilish usullari va yo'llarini izlab topish hozirgi xalqaro munosabatlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Mojarolarning so'nggi ko'rinishi urush hisoblanadi. Harbiy kuch ishlatmasdan mojarolarni hal qilish xalqaro huquq va diplomatiyaning faoliyat doirasiga kiradi. Mojaroni harbiy yo'l bilan hal qilish mumkinligiga sub'ektiv va ob'ektiv omillar ta'sir qiladi. Ob'ektiv omillar ijtimoiy va siyosiy kuchlarning muayyan taqsimlanishini, ijtimoiy, harbiy-siyosiy va boshqa sharoitlarni, determinatsiyaning xususiy tizimi va voqealar rivojining tegishlicha ko'rinishini yuzaga keltirgan jahondagi mavjud vaziyatdan kelib chiqadi. Bu jarayonlar, odatda, sog'lom aql bilan boshqariladi, u barcha shart-sharoitni, vaziyatni hisobga olgan holda muammoni hal qilishning eng kam vayron qiluvchi va eng oqilona yo'lni taklif qiladi. Mojaroning salbiy hal qilishning muqobili konsensus hisoblanib, unga xalqaro-huquqiy tamoyillar va me'yorlar asosida siyosiy va diplomatik vositalar orqali erishiladi. Shu sababdan xalqaro munosabatlarda xalqaro mojaralarni hal qilish va davlatlar o'rtasida konsensusga erishishda eng muhim institutlarning roli va funksiyalariga, qaror qabul qilish mexanizmlariga katta e'tibor qaratiladi.

Mojaro ko'p hollarda davlatlar o'rtasidagi raqobat natijasi hisoblanadi. Raqobat - bir xil maqomga, bir tomonga yo'naltirilgan faoliyat sohasiga va barcha mavjud vositalar bilan ta'minlanishi zarur bo'lgan manfaatlar tizimiga ega mustaqil, suveren sub'ektlarning hammasi uchun xarakterli bo'lib, ob'ektiv hodisa sanaladi.

Davlatning faol tashqi siyosati xalqaro munosabatlar sohasida samarali raqobat kurashining asosiy vositasi hisoblanadi, uning natijaviyligi milliy manfaatlar himoyasi va bu boradagi yutuqlar darajasiga ko'ra baholanadi.

Xalqaro munosabatlar turli harakatlanuvchi kuchlar va motivlar ta'sirida rivojlanadi, ammo ular ichida davlatlar-sub'ektlar manfaatlarining mos kelishi yoki to'qnashuvi, manfaatlarni himoya qilish, ular bo'yicha kelishuvga erishish hal qiluvchi ahamiyaga ega. Har qanday davlatning tashqi siyosiy manfaatlari, maqsad va vazifalari, avvalo, milliy ehtiyojlar, manfaatlar va qadriyatlar bilan, ularni xalqaro maydonda himoyalash va ta'minlash bilan bog'liq.

Xalqaro munosabatlar o'z mohiyatiga ko'ra o'sib boruvchidir. Bu doimiy o'tish holat bo'lib, unda davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarning an'anaviy hamda yangi shakl va metodlari chatishib ketadi. Bu xalqaro munosabatlar mazmuni va xarakteriga ta'sir etish kuch markazining doimiy aralashib turishidir. Hatto jahondagi tinchliksevar mamlakatlar ushbu munosabatlarga ta'sir etishning nisbatan barqaror omili sifatida, o'z navbatida ob'ektiv jarayonlar ta'siriga uchraydi va vaqtning ma'lum bir paytida qaror topgan vaziyatni butun

dunyoda o‘z milliy manfaatlarini himoya qilishning yangi strategiyasini shakllantirish uchun asos sifatida hisobga olishga majburdir. Xalqaro munosabatlarga ta’sir etuvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar ham huddi siyosat va iqtisodiyot olamidek, manfaatlar va ehtiyojlarning tegishli tizimi kabi o‘svuchan va o‘zgaruvchandir.

2. Ko‘pqamrovli baynalminallashuv va globallashuv, davlatlar hamkorligi va birgalashib harakatlanishining turli shakllarini vujudga kelishi, xalqaro mojarolarning yangi turlari va munosabatlarning yangi sifatlari paydo bo‘lishi sharoitida turli mamlakatlar xalqaro siyosiy tizimning ko‘pqutbli joylanishida o‘z o‘rnini belgilab olmoqda.

Uchinchi mingyillik oralig‘ida xalqaro munosabatlar tizimi yoki g‘arb adabiyotida atalayotganidek, xalqaro tizim (International System) o‘z rivojlanishining sifat jihatdan yangi fazasiga kirdi. Uning hozirgi dunyoga ta’sirini inqilobiy deb tavsiflash mumkin. 1945-1990-yillarda mavjud bo‘lgan “sovuq urush” davridagi xalqaro tizim yoki Yalta-Potsdam tizimi parchalandi. Yalta-Potsdam tartibi o‘rniga keladigan yangi xalqaro tizim tub o‘zgarishlarning girdobli jarayonini boshidan kechirmoqda. 1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshini qamrab olgan vaqt davomida Sharq va G‘arb o‘rtasidagi qarama-qarshilikning tugashi, sotsialistik lagerning qulashi, SSSRning tarqab ketishi, Yevrosiyo qit‘asida o‘nlab yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi singari butunjahon-tarixiy ahamiyatga molik voqealar sodir bo‘ldi. Xalqaro tizim aktyorlarining miqdor va sifati, ular munosabatlarining modeli va o‘zini tutish qoidalari bir necha yil ichida o‘nlab yillar davom etgan “sovuq urush” davridan ko‘ra ancha chuqur o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. Dunyo tartiblilikdan ko‘ra tartibsizlik, mojarolarni tartibga solish strategiyasidan ko‘ra mojarolar bilan xarakterlanmoqda. Shunday qilib, hozirgi xalqaro tizim endilikda tamomila yangi xarakter belgilariga ega bo‘lib bormoqda:

1. Milliy davlatlar avvalgidek uning bosh aktyori hisoblanadi, hatto bu o‘rinda gap integratsiya darajasiga qaramasdan, ammo ixtiyoriylik sharti bilan davlatning turli davlatlararo mintaqaviy, mintaqalararo va global tashkilotlardagi ishtiroki haqida borayotgan bo‘lsa-da. Siyosiy hokimiyat hududiy mustaqillik (suverenitet) tamoyili asosida xalqaro huquqning boshlang‘ich sub’ektlari bo‘lib qolayotgan alohida davlatlar ixtiyorida saqlanadi. Biroq ko‘payib borayotgan global muammolarni hal qilishda ularning qurbi pasayadi. Yevropa va Osiyoning ulkan kengliklarida “real sotsializm” g‘oyasi va amaliyotining barbod bo‘lishi shunga olib keldiki, kommunistik utopiya (xayolot) o‘rnini davlat-millatni yaratish konsepsiyasi egalladi. Millat, milliy qurilish g‘oyasi qirq yoki yetmish yil davomida totalitarizm zulmi ostida qolgan jamiyatlar uchun tenglashtirish ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi. Milliy davlatchilikni shakllantirish bu jamiyatda konstruktiv (asosiy) kuch rolini o‘ynamoqda.

2. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar (XHT) kabi xalqaro nohukumat tashkilotlar (XNT) sonining ham o'sib borishi kuzatilmoqda. Xalqaro tashkilotlar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda davlatlarning o'zaro bog'liq va chatishib ketgan manfaatlarining ortishi tufayli zarur bo'lgan xalqaro tizimni boshqarishning alohida shaklini yaratadi. XT transchegaraviy, siyosiy jarayonning institutsional doirasini shakllantiradi, unda ko'psonli davlat va hamjamiyatlardan davlat va nodavlat aktyorlar ishtirok etishadi. XHT ikkilamchi va yasama bo'lsa ham, chunki ular xalqaro huquqning birlamchi sub'ektlari – davlatlar tomonidan tuzilgan, xalqaro huquqning sub'ektlari hisoblanadi. XNT xalqaro xususiy huquqning instituti hisoblanadi. Umuman, XNT siyosiy sohada davlat butkul va to'lig'icha o'ziga ololmaydigan boshqaruvning ma'lum funksiyasini o'z zimmasiga oladi.

3. Xalqaro tizimdagi qarama-qarshilik (ziddiyat) globallashtirish bilan bir vaqtning o'zida kechgan nomarkazlashtirish, mintaqalashtirish va ko'pqutblilik jarayonlarida namoyon bo'ladi. Sharq va G'arb ziddiyati konfiguratsiyasi uning bipolyarliligi bilan birga endi xalqaro tizim uchun struktura belgilovchi bo'lmay qoldi. Kuchlarning yangi mintaqaviy markazlari tashkil topdi. Eng muhim mintaqaviy davlatlar sifatida Yaponiya va Germaniya, shuningdek, Xitoy va Braziliyaning ko'tarilishida ko'pqutblilik namoyon bo'lmoqda. Mintaqaviy guruhlar va xalqaro tashkilotlar (Rossiya, Yevropa Ittifoqi, NAFTA Islom Konferensiyasi tashkiloti ASEAN va sh.k. bilan birgalikda "katta yettilik") xalqaro tizimda davlatlar bilan birga yetakchi aktyorlarga aylanmoqda.

4. Xalqaro tizimda qarama-qarshilik markazining Sharq-G'arb nisbatidan Shimol-Janub o'qiga ko'chib o'tishi, sodda qilib aytganda, boy Shimol bilan, kambag'al Janub o'rtasidagi mojaro (ixtilof) industrial va rivojlanayotgan mamlakatlar rivojining mutlaqo turlicha siyosiy, iqtisodiy va madaniy imkoniyatlariga asoslanadi. "77 lar guruhi"ga birlashgan, o'zida 120 dan ortiq davlatni qamragan rivojlanayotgan mamlakatlar katta guruhi ichida tabaqalanish jarayoni yuz bermoqda. Unda OPEKga tegishli, son jihatdan uncha ko'p bo'lmagan bir necha ancha boy va rivojlanayotgan mamlakatlar va "yangi industrial mamlakatlar" ajralmoqda. Ikkinchi tomondan, rivojlangan va rivojlanayotgan, boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi farq tobora kattalashib bormoqda. "Sovuq urush"ning tugashidan so'ng Shimol-Janub o'qidagi keskinlikning kuchayishiga ko'p jihatdan sivilizasion omillar sabab bo'lmoqda.

5. Sharq va G'arb mojarosining tugashi "kuch" tushunchasining mazmun va o'lchamida dramatik burilish yasadi. Kuchning mumtoz belgilari (davlat hududining o'lchamlari, aholisining soni, uning geosiyosiy holati, qurolli kuchlari soni va sh.k.) va davlatning hududiy mustaqilligi ko'p jihatdan endi o'z ahamiyatini yo'qota boshladi. G'arb

siyosiy fikri ilmiy muomalaga “sezilarli kuch” va “sezilmas kuch” tushunchalarni olib kirdi. “Sezilarli kuch” kategoriyasi o‘z ichiga yuqorida qayd etilgan an’anaviy kuch belgilarini oladi. “Sezilmas kuch” kategoriyasi ilmiy-texnologik baza, iqtisodiyotning sanoat va moliyaviy quvvati, valyuta, inson boyligi (kapitali), ijtimoiy xavfsizlik kafolati, davlatning siyosiy va ijtimoiy tuzilishini himoya qilishda aholining safarbarlik layoqati singari go‘yoki bir qarashda ko‘rib va sezib bo‘lmaydigan davlat qudratining belgilaridan iborat. Kuchning ushbu yangi o‘lchamlari davlatning o‘rni, maqomi va qudratini aniqlashda yanada katta ahamiyat kasb etmoqda.

6. Dunyo tizimi “turlarning ayni bir paytda bo‘lishi”, “baravar yuz berishi” bilan, ya’ni tarixiy davr va ijtimoiy makon kabi fundamental tushunchalarning ayni bir paytda mavjud bo‘lishi va bir-birining ustiga qo‘yilishi bilan duch kelmoqda. “Jahon o‘tish jamiyati”ning hali yetarlicha aniqlanmagan va pishib yetilmagan sharoitlarida, bir tomondan, davlatlararo mojarolarni mintaqaviylashuvi va markazdan uzoqlashuvi, ikkinchi tomondan, davlatlararo harbiy va davlat ichkarisidagi ijtimoiy-siyosiy mojarolarning chatishib ketishi yuz bermoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish Tashkilotiga birlashgan Yevroatlantika makonining sanoati rivoj topgan mamlakatlarida Sharq va G‘arb mojarosini bartaraf etilishi natijasida tinchlik barqaror va xavfsiz bo‘lgan bir vaqtda dunyoning boshqa mintaqalarida beqarorliklar soni keskin ortmoqda. Xalqaro munosabatlarda globallashuv jarayonlarining yonma-yon borishi va mahalliy hamjamiyatlarning saqlanishi, chatishib ketish va tabaqalanish, qismlarga ajralish (fragmentizatsiya) va markazdan uzoqlashish, yaqinlashish va begonalashish, mustaqillik va o‘zaro bog‘liqlik xalqaro tizim uchun xarakterlidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Xalqaro munosabatlarning predmeti va ob’ekti nima?
2. Xalqaro munosabatlarning asosiy sub’ektlarini sanab bering.
3. Xalqaro munosabatlar kursining siyosiy fanlar tizimidagi o‘rni.
4. Xalqaro munosabatlarning rivojlanish bosqichlari.
5. Zamonaviy xalqaro munosabatlarni shakllantiruvchi shart-sharoitlar va omillar.

Mustaqil ish savollari:

1. Siyosiy xarita yordamida Yaqin Sharq davlatlarini siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering ?
2. Globalizatsiya jarayonining ijobiy va salbiy jihatlarini sanab o‘ting?
3. Xorijiy Sharq mamlakatlarning hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o‘rganish.
4. “Xorijiy Sharq mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlar” mavzusida ma’ruza tayyorlash.

2-BOB. MINTAQAVIY INTEGRASION BIRLASHMALAR. INTEGRATSIYA TUSHUNCHASI. INTEGRASION BIRLASHMALARGA TAVSIF

2.1. Integratsiya tushunchasi: mazmun va mohiyati

Dars maqsadi:

- Mazkur ma'ruzani o'qitishdan ko'zlangan maqsad talabalarning zamonaviy xalqaro munosabatlarda integratsiya tushunchasi, integratsiya borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar jahon hamjamiyatidagi mavjud integrasion birlashmalar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *mintaqaviy integratsiya, global erkin savdo, federalizm, funksionalizm, kommunikatsiyaviy yondashuv, xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, globallashuv, tendensiya, dezintegratsiya, S. Xoffman, E. Xaas, U. Rayker, U. Fisher, neofunksionalizm.*

Hozirgi dunyoning rivoji xalqaro hamjamiyat tizimidagi olamshumul o'zgarishlar, jumladan ikki qutbli dunyoning qulashi va jahon geosiyosiy xaritasidagi o'zgarishlar bilan ifodalanishi mumkin. Bularning barchasi birgalikda davlatlar tomonidan yo'qotilgan muvozanatni kollektiv xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlikning yangi shakllari bo'lmish integratsiyaviy tashkilotlardan izlashga undadi.

Hozirgi zamon integratsiya jarayonlarining o'chog'i G'arbiy Yevropadir, bu yerda integratsiya oxirgi o'n yilliklarda eng baland nuqtaga yetdi. Shu sababli ham mavjud adabiyotlar Yevropa integratsiyasini keng yoritadi. Biz Yevropa siyosiy integratsiyasida mavjud bo'lgan yondashuvlar – federalizm, funksionalizm, kommunikatsiyaviy yondashuv va neofunksionalizmning mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz.

Xalqaro hamjamiyatning XX asr yakuni va XXI asr boshidagi rivoji dunyoning barcha mintaqalarida (Avstraliyadan tashqari) davlatlararo integratsiyaviy tuzilmalarning shakllanishi bilan izohlanishi mumkin. Hozirgi kunda suveren davlatlarni birlashtiruvchi o'ndan ortiq shu kabi birlashmalar mavjud. Vaqt o'tishi bilan davlatlarning turli sohalardagi hamkorligi ular o'rtasida mavjud bo'lgan yondashuvlarning yaqinlashuviga va bu oxir-oqibat ular o'rtasida kamida mintaqaviy tuzilmalarning shakllanishiga olib keladi. Bu hol esa integratsiyaviy tuzilma hisoblanmish siyosiy va ilmiy fenomenni atroflicha o'rganishni

taqozo etadi. Bunday ilmiy izlanuv har qanday holda ham Markaziy Osiyo va O'zbekiston manfaatlari nuqtai nazaridan amalga oshirilishi lozim.

Mazkur muammoni o'rganish bilan jahon iqtisodiyoti, shuningdek boshqa fanlar sohasidagi ko'plab olim va mutaxassislar shug'ullanganlar. Nazariyotchilar tadqiqotlarning bosh ob'ekti sifatida ko'plab xilma-xil integrasion qarash va nazariyalar rivojlanishi uchun boshlang'ich nuqtaga aylangan Yevropa mintaqaviy integrasion jarayonini tanlaganlar.

Bu paragrafda G'arb olimlari ishlab chiqqan integratsiya haqidagi nazariyalar ko'rib chiqiladi va qiyosiy tahlil qilinadi, shuningdek ularning Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan integratsiya jarayonlariga qo'llanish imkoniyati o'rganiladi. Afsuski, ushbu tadqiqot hajmi bu sohadagi barcha ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlarini to'liq tahlil qilishga imkon bermaydi, shu bois o'tgan asrning 50–70-yillarida shakllangan va asosiy mavzui Yevropa ittifoqini yaratish va chuqurlashtirish muammosi bo'lgan asosiy klassik konsepsiyalar bilan cheklanamiz.

Ta'kidlash lozimki, «integratsiya» tushunchasining o'zi (lotincha «integrare» – «butunga aylantirish», «integer» – «butun», «integratio» – «tiklash», «yaxlit narsani to'ldirish») nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Mashhur amerikalik iqtisodchi F. Maxlup ushbu terminning kelib chiqish tarixini kuzatishga urinib, u 1942-yildan avval paydo bo'lmaganligini, ammo xalqaro iqtisodiy munosabatlar – xalqaro savdo, kapitallar harakati, moliyaviy soha kabilarda tezda foydalanila boshlaganligini aniqladi.

«Integratsiya» umumlashma tushunchasi quyidagicha ifodalanishi mumkin: bu jamiyat, davlat tuzilmalarining davlat doirasida yoki kengroq davlatlararo jamoaga birlashishi, qo'shilishidir. Davlatlararo integratsiya hokimiyatning yangi institutlarini tashkil qilish va ularga milliy organlar huquqlarining bir qismini berish orqali yuz beradi.

Turli tadqiqotchilarning integratsiya nazariyalari integratsiya jarayonining mazmuni va shakllarini o'ziga xos talqin etishi bilan o'zaro farqlanadi. Yevropa tarixida Yevropa davlatlarini birlashtirish g'oyasiga asoslangan ko'plab turli-tuman loyihalar topiladi. Turli asrlarda va turli maqsadlar qo'yib, jamoatchilik oldida integratsiya loyihalarini ilgari surgan arboblardan orasida Fransiya qiroli Go'zal Filippning legisti Per Dyubua (XIV asr), Chexiya qiroli Irji Podebrad (XV asr), Genrix IX ning maslahatchisi gersog Syulli (XVI asr), mashhur ingliz kvakeri Uilyam Penn (XVII asr), publisist va anarxosindikalizm mafkurachisi Per-Jozef Prudon va «Yevropa Qo'shma Shtatlari» shiorini birinchi bo'lib ilgari surgan yozuvchi Viktor Gyugo, 1922-yildayoq «pan-Yevropa» g'oyasi bilan chiqqan Avstriya grafi R. N. Kudenxove-Kalergi hamda bu g'oyani amalga oshirishga uringan Fransiya bosh vaziri Aristid Brian kabilarni keltirish mumkin.

Biroq Yevropa mamlakatlarini birlashtirish jarayoniga oid ushbu tadqiqotchilarning barcha xilma-xil takliflari Ikkinchi jahon urushi oxirida Yevropa mintaqada joylashgan davlatlarni birlashtirish rejalarining amalga oshishiga ob'ektiv ravishda imkon bergan vaziyatda qolgan Ikkinchi jahon urushining oxirigacha hayotga amalda siyosiy joriy etishni talab qilmay faqat nazariy shaklda bayon etilganicha qolgan edi. Yevropaliklarning milliy suverenitetga ustuvorlik bergan davlat-millatlardan ko'ngli qolishi Umumiy Yevropaning tashkil qilinishiga asosiy turtki bo'ldi. Milliy davlatlarga nisbatan salbiy munosabat asosan millionlab odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan Birinchi jahon urushi tufayli yuzaga kelgan edi. Aynan shu kayfiyatlar Yevropa davlatlarini birlashtirish loyihalari paydo bo'lishiga olib keldi. Bu loyihalar integratsiyaga oid ilmiy maktablar yuzaga kelishi bilan mustahkamlandi. Ushbu maktablar aslida yangi dunyoviy tartib o'rnatilishi zarurligining, shuningdek Yevropa va xalqaro hamjamiyatni rivojlantirishning urushni inkor etuvchi va tinchlikka da'vat qiluvchi ancha oqilona yo'lga ehtiyoj mavjudligining dalili bo'lgan turli model va nazariyalarni ishlab chiqdilar.

Agar integratsiyaga oid nazariy tafakkurning shakllanishi va rivojlanishida sezilarli ahamiyatga ega bo'lgan nazariy yo'nalishlarni xronologik tartibda qo'yib chiqadigan bo'lsak, birinchi o'rinni G'arbiy Yevropada Federativ Ittifoq tashkil qilish tarafdorlarini birlashtiruvchi hamda Yevropa integratsiya jarayonini tadqiq etish va tahlil qilishga eng ko'p darajadagi siyosiy yondashuv bo'lgan federalizm birinchi o'rinni egallaydi.

Mazkur konsepsiya vakillari Yevropa birlashuvini amalga oshirish g'oyasida federal prinsipdan foydalanganlar. Bu prinsip «hokimiyat tarmoqlarini umumiy (markaziy) va mintaqaviy (mahalliy) hukumatlar har bir alohida sohada muvofiqlashgan va mustaqil bo'ladigan tarzda taqsimlash usuli» sifatida ta'riflanadi. Boshqacha aytganda, hududiy birliklar, federalistlar fikricha, markaziy hokimiyat idoralariga o'z vakolatlarning bir qismini beradilar, ayni vaqtda o'zlarining yaxlitligi va muayyan darajadagi muxtoriyatini saqlab qoladilar. Bunda yangi birlashgan Yevropaning davlatlararo organlari vakolatlari alohida davlatlarning vakolatlaridan keng bo'lishi mumkin emas. Buning oqibatida E. Uistrich «Federalizmning mohiyati barcha zarur joylarda nomarkazlashtirish (desentralizatsiya)dan iborat» deb hisoblagan. Shu o'rinda «barcha zarur joylarda» prinsipi bo'yicha bunday nomarkazlashtirish, aslida, Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi Maastrixt shartnomasining asosiy qoidalaridan bo'lgan subsidiarlik prinsipining mazmunini tashkil qiladi.

Shunisi e'tiborliki, federalistlar Yevropaning birlashuvi jarayoni inqilobiy xususiyatga ega emasligiga ishonar va uni tadrijiy, ilgarilama rivojlantirish zarurligini e'tirof etardilar. O'z vaqtida G'arbiy Yevropalik mashhur arbob, Yevropa Ittifoqi doirasida davlatlararo integratsiyaning faol kurashchisi J. Monne ta'kidlaganidek, «...Yevropa ittifoqi ham, iqtisodiy integratsiya ham bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Kunlardan bir kun bu jarayon bizni Yevropa Federatsiyasiga olib keladi...». Shu bilan birga, bu ittifoq davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar sohasi bilan cheklanib qolishi mumkin emas, holbuki siyosiy integratsiyasiz, federalistlar fikricha, umuman haqiqiy integratsiya bo'la olmaydi.

Davlatdan ustun turadigan federativ davlat g'oyasining afzalliklariga qaramay, barcha federalistik loyihalar Ikkinchi jahon urushi tugamagunicha loyihadan nari o'tmadi. Urushlar o'rtasidagi davrda «Birlashgan Yevropa» to'g'risidagi mulohazalar mavhum-nazariy xususiyatga ega edi va umuman olganda, sof shior xususiyatiga ega bayonotligicha qolib keldi. Buni o'sha vaqtda Yevropa birlashuvi amaldagi siyosiy voqelikka mos kelishidan hali juda uzoq ekanligi bilan izohlash mumkin. Buning ustiga, federalizm u yoki bu davlat manfaatlarini, uning tashqi siyosiy strategiyasi kabi siyosiy muhim kategoriyalarni inobatga olmas edi. Amalda esa integratsiyaviy birlashuvda ishtirok etuvchi har bir davlat mavhum umumiy maqtashlar uchun yon bermay o'z manfaatlarini ko'p yoki oz darajada izchil himoyalashga harakat qilardi.

Federalistik qoidalarning haqiqiy hayotdan uzilib qolishi integratsiyani o'rganishning federalizmdan mutlaqo farq qiladigan yangi konsepsiyalari paydo bo'lishiga olib keldi.

Milliy davlatning buzg'unchi xususiyatiga qarshi chiqqan, ammo federalistik yondashuvdan ancha farq qiluvchi ikkinchi yo'nalish funksionalizm nazariyasi edi. Bu nazariya klassik ko'rinishda D. Mitraning asarlarida o'z ifodasini topdi. Olim buning uchun, federalistlar qilganidek, Yevropa davlatlari o'rtasidagi mojarolarni tugatish usullarini topishga intildi hamda buning uchun xalqaro hamjamiyat tizimining ideal shaklini izlash emas, balki u bajarishi kerak bo'lgan funksiyalarni ochib berish kerak, deb hisoblardi.

Shunday qilib, D. Mitraning fikricha, bir necha o'n yillar mobaynida shakllangan xalqaro munosabatlar tizimi haqidagi tasavvurlarni o'zgartirish va yangilash hamda buning o'rniga pirovard maqsadi yalpi jahon birligi bo'lgan «funksional muqobillik»ni taklif etdi. Mazkur nazariya Yevropa davlatlarining yaqinlashuviga olib kelgan amaliy harakatlarda o'z ifodasini topdi.

Funksionalizmning asosiy qoidalaridan biri shundaki, millatlar o'rtasidagi integratsiya iloji boricha nosiyosiy bo'lmog'i kerak, davlatlarning samarali hamkorligi va to'qnashuvlarga yo'l qo'ymasligiga esa birinchi navbatda integratsiyaviy tuzilmaning barcha ishtirokchilari uchun umumiy bo'lgan farovonlik masalalarini hal qilishda sa'y-harakatlarni kelishib olish orqali erishilmog'i kerak. Funksionalizm nazariyasiga binoan, integratsiya jarayonlarining rivojlanishi bevosita davlatlarning o'zlarida namoyon bo'ladigan muayyan vakolatlariga ega funksional tashkilotlar paydo bo'lishiga olib keladi. Integratsiyaning oxirgi mahsuli «elementlari umumiy siyosiy ustqurmasiz ishlay boshlashi mumkin bo'lgan funksional tizim...» bo'ladi. Funksionalizm vakillari xalqaro integratsiyaga an'anaviy davlatlararo hamkorlik tizimidan muayyan funksional hamjamiyatga asta-sekin o'tish, suveren davlatlar hokimiyat vakolatlarini tashkil etilayotgan va funksional samaradorlikka ega bo'lgan, davlatdan ustun turuvchi tuzilmalarga berish jarayoni sifatidagi xalqaro integratsiya deb qaraydilar.

Funksionalizm tarafdorlari o'zlarining integratsiya jarayoni haqidagi mulohazalarida inson hamda uning ehtiyoj va manfaatlari ustuvorligi qoidasidan kelib chiqqanlar. Bu manfaatlar, ularning fikricha, har qanday millat-davlatdan ustun turadi. D.Mitrani internasional (baynalmilal) tashkilotlar insonning ayrim ehtiyojlarini milliy davlatlarga qaraganda yaxshiroq qondira olishi mumkinligiga ishongan. Binobarin, odamlar o'z ehtiyojlarini oqilona belgilamoqlari hamda ushbu ehtiyojlarni qondirish funksiyasi ishonib topshirilgan va ularni bajara oladigan institutlarni tashkil etishga ijodiy yondashmoqlari kerak.

D.Mitranining fundamental g'oyalaridan ayrimlari keyinchalik jiddiy o'zgarishlarga uchradi va xalqaro integratsiyaga oid eng obro'li nazariyalardan biri bo'lmish neofunksionalizmning asosini tashkil etdi. Bu nazariyaga keyinroq batafsil to'xtalamiz.

Fanda o'ziga xos kommunikatsiyaviy yondashuv, yoki «xavfsizlik hamjamiyatlari» nazariyasi ancha rivojlangan bo'lib, uni amerikalik siyosatshunos K.Doych ilgari surgan. Bu nazariya hozirgi zamon xalqaro munosabatlarining rivojlanishidagi eng muhim qonuniyatlarini ochib bergan. Mazkur munosabatlar bo'lmaganida Yevropa integratsiyasini nazariy jihatdan tadqiq etish mumkin bo'lmagan bo'lardi. Shu bois biz uni batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Ushbu konsepsiya kommunikatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi va unda ijtimoiy kommunikatsiyalar (aloqalar) ijtimoiy rivojlanish jarayonida milliy davlatga aylanuvchi (evolyusiyalanuvchi) mahalliy jamoalarga asos bo'ladigan o'ziga xos g'ishtchalar hisoblanishi ta'kidlanadi.

K. Doych davlat ichidagi o‘zaro munosabatlar hamda xalqaro sohadagi hamkorlik o‘rtasida o‘ziga xos o‘xshashlik o‘tkazadi. Bunda davlatlar shunday «xavfsizlik hamjamiyati»ni tuzadilarki, ular «o‘zaro integratsiyaning katta darajasiga erishgan va muayyan hamjamiyat (birlik) zarurligini anglagan bir guruh davlatlar» bo‘ladi. Bunday hamjamiyat doirasida davlatlar urush yuzaga kelishi xavfini nolga tenglashtirishga harakat qiladilar, buning uchun o‘z kelishmovchiliklarini hal qilishning boshqa yo‘llarini qidiradilar va bu bilan hamjamiyat a‘zolarining «tinchtotuv yashashini» ta‘minlaydilar.

Davlatlararo integratsiya, mazkur yo‘nalish vakillarining fikricha, – ko‘p vektorli, ko‘p jihatli jarayon bo‘lib, uni har tomonlama o‘rganish uchun bilishning yetarlicha ko‘p usul va vositalarini qo‘llash lozim. Shu sababli, K.Doych davlatlar integratsiya tashabbuslarini amalga oshirishlari darajasini aniqlash, u yoki bu sohada ular hamkorligining amalga oshish tezligini, shuningdek ularning bu yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlarini faollashtirishga xalal berayotgan to‘siqlarni aniqlash maqsadida muayyan mezonlar tizimi kiritishni taklif qildi.

K. Doych integratsiyaviy evolyusiyaning manbai deganda individual xatti-harakatning pragmatik determinantlashganligini tushunadi. «Odamlar, – deb yozadi K.Doych, – ertami kechmi iqtisodiyot va siyosatning raqobatli o‘yinida agar koalisiya (uyushma) tuzsalar o‘z manfaatlarini yaxshiroq himoya qila olishlarini tushunib yetadilar... Siyosat va iqtisodiyotda bunday koalisiyalar ko‘p jihatdan ijtimoiy kommunikatsiyalar va madaniyatga, shaxsning tuzilishiga, ishtirokchilarning kommunikasion odatlariga bog‘liq bo‘ladi». Kommunikasion nazariya tarafdorlarining fikrlaricha, diplomatik va savdo aloqalarining yaqinroq bo‘lishi «hamjamiyat va ishonch hissini» kuchaytiradi.

K.Doych ishtirok etuvchi birliklar ichida va orasida «xavfsizlik hamjamiyati»ni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan quyidagi asosiy ilk ijtimoiy-iqtisodiy omillarni keltiradi. Ularning dastlabki to‘rttasi transmilliy hamjamiyat shakllanishini osonlashtiruvchi yordamchi xususiyatga ega, ammo majburiy emas: dastlabki sulolaviy yoki ma‘muriy ittifoqning mavjudligi; etnik yoki lingvistik assimilyatsiya; chambarchas iqtisodiy aloqalar; tashqi harbiy tahdid; siyosiy xatti-harakatga aloqasi bo‘lgan asosiy qadriyatlarning o‘zaro mosligi; hamjamiyat ishtirokchilariga xos bo‘lgan turmush tarzi; ancha yaqin va foydali iqtisodiy aloqalar o‘rnatilishi va muayyan yutuqlarga ega bo‘lishni kutish; loqal ayrim ishtirokchi birliklarning siyosiy va ma‘muriy sohalardagi imkoniyatlarning chuqurlashuvi; loqal bir qator ishtirokchi birliklarda (qo‘shni hududlarga nisbatan, istiqbolli integratsiya sohasidan tashqarida)

ancha yuksak darajadagi iqtisodiy rivojlanish; birlashishi lozim boʻlgan hududlar va ular ichidagi jamiyatning asosiy ijtimoiy qatlamlari oʻrtasida muhim uzluksiz ijtimoiy kommunikatsiya oqimlarining mavjudligi, ularning ayirboshlanishi va integratsiyalanuvchi birliklar oʻrtasida teng (muvozanatlashgan) taqsimlanishi; loqal bir qator siyosiy birliklar ichida siyosiy elitaning kengayishi; shaxslarning nisbatan yuqori darajadagi (geografik va ijtimoiy) harakatchanligi, loqal siyosiy sohaga aloqasi boʻlgan qatlamlar orasida, oʻzaro kommunikatsiya va oʻzaro taʼsirlar yoʻnalishlarining koʻpligi; kommunikatsiyalar va oʻzaro aloqalar jarayonidagi umumiy qoidalar; ishtirok etuvchi birliklar orasida guruhlar rollarining almashuvi; xatti-harakatni (ishtirokchilarning qanday ish tutishini) taxmin (bashorat) qilish mumkinligi.

Ayni vaqtda integratsiyaning jarayon sifatidagi baʼzi oʻziga xos sifat jihatlari ham taʼkidlanadi. Ularning boʻlmasligi, Doych fikricha, muvaffaqiyatli rivojlanish imkoniyatlarini ancha kamaytiradi:

– vaqt omiliga katta ahamiyat beriladi: integratsiya jarayonining ishtirokchilari integratsiyada ishtirok etish tufayli zimmalaridagi yukni sezishlaridan avvalroq haqiqiy foyda olgan taqdirdagina integratsiya jarayonini [muvaffaqiyatli] deb hisoblash mumkin;

– integratsiya jarayoni aksariyat hollarda integrasion birlashmaning qolgan aʼzolariga nisbatan rivojlanganroq yohud kuchliroq bir yoki bir necha siyosiy birlikdan iborat “kuch markazi” atrofida tashkil etiladi va muvaffaqiyatli rivojlanadi;

– integratsiya jarayoniga ishtirokchilar oʻrtasida urushlarni psixologik jihatdan qabul qilmaslikning chuqurlashuvi xos boʻlib, yanada muhimrogʻi, «harbiy harakatlarga tayyorgarlikni institusionallashtirishga va urushni qonuniy asoslangan deb hisoblashga tayyorlikning pasayishi» xosdir;

– integratsiya rivojlanishi bilan siyosiy partiyalar, diniy, iqtisodiy manfaatlar guruhlarini kabilar oʻrtasidagi davlat ichki ajralishi (ichki milliy ajralish) oʻzining ichki milliy xususiyatini yoʻqotadi va borgan sari transmilliy xususiyat kasb etadi;

– ilgari integratsiyaviy birlashmaning muvaffaqiyati koʻp jihatdan asosiy siyosiy partiya yoki fraksiyalarning muayyan yangi gʻoya, shior, umummintaqaviy xususiyatga ega rejalarni maydonga olib chiqishlari bilan belgilangan.

K. Doych oʻz tadqiqotida muhit sharoitining noqulayligi oqibatida yuzaga keladigan omillarni ham keltiradiki, ularda xavfsizlik hamjamiyatini tashkil qilish uchun talab etiladigan barcha sharoitlar boʻlgan taqdirda ham teskari dezintegratsiya jarayoniga olib kelishi

mumkin bo'lgan integratsiya rivojlanadi. Dezintegratsiyaviy sharoitlarning ikki guruhi farqlanadi:

1) integratsiya ishtirokchilariga yuklatiladigan vazifa ko'payishiga olib keluvchi shartlar;

2) ishtirokchilarning vazifani bajara olish qobiliyatini pasaytiruvchi shart-sharoitlar.

Albatta, shunday ijobiy natijalarga qaramay, integratsiyaga kommunikatsiyaviy yondashuv ba'zi kamchiliklarga ham ega bo'lgan. Uni S. Xoffman, R. Inqlart, K. Fridrix, E. Xaas, U. Rayker, U. Fisher kabi tadqiqotchilar tanqid qilganlar.

*Birinchi*dan, K. Doych konsepsiyasining muammolariga u davlatlarning hokimiyat vakolatlari qay tariqa qayta qurilishi mumkinligini tushuntirmasligini kiritish mumkin.

*Ikkinchi*dan, mazkur metodning jiddiy kamchiliklaridan biri uning ijtimoiy kommunikatsiyalar o'sishi odamlar ongiga o'z-o'zidan ta'sir ko'rsatishini ta'kidlashidir. Biroq ob'ektiv ijtimoiy rivojlanish ziddiyatli xususiyatga ega bo'lib, ham markazga intiluvchi, ham markazdan qochuvchi tamoyillarni namoyon eta oladi.

*Uchinchi*dan, integratsiya xususiyati va sur'atlariga jiddiy ta'sir ko'rsatuvchi ko'pgina muhim omillar kommunikatsiyaviy yondashuvdan tashqarida qolgan.

Bundan tashqari, mazkur nazariya vakillari bir necha asrlar ilgari mavjud bo'lgan voqealarni tahlil qilish asosida chiqarilgan xulosalarni qo'llaganlarki, ularni hozirgi sharoitda korrelyatsiyadan foydalanmay turib qo'llab bo'lmaydi, bu mutlaqo mumkin emas va olingan natijalarning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Neofunksionalistik tahlil siyosiy integratsiyani nazariy o'rganishdagi yetakchi yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ko'pchilik hatto Yevropa integratsiyasining bugungi rivojlanishini neofunksionalistlar ishlab chiqqan strategiyaga muvofiq, Yevropa Ittifoqining o'zini esa mazkur konsepsiyaning asosiy qoidalarini tekshirish uchun deyarli ideal laboratoriya deb hisoblaydi.

Neofunksionalizmning yaratuvchisi va eng buyuk vakili E. Xaasdir. U funksionalizmning ayrim asosiy qoidalaridan foydalanib, global darajaga emas, balki mintaqaviy darajaga qo'llagan holda o'z konsepsiyasini ishlab chiqishga uringan.

Xaas o'zining «Yevropaning birlashuvi: siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy kuchlar» kitobida siyosiy integratsiyaga quyidagicha ta'rif beradi: «Bu – bir qancha milliy tizimlar siyosiy hayotining ishtirokchilari o'z loyalligi, maqsadlari va siyosiy faoliyatini yangi markaz tomon yo'naltirishga moyil bo'lgan, institutlari mavjud milliy davlatlarga taalluqli yurisdiksiyaga ega

bo'lgan yoki bunga da'vo qiladigan jarayon». Shunday qilib, siyosiy integratsiya o'z o'lchamlari bo'yicha milliy davlatdan ustun turadigan siyosiy hamjamiyatning shakllanishiga olib boruvchi jarayon sifatida ta'riflanadi. Bu jarayonning o'ziga xos jihati uning markaziy institutlariga nisbatan loyallikning mavjudligidir.

E.Xaas keyinroq F.Shmitter bilan birgalikda yozgan asarida siyosiy integratsiya deganda milliy maydonda faoliyat ko'rsatuvchi ishtirokchilari (hukumat amaldorlari, «manfaat guruhlarning» vakillari, siyosiy arboblari, shuningdek oddiy fuqarolar)dan iborat bo'lgan hamda o'zlarini va kelajakdagi farovonligini o'z milliy hukumati va uning siyosati bilan birday hisoblamaydigan, borgan sari ko'proq darajada davlatdan ustun turadigan birlashmaga qarab mo'ljallanadigan integratsiya jarayonini tushunadi.

Neofunksionalistik tahlilga loyallik dualizmi xos bo'lib, u davlatdan yuqori turadigan tashkilotga nisbatan loyallik hamda milliy-davlat markazlariga nisbatan loyallikning parallelligida ko'rinadi. Ikki tomonlama loyallik to'g'risidagi ushbu qoida pirovard natijada integratsiyaning eng keskin muammolaridan biri bo'lmish integratsiya jarayonida milliylik (davlatga oidlik) va milliylikdan (davlatdan) ustunlikning nisbati muammosiga olib keladi.

Shundan kelib chiqib, E. Xaas ob'ektiv voqelikni inobatga oluvchi odatdagi siyosiy maqsadga muvofiqlikka oid fikrlarida quyidagi xulosaga keladi: integratsiya jarayonlarining rivojlanishi Yevropaning o'zligini saqlab qolish haqidagi shiorlarga ega bo'lgan «Yevropa g'oyasi» tufayli emas, «Yevropaning buyukligi», «Yevropa sivilizatsiyasi»ning tarixiy missiyasi haqidagi mavhum mushohada oqibatida ham emas, balki muayyan ijtimoiy-siyosiy guruhlarning birlashishdan amalda manfaatdorligi, pragmatik xatti-harakati tufayli yuz bermoqda.

Bunday natija amalda ilmiy neofunksionalistik tafakkurni integratsiya jarayonida iqtisodiyot rolining muhimligini tan olishga undaydi. Ishtirokchilar manfaatlarining pragmatiklashuvi haqidagi qoidani kengaytirish siyosatni «kichik» va «katta» siyosatga ajratishga olib keladi. Ulardan birinchisi iqtisodiy o'sishni yuksaltirish zarurati bilan bog'lansa, ikkinchisi esa, obro', milliy nafsoniyat va shu kabilar uchun sodir etiladigan harakatlarga asoslanadi. Bu yerda yana neofunksionalizmning o'ziga xos jihatiga aylanayotgan va ushbu muayyan vaziyatda muhim nazariy muammolardan biri – iqtisodiy va siyosiy integratsiyaning o'zaro nisbati haqidagi, siyosatlarining qaysi biri – kichik yoki kattasi – ustuvor ekanligi, kattaroq ahamiyatga egaligi haqidagi masalani hal qilishdan iborat dualizm ko'zga tashlanadi.

E.Xaas va uning tarafdorlari iqtisodiy integratsiyaning rivojlanishida siyosiy tagma'no borligining dalillariga ega bo'lish uchun «tovlanish» (spill-over) tushunchasini kiritadilar. L. Lindberg fikricha, mazkur hodisa «muayyan maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan ushbu harakat dastlab qo'yilgan maqsadga erishilishi faqat yangi harakatlarni qabul qilish orqali ta'minlanadigan, bu harakatlar esa, o'z navbatida, faolroq harakat uchun yangi sharoit va zaruratni yuzaga keltiradigan vaziyatning yaratilishiga olib kelgan» holda mavjud bo'ladi va sh.k. Shunday qilib, integratsiya mantig'iga kengayish, qamrab olish va yangi sohalarga tatbiq etish, ijtimoiy tuzumning yanada kengroq sohalariga kirishga intilish xosdir.

«Tovlanish» konsepsiyasi, jumladan, neofunksionalistlar tomonidan integratsiyaning iqtisodiy zanjirini nazariy tarzda izohlash maqsadida foydalanilgan: masalan, erkin savdo zonasining bojxona ittifoqiga, so'ngra – umumiy bozorga, shundan keyin – iqtisodiy va valyuta ittifoqiga o'tishi. Buning ustiga, ushbu nazariya tarafdorlari iqtisodiy integratsiyani ilgarilama rivojlantirish, har qanday shubhasiz, institusional o'zgarishlarga olib keladi va siyosiy integratsiyani yangi darajaga ko'taradi, deb ta'kidlaganlar.

Shunday qilib, «tovlanish» mantig'ining mohiyati iqtisodiy va siyosiy integratsiyaning uzviy birligini isbotlash hamda iqtisodiy ittifoq muqarrar ravishda siyosiy ittifoqqa o'tishini ko'rsatishdan iborat.

Shunday qilib, barcha mavjud nazariya va ta'limotlar integratsiyaning mohiyati va elementlariga o'z yondashuvlarini e'lon qiladilar. Ayrimlar integratsiyada siyosatning, boshqalar esa iqtisodiyotning birlamchiligini e'lon qiladilar.

2.2. Mintaqaviy integrasion birlashmalarning asosiy turlari

Dars maqsadi:

- Mazkur ma'ruzani o'qitishdan ko'zlangan maqsad talabalarning zamonaviy xalqaro munosabatlarda integratsiya tushunchasi, integratsiya borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar jahon hamjamiyatidagi mavjud integrasion birlashmalar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatishdan iborat.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *xalqaro munosabatlar, jahon siyosati, globalashuv, tendensiya, mintaqaviy integratsiya, global erkin savdo, dezintegratsiya, S. Xoffman, E. Xaas, U. Rayker, U. Fisher,*

federalizm, funksionalizm, kommunikatsiyaviy yondashuv, neofunksionalizm.

Integratsiya milliy iqtisodiyotlarning sifat jihatidan yangi sharoitlarga ega bo'lishi va mamlakat taraqqiyoti imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, ixtiyoriy ravishda birlashish, bir-birlariga o'zaro ta'sir etishi jarayonidir. Integratsiya hamkorlik, iqtisodiy siyosatda ustuvor yo'nalish deb, ishlab chiqarish rivojlanishini belgilagan mamlakatlar o'rtasida, asosan, ishlab chiqarish sohasida yuz beradi va bu jarayonni amalga oshirish maqsadida mamlakatlar qator chora-tadbirlarni qo'llaydilar. Mazkur borada Yevropa Iqtisodiy Hamkorligi - Yevropa Ittifoqi namuna bo'lib xizmat qiladi. Uning integratsiya sohasidagi tajribasini boshqa mintaqalarda ham qo'llash mumkin.

Hozirgi paytda dunyodagi ko'plab integratsiya assotsiatsiyalari Yel tajribasiga amal qilgan holda integratsiyaning besh pog'onasiga asoslanib ish olib bormoqdalar. Endilikda faqat pog'onali integratsiya modeliga asoslangan erkin savdo mintaqalari (Lotin Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi) yoki (G'arbiy Afrika bojxona ittifoqi va Markaziy Afrika iqtisodiy-bojxona ittifoqi) bilan bir qatorda iqtisodiy ittifoqlar ham tashkil etila boshladi (EKOVAS-1975-y.).

Umuman Integrasion jarayon bu - globalizatsiyaning davomi bo'lib, shuni eslatib o'tish kerakki, bu jarayon bir nechta qatnashchi davlatlarni birlashtiradi. Nodavlat aktorlar esa odatda integrasion jarayonlarning ishtirokchisiga aylana olmaydilar va pereferyada qoladilar. Bu jarayonda u yoki bu mamlakat davlatlararo bitimni imzolagandan keyin integratsiya qatnashchisiga aylanadi.

Integratsiyaning ahamiyatli tomonlari shundan iboratki, bu jarayonda davlatlar o'rtasida turli sohalarda, turli shakllarda hamkorliklar amalga oshiriladi. P.A. Sigankovning tadqiqotlariga ko'ra integratsiyaning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- Siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy (ya'ni predmetiga ko'ra);
- Global, mintaqaviy, submintaqaviy integratsiya (geografik joylashuviga ko'ra);

Shu bilan birga boshqa bir muallif K.Voronov shuni takidlaydiki, hamkorlik va integratsiya jarayon ishtirokchilari soni ortishi bilan "kengayishi" va shu bilan birga shu ishtirokchilarning turli sohalarda olib borayotgan o'zaro hamkorliklari natijasida "chuqurlashishi" mumkin.

Davlatlararo hamkorlik amaliyoti anchadan buyon mavjud. Lekin XX asrning ikkinchi yarmidan davlatlararo hamkorlik keng ko'lamda doimiy shaklga ega bo'la boshladi. Bu hamkorlikning intensivligi, uning sohaslarini kengayishi va integrasion jarayonlarning rivojlanishi bilan

bog‘liq. Bularning barchasi davlatlararo institutlarni vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun integratsiyani xarakterlaydigan muhim jihatlardan biri bu davlatlararo o‘zaro munosabatlar mexanizmi boshqa so‘z bilan aytganda hamkorlikni institutlashtirish yaratildi. Bu borada integratsiya birinchi navbatda davlatlararo mexanizmlarni shakllantirish maqsadida qarorlar qabul qilinadigan hukumatlararo uyushma bilan bog‘liq. Integrasion jarayonlar birgalikdagi institusional harakatlar orqali amalga oshiriladi. Ikkinchidan integratsiyaga ikki hil yondashish mumkin: birinchisi “jarayon” sifatida, ikkinchisi “davlatlarning o‘zaro munosabatlari natijasi” sifatida qarash mumkin.

Nima mamlakatlarni integratsiyaga jalb etadi? Birinchi navbatda umumiy muammolarning mavjudligi, ya’ni birgalikda harakat qilinsa yechilishi oson kechadigan muammolarning mavjudligi.

XX asrning oxiri XXI asrning boshida dunyoning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi xalqaro aloqalarning kuchayishiga, ayniqsa iqtisodiy sohada dunyoning uzviy bog‘liqligiga olib keldi va buning natijasida integrasion jarayonlar va turli hukumatlararo uyushmalar paydo bo‘ldi.

Mamlakatlarning integrasion jarayonlarga bo‘lgan qiziqishining yana bir sababi, “katta” va “kichik” mamlakatlarning manfaatlari, ya’ni mamlakatlararo ta’siri ortdi. Bu mamlakatlar uchun davlatlararo jarayonlarga yolg‘iz ta’sir etishdan ko‘ra birlashgan holda ta’sir ko‘rsatish osonroqdir. Masalan, tadqiqotchi Yu.A. Borkoning ko‘rsatishicha Yevropa hamjamiyatining boshlang‘ich bosqichida 3 ta “kichik” va 3 ta “katta” davlat bo‘lsa, 1973-yilda 5 ta “kichik” va 4 ta “katta”, 1980-yilga kelib 8 ta va 4 ta, 1990-yilda esa 11 ta “kichik” va 4 ta “katta” davlat. Ko‘rinib turibdiki ulardan 11 tasi “kichik” davlat hisoblanadi. Davlatlar xalqaro tashkilotlarga qo‘shilayotganda rasman bir qator funksiyalarini yo‘qotadi va shu bilan birga boshqa bir qator qo‘shimcha funksiyalarga ega bo‘ladi. Bu funksiyalar “kichik” davlatlar uchun juda muhim hisoblanadi.

Nazariy jihatdan integrasion jarayonlar XX asrning o‘rtalaridan ko‘zga tashlana boshladi va bir necha nazariy maktablar-funksionalizm / neofunksionalizm va federalizmni tanqidiga uchradi.

Funksionalizm maktabi otasi bo‘lmish Devid Mitrani 1943-yilda “Dunyo va xalqaro tashkilotlarning funksional rivoji” nomli asarini chop ettirdi. Bu asarda Millatlar Ligasi tashkiloti nima sababdan parchalangani tahlil qilingan va integrasion jarayonlarni siyosiy sohadan boshlamalik kerakligi haqida xulosalar keltirilgan. Chunki bunday holatda har qanday davlat ham o‘z suverenitetidan tashvishga tushadi. D.Mitrani integrasion jarayonlarni iqtisodiy, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy sohalardan boshlashga e’tiborini qaratadi, siyosiy integratsiya esa rejaning keyingi bosqichlarida amalga oshiriladi.

Bugungi kunga qadar iqtisodiy integratsiya jarayoni ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'rganib chiqildi va bu jarayon quyidagi qat'iy bir necha pog'onadan iboratligi ta'kidlandi:

1. Erkin savdo mintaqasini yaratish va bu mintaqada qatnashchi davlatlar bojxona to'siqlarini va savdodagi miqdoriy cheklovlarni olib tashlaydilar.

2. Bojxona ittifoqini rivojlantirish. Bu bosqichda tovarlar va xizmatlar yagona bojxona tarifi bo'yicha harakatlanadi.

3. Uchinchi bosqich umumiy bozorni shakllantirishdan iborat bo'lib, bu bosqichda davlatlararo to'siqlar tugatilishi, nafaqat o'zaro savdo balki, ishchi kuchi va kapital ham bemalol harakatlanishi nazarda tutiladi. Bu bosqichda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari va yo'nalishlarini rivojlantirish siyosati integratsiyaning barcha ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqiladi. Shu bilan birga umumiy fondler shakllana boshlaydi va bu fondlar integrasion birlashmaning qoloqroq qismlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

4. Iqtisodiy va valyuta ittifoqini tashkil qilish va yagona valyutani yaratish.

5. Oxirgi bosqich siyosiy integratsiya bo'lib, umumiy siyosiy institutlar shakllantiriladi. Bu bosqich birgalikda tashqi siyosat olib borish va xavfsizlik borasida siyosat yuritish, kelgusida esa birgalikda mudofa siyosatini ham olib boorish yo'li bilan xalqaro sohada o'ziga xos bir xillikni qaror toptirishni nazarda tutadi.

Iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv xususiyatlari davlat va davlatlararo tashkilotlar tomonidan milliy iqtisodiyoti chetdan boshqariladi degan ma'noni anglatmaydi. Hududiy integrasion komplekslarni shakllantirish shartnomali-huquqiy bazaga ega. Bir qator mamlakatlar guruhi o'zaro kelishgan holda mintaqaviy davlatlararo kompleksga birlashadilar, hamda o'zaro hamkorlikda ijtimoiy-siyosiy va xo'jalik hayotida teng ravishda hududiy siyosat yuritadilar. Jumladan, G'arbiy Yevropada YeH va Shimoliy Amerikada-NAFTA, Osiyo-Tinch Okeani hududida Tinch okean hamjamiyati mavjuddir.

Tarixan ancha barqarorlashgan integrasion jarayonlar G'arbiy Yevropada yuzaga kelgan bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida butun bir hududda yagona xo'jalik makoni tashkil etildiki, uning doirasida qayta tiklanishning umumiy shart-sharoitlari shakllandi va uni boshqarish mexanizmi yaratildi. G'arbiy Yevropa integratsiya mexanizmining muhim qismlaridan biri tizimi, tarmoqli va mintaqaviy siyosatni birlashib o'tkazishdir. Shuni aytish kerakki, milliy boshqarish uncha raqobatga bardoshli bo'lmagan tarmoqlarda va qoloq hududlarda ishlatiladi.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Mintaqashunoslikni fan sifatida ajralib chiqishiga nima sabab bo'ldi va uning vazifalari (shartlari) qanday?
2. Xalqaro siyosiy mintaqa geografik mintaqadan nimasi bilan farq qiladi?
3. Zamonaviy mintaqashunoslik tizimida qanday bo'limlarni ajratib ko'rsatish mumkin?
4. Mintaqashunoslik faniga oid qanday yondashuvlar mavjud?
5. Mintaqashunoslik fanining jadal rivojlanishi qachon boshlandi?
6. Mintaqashunoslik predmeti qaysi davrdan fan sifatida qabul qilindi?
7. Qaysi davr "Mintaqalar" deb nomlanadi va nima uchun?
8. Mintaqashunoslikning boshqa fanlar bilan o'zaro qanday aloqadorligi mavjud?
9. Integrasion jarayonning ijobiy tarafi nimadan iborat?
10. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati nimada?
11. Integratsiyani o'rganishda pozitivistlar va kognitivistlar yondashuvlarida qanday farq bor?
12. "Tashkillashtirilgan integratsiya" dan "notashkiliy integratsiya" ning qanday farqi bor?
13. Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerikada borayotgan integrasion jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. "Janubi-Sharqiy Osiyodagi integrasion jarayonlar" mavzusida ma'ruza tayyorlang.
2. "OTOIH forumi va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari" mavzusida ma'lumotlar tayyorlang.
3. "OTOIHning asosiy maqsad va vazifalari" mavzusida referat tayyorlang.
4. Integratsiya borasidagi ta'riflarni o'rganib tahlil eting.
5. Yevropa Ittifoqi doirasida integrasion jarayonlarni mustahkamlash boraida olib borilayotga chora tadbirlar haqida ma'ruza tayyorlang.
6. Hozirgi davrda mavjud integrasion birlashmalar haqida referat tayyorlang.
7. Markaziy Osiyo integratsiyasining xususiyatlari mavzusida referat tayyorlang.
8. Arab davlatlarida mavjud integrasion birlashmalar haqida referat tayyorlang.

3-BOB. OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASI DAVLATLARI ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDA

3.1. Osiyo-Tinch okeani mintaqasining geosiyosiy va geostrategik o‘rni

Dars maqsadi:

- Mazkur ma’ruzani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad talabalarning Osiyo Tinch Okeani mintaqasi davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar jahon mamlakatlaridagi xususan OTOM siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- magistrant va talabalarga OTOMdagi siyosiy jarayonlar borasidagi to‘la ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *ASEAN va OTOM, Janubi-Sharqiy Osiyo, Vetnam, Laos, Myanma, Kambodja, Tailand, Malayziya, Indoneziya, Filippin, Singapur, Bruney.*

So‘nggi 20 yil ichida Osiyo Tinch Okeani mintaqada davlatlarining iqtisodiy salohiyati yuqori darajada rivojlandi. Bu mintaqada dunyo aholisining yarmi istiqomat qiladi va eng katta jahon xo‘jaligini egallagan. XX asrda xalqaro munosabatlar rivojlanishida ikkita asosiy tendensiya mavjud edi. Barcha davlatlar xalqlarining milliy o‘zligini anglashi va davlatlarning suverenitetining mustahkamlanishi davri bo‘ldi.

Hozirgi zamonaviy dunyo alohida tizim sifatida barcha davlatlarning bir-biriga o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Xalqaro raqobat markazida qurollanish poygasi emas, balki iqtisodiy va ilmiy-texnik omil tez suratda rivojlanmoqda. Globalizatsiya jarayonining rivojlanishi alohida mintaqalarning roli o‘shishiga, ko‘p qutbli mintaqaviy tartib shakllanish jarayoniga olib kelmoqda. Mintaqalararo hamkorlik va raqobat xalqaro bozor munosabatlarini shakllanish jarayonini tezlashtirmoqda. Bunday jarayonlardan biri yirik geoiqtisodiy mintaqada - Osiyo Tinchokeani mintaqasida bormoqda. Bu mintaqada boshqa jahon mintaqalaridan farqli ravishda keng qit‘alararo xususiyatga ega. Osiyo Tinchokeani mintaqasiga kiruvchi davlatlar bir-birlaridan iqtisodiy rivojlanish darajasi jihatidan farq qilsada, ularning umumiy iqtisodiy manfaatlari mintaqada iqtisodiy jarayonlarning o‘shishida va mintaqada xavfsizligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Osiyo Tinchokeani mintaqasi davlatlari global xalqaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamkorlikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Osiyo Tinch okeani mintaqasi jahon siyosatida markaziy kuchga aylanib bormoqda.

1. OTMda dunyoning yetakchi davlatlari joylashgan bo‘lib nafaqat mintaqada, balki jahonda o‘z tasir doirasiga ega bo‘lgan AQSh, Rossiya, Xitoy, Yaponiya jahon siyosatiga yetakchi bo‘lishga da‘vogarlik qiladi. Ularning hammasi geosiyosiy va geostrategik jihatidan muhim o‘rin tutadi;

2. Mintaqada jahonning 40 % aholisi istiqomat qiladi. Jahon savdosining umimiy ulushining 50 % shu mintaqaga to‘g‘ri keladi. Oxirigi 2 yil ichida mintaqaning iqtisodiy ko‘rsatkichi 3 barobar o‘ydi. 2000 yilda jahonning 60 % mahsuloti shu mintaqada ishlab chiqarilgan. Bugunga kelib mintaqa asosiy moliya investisiya markaziga aylangan. Umujahon iqtisodiy forumining 10 ta ishtirokchilaridan 5 tasi bu mintaqaga to‘g‘ri keladi: AQSh, Yaponiya, Singapur, Gongkong va Tayvan. 2030-yilga kelib raqobatbardosh reytingi bo‘yicha OTMning 4 ta AQSh, Yaponiya, Singapur va Gongkong kabi davlatlari boshchilik qiladi;

3. OTMning asosiy xususiyati sifatida yadroviy salohiyati alohida baholanadi. Yaponiya yadroviy qurollarni yaratish bo‘yicha ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarga ega. Xitoyning yadroviy salohiyati nafaqat AQSh va Rossiya darajasida, balki undan ham o‘tishi mumkin. Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlarining harbiy xarajatlari davlat byudjetining 20% tashkil qiladi. Mintaqa qurol bozori Yaqin Sharqdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Mintaqa davlatlarining umumiy harbiy byudjeti 90 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi;

4. OTMda Xalqaro tashkilotlar Yevropaga qaraganda sust bo‘lishiga qaramay, submintaqaviy mexanizmning shakllanish jarayoni jadal rivojlanmoqda;

5. Yaponiya, Xitoy, AQSh, Rossiya geosiyosiy manfaatlarining to‘qnashgan mintaqasidir va shubhasiz ko‘p qutbli tizimni shakllantiradi. Bu mintaqa nafaqat iqtisodiy siyosiy diplomatik balki davlatlarning milliy manfaatlarini ta‘minlaydigan maydondir.

AQSh tarixan harbiy siyosiy manfaatlari sifatida strategik mintaqa deb hisoblab kelgan. AQSh tashqi siyosatining asosiy yunalishlari xavfsizlikni taminlash sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tizim AQShning yetakchilik roliga asoslanadi. AQSh har doimgidek Xitoyning iqtisodiy-harbiy sohasining rivojlanishidan xavotirda. Xitoyning ichki siyosiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishi Osiyo Tinch okeani mintaqasida ta‘sir doirasini belgilamoqda. Oxirgi paytlarda Xitoy AQSh mahsulotlarini nafaqat OTMda, balki AQSh bozorida ham siqib chiqarmoqda.

XX asrda Yaponiya va AQSh mahsulotlari raqobatda bo'lgan bo'lsa, endilikda bunga Xitoy ham qo'shildi. Xitoy milliy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan «Xitoy sentrizm» mafkurasini OTMda XXI asrning o'rtalarigacha rivojlantirishni kuzda tutgan. Uning asosiy mintaqadagi milliy manfaatlari quyidagilardan iborat:

1. Global va mintaqaviy darajadagi xalqaro munosabatlarni va ilmiy texnologiya sohalarini egallash;
2. Hududiy birlashishini amalga oshirish (Tayvan, Gongkong, Makao);
3. OTMda harbiy siyosiy ta'sirini kuchaytirish;
4. AQSh, Yaponiya, Rossiya bilan samarali iqtisodiy siyosiy, harbiy, hamkorlik tizimini shakllantirish;
5. OTM da investisiya bozorini egallash.

Xitoy o'z strategiyasining 2-chi bosqichida harbiy islohotlar olib borib, AQShdan o'zib ketish hisoblanadi. Xitoy 2030-2040-yillar davomida Yaponiyaga ta'sir qilish, OTMning Shimoliy-Sharqiy qismidan AQShning harbiy bazalarini chiqarib yuborish, iqtisodiy va demografik ekspansiyasini ta'minlashni maqsad qiladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun Xitoy hududi, shuningdek, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Yaponiya bilan bog'laydigan magistral yo'lining qurilishi va uning ishga tushirilishi ulkan ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlarda ham Yaponiya va Xitoyning faoliyati alohida o'rin tutadi. Ayniqsa savdo-iqtisodiy sohasidagi hamkorligi eng muhim ahamiyatga ega. Boshqa Markaziy Osiyo davlatlari kabi O'zbekiston ham dunyo okeaniga chiqish imkoniyatini qidirmoqda. Bunday vaziyatda «Ipak Yo'li» g'oyasini ilgari surish orqali ikki tomonlama munosabatlarda samarali natija beradi. «Buyuk Ipak yo'li»ni tiklash bo'yicha TRASEKA dasturi Yevropani ulkan Tinch okeani va Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan bog'laydigan eng yaqin yo'ldir. Bu esa navbatida millatlararo va davlatlararo muammolarni hal etishning yana bir samarali yo'lidir. Bu transport magistrali Farg'ona vodiysini Xitoyning sharqiy viloyatlari bilan bog'lab, ko'prik vazifasini amalga oshiradi.

3.2. OTOM mintaqaviy birlashmalari

Dars maqsadi:

- Mazkur ma'ruzani o'qitishdan ko'zlangan maqsad talabalarda Osiyo Tinch Okeani mintaqasi davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;

- talabalar jahon mamlakatlaridagi xususan OTOM siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- magistrant va talabalarga OTOMdagi siyosiy jarayonlar borasidagi to‘la ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *ASEAN va OTOM, Janubi-Sharqiy Osiyo, Vetnam, Laos, Myanma, Kambodja, Tailand, Malayziya, Indoneziya, Filippin, Singapur, Bruney.*

Uyushmaga (ASEAN) 1967-yil 8-avgustda Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand va Filippin davlatlari Tashqi ishlar vazirlari tomonidan imzolangan Bangkok deklaratsiyasi asos bo‘ldi. 1976-yilga kelib, Bangkok deklaratsiyasi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari tomonidan do‘stlik va hamkorlikni o‘zaro aloqalar dasturi asosida olib borish to‘g‘risidagi shartnoma bilan to‘ldirildi.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasining maqsadi:

- Mintaqada tinchlikni o‘rnatish maqsadida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarida mintaqaviy hamkorlikni olib borish;
- hamkorlik, tenglik ruhida iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy taraqqiyot, madaniy rivojlanish asosida mintaqada o‘zaro xatti harakatlar olib borish;
- iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, texnik, ilmiy va ma‘muriy sohalarida faol hamkorlik harakatlarini rag‘batlantirish;
- fan va maorif sohalarida o‘zaro aloqalarni rivojlantirish;
- aholi turmush darajasini oshirish, qishloq xo‘jaligi, sanoat, savdo, transport, aloqa sohalarida hamkorlik.

Hozirda ASEANga Bruney, Vetnam, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Singapur, Tailand, Laos, Kambodja davlatlari a‘zodirlar.

Uyushma tarkibi:

- 1) A‘zo davlatlar va hukumat boshliqlari ishtirokida 3 yilda bir marta yig‘iluvchi konferensiya uyushmaning oliy organi bo‘lib hisoblanadi;
- 2) markaziy boshqaruv organi – o‘tadigan tashqi ishlar vazirlari uchrashuvi bo‘lib, navbat bilan a‘zo bo‘lgan davlatlardan birida bo‘lib o‘tadi;
- 3) doimiy qo‘mita tarkibi – assotsiatsiyaga raislik qiluvchi davlatning Tashqi ishlar vaziri, qolgan 6 davlat elchilari har 2 oyda yig‘iladi;
- 4) ASEAN davlatlari Moliya vazirlari daradasida o‘tkaziladigan uchrashuvlarda iqtisodiy hamkorlik borasidagi masalalar muhokama etiladi;

5) Davlatlarning boshqa vazirlari (maorif, energetika, sogʻliqni saqlash, fan-texnika, tabiatni muhofaza etish) uchrashuvlari fan-texnika, ijtimoiy rivojlantirish, madaniyat va axborot qoʻmitalari, narkotik va tabiatni muhofaza qilish masalalari borasidagi masʼul mansabdor shaxslar yigʻilishi asosida tayyorlanadi;

6) Davlatlarning Tashqi ishlar, Moliya vazirlari oʻzaro uchrashuvlari ikki sohadagi faoliyatning muvofiqlashishiga qaratilgan;

7) Davlat rahbarlari uchrashuvlarida siyosiy masalalar koʻrib chiqiladi. Assotsiatsiya iqtisodiy hamkorlikni beshta qoʻmita – qishloq xoʻjaligi va oʻrmonchilik, moliya va bank, sanoat, energetika, transport, savdo va turizm qoʻmitalari faoliyati orqali olib boradi.

8) Har bir davlatda ASEAN tomonidan belgilangan faoliyatni olib borilishi uchun milliy kotibiyat tuzilib bosh direktor boshchiligida ish yuritiladi;

9) Konsultativ ahamiyatga ega uchrashuvlar ASEAN faoliyatini osonlashtiradi;

10) ASEANning Bonn, Bryussel, Vashington, Vellington, Jeneva, Kanberra, London, Ottava, Parij, Seul va Tokiodagi mavjud jami 11 ta qoʻmitasi tashqi aloqalarni yuritilishini taʼminlaydi;

11) ASEAN kotibiyati – Bosh kotib tomonidan boshqarilib, har 3 yilda oʻzgaradi va oʻzining oʻrinbosari, 3 ta direktori, 9 ta direktor oʻrinbosariga ega.

ASEAN faoliyati

Singapur deklaratsiyasi oʻz oldiga siyosiy va xavfsizlik doirasida iqtisodiy-siyosiy hamkorlikni rivojlantirish uchun qator masalalarni qoʻyadi.

1. Iqtisodiy sohada:

- 2003-yilga ASEAN doirasida erkin savdoni tashkil etish;

- Maʼlum mahsulotlar boʻyicha umumiy imtiyozlar bojxona taʼriflarini bosqichma-bosqich joriy etish.

2. Siyosiy sohada:

- Tinchlik, ozodlik va neytralitet mintaqasi tashkil etish hamda yadro qurolidan xoli hudud yaratish;

- Laos, Kombodja va Myanmar oʻrtasidagi izchil aloqalarni rivojlantirish;

- Yaponiya, Avstraliya, Kanada, Yevropa Ittifoqi, Koreya Respublikasi, Yangi Zelandiya va AQSh oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirish.

3. ASEAN doirasida:

- Institutlarni mustahkamlash.

- xavfsizlik, moliya, telekommunikatsiya, turizm, tabiatni muhofaza qilish, qishloq xo‘jaligi, transport va sog‘liqni saqlash borasida hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston tashqi siyosatida Osiyo tashkilotlari, jumladan OTOMning asosiy integrasion tuzilmasi – Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) bilan xalqaro hamkorlikni rivoji o‘sib boruvchi ahamiyatga ega.

“ASEAN Bruney, Kambodja, Laos, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Myanmar, Singapur, Tailand, Vetnamni o‘z ichiga oladi. Ushbu hududda xavfsizlikni ta‘minlash muhim sanaladi va ayni davrda bu yo‘lda muntazam ishlar olib borilyapti”. Mintaqadagi turli muammolarning hal etilishida va ushbu hududning xavfsizligini ta‘minlashda Malayziya bosh vazirlari Tun Abdul Razzoq va Tun Husayin Onn tomonidan amalga oshirilgan ishlar alohida tahsinga loyiqdir. 1971-yilda ASEAN tomonidan qabul qilingan “Yadro qurolidan xoli zona” to‘g‘risidagi deklaratsiyaning imzolanishi, ushbu mintaqada xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi erishilgan ulkan yutuqlardan biri bo‘ldi.

Masalan, terrorizmga qarshi kurashda 2002-yilning 14-may kunida Vashingtonda AQSh hukumati bilan “Terrorizmga qarshi birgalikda harakat” to‘g‘risidagi deklaratsiyaning qabul qilinishi, mintaqadagi mojaroli hududlarga ham boshqa mintaqalardagi mojaroli hududlarga ham BMT doirasida tinchlikparvar kuchlarining kiritilishi kabi bir qancha ishlarni sanab o‘tish mumkin. Jumladan, Malayziya va AQSh hukumatlari o‘rtasida imzolangan deklaratsiyaga binoan “Malayziya va AQSh hukumatlari Osiyo-Tinch okeani hududida har qanday bo‘luvchi terroristik xurujlar, terroristik tashkilotlarga qarshi, mintaqada istiqomat qiluvchi aholining tinchligini va BMT Xavfsizlik Kengashining 1373-sonli rezolyusiyasiga asosan har qanday terroristik aktlarni moliyalashtirishni oldini olish va bartaraf etishni... maqsad qilib, ushbu deklaratsiyani imzolaydilar”. Bundan tashqari mintaqadagi terrorizmga qarshi kurashni ta‘minlash maqsadida ASEAN doirasida 2001-yilning 5-noyabrda Bandar seri Begavan shahrida “Terrorizmga qarshi kurashda birgalikda harakat” to‘g‘risida qabul qilingan ASEAN deklaratsiyasi, “Terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik” to‘g‘risidagi ASEAN Yevropa Ittifoqi vazirlarining 2003- yilning 27-yanvarida Bryussel shahrida bo‘lgan uchrashuvida imzolangan qo‘shma deklaratsiya, Xitoy Xalq Respublikasi bilan imzolangan “Noan‘anaviy xavfsizlik masalalari bo‘yicha hamkorlik” to‘g‘risidagi memorandumni va shu kabi boshqa bir qancha imzolangan hujjatlarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Yana bir bu yo‘ldagi muhim qadamlardan biri, 2002-yilning noyabr oyida malayziyada Malayziya tashqi ishlar vazirligi tomonidan tashkil etilgan Janubiy – Sharqiy Osiyo

terrorizmga qarshi kurashda mintaqaviy markaz (SEARCCT)ni alohida aytib o'tish lozim. Ushbu markaz o'z faoliyatini rasmiy ravishda 2003-yilning 1-iyulida Kuala Lumpurda boshladi va uning rahbari etib 2004-yilning 27-avgustidan e'tiboran Dato Hussin Nayan tayinlandi.

So'nggi o'n yillikda ASEANni xalqaro tizimdagi geoiqtisodiy va geosiyosiy rolini yanada oshirish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ko'rsatib o'tilgan davlatlar guruhi yangi jahon xo'jaligi tizimi rivojida muhim rol o'ynovchi iqtisodiy va siyosiy jihatdan salohiyatli bo'lgan yetakchi davlatlar sirasiga kira boshladi. Bundan tashqari, ASEAN Janubi-Sharqiy Osiyo tinchlik, xavfsizlik, barqarorligi va taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi, Osiyoda har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish ishiga ulkan hissa qo'shadi. Bu Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ASEAN bilan hamkorlik o'rnatish va rivojlantirish imkonini ochadi.

Hozirda O'zbekistonning Osiyo va Tinch okeani havzasi mamlakatlari bilan siyosiy-diplomatik aloqalari yo'lga qo'yilgan, iqtisodiy va madaniy hamkorligi rivojlanib bormoqda. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlaridan biri – Yaponiyaga qilgan tashriflari chog'ida ushbu mamlakatlar bilan turli sohalarda pozitsiyalarimizning ko'p jihatdan mos kelishini tasdiqlaganlar va Vaseda universitetidagi ma'ruzasida shunday degan: “Agar biz taraqqiyot insonga zarur narsalarni beruvchi erkin iqtisodiyotni qursak, biz buni Qo'shma Shtatlar, Yevropa yoki Yaponiyaga yoqish uchun qilmayapmiz, biz buni bu narsa bugungi kunda barcha rivojlanayotgan dunyo mamlakatlari bilan o'zaro iqtisodiyotimizni yanada yuksakliklarga ko'tarilishi uchun qilyapmiz”. Shuningdek, O'zbekistonning sharqshunoslik masalalari bo'yicha asosiy muammolaridan biri Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni chuqur o'rganish hisoblanadi. Gumanitar fanlarimizning bu muhim mavzusini ishlab chiqish zaruriyati mintaqaviy xalqaro konferensiyalarda, ikki tomonlama muzokaralar, oliy darajadagi uchrashuvlar, turli qo'shma loyihalarni amalga oshirishda ko'rsatib o'tilgan. Ikki tomonlama siyosiy, iqtisodiy shuningdek ilmiy-madaniy aloqalar masalasini yoritish hozirda ulkan ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

OTIH maqsadi 1991-yil Seul deklaratsiyasida rasmiy belgilangan. Bular:

- mintaqa davlatlari iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;
- o'zaro savd aloqalarini mustahkamlash;
- Xalqaro savdo tashkiloti normalariga muvofiq mintaqa davlatlari o'rtasida tovar, xizmatlar, kapitallarni harakatini chegaralashni bekor qilishdan iborat.

2000-yillarni o'rtalarida OTOIHga a'zo davlatlarda jahon aholisining

1/3 qismi, jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 60% va jahon savdosining 50% ni tashkil etadi.

Ulkan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi shimoli-sharqiy va janubi-sharqiy Osiyoni, Avstraliyani, Janubiy Koreyani, Yangi Zelandiyani, AQSh va Kanadani o'z ichiga oladi. Ulkan hudud, zamonaviy iqtisodiy qudrat, salohiyatli resurslar bazasi bu mintaqani butun dunyo bilan bog'lovchi qulay dengiz yo'llarini o'zi u haqida aytib turibdi. O'zbekiston uchun esa nima muhim? Bizning OTOMga e'tiborimizni qaratishimizning asosiy omillari ichida quyidagilarni ko'rsatib o'tish lozim:

Birinchidan, OTOM "jahon iqtisodiyotining tezlashtiruvchi mashina"si bo'ldi. Mintaqa iqtisodiy o'sishda ishlab chiqarishga ilmiy texnologiyalarni kiritishda yetakchi pozitsiyani ushlab turibdi. Bashoratlarga ko'ra hatto butun dunyoda iqtisodiy o'sishning pasayishi kuzatilayotgan paytda mintaqa taraqqiyoti darajasida yetakchilikni saqlab qoladi. Mintaqaning xalqaro siyosatdagi ta'siri ham sezilarli darajada o'syapti. OTOMdagi iqtisodiy holatni aniqlashtirishga berilmay, faqatgina bir narsani ta'kidlaymiz: bu yerda kuzatilayotgan etnomadaniy va shu kabi davlatlar taraqqiyot darajasining notengligiga qaramay, ularning birlashtiruvchi iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi maslahatlashuv tendensiyasi kuchaymoqda.

Integrasion jarayonlar rivojlanmoqda. Muhim mintaqaviy mexanizmlar faoliyat yuritmoqda. Jumladan Tinch okeani Iqtisodiy Hamkorligi Ittifoqi, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik forumi va boshqalar. Mintaqa quyidagi falsafa asosida yashayapti: iqtisod – siyosatning salohiyati va xavfsizlikning asosiy shartidir. OTOMning rolini kuchayishi harbiy kuch omilining pasayishi, iqtisodiyotning yetakchiligi, geosiyosatdan geoiqtisodiyotga yo'naltirilish, siyosiy regionalizmga o'tish kabi tendensiyalarga xizmat qiladi. O'zbekiston tashqi siyosat samarali bo'lishi uchun OTOMni kuchini va ahamiyatini hisobga olishi kerak.

Ikkinchidan, O'zbekiston geografik jihatdan Osiyo markazida joylashgan. Va birinchi navbatda shundan kelib chiqish kerak. Tarixan hozirgi O'zbekiston hududi eng qadimgi savdo yo'llari "Ipak yo'li" o'tgan joy bo'lgan, faol tashqi aloqalar va turli madaniyatlarni o'zaro boyitish jarayonlari olib borilgan. O'zbekiston mintaqaviy mamlakat hisoblanadi va u dengizga chiqish yo'llariga ega bo'lishi lozim. Bu muammoning nazariy yechimi bir nechta: Afg'oniston orqali Pokiston Hind okeaniga chiqish mumkin; Eron, Turkiya orqali Fors ko'rfaziga chiqish mumkin; yana bir yo'l – Qozog'iston, Xitoy orqali Tinch okeaniga chiqish yo'lidir.

Afg'onistondagi voqealar va bu davlatda yaqin kelajakda tinchlik o'rnatilishi haqida gapirish shart emas.

Eron va Turkiya o'rtasidagi murakkab munosabatlar va ularning hududi orqali o'tuvchi yo'l yopilib qolmasligiga hech kim kafolat bermaydi.

Ko'rinib turganidek, nisbatan barqaror yo'l Tinch okeaniga chiqish yo'lidir. Sobiq SSRI davrida Tinch okeani mintaqasining roli pasaysada, Baykal Amur magistralini qurilishi ittifoq hukumatini bu mintaqaga ko'proq e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash lozimki, Rossiya hozirgi paytda O'zbekiston tashqi iqtisodiy strategiyasini OTOM bilan yaqinlashish foydasiga ko'rib chiqmoqda. Qora dengiz va Boltiq dengizidagi portlarning yo'qotilishi natijasida Rossiya uchun Tinch okeani portlarining ahamiyati oshdi. Rossiyaning Yevropa qismini Sibir va Uzoq Sharq resurslariga ehtiyoji oshmoqda. Buning hammasi Sibir va Uzoq Sharqni OTOM mintaqaviy-iqtisodiy kompleksiga integratsiyasi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuningdek, OTOM mamlakatlari ham Rossiya bilan hamkorlik aloqalaridan manfaatdor.

Uchinchidan, ruhiyat va tafakkur shakli – bular O'zbekistonni uning Sharqiy Osiyodagi hamkorlari bilan bog'laydi. Bu o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishini osonlashtiradi, chunki iqtisodiyot sohasidagi o'zaro hamkorlikning shartlaridan biri madaniy-diniy jabhadagi o'zaro aloqalarni mustahkamlash hisoblanadi. Mamlakat xalqi boshqa davlatda sodir bo'layotgan jarayonlar haqida qanchalik xabardor qilinsa, shuncha ko'proq ishbilarmon odamlarimiz bir-birinikiga borishadi, tadbirkorlarimizning hamkorligi samarador va bir-birini tushunishlari osonroq bo'ladi.

To'rtinchidan, Bu mintaqada dunyo siyosatining tutashgan qismi hisoblanadi. Bu yerda ko'pgina davlatlar, jumladan AQSh, Rossiya, Hindiston, Xitoy va shu kabi davlatlarning manfaatlari to'qnashadi. Bu davlatlar o'z navbatida ushbu mintaqada sodir bo'layotgan ko'pgina jarayonlarga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bugungi kunda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining butun tarix davomida eng yirik mintaqaviy moliyaviy va iqtisodiy inqirozni muvaffaqiyatli yengib o'tgan davlatlar sifatidagi xalqaro ahamiyati barqaror va sezilarli oshmoqda. O'zbekiston kabi intensiv texnologik va informasion taraqqiyot asosida barqaror iqtisodiy o'sishga qiziqqan mamlakatlar "Osiyo yo'lbarlari" tajribasini iloji boricha tezroq tushunib olishlari zarur.

Bugun O'zbekiston – bu faqatgina sarmoya kiritish uchun ulkan tabiiy-xom ashyo, bepoyon bozor emas. Mamlakatimiz ulkan intellektual, diniy va madaniy salohiyatga egadir. Bularning barchasi qulay geografik joylashuv bilan birga dunyoda yangi siyosiy va iqtisodiy tartib

shakllanayotgan paytda katta geosiyosiy va geostrategik qiziqish uygʻotmasligi mumkin emas.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirda insoniyatning tabiiy resurslarga ehtiyoj sezayotgan paytda Oʻzbekiston tabiiy boyliklarga ega boʻlib qolmoqda. Kirib kelayotgan “texnologik urush” davrida Oʻzbekiston ilgʻor texnika va texnologiya borasida ulkan salohiyatga ega rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston – soʻnmas ijodiy kuch va tunganmas ruhiyatli xalqqa ega mamlakatdir.

3.3. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari

Dars maqsadi:

- talabalar zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining oʻrni borasida tasavvur hosil qilishlariga koʻmaklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qoʻllashni oʻrgatish;
- talabalarga JShO mintaqasi mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlari borasidagi toʻla maʼlumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning oʻziga xos jihatlarini singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi, ASEAN, Myanma, Pancasila va Wawasan Nusantara prinsiplari, Timor-Lest demokratik respublikasi, Suxarto, Papua-Yangi Gvineya, Laos.*

Janubi-Sharqiy Osiyo rivojlanishning turli darajalariga erishgan oʻn bir davlatni oʻz ichiga oladi. Umuman mintaqa oʻzida dunyoning tez surʼatda rivojlanayotgan hududlaridan biri sifatida tasavvur uygʻotadi.

Janubi-sharqiy osiyo mintaqasi Osiyo qitʼasidagi hudud boʻlib jugʻrofiy jihatdan Xitoy janubida, Hindiston sharqida va Avstraliya shimolida joylashgan davlatlarni oʻz ichiga oladi.

Oʻz oʻrnida Janubi-sharqiy Osiyo ikki kichik mintaqadan iborat: bular Osiyo qitʼasida joylashgan davlatlar va orollarda joylashgan mamlakatlar. Osiyo qitʼasi Kambodja, Laos, Myanma, Tailand, Veʼtnam va Malayziyani (aniqrogʻi Malayziya yarimorolini) qamrab oladi. Dengiz hududiga esa Bruney, Sharqiy Timor, Indoneziya, Malayziya, Filippin va Singapur kiradi. Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasida yashovchi aholi asosan islom va xristian dinlariga eʼtiqod qilishadi.

Aksariyat mutaxassislar, Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi Yevropalik savdogarlar va kompaniyalar kirib kelgandan soʻng taraqqiy eta boshladi deb taʼkidlaydilar. Ammo, Yevropa davlatlarining ushbu mintaqaga kirib

kelishidan avval ham Janubi-sharqiy Osiyo jahon savdo tizimida o'ziga xos yetakchi o'rinni egallagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Mintaqa davlatlari o'rtasida keng ko'lamdagi savdo aloqalari avval ham mavjud bo'lgan. Asosiy savdo mahsulotlari sifatida murch, gullar, yong'oq, shifobaxsh o'simliklar katta o'rin egallagan. Ziravorlar bilan savdo qilish asosan hind va arab savdogarlari tomonidan rivojlantirilgan. Biroq bu mahsulotlarga Yevropaliklar ham katta qiziqish bilan qaragan. Yevropaliklardan birinchi bo'lib mintaqaga portugaliyaliklar, so'ng gollandlar, va nihoyat inglizlar va fransuzlar kelishgan. Yevropa savdo manfaatlarining kengayishi natijasida yer hududlarini qo'shib olishga qaratilgan sayi-harakatlar ham avj oldi, negaki savdogarlarni himoya qilish va iqtisodiy faoliyatlarini yoyish shuni taqazo etardi. Buning natijasida, gollandiyaliklar Indoneziyani, inglizlar Malayziyani va fransuzlar Hindixitoyini o'z ta'siri ostiga oldilar.

Bugungi kunda garchi mintaqadagi mamlakatlar iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaliga bog'liq bo'lsada, ammo oxirgi 40 yil davomida ishlab chiqarish va xizmatlar ko'lami keng rivoj topdi. Filippin, Indoneziya, Malayziya va Tailand Yangi industriyalashgan mamlakatlar qatoriga qo'shilgan bo'lsa, Singapur va Bruney esa allaqachon rivojlangan davlatlar qatoridan o'zining mustahkam o'rnini egalladi. Qolgan Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodida qishloq xo'jali yetakchilik qilsada, ammo ular ham oxirgi paytlarda, ayniqsa Ve'tnam va Kambodja, o'z sanoatlarini rivojlantirishda katta yutuqlarga erishmoqdalar. Hozirda Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari mikroprotessorlar va elektronika ishlab chiqarish bo'yicha jahonda yetakchilikni egallashgan. Qolaversa katta hajmdagi neft zaxiralari ham mavjud.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining hozirgi zamon xalqaro munosabatlardagi o'rnini asosan quyidagi xalqaro tashkilotlar faoliyati orqali belgilash mumkin: ASEAN, ATES, "D-8" va Islom hamkorlik tashkiloti.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining ko'pchiligi Ikkinchi jahon urushidan so'ng mustaqillikka erishgan. Mustaqillikni qo'lga kiritish jarayoni juda uzoq davom etgan. Indoneziya va Myanma (Birma) kabi davlatlar amalda Ikkinchi jahon urushi tugashi bilanoq mustaqil bo'ldi, Sharqiy Timor esa 2002-yildagina mustaqillikni qo'lga kiritdi.

Janubi-Sharqiy Osiyodagi yana bir deyarli yosh mustaqil davlat bu Papua-Yangi Gvineyadir. O'tmishda davlat hududi Avstraliya tomonidan idora qilinar edi. Papua-Yangi Gvineya 1973-yil 16- sentyabrda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Hozirda mamlakat zamonaviylashtirish yo'lidan borishga intilmoqda, biroq mintaqadagi integrasion jarayonlardan ancha

chetda qolmoqda. ASEANda Papua-Yangi Gvineya maxsus kuzatuvchi maqomiga ega.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ulkan davlatlar tashqi siyosatiga ergashmagan holda, mustaqil davlatlar sifatida o'z o'rinlarini mustahkamlashga harakat qildilar. Indoneziya, Filippin va Tailand, shuningdek Malayziya Federatsiyasi va Singapur Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasini tuzdilar. ASEANning Vetnamdagi mojaro qizigan paytda tashkil etilishi mintaqadagi davlatlarning o'zni mustahkamlanganligi haqida xalqaro hamjamiyatga ishora bo'lib xizmat qildi.

“Sovuq urush”ning tugashi Janubi-Sharqiy Osiyoda muhim o'zgarishlarga olib keldi. ASEAN mamlakatlari amaliy mintaqaviy integratsiyalarga kirishdilar. Sobiq Sharqiy blok mamlakatlari islohotlar yo'liga o'tishdi. Vetnam mintaqada muhim siyosiy kuch va xavfsizlikka tahdid bo'lishdan to'xtadi. ASEANning kengayishi bu tashkilotni nafaqat Janubi-Sharqiy Osiyoda, balki dunyodagi qo'shni mintaqalarda ham integrasion jarayonlarda muhim harakatlantiruvchi kuchga aylantirdi. Mintaqa davlatlari qarama-qarshilikdan haqiqiy hamkorlik yo'liga o'tishdi. Kambodjadagi vaziyatning omadli hal qilinishi mintaqada “sovuq urush” oqibatlarini tamomila bartaraf etdi.

1997-1998-yillardagi moliyaviy bo'hron Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari uchun jiddiy zarba bo'ldi. Ayniqsa uning oqibatlari Indoneziya uchun qattiq ta'sir ko'rsatdi. Suxarto 1998-yil may oyida istefoga chiqishga majbur bo'ldi. Indoneziyaning tashqi siyosati katta o'zgarishlarni boshdan kechirmadi. 1998-yildan ASEAN Indoneziya tashqi siyosatining asosiy omili bo'lib xizmat qildi. Muhim omillar ASEAN doirasidagi forumlar, AQSh va YeI aloqalaridir.

Indoneziyaning Janubi-G'arbiy Tinch okeani muloqoti, Tinch okeani orollari forumi va Avstraliya bilan uch tomonlama konsultatsiyalar, Indoneziya va Sharqiy Timor hamkorligi rivojlanishning muhim vektori hisoblanadi. Indoneziyaning Qo'shilmaslik harakati va Islom Hamkorlik Tashkilotidagi ishtiroki muhim ahamiyatga ega.

Butun jahon terrorizmga qarshi kurashining boshlanishidan so'ng Indoneziya bu muammoni hal qilishda AQSh va xalqaro hamjamiyatning faol hamkoriga aylandi. Dunyoda soni bo'yicha musulmon aholisi ko'p bo'lgan mamlakatdagi terroristik hujumlar Indoneziyani xalqaro terrorizmga qarshi kurashda yutuqlarga erishish yo'lida muhim strategik davlatga aylantirdi.

Umuman olganda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ulkan va ko'p tomonlama o'xshash rivojlanish yo'lini bosib o'tdilar. 1970-yillarda ikki lagerga ajralib, “sovuq urush”i tugashi bilan mintaqa davlatlari qarama-

qarshiliklarni deyarli yengib o'tishdi va mintaqani dunyoda tez sur'atda rivojlanayotgan mintaqalardan biriga aylantirishdi.

ASEAN doirasida mintaqaviy loyihalarning omadli amalga oshirilishi bu tashkilotni muvaffaqiyatli integrasion jarayonlarning namunasi timsoliga aylantirdi. Janubi-Sharqiy Osiyodagi qoloq mamlakatlarning mintaqaviy loyihalarga jalb etilishi ularga iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o'tishga va yetakchi davlatlar darajasiga ko'tarilishiga imkoniyat yaratadi.

Janubi-Sharqiy Osiyoda AQSh, YeI, Hindiston, XXR va Yaponiya ahamiyatining ortib borishi mintaqa uchun yagona taraqqiyot yo'lini ochib beradi.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi (ASEAN) umuman mintaqada muhim ahamiyat kasb etadi. ASEAN integrasion jarayonlar markazi va ko'plab xalqaro forumlar uchun bazaviy tashkilot hisoblanadi.

ASEAN 1967-yil 8-avgustda Tailand poytaxtida tashkil etilgan. Bangkok deklaratsiyasi (ASEAN Deklaratsiyasi)ning asosiy maqsadlari mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hamkorligiga ko'maklashish, Janubi-Sharqiy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash deb bildirilgan. Tashkilotga asos solgan mamlakatlar – bu Indoneziya, Malayziya, Tailand, Filippin va Singapurdir.

ASEANning tashkil etilishi Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining mintaqadagi yirik davlatlarning ta'siriga qarshi turishga, mustaqil davlat sifatida o'z o'rnini mustahkamlashga, Vetnamdagi mojaroga jalb etilishiga yo'l qo'ymaslikga intilishiga yordam berdi. Xususan, Filippin va Malayziya o'rtasidagi (1968- yildagi) mojaroning omadli hal etilishi, 1969-yilda Malayziya va Singapur o'rtasidagi aloqalarning yo'lga qo'yilishi va Malayziya va Tailand o'rtasidagi hududiy tortishuvlarning hal etilishi tashkilot rivojining birinchi bosqichidagi yutug'i bo'ldi.

1971-yilda Janubi-Sharqiy Osiyoda (ZOPFAN) Tinchlik, erkinlik va betaraflik hududi haqidagi deklaratsiya imzolandi. ASEAN mamlakatlari Indoneziyaning tashqi ta'sirlarga milliy va mintaqaviy qarshilik ko'rsatish haqidagi g'oyasini qo'llab-quvvatlashdi.

Vetnamdagi urushning tugashi, Janubi-Sharqiy Osiyoda kommunistik davlatlar blokining shakllanishi mintaqadagi vaziyatni o'zgartirib yubordi va ASEAN doirasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi.

1976-yilda Bali orolida davlat va hukumat rahbarlarining birinchi uchrashuvida ASEAN hamjihatligi deklaratsiyasi va Do'stlik va Janubi-Sharqiy Osiyoda hamkorlik haqidagi bitim imzolangan edi. Imzolangan deklaratsiya va bitimlar tashkilot faoliyatining asoslari tarkibiga kirgizildi. Ayni shu davrda ASEAN "muloqotlar" vositasida tashkilotning dunyoning boshqa davlatlari bilan hamkorlik tizimi shakllana boshladi.

1984-yilda ASEAN tarkibiga Bruney-Darussalom kirdi. “Sovuq urush” tugashi va Janubi-Sharqiy Osiyoda ikki blok qarama-qarshiligining nihoyasiga yetishi bilan tashkilot tarkibi yanada kengayib bordi. 1990-da ASEAN tarkibiga birin-ketin Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari kira boshladi: 1995-yilda - Vetnam, 1997-yilda-Laos va Myanma; 1999-yilda Kambodja ASEAN a’zosiga aylandi.

“Sovuq urush”ning tugashi keltirib chiqargan geosiyosiy o‘zgarishlar, birlamchi yo‘nalish sifatida iqtisodiy integratsiya rivojini o‘rtaga tashladi. 1992-yil Singapurda ASEAN davlat va hukumat a’zolarining to‘rtinchi uchrashuvi burulish yasadi. Uchrashuvda (sammitda) hamkorlik yo‘nalishlarini rivojlantiruvchi umumiy samara beruvchi preferensial tarif (SEPT) haqidagi shartnoma, (1977-yildagi) ASEAN preferensial savdosi (APTA) haqidagi shartnoma, shuningdek, Erkin savdo zonalarini (AFTA) tashkil etish haqidagi shartnomalar imzolangan edi. ASEANga yangi a’zo-davlatlar tashkilot tarkibiga kirishiga muvofiq ushbu bitimlarga qo‘shilishgan.

Imzolangan shartnoma va bitimlardan maqsad ASEAN ichidagi savdo aloqalarini faollashtirish, rivojlanishi sust bo‘lgan davlatlarni integratsiya jarayonlariga jalb etish, umuman mamlakatlarning rivojlanish darajasini oshirish va siyosiy hamkorlikni mustahkamlashdir.

ASEAN mamlakatlari erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishidagi qiyinchiliklarni asosan bir qolipdagi iqtisodiy tizimlar, binobarin, bir xildagi, raqobatbardosh eksport mahsuloti nomenklaturasi keltirib chiqardi. Biroq, kelishuvlarni amalga oshirish bosqichma-bosqich bo‘lib, mamlakatlarning rivojlanish darajasiga qarab ularga bo‘lgan talabga egiluvchan va darajalangan yondashuvlar erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratdi.

Misol uchun, SEPTga binoan, avvaliga oldinga qo‘yilgan maqsadlarga 2003-yilgacha erishish ko‘zda tutilgan edi. Kelishuvlarni amalga oshirgan sari muddat bir necha bor o‘zgargan.

SEPT kelishuvlardan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini to‘la-to‘kis chiqarib tashlashni ko‘zda tutgan edi. 1995-yilda bu toifa mahsulotlar ham SEPT faoliyati tarkibiga kirishi to‘g‘risidagi kelishuvga erishildi.

1995-yilda Bangkokda 1997-yil kuchga kirgan yadro qurolidan xoli zonalarni tashkil etish haqidagi shartnoma imzolandi. Janubiy Osiyoda yadro qurolining sinovi shundoq ham yadro quroliga ega davlatlar bilan shartnomani e’tirof etish borasidagi murakkab muzokaralarni xavf ostiga qo‘ydi.

1996-yilda ASEAN (AIKO) sanoat hamkorligi sxemasi bo‘yicha Bazaviy kelishuv imzolandi. Bu kelishuv sanoat ishlab chiqarish sohasida tartibga solish vazifasini bajaradi. AIKO loyihasida sanoat mahsulotini

ishlab chiqarish o'sishini ta'minlash, integratsiyalashuvning bundan keyingi rivoji, investisiyaning o'sishi, savdo-sotiqning kengayishi, texnologik bazani takomillashtirish, mahsulotning raqobatbardoshligini va xususiy sektor ahamiyatini oshirish ko'zda tutilgan.

AIKO ASEAN turli mamlakatlarining korxonalari ishtirokida sanoat korxonalarini tuzishga sharoit yaratib bermoqda, bunday korxonalariga boshqa korxonalariga qaraganda keng imtiyozlar bermoqda. Bu kelishuv ASEANning boshqa integrasion kelishuvlari bilan uzviy bog'liq va Janubi-Sharqiy Osiyoda integrasion jarayonlar rivojining umumiy yo'nalishiga tayangan holda xom ashyo va yarimfabrikat emas, balki mahsulotning oxirgi natijasini ishlab chiqarish uchun qo'shimcha rag'batlantirmoqda.

ASEANning 1997-yildagi beshinchi sammitida ASEAN rivojining bazaviy hujjati hisoblangan "ASEAN – 2020-yilda his etish: hamkorlik jo'shqin (dinamik) rivojlanishda" dasturi qabul qilingan edi. Bu dasturdan maqsad, hatto, taqqoslaganda YeIn ham ortda qoldiradigan integratsiya darajasiga yetishdir.

1997-yilda Osiyodagi moliyaviy bo'hron Janubi-Sharqiy Osiyoga investisiya oqimini to'xtatdi. Vaziyatni yaxshilash uchun 1998-yilda butun ASEAN davlatlarini o'z ichiga olgan va ichki va tashqi investisiyani jalb etishga xizmat qiladigan ASEAN (AIA) investisiya zonasini tashkil qilish haqidagi ramkali shartnoma imzolandi. AIA chet el investisiyalari uchun avvalam bor iqtisodiyotning qiyin sohalari ochib bermoqda. 2010-yilgacha ASEAN davlatlarida chet el investisiyalari uchun iqtisodiyotning asosiy sektorlarini davriy ochib berish rejalashtirilgan 2020-yilgacha esa chet el investisiyalari uchun to'siqlar olib tashlanadi. Shu kabi reja bo'yicha chet el investisiyalari uchun milliy tizimga tadrijiy o'tish amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga AIA kelishuvlarga qaramay, chet el ta'siridan himoyaga muhtoj sohalarni o'z ichiga olgan Vaqtinchalik cheklov ro'yxati va xushmuomala ro'yxatini oldindan nazarga olgan.

ASEANning 1998-yil dekabr oyi Xanoydagi oltinchi sammitida mintaqaning oltita eng rivojlangan mamlakati (Indoneziya, Malayziya, Tailand, Filippin, Bruney va Singapur) 2000-2002-yillarga qadar tarif stavkalarini keskin sur'atda qisqartirish bilan integrasion o'zakni tashkil etish haqida va boshqa integrasion choralarni ko'rishga kelishib olishdi. ASEANga yangi a'zo-mamlakatlar esa shaxsiy iqtisodiy integratsiya rejalariga amal qilishmoqda.

"Xanoy ish rejasi" Osiyo moliyaviy bo'hroni, makroiqtisodiyot kompleks choralari, mintaqadagi iqtisodiy integratsiyani mustahkamlashni inobatga olgan holda "ASEAN – 2020-yilda his etish: hamkorlik jo'shqin (dinamik) rivojlanishda" rivojlanish konsepsiyasidagi o'zgarishlarni nazarga olgan. Xanoydagi sammit (1998-yil) hatto kuchli iqtisodiy iztirob

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga integrasion loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda to'sqinlik qila olmasligini ko'rsatdi.

2003-yilda ASEAN 2020-yilgacha xavfsizlik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hamkorlik sohalaridagi muhim masalalarni hal etishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishdi. 2004-yilda ASEANning o'ninchi sammitida olti yilga mo'ljallangan Ventyan ish rejasi ishlab chiqilib qabul qilingan edi. Mintaqaviy integratsiya jarayonlarining davom etishi va ASEANning boy va qoloq davlatlari o'rtasidagi tafovutni qisqartirish qabul qilingan rejaning birlamchi yo'nalishlaridir.

ASEAN doirasidagi iqtisodiy integratsiya to'g'risidagi kelishuvlardan tashqari, mintaqadagi asosiy hamkor tashkilotlar bilan shunga o'xshash loyihalar ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. ASEAN hamkorligi o'zaro hamkorlik qo'mitalari orqali rivojlanmoqda.

Misol uchun, 2000-yilda rasmiylashtirilgan ASEAN va uch Sharqiy Osiyo mamlakatlari (10+3 (XXR, Janubiy Koreya va Yaponiya)) hamjihatligini ko'rsatishga muvaffaq bo'lishdi. 2002-yildan boshlab ASEAN-Hindiston uchrashuvlari o'tkazilmoqda. ASEANning Avstraliya va Yangi-Zelandiya bilan hamkorligi mavjud. Yigirmadan ortiq ishtirokchini o'zida jamlagan ASEAN Mintaqaviy forumi (OMF) doirasida muntazam ravishda uchrashuvlar o'tkazilib kelinmoqda. OMFda xavfsizlik masalalari va terrorizmga qarshi kurashga alohida e'tibor qaratilgan.

ASEAN sheriklari hamkorlikni yanada zich integratsiyalashuv imkoniyati, boshqa integrasion uyushmalarni shakllantirishda ASEAN resurslari va tajribasini jalb qilish sifatida baholashmoqda. Misol uchun, XXR, iqtisodiy va siyosiy sohalarida jahon miqyosidagi yetakchi davlatlardan biri bo'lib, ASEAN bilan hamkorlikni Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqaviy tizimlariga jalb qilinish va mintaqada peshqadam o'rnini egallash uchun qulay imkoniyat deb hisoblamogda. 1990-yillarda XXR Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqaviy tizimlariga integratsiyalashuv yo'lini tutdi va bu Xitoy uchun mintaqada peshqadam sifatida mustahkamlanishining zaruriy qismi deb qaraldi. 2002-yil oxiridan boshlab XXR 10+3 guruhi doirasidagi hamkorlikni shiddat bilan kuchaytirdi.

XXR Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan yagona iqtisodiy muhitni shakllantirishdan manfaatdordir. XXR o'zining iqtisodiy pozitsiyalarini mustahkamlab, mintaqadagi siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'lmoqda.

ASEAN mamlakatlari qulay geosiyosiy o'rinni egallagan, dunyoda iqtisodi tez sur'atda o'sib borayotgan davlatlardan biri bilan hamkorlikda manfaat ko'rishni ko'zda tutishgan.

ASEAN bilan Xitoy hamkorligi muhimligi bilan katta ahamiyatga ega. Chunki Janubi-Xitoy dengizida XXR va ASEANning ayrim mamlakatlariga tegishli munozarali hududlar mavjud. Bundan tashqari, Janubi-Sharqiy Osiyoning qator mamlakatlari XXRga ehtimoliy dushman deb qarashadi.

Shu bilan birga, ASEANning ayrim mamlakatlari XXRdan iqtisodiy tomonlama qaram bo'lib qolishdan xavotirdalar. Vetnam, Laos va Kambodja ASEAN tarkibiga yaqindagina qo'shilishdi va zamonaviylashtirish ya'ni loyihalarini o'zlarining davlatlarida amalga oshirishmoqda. Ular o'zlarining bevosita XXR bilan qo'shniçiligidan ma'lum iqtisodiy bosimni boshdan kechirmoqdalar. Malayziya kam miqdorda bo'lsa ham XXR bilan haddan tashqari va proporsional hajmga ega bo'lmagan mahsulotlarning chegara bo'ylab savdosini his etmoqda.

Xitoy harbiy qudrati Janubi-Sharqiy Osiyoga uning integratsiyalashuv yo'lidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Xitoy qudratli harbiy-dengiz kuchlarini tuzishda tutgan yo'li ASEAN mamlakatlarini tashvishga solmoqda. Chunki o'rtada bahsli akvatoriya va hududlar mavjud. Masalan, XXR va Vetnam o'rtasidagi bahsli chegara maydonlari muammolarini hal etish masalalari mavjud.

Butun jahon terrorizmga qarshi kurash boshlangandan so'ng terrorizm bilan kurash muammosi ASEANda ham yuqori o'ringa ko'tarildi. Ayniqsa ASEAN va AQSh hamkorligi yanada mustahkamlandi.

2002-yil avgustda ASEAN va AQSh xalqaro terrorizm bilan kurashda hamkorlik haqidagi o'zaro deklaratsiyani imzolashdi. O'zaro hamkorlikda razvedka ma'lumotlari, moliyaviy masalalar, chegara nazoratini kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etdi. ASEAN va AQSh harbiy va huquq tartibot sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirmoqdalar.

Bundan tashqari, ASEAN mamlakatlari terrorizm bilan kurashda mintaqaviy darajada bir-birlariga ko'maklashishmoqda. Indoneziya, Filippin va Malayziya davlatning ichki sabablaridan kelib chiqib bunday hamkorlikdan g'oyat manfaatdor ekanliklarini bildirmoqdalar. Indoneziya bevosita va bir necha bor keng ko'lamdagi va global xarakterga ega terroristik hujumlar bilan to'qnash kelmoqda. Filippin ko'p yillardan beri islom separatist guruhlariga qarshi kurash olib bormoqda. Eng ko'p musulmon aholiga ega bo'lgan – Malayziya ham diniy ekstremizm va fundamentalizm xavfini oldini olishdan manfaatdor.

Shunday qilib, o'zining rivojlanishi davrida ASEAN bir necha bosqichni bosib o'tdi. Mustaqil davlatlar o'rmini mustahkamlash va ularni Vetnamdagi mojaroga jalb etilishidan saqlab qolish maqsadida shakllangan tashkilot Janubi-Sharqiy Osiyodagi ikki blok qarama-qarshiligiga aylanib ketdi va ASEANdagi integrasion jarayonlarni boshlab

berdi. “Sovuq urush” tugashi bilan iqtisodiy sohada shiddatli integratsiyalashuv jarayonlari va tashkilot kengayishi davri boshlandi.

Hozirgi paytda ASEAN Janubi-Sharqiy Osiyodagi integrasion jarayonlarni harakatlantiruvchi muhim kuch hisoblanadi va o‘z ta‘sirini mintaqadan tashqariga olib chiqdi.

3.4. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari iqtisodiy hamkorligi tashkiloti

Dars maqsadi:

- talabalar zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining o‘rni borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;

- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;

- talabalarga JShO mintaqasi mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlari borasidagi to‘la ma‘lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlarini singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *Osiyo va Tinch Okeani mintaqasi, Janubiy-Sharqiy Osiyo mintaqasi, ASEAN, Myanma, Pancasila va Wawasan Nusantara prinsiplari, Timor-Lest demokratik respublikasi, Suxarto, Papua-Yangi Gvineya, Laos.*

Osiyo-Tinch okean mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy hamkorligi (ATES) tashkiloti o‘zaro aloqalarning o‘sishi natijasida 1989-yilda Avstraliya taklifiga binoan tashkil topdi. O‘z faoliyatini kichik guruh sifatida boshlab, keyinchalik mamlakatlarning erkin savdo va iqtisodiy hamkorligi rivojlanishiga xissa qo‘shuvchi mintaqaviy tashkilotga aylandi.

Seul deklaratsiyasiga binoan Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari iqtisodiy xamkorlik tashkilotining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Osiyo-Tinch okeani havzasi insonlarining umummanfaati yo‘lida, shu bilan birgalikda jahon iqtisodiyotining rivojlanishi yo‘lida iqtisodiy o‘shish darajasining oshishiga ko‘maklashish;

- Mintaqada iqtisodiy samaradorlikni, iqtisodiy o‘shishni yaxshilash, qo‘shimcha tovar va xizmatlarni, kapital va texnologiyalarni jalb qilishni amalga oshirish;

- Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va boshqa davlatlar manfaatlari yo‘lida har tomonlama erkin savdo tizimini yaratishga harakat qilish, uni rivojlantirish;

- O'zaro investisiyalarni jalb etish borasida UST (GATT- VTO) prinsiplariga rioya etish, tovarlarni sotish, xizmat ko'rsatish borasida qiyinchiliklarni tug'diruvchi holatni kamaytirish.

Tashkilotga a'zo mamlakatlarning Tashqi ishlar va Moliya vazirlari ishtirokidagi uchrashuv tashkilotning oliy organi hisoblanib, har yili mintaqadagi iqtisodiy muammolarni yechish, tashkilot faoliyatini, uning siyosatini ko'rib chiqish uchun yig'iladi.

Ushbu uchrashuvlarni tashkil etish, ishchi guruhlar dasturlar, qo'mitalar byudjetlarini ko'rib chiqish uchun har yili mas'ul shaxslar uchrashuvi o'tkaziladi. Asosiy iqtisodiy muammolarni yechish jaryonida Tashkilotga a'zo davlatlarning rahbarlari qatnashadilar.

Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyatini tartibga solish maqsadida, 1993-yil fevralida Singapurda kotibiyat tashkil etilib, ushbu vazifani bajarish uchun direktor tayinlanib, u bir yil muddatga saylanadi.

Mamlakat vazirlari o'rtasidagi yillik uchrashuvlarda 3 qo'mitaning dasturlari va 10 ta ishchi guruh belgilanadi. Bu qo'mitalar savdo, investisiya, axborot taminoti, iqtisodiy darajalarning taxlili, tashkilot darajasidagi kadrlar masalasi ustida ishlaydilar.

Mazkur tashkilot juda keng jug'rofiy hududni o'z ichiga oladi. Unga nafaqat Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari, balki boshqa mamlakatlar ham a'zo. Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasi davlatlaridan Bruney, Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin ushbu tashkilotning a'zolari hisoblanishadi. Qolaversa, bu tashkilot Avstraliya, Gonkong, Kanada, XXR, Meksika, Yangi Zelandiya, Yangi Gvineya, AQSh, Tayvan, Chili, Janubiy Koreya, Yaponiya va Rossiyani ham qamrab oladi.

XX asr oxirida Sharqiy Osiyoda integratsiya jarayonlari kuchaymoqda. To'rt Osiyo "ajdarholari" dan biri - Singapur, shuningdek yangi oqim YaID - Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney va Filippin kirgan Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Uyushmasi (ASEAN) qariyb 30 yil mobaynida eng muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Bu guruh doirasida o'zaro hamkorlikning muvaffaqiyatli ASEAN qatnashchi-davlatlari kuchliligining iqtisodiyoti gurkirab o'sishi, ular rivojlanishining bir-biriga mosligi, yaxshi yo'lga qo'yilgan va uzoq, tarix an'analari ega bo'lgan o'zaro savdo aloqalari, shuningdek tartibga solib bo'lingan hamkorlik shakli bilan chambarchas bog'liq.

ASEAN rejalarida 2000-yilgacha qatnashuvchi davlatlar bojlarini 38 ming turdagi tovarlar bo'yicha o'rtacha 5% gacha qisqartirish mo'ljallangan. 1995-yil oxirida 2003-yilda to'laqonli erkin savdo zonasi tashkil qilish haqida qaror qabul qilingan.

Sharqiy Osiyoda iqtisodiy integratsiya rivojlanishi istiqbollarini ko'p jihatdan Osiyo Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (OTIH)ning tuzilishi bilan bog'lashadi. Unga Osiyo; shuningdek Shimoliy va Janubiy Amerikaning 18 davlati a'zo. Xalqaro ekspertlar bashoratiga ko'ra, Sharqiy Osiyo YaMM hajmi bo'yicha 2000- yilgacha kelib G'arbiy Yevropani, 2002-yilga kelib esa, Shimoliy Amerikani ortda qoldirishi mumkin.

OTIX, rejalariga muvofiq, 2020-yilga kelib, jahonda eng yirik bojxona va ichki tusiqlarsiz erkin savdo zonasini tashkil qilish nazarda tutilgan. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini baholagan ko'plab mutaxassislar uning rivojlanishi tabiiy va o'ziga xosligini ta'kidlaydilar. Buning ustiga integrasion munosabatlar yetuklik darajasi hozircha unchalik yuqori emas. Masalan, ASEAN tizimidagi savdo hududini iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichi, ya'ni, tarif va tarifli to'siqlarsiz erkin savdo zonalariga kiritish mumkin. OTIHga nisbatan esa hozircha erkin savdo zonasi deb emas, «erkin iqtisodiy assotsiatsiya» deb aytish mumkin. Ayni paytda, iqtisodiy siyosatni o'zaro muvofiqlashtirish natijasida mintaqaning ichki savdosi va kapital bozorlarining tez rivojlanishi butun Osiyo-Tinch okeani mintaqasining integratsiyaning birinchi bosqichi, ya'ni, erkin savdo zonasiga o'tishiga imkon beradi. Buning ustiga Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi submintaqa va guruhlardagi ayrim davlatlar integratsiyalashuv darajasi yetarli darajada yuqori va ular butun mintaqada integrasion jarayonlar tezlashtirilgan rivojlanishining o'ziga xos polyusi, yacheykasi bo'lishlari mumkin. Masalan, «O'sish uchligi»- Janubiy Xitoy iqtisodiy zonasi (XXR, Gonkong, Tayvan). O'sishning «oltin uchligi» (Indoneziya, Mallaziya, Singapur), Yapon dengizi havzasi davlatlari iqtisodiy zonasi, Hindiqush iqtisodiy zonasi mavjud.

Nazorat va topshiriq savollari:

1. Jahon xaritasida Shimoliy Sharqiy Osiyo davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering?
2. OTOM davlatlari tashqi siyosat konsepsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering?
3. JShO davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering?
4. JShO davlatlarining AQSh va Yevropa davlatlari bilan munosabatlari nimadan iborat deb o'ylaysiz?
5. Bugungi kunda AQShning OTOM siyosati qanday?
6. Uzoq Sharq davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
7. ASEANning bugungi kuni va istiqbollari haqida ma'lumot bering.

8. Yaponiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.
9. Koreyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering
10. “Hozirgi davrda OTOM muammolari” mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
11. “JShO davlatlarida islom omili” mavzusini muhokama etish.
12. Yevropa Ittifoqining JShO davlatlari munosabatlari haqida ma'lumot bering.
13. Shimoliy Sharqiy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tavsif bering.
14. Indoneziyaning jahon hamjamiyatidagi o'rniga baho bering.
15. Zamonaviy bosqichda KXDR – Koreya Respublikasi munosabatlari qanday?

Mustaqil ish savollari:

1. Siyosiy xarita yordamida Uzoq Sharq davlatlarini siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering ?
2. AQShning Uzoq Sharqdagi siyosatini xarita yordamida aytib bering ?
3. Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.
4. Yaponiyaning xalqaro munosabatlardagi o'rnini yoritib bering.
5. Avstraliya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.
6. Zamonaviy bosqichda Koreya yarimoroli davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
7. “OTOM - Yevropa munosabatlari” mavzusida ma'ruza tayyorlash.
8. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatida ASEAN davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
9. Xitoy tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini yoritib bering.
10. Yaponiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari haqida gapiring.

4-BOB. XITOIY XALQ RESPUBLIKASI VA OSIYO MINTAQASI

4.1. Osiyo mintaqasining xususiyatlari

Dars maqsadi:

- Mazkur ma'ruzani o'qitishdan ko'zlangan maqsad talabalarning Osiyo davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar jahon mamlakatlaridagi xususan XXR va uning Osiyodagi siyosati borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- magistrant va talabalarga Osiyo regionalizmi borasidagi to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Xitoy va Tayvan, Xitoy ekspansiyasi, Sakisima orollari masalasi, Shimoliy Koreya yadro quroli muammosi, Yevrosiyo mintaqasi "uchligi", ShHT.*

XXI asr boshlarida Afg'oniston va Iroq tufayli Fors ko'rfazi davlatlari atrofida kechayotgan siyosiy o'yinlar, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki Yevrosiyaning uch buyuk, ya'ni Rossiya, XXR va Hindiston davlatlarining o'z tashqi siyosati bilan bog'liq "strategik manfaatlari"ni qayta ko'rib chiqishni taqazo etmoqda.

AQSh ta'sirida G'arb va Yaponiya davlatlarining bu mintaqada davlatlariga o'zaro munosabat masalasi esa ziddiyatlarning tub negizini belgilamoqda. Yevrosiyo mintaqasi "uchligi"ni tashkil qilayotgan Rossiya, Xitoy, Hindiston va AQShning o'zaro ichki munosabatlari aloqadorligi va ularning dunyo siyosatiga ta'siri masalasi diqqatni jalb etmoqda. XXR va Hindiston misolida ko'riladigan bo'lsa, dunyo yer yuzi aholisining asosiy qismi aynan ana shu mamlakatda yashamoqda. Agarda bu davlatlarga qiyosan, AQShni qo'shib hisoblaganda, Okean orti Amerika mintaqada aholisi sakkiz yuz millionni tashkil qilib, shundan ikki yuz million kishi ishsizdir. Hindiston, Rossiya, AQShda ham ishsizlik muammosi mavjud.

Rossiya, XXR hamda Hindiston ham o'zlarining yadroviy qurollari bor bo'lgan bu jihatlari bilan dunyo siyosatiga bevosita ta'sirini o'tkaza oladigan, mintaqada xavfsizligi va barqarorligini kafolatlashda turli xavflarga qarshi tura oladigan, ulkan harbiy salohiyatga ega davlatlardir.

Jug'rofiy joylashuviga ko'ra "uchlik xalqasi"ni tashkil etayotgan Rossiya, XXR va Hindiston davlatlari o'zaro tabiiy boy mamlakatlar sirasiga kiradi. XXRning Sinszyan – uyg'ur milliy avtonom rayoni esa geografik nuqtai nazardan bu uchlikning manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi

strategik maʼkon boʻlib qolmoqda. Bu “uchburchak” davlatlarning Dunyo maydonida oʻziga xos oʻrin tutayotganligini ham amalda koʻzdan qochirmaslik kerak. Birinchidan, dengiz yoʻllari orqali bevosita dunyo bozorlariga chiqishda qulay imkoniyatlariga ega, ikkinchidan, hududiy bir-biriga bogʻlangan ulkan maʼkonlar: uchunchidan, bu uchliklarning mintaqaga kirgan Markaziy Osiyo davlatlari ijtimoiy taraqqiyotiga amalda taʼsir oʻtkazishi bilan xarakterlanmoqda. Markaziy Osiyoning mintaqaviy Dengiz yoʻllaridan uzoqligi esa ularning qoʻshni davlatlar bilan faol siyosat yurgizadi, oxir oqibat u uchlik davlatlarga bevosita chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda. Va bu koʻproq Oʻzbekistonga xos xususiyat sifatida, mazkur vaziyatda Oʻzbekistonning ShHT davlatlari ichida faol tashqi siyosat olib borish zaruratini keltirib chiqarmoqda. “Jahon kommunikasion tarmoqlarining tez suratlarda rivojlanib borishi yagona bir davlat faoliyati bevosita mintaqa siyosati bilan uygʻunlashib bormoqda. Bu borada Markaziy Osiyo maʼkoni uchun Rossiya, Xitoy va Hindiston davlatlari bilan munosabatlarni har qachongidan koʻra yanada yaxshilash strategik vazifalaridan boʻlib qolish ehtimoldan xoli emas. Buning asosiy sababi esa, “Markaziy Osiyo mintaqasi oʻziga xos geosiyosiy tashqi chegaralarga ega”ligi, yaʼni “bu holat ikki omil - Rossiya va Xitoy oʻrtasida “siqilib qolganlik” va janubda islom olami bilan belgilanishi” mumkinligi masalasidir.

Ammo, xalqaro maydonda jarayonlar qanday kechishidan qatʼiy nazar Markaziy Osiyo respublikalarining Rossiya, yoki XXR imkoniyatlaridan foydalangan holda jahon bozorlariga chiqish hozirga qadar muammoligicha qolib kelmoqda. Bu esa baʼzi holatlarda mintaqa davlatlarini janubda islom davlatlari bilan faol tashqi – iqtisodiy munosabatlarni olib borish zaruratini paydo qilmoqda. Va buning oqibatida “Evrosiy o mintaqasining tarkibiy qismlaridan boʻlib qolayotgan Markaziy Osiyo bozorlarida oʻzaro raqobat kuchaymoqda”.

XX-XXI asr geosiyosiy oʻzgarishlarini NATOning bugungi faoliyatisiz tasavvur qilish qiyin. Bu asosan, u tashkilotning sharqqa tomon siljishi bilan xarakterlanadi.

XX-XXI asrlar kesishuvida geosiyosiy oʻzgarishlar va mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyotni taʼminlash muammolari xususida gap ketmoqda ekan, bu oʻrinda “dunyoning globallasuv” bilan bogʻliq boʻlgan holatlarini ham koʻzdan qochirmaslik kerak boʻladi. ShHT ham bugunga kelib globallasuv gʻoyalari roʻyobga chiqarish uchun xizmat qiluvchi, u gʻoyalarni tashuvchi yirik tashkilotlardan boʻlib qolmoqda.

Rossiya va XXR xalqaro munosabatlarda oʻz tashqi strategik manfaatlari bilan bogʻliq jihatlarga diqqat jalb etilsa, bu borada ularda oʻzaro manfaatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, Yevrosiyo xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda XXR, mintaqada Rossiya kabi keng imkoniyatlarga ega emas. Xitoy buni yaxshi tushunadi. Va o'z tashqi siyosatida muammoning ana shu jihatlariga ko'proq diqqatni qaratadi. Xususan, "ShHT" doirasida ana shu siyosiy mezonga amal qilish ustuvorlik kasb etmoqda, deyish mumkin. Aftidan Xitoy va Rossiyaning strategik manfaatlarida bir-birini hurmat qilish g'oyasi ular munosabatlarining barqarorligini ta'minlamoqda. Yevrosiyo mintaqasida Xitoy va Rossiyaning o'ziga xos yana bir jihati, "Xitoyning Yevrosiyo mintaqasida ulkan energiya resurslaridan foydalanuvchi davlat ekanligi bo'lsa", aksincha "Rossiyaning energiyani ishlab chiqaruvchi ulkan davlat bo'lib qolayotganligidir". Demakki, bu jabhalarda "Rossiya Xitoy o'zaro biri-birini to'ldiruvchi davlatlar" bo'lib, ana shu sohalarni rivojlantirish masalasi ham kelajakda ular munosabatlarini yaqinlashtiruvchi omildir.

Yevrosiyo g'oyasi targ'ibotchilarining fikricha, Rossiya geografik joylashuviga ko'ra, ham Yevropa ham Sharq mintaqasiga kirganligi, uning Yevropaga bo'lgan munosabatini belgilamoqda. Rossiyaning bosib o'tgan keyingi uch yuz yillik ijtimoiy-siyosiy, madaniyati-tarixining yuksalishida Yevropa madaniyatining samarali ta'sirini o'tkazganligini va bu omillarning hozir ham Rossiya ijtimoiy siyosiy taraqqiyotida ta'siri kuchli bo'layotganligini ko'zdan qochirmaslik kerak. Sobiq Ittifoq parchalangandan keyingi Rossiyaning xalqaro maydonda siyosiy, iqtisodiy, madaniy ta'siri sezilarli kamaygan bo'lsa-da, ammo Rossiya Yevrosiyo geoetnik makonida Yevropa bilan Sharqni ijtimoiy-siyosiy jabhalarda bir-birini bog'lovchi ko'prik bo'lib kelgan va kelajakda ham shunday bo'lib qoladi. Rossiya energetika bo'yicha buyuk davlat bo'lib qolmoqda. Rossiyaning tabiiy gazi o'tgan asr 70-yillari boshlaridanoq Yevrosiyo va qolaversa, dunyo geosiyosatida muhim o'rin tutib kelgan.

Rossiya tashqi faoliyatida xalqaro maydonda ta'sir kuchi o'sib borayotgan XXR bilan ikki va ko'p tomonlama hamkorlik qilish o'z davrining eng oqilona yo'llaridan bo'lib qolmoqda. Rossiya va XXR hamkorligi doirasida hududiy muammolarini hal etish sabablari ana shu jarayonlar bilan ham bog'liq.

Keyingi paytlarda Xitoy va Tayvan, Sakisima orollari masalasida Xitoy va Yaponiya, Shimoliy Koreya yadro quroli muammolarini bartaf etishda Xitoy va AQSh munosabatlarida hamon kelishmovchiliklar saqlanib qolmoqda. AQShning Xitoy omili bilan bog'liq ana shu jihatlari kelajakda Rossiyaga yon bosishiga olib kelishi mumkinligi haqidagi farazlar amalda yo'q emas. Ammo bu farazlar haqiqatga qanchalar mos yoki mos emasligini hayotning o'zi ko'rsatib bormoqda. Bunga ishonch hosil qilish uchun esa NATOning sharqqa tomon cho'zilishi AQShning Markaziy

Osiyoda o‘tkazib kelayotgan siyosiy tafsilotlarga nazar tashlashining o‘zi kifoya. Shuningdek, ayrim Rossiya mutaxassislarining bashoraticha Rossiyaning “Shanhay hamkorlik tashkiloti” doirasida XXR bilan o‘zaro hamkorlikda, Sibirning bo‘z yerlarini o‘zlashtirish, qolaversa, iqtisodiy makonlar barpo etish tashqi siyosatining yo‘nalishlarini belgilamoqda. Rossiya ham, XXR ham ikki tomonlama mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish afzalliklarini ana shu yo‘l orqali ko‘rmoqda. Qolaversa, o‘tgan davr ichida bu qarashlar o‘zini amalda oqlamoqda. Bu g‘oyalar turli xil kasbdagi rus olimlari ichida mantiqiy munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Ba‘zi Rossiyalik mutaxassislarning fikricha, Sibir bo‘z yerlarini o‘zlashtirish maqsadida xitoyliklarning Rossiyada ko‘payib borishi holati kelajakda Rossiyaning milliy manfaatlari va xavfsizligiga jiddiy tahdidlarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Noqonuniy migratsiya esa buning asosiy omili bo‘lib qolmoqda. Uzoq Sharqning janubida jamoatchilik fikri bo‘yicha, olib borilgan monitoring natijalari asosida xulosa qilinadigan bo‘lsa, Uzoq Sharq xalqining 50% dan ortig‘i Xitoy ekspansiyasi fenomeni borligini ta’kidlagan.

XX-XXI asrlar geosiyosiy o‘zgarishlar davrida manfaatlarni ro‘yobga chiqarishda mintaqa tabiiy boyliklari ham asosiy omillardan bo‘lib qolmoqda.

4.2. Xitoy Xalq Respublikasining milliy rivojlanish strategiyasi va uning asosiy yo‘nalishlari

Dars maqsadi:

- Mazkur ma’ruzani o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad talabalarning Osiyo davlatlari xususan XXRning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o‘rni haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;
- talabalar jahon mamlakatlaridagi xususan XXR va uning Osiyodagi siyosati borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- magistrant va talabalarga Osiyo regionalizmi borasidagi to‘la ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Xitoy va Tayvan, Sakisima orollari masalasi, Shimoliy Koreya yadro quroli muammosi, Yevrosiyo mintaqasi “uchligi”, ShHT, Tibet, Shimoliy Koreya, «To‘rtinchi kommyunike».*

XXR Osiyo qit‘asining sharqiy qismida, Tinch okeanining g‘arbiy qirg‘og‘ida joylashgan Osiyodagi eng katta davlat. Hududining kattaligi

bo'yicha jahonda Rossiya va Kanadadan keyingi uchinchi o'rinda. Mamlakat hududining 2/3 qismini tog'lar tashkil qiladi.

So'nggi 25 yil davomida XXR islohot va ochiqlik tamoyiliga qat'iy amal qilib kelmoqda. Bozor iqtisodiyoti tizimini shakllantirish; ochiq turdagi iqtisodiyotning yuzaga kelishi; ishlab chiqarish kuchlari va mamlakatning umumiy qudratining sezilarli rivojlanishi; ijtimoiy masalalarning keng ko'lamda hal qilinishi shular jumlasidandir.

XXRda amalga oshirilayotgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar quyidagi xususiyatlarga ega. Birinchidan, Xitoy Xalq Respublikasi Sovet Ittifoqi parokandalikka uchraganidan so'ng boshqa davlatlarga nisbatan sotsialistik g'oyalarni uloqtirib tashlagani yo'q, balki iqtisodiy munosabatlar tizimini qayta ishlab chiqishga kirishdilar. Lekin, XXR rahbariyati orasida ushbu islohotlar sotsialistik mafkuraga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, deb hisoblaydiganlari ham bor.

Masalaning ikkinchi tomoni, ayrim siyosatshunoslar aksariyat ochiq iqtisodiy hududlar janubda joylashganligini aytib, mamlakatda iqtisodiy islohotlar nomutanosib ravishda, ya'ni shimoliy qismga kam e'tibor qaratilishini ta'kidlaydilar.

Masalaning uchinchi tomoni, mamlakat ichidagi milliy muxtoriyatlarning mustaqillikka bo'lgan intilishlari va norozilik chiqishlaridir. Bu norozilik kayfiyatlari mamlakat barqarorligiga ta'sir ko'rsatib, iqtisodiyotga og'ir yuk bo'lishi tabiiy.

To'rtinchidan, mamlakat iqtisodiyotiga jahonning turli mintaqalarida istiqomat qiluvchi xitoyliklar – xua chyaolar XXRga investisiyalarning 60%ni kiritayotganlarini kuzatishimiz mumkin.

Beshinchidan, Xitoyda islohotlarning borishi shu davlatga nisbatan AQSh va Rossiya munosabatlari ham ahamiyatga molik. Zero, AQSh-XXR munosabatlarida iqtisodiy jabha asosiy masaladir. XXRda amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberalizatsiya Amerika iqtisodiyotiga ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Misol sifatida Xitoyda aqliy mehnat mahsulotlarini noqonuniy o'zlashtirilishi natijasida amerikaliklar bir necha o'n million dollar miqdorida zarar ko'rmoqdalar. Bu hol esa AQSh Kongressida bir necha marotaba XXRga nisbatan iqtisodiy jazo qo'llash, ya'ni Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarni uzish masalalari muhokama qilinganligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, XXRda milliarddan ortiq kishining istiqomat qilishi, ishlab chiqarish kuchlarining yetarli va ravon darajada rivojlanmaganligi sababli iqtisodiy bazaning kuchsizligi, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan atrof-muhit va tabiiy resurslar o'rtasida jiddiy nomuvofiqliklar kabi muammolar ham mavjud. Jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi 1000 AQSh doll.ga yetgan bo'lishiga qaramasdan,

Xitoy Xalq Respublikasi jahon ierarxiyasida birinchi yuz davlatdan keyingi o'ringa turibdi.

XXR bugunda aholi soniga ko'ra dunyoda birinchi o'ringa turadi. Tug'ilishning cheklanganligi siyosatini olib borilishiga qaramay, mutaxassislar fikricha, 2010-yilning o'rtalariga kelib Xitoy aholisi 1,4 mlrd. kishini tashkil etadi. Xitoyda kishi boshiga ekin ekiladigan yer 0,15 ga.ga to'g'ri keladi.

XXR umumiy valyuta zaxirasi 1995-yilda 51,6 mlrd. AQSh doll.ni tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda esa bu ko'rsatkich 150 mlrd. AQSh doll.dan oshib ketdi. XXRning asosiy savdo sheriklari AQSh, Yevropa va Osiyo mamlakatlari hisoblanadi. 2008-yilda Xitoyga kiritilgan mahsulotlar qiymati 550 milliard dollarni tashkil etgan.

O'tgan bir yil asnosida Xitoy neft bozorining kattaligi jihatdan jahonda ikkinchi o'ringa chiqdi. Bu yo'lda u Yaponiyani ortda qoldirdi. Hozirda XXRdan neft iste'moli buyicha birgina mamlakat oldinda bo'lib, u ham bo'lsa Amerika Qo'shma Shtatlaridir.

2004-2007-yillar davomida Xu Szintao Xitoy Xalq Respublikasining xom ashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish yo'llarini ochish maqsadida yer yuzi bo'ylab safar qildi.

Kembridj energiya tadqiqotlar uyushmasi vakili Jim Burxard fikriga ko'ra, Xitoyning neftga talabi misli ko'rilmagan darajada oshgan va barcha alomatlar bu ehtiyojning o'sishda davom etajagini ko'rsatmoqda. «O'tgan 2004-yilni oladigan bo'lsak, bu talab 17 foizga oshdi. Dunyoning boshqa burchaklarida esa, ayni ko'rsatkich 3 foiz atrofida bo'ldi. Xullac, Xitoy Xalq Respublikasi tez sur'atlar bilan yirik neft iste'molichisiga aylanmoqda», - deydi J.Burxard.

Ammo, bu faqat neft degani emas. Jahon Bankining Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasi bo'yicha bosh iqtisodchisi Xomi Xarasning fikricha, Xitoy hozirda turli turdagi ehtiyoj talab mahsulotlar importi bo'yicha birinchi o'ringa turadi. Uning fikricha: «15 yil muqaddam Tyananmen maydonidagi norozilik namoyishi paytida Xitoyning tashqi dunyodan qo'rqishiga arzigulik sababi bor edi. O'sha paytlarda Xitoy unga zarba berishga qaratilgan va kommunistik tuzumni tor-mor etish harakatlarining boshida AQShni ko'rardi. Ammo, o'tgan yaqin yillar ichida XXR tashqi siyosatining ahamiyatga molik tomoni shundaki, ular tezlik bilan bu kabi siyosiy xavotirlarga o'ralashib qolmaslik kerakligini, iqtisodiyot muhimroq ekanini anglab yetdilar».

Shu bilan birga Xomi Xaras, Xitoy taraqqiy etishi manfaatli aylanma savdo aloqalarining paydo bo'lishiga, Sharqiy Osiyo iqtisodiyotining tez sur'atlar bilan o'sishiga va butun Osiyo bo'ylab qashshoqlik darajasining sezilarli darajada pasayishiga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy jihatdan o'sib borishi qator mutaxassislar tomonidan o'rganilib, ushbu omil XXRning tashqi siyosatida, birinchi navbatda AQSh bilan munosabatlarida qay darajada o'z ifodasini topishi mumkin, degan savol ustida tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Pekindagi Iqtisodchilar byurosi rahbari, professor Jeyms Maylsning fikriga ko'ra, Xitoyning Amerikaga munosabati anchayin murakkab bo'lib, uni murosasiz va adovatli deb bo'lmaydi.

Uning fikricha, «Xitoydagi siyosiy ob-havoni belgilovchi asosiy nazar Amerikaning qudrati Xitoy iqtisodiy manfaatlari uchun foydali, degan jumlagi jam bo'ladi. Amerikaning jahon sahnasida polisiyachi rolini o'ynash harakatlari tabiiyki, Pekinning jig'iga tegadi, ammo, alal oqibat, Amerika o'z harakatlari bilan Xitoyning xavfsizlik muammolarini bartaraf etishga xizmat qiladi. Xitoyning xom ashyoga bo'lgan ehtiyoji qondirilishi uchun, deylik, dengiz yo'llari barqaror bo'lishi kerak va toki dengiz yo'llaridan u o'z hududiga xom ashyolarni keltira bilarkan, menimcha, Pekin Amerikaning bu qudrati bilan kelishishga tayyor».

XXRning xalqaro maydonda olib borayotgan faoliyati ham diqqatga sazovor. Ma'lumki, XXRga nisbatan qiziqish jahon hamjamiyatida ortib bormoqda. Misol sifatida, 1998-yilda AQShning o'sha paytdagi prezidenti B.Klinton, Buyuk Britaniya Bosh vaziri Toni Bler, Yevropa qo'mitasi sobiq raisi Jak Santer kabi davlat arboblarning Xitoy Xalq Respublikasiga tashriflarini hamda, o'z navbatida, XXR mamlakat va partiya rahbariyati a'zolarining Rossiya, Yaponiya, Amerika va Afrika qit'asidagi mamlakatlariga tashriflarini ko'rishimiz mumkin.

1998-yil 25-iyundan 3-iyulgacha AQShning o'sha paytdagi prezidenti B.Klinton Xitoy Xalq Respublikasiga tashrif buyuradi. Tashrif chog'ida o'tkazilgan muzokarlarda yadro qurolining tarqalishi, jinoyatchilikka qarshi kurash, energetik va ekologik masalalar, fan va texnologiya, iqtisodiyot masalalari bo'yicha fikr almashdilar. Tashrif chog'ida, shuningdek, Shimoliy va Janubiy Koreya munosabatlarini tinch yo'l bilan hal etish xususida hamfikir ekanliklarini bildirdilar.

Shunga qaramay, ikki davlat munosabatlarida ziddiyatli holatlar ham yo'q emas. Bunday omillar sirasiga – Osiyo-Tinch okeani mintaqasi xavfsizligi, inson huquqlari masalasi, Tayvan muammosi, intellektual mulkni noqonuniy o'zlashtirish kabi masalalarni ko'rishimiz mumkin. Tashrif chog'ida Tayvan masalasiga oid «To'rtinchi kommyunike» «to'liq ishlab chiqilmagan»ligi sababli AQSh prezidenti tarafidan imzolanmaganligini aytish joiz.

Ma'lumki, birinchi kommyunike 1972-yilda XXRning AQSh tarafidan tan olinganligi, ikkinchi kommyunike 1978-yilda AQSh elchixonasining

Taybeydan Pekinga ko‘chirilishi va Tayvanni BMT a‘zolidan chiqarish, uchinchi kommyunike 1982-yilda imzolangan bo‘lib, Tayvanga AQSh tarafidan ko‘rsatilayotgan harbiy yordam miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirish nazarda tutilgan. Shu sababli, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mazkur masala borasida ikki davlat manfaatlari bir-biriga zid bo‘lganligi uchun Tayvan muammosi ma‘lum vaqtgacha ochiq qolishini taxmin qilish mumkin.

Jorjtaun Universiteti tashqi aloqalar maktabi professori Robert Satter Tayvan masalasini sharhlar ekan:

«XXR Tayvanni mustaqillik tomon yurishini oldini olish uchun harbiy kuchga suyanadi. Agar Tayvan mustaqillik e‘lon qilish taraddudida muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirsa va bu borada Xitoy hukumatiga bo‘ysunmasligini aniq ma‘lum qiladigan bo‘lsa Xitoy Xalq Respublikasi mazkur muammoning oldini olish maqsadida qurolli kuchlarni harakatga keltirishi ham mumkin. Bu esa o‘z navbatida, XXRning AQSh bilan to‘qnashuvga ham olib kelishi mumkin», - degan fikrni ilgari suradi.

Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiy jihatdan o‘sib borishi uning harbiy kuch-qudratini oshirishga xizmat qilishi ham mumkin.

Ma‘lumki, Xitoy Xalq Respublikasi hukumati 2005-yilda mamlakat harbiy xarajatlarini 12.6 foiz, taxminan 30 milliard dollarga ko‘paytirishni bildirdi. Hukumat matbuot vakili Szyan Enjuning aytishicha, qo‘shimcha xarajatlar oyliklarni to‘lash, harbiy mashg‘ulotlar o‘tkazish va armiyani zamonaviy qurollar bilan ta‘minlashga yordam beradi. Harbiy xarajatlarni oshirish taklifi parlament sessiyasiga tasdiqlash uchun taqdim etildi.

XXR tarafidan harbiy texnikalarni sotib olish tashqi siyosiy yo‘nalishlardan kelib chiqqan bo‘lib, qisqa fursatlarda harbiy salohiyatini jahonning yetakchi davlatlari darajasiga yetkazishni maqsad qilib qo‘yganligidan dalolat beradi.

Bu borada XXR Rossiyadan harbiy qurol-yarog‘, zamonaviy texnologiyalarni sotib olishga intilmoqda. Ma‘lumki, XXR Rossiyadan 10ta havoda samolyotlarni yoqilg‘i bilan ta‘minlaydigan Il-78 rusumdagi samolyot, S-300 PMU-1 zenit qurilmasini, hamda aniq nishonga uruvchi «Tor-M1» raketalarini sotib olgan. Shuningdek, XXR Rossiyadan 877EKM va 636 (Kilo-class) rusumidagi to‘rtta dizel-elektrik suv osti kemasini, hamda «Sovremenniy» turkumidagi bir nechta esmineslar sotib olgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Rossiya 2004-yilda XXRga ikki milliard dollardan ortiq qiymatda harbiy texnika sotgan.

2004-yil 13-dekabr kuni Pekinda Rossiya va Xitoy o‘rtasida harbiy hamkorlik bo‘yicha tuzilgan hukumatlararo qo‘mitasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda ikki davlat o‘rtasida harbiy sohadagi

hamkorlikni yanada kengaytirish bilan bog'liq qator masalalar muhokama etildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugun O'zbekiston XXRga oziq-ovqat mahsulotlari, paxta tolasi, momiq, nokimyo va kimyo mahsulotlari, mineral o'g'itlar eksport qilayotgan bo'lsa, u yerdan qahva, choy, plastmassa va undan tayyorlangan buyumlar, mexanik va elektron jihozlar, kir yuvish vositalari va boshqa turli xil xalq iste'mol mollari keltirmoqda.

4.3. Xitoy Xalq Respublikasining tashqi siyosiy maqsadlari

Dars maqsadi:

- Mazkur ma'ruzani o'qitishdan ko'zlangan maqsad talabalarning Osiyo davlatlari xususan XXRning zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish;

- talabalar jahon mamlakatlaridagi xususan XXR va uning Osiyodagi siyosati borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;

- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;

- magistrant va talabalarga Osiyo regionalizmi borasidagi to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Shimoliy Koreya yadro quroli muammosi, Tibet, Tayvan, Shimoliy Koreya. Mashxad – Seraxs – Tejen, Bog'dod pakti, Koreya Yarim Orol.*

Xitoy Xalq Respublikasi, garchi u BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi bo'lsa-da, rivojlanayotgan davlatlar sirasiga kiradi va tabiiyki, birinchi navbatda sarmoya chiqarishga emas, aksincha, kiritishga intiladi. Mamlakatda dunyoning yetakchi firma va kompaniyalari bilan ko'plab qo'shma korxonalar tuzilgan, yoki yaqin hamkorlik o'rnatilgan. Qariyb barcha sohaga xorijdan ilg'or texnologiya jalb qilinmoqda. XXR o'zining 1,25 mlrd.lik nufusi bilangina emas, iqtisodiy qudrati bilan ham e'tiborli. So'nggi yillarda mamlakatda iqtisodiy o'sish yiliga 8-10 foizni tashkil qilmoqda. Dunyo bo'yicha sarmoyaning qariyb 20-22 foizi XXRga kiritilmoqda. Bu juda katta ko'rsatkichdir. Biroq, XXRning o'zi hozircha xorijga sarmoya chiqarish uchun unchalik katta imkoniyatga ega emas. Ayni holatni O'zbekistonda ham kuzatish mumkin.

1964-1986-yillarda jahon taraqqiyoti muammolariga Xitoyning yangi konseptual yondoshuvi shakllandi. Xalqaro ahvolni tahlil etishda ko'pqutblilik yondoshuvi qo'llaniladi. 1988-yil may oyida XXRning o'sha paytdagi tashqi ishlar vaziri Syan Sichen Pekin rasmiy qarashlarini

konsepsiya shaklda ifoda etdi. Unda XXRning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan siyosatining asoslari ishlab chiqilgan.

Soʻnggi 50 yil mobaynida XXR tashqi siyosati sobiq SSSRga yoʻnaltirilgan «bir vektorlik»dan jahondagi yetakchi davlatlarga nisbatan «ochiq eshiklar siyosati»gacha boʻlgan yoʻlni bosib oʻtdi.

XXR mustaqillikni qoʻlga kiritgach tashqi siyosati oldiga oʻz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, oʻzini tan olgan barcha davlatlar bilan keng qamrovli aloqalar oʻrnatish va Tayvanni jahon hamjamiyatidan ayirish etib belgilandi. Shunga tayangan holda Xitoy Xalq Respublikasi bilan diplomatik aloqalarni oʻrnatish istagi boʻlgan mamlakatlar oldiga quyidagi 3 shart qoʻyish belgilab olindi:

Birinchidan, Tayvan bilan aloqalarni uzish va XXR hukumatini yagona Xitoy hukumati, Tayvan esa XXR tarkibida ekanligini tan olish.

Ikkinchidan, XXRga doʻstona munosabatda boʻlish va BMTda oʻzining qonuniy oʻrnini egallashda koʻmak berish.

Uchinchidan, Xitoy Xalq Respublikasiga samimiy ehtiromni muzokaralar oʻtkazish orqali ifoda etish.

Bugungi kunda XXR oldida turgan muhim masalalardan biri – Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham ikki tomonlama, ham koʻp tomonlama aloqalarni shakllantirish, oʻz milliy va davlat xavfsizligini taʼminlashdan iborat. Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim omillardan biri bu – mintaqadagi yadro qurolining mavjudligi edi.

Markaziy Osiyo mintaqasi Pekin tomonidan XXR uchun hayotiy muhim mintaqasi sifatida qaralmoqda. Xitoylik tadqiqotchilarning fikricha, Markaziy Osiyo davlatlari oʻz xavfsizliklarini Xitoy Xalq Respublikasi yordami va qoʻllab-quvvatlashisiz taʼminlay olmaydilar.

Xitoylik mutaxassislarining fikricha XXRning Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan pozitsiyasini quyidagicha ifodalaydi:

Birinchidan, Markaziy Osiyo Rossiya monopoliyasidan chiqib, XXR va jahonning boshqa mamlakatlariga ochildi. Bu bilan uzoq muddat davom etgan Rossiyaning XXRga nisbatan bosimining yoʻqolishiga olib keldi.

Ikkinchidan, XXR va Yevropani bogʻlovchi «Ikkinchi temir yoʻl koʻprigi»ni oʻtkazish imkoniyati tugʻildi. Bu holat XXRning Yevropaga xom ashyo va Xitoy eksport mollarini olib oʻtishda Rossiyaga bogʻliqlikdan ozod etildi. Eron temir yoʻllarini Mashxad – Seraxs – Tejen qismida transosiyo magistrali bilan bogʻlanish XXRga Shanxaydan shimolroqda joylashgan Lyanyungan portidan Stambulgacha boʻlgan yoʻlda tovar yetkazish vaqtini 25-30%ga tejashga imkon beradi.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo hududi XXR uchun Yevropa va Janubiy Osiyo mamlakatlari, Yaqin Sharqqa ham siyosiy, ham iqtisodiy jihatdan qulay koridor boʻlib qoldi.

XXRning Rossiya bilan chegarasi nisbatan ahamiyatsiz, munozarasiz va xavfsiz bo‘lib qoldi. Eng muhimi, xitoylik siyosatshunosning fikricha, ikki mamlakat o‘rtasida Xitoyga tahdid solmaydigan – Mongoliya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston kabi davlatlardan iborat «bufer hudud»ning paydo bo‘lganligidir.

XXRning hisoblashicha Janubiy Sharqiy Osiyo mintaqasida nisbatan tinchlik va barqarorlik hukm surmoqda. Biroq, uning o‘zgaruvchanligi bir qator muammo va mojaroni keltirib chiqarmoqda. Ular orasida quyidagi mojarolarni ko‘rsatish mumkin: Koreya Yarim Orolidagi vaziyatni, Sharqiy va Janubiy Xitoy dengizlaridagi hududiy bahslar, yoki bu mintaqadagi qurollanish poygasi. Yana bu ro‘yxatga Pekin bir qancha iqtisodiy qarama-qarshilikni qo‘shmoqda. Bu esa “nizoli hudud”ning kengayishiga olib kelishi mumkin. Yaqin vaqtlar surilib, o‘rniga iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy qarama-qarshilik yuzaga keladi. Buni AQSh va Yaponiya o‘rtasida ko‘rish mumkin. Uning kelajagi xatarli bo‘lgani uchun bu mintaqa xavfsizligini ta‘minlash muhim masaladir.

Xitoy manbalari bunday qarama-qarshilik juda ham katta ahamiyat kasb etishi ta‘kidlangan. Ularni ko‘rsatishiga bunday holat mazkur mintaqadagi davlatlarni birlashtirish o‘rniga bo‘lib yuboradi.

Buning ustiga Sharqiy Osiyo mintaqasida diniy qarama-qarshiliklarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu nafaqat davlatlar o‘rtasida balki, Xitoy tahlilchilarining fikriga ko‘ra Xitoy ichkarisida ham yuz berishi mumkin. Masalan Tibet avtonom rayonidagi buddist ayirmachilari harakati. Xitoy ekspertlari Sharqiy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik masalasini hal qilish haqida o‘ylar ekan 4 asosiy derjavalarni ham hisobga oladi. Bularga AQSh, Xitoy, Yaponiya va Rossiya kiradi.

Xitoy va Yaponiya rivojlanish pallasida Rossiya va sobiq Ittifoq parchalanganidan so‘ng “mintaqa derjavasiga aylanib qolgan bo‘lsa, AQSh Buyuk Derjavaga aylandi. Shuning uchun aynan AQSh bu mintaqada XXR hamma manfaatlarini hisobga olgan holda harakat qilishi kerak. Iqtisod, siyosat, xavfsizlik sohasida shuning uchun bu aloqalar AQSh Pekinning keng qamrovli tashqi siyosatiga alohida e‘tibor bermoqda. Xitoy olimlari va AQSh olimlari shu narsani e‘tirof etishadiki, AQSh va Xitoyning Sharqiy Osiyodagi qarashlari bir-biriga mos kelsada, biroq ular o‘rtasida keng qamrovli muammolarga nisbatan farqlar mavjud. Biroq AQShning bu mintaqadagi siyosati Xitoyni ancha xavfsiratib qo‘ygan. Bu ayniqsa AQShning Xitoy ichki siyosatiga aralashishida namoyon bo‘ladi. AQSh asosan Xitoyning inson huquqlarini buzishi, Osiyo-Tinch Okeani mintaqasida o‘z harbiy qudratini oshirishga intilishi, Yaponiya va Avstraliya bilan harbiy aloqalarning mustahkamlanishidan norozi. Shu

sababli doim Xitoy ishiga aralashgan va Tayvanni ko‘p bora qo‘llab-quvvatlagan.

Pekin oddiygina qilib aytganda, AQShdan “Ustunlik”ga erishish uchun unga qarshi chiqqani yo‘q. Balki, u AQShning harbiy ustunligiga qarshi kurashmoqda. Shuning uchun Sharqiy Osiyo Amerikaliklarga muhtoj emas. Bu pozisiya birinchi bor Xitoy tashqi ishlar vazirligi tomonidan 1997-yil aprelda Vashingtonning Osiyoda 100 ming harbiy xizmatchilarini saqlab turish kerakligini tasdiqlashiga javoban rasmiy ravishda e‘lon qilindi.

Janubiy Osiyoda Xitoy 60-yillardan boshlab Pokiston bilan aloqalarni mustahkamlashni qo‘llab-quvvatlay boshladi. Chunki, Xitoy Pokiston orqali O‘rta Sharqqa kirish imkoniyatlarini qo‘lga kiritdi. U yerda Xitoy 70-yillardan iqtisodiy hakmorlik tashkiloti a‘zolari bilan aloqalarni mustahkamlay boshladi. Bu Bog‘dod pakti SENTO o‘rnidagi tashkilot edi. U ayniqsa Turkiya, Eron va Pokiston bilan aloqalarni mustahkamladi. 1992-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO)ga 5 Markaziy Osiyo Respublikasi va Afg‘oniston qo‘shildi.

Xitoyning bir biriga yaqin bo‘lgan mintaqalardagi davlatlar bilan aloqalarining mustahkamlanishi, Xitoy uchun dunyo “okeani”dagi geosiyosiy “shelfidir.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari hududiy-akvatoriyasi bilan bog‘liq muammolar birinchi navbatda mintaqadagi yetakchi tashilot sanalgan ASEAN oldiga ularni iloji boricha qurolli tortishuvlar darajasiga ko‘tarilmay turib bartaraf etishdek muhim vazifani qo‘yadi. Buning uchun eng avvalo tashkilot muhim iqtisodiy hamkori sanaluvchi Xitoy bilan murosaga borishi va bu jarayonda iloji boricha boshqa qudratli mamlakat aralashuviga yo‘l qo‘ymasligi kerak bo‘ladi. Chunki, 1970-yillarda Sharqiy Timorni Indoneziya tarkibidan mustaqil qilish jarayonida SSSR bilan hamkorlikdagi Xitoy va AQSh manfaatlarining to‘qnashuvi natijasida mintaqadagi vaziyat tarang holatga kelib qolgan edi. Ayrim siyosiy va ijtimoiy jihatdan demokratik bo‘lgan mamlakatlarni hisobga olmaganda, deyarli barcha mintaqa davlatlari harbiy tuzumga asoslangan hukumat boshqaruvi ostida bo‘lib kelgan. Vetnamdagi kommunistik hukumat, Indoneziyada 1975- yildan 1998-yilgacha hukumat tepasida bo‘lgan Suxarto harbiy hukumati, Tailandda bir necha yillardan buyon davom etib kelayotgan siyosiy inqiroz va Myanmadagi harbiy xunta faoliyatlarini yuqorida ta’kidlab o‘tgan voqealar natijasida sodir bo‘lgan deya bemalol aytishimiz mumkin. Shu sababli ham, ASEAN bu kabi holatlar yana qayta takrorlanmasligini ta’minlashi uchun eng avvalo mintaqada yirik davlatlar tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy o‘yinlardan himoyalanihga harakat qilishi kerak bo‘ladi.

Umuman aytganda XXR mustaqillikni qo‘lga kiritgach tashqi siyosati oldiga o‘z mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, o‘zini tan olgan barcha davlatlar bilan keng qamrovli aloqalar o‘rnatish va Tayvanni jahon hamjamiyatidan ayirish etib belgilandi.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

- 1.Xalqaro munosabatlarda Xitoy Xalq Respublikasining ATRdagi roli.
- 2.Mintaqada XXR ning tashqi siyosati.
- 3.XXR va Yaponiyaning o‘zaro munosabatlarining kelajagi qanday?
- 4.Osiyo mintaqashunosligining asosiy konsepsiyalari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

- 1.“Xitoy-Amerika munosabatlari yangi bosqichda” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
- 2.“XXR tashqi siyosiy yo‘nalishining asosiy kursi” mavzusida maqola tayyorlang.
- 3.“XXR ning hududiy nizolari” mavzusida prezentatsiya tayyorlang.
- 4.“XXR ning Markaziy Osiyodagi manfaatlari” mavzusida prezentatsiya tayyorlang.
- 5.1997-1998 yillardagi iqtisodiy inqirozni tariflab bering.
- 6.“Janubi-Sharqiy Osiyodagi integrasion jarayonlar” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
- 7.“ATES forumi va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari” mavzusida xabarlar tayyorlang.
- 8.“Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari va ATR” mavzusida prezentatsiya tayyorlang.
- 9.“ATESning asosiy maqsad va vazifalari” mavzusida referat tayyorlang.

5-BOB. YAPONIYA VA KOREYA RESPUBLIKASI ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA

5.1. Yaponiya xalqaro munosabatlar tizimida

Yaponiya ikkinchi jahon urushidan so‘ng vayron bo‘lgan va mag‘lubiyatga uchragan Osiyo mamlakatidan dunyoda iqtisodi bo‘yicha ikkinchi yirik davlatga aylanishigacha bo‘lgan uzoq va qiyin davrni bosib o‘tdi. Dunyodagi o‘zgarishlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Yaponiyaning tanlagan tashqi siyosiy yo‘liga ta’sir ko‘rsatdi.

Yaponiyaning dunyo mamlakatlarining ko‘pchiligi bilan aloqalarining rasmiy ravishda tiklanishi 1951-yil San-Fransisko tinchlik bitimining imzolanishidan so‘ng ro‘y berdi. Yaponiyaning Ikkinchi jahon urushidan so‘ng tiklanishi va iqtisodiy rivojlanish sharoitlarini ta’minlash tashqi siyosatning muhim masalasi edi. Yaponiyaning tashqi siyosatda tutgan yo‘li AQSh bilan ittifoqdosh aloqalarga qaratilgan edi. 1851-yildagi Xavfsizlik bitimi ikki tomonlama aloqalarning muhim asosi bo‘ldi.

AQSh va “sovuq urush”da uning ittifoqchilari bilan aloqalarning tiklanishi ketidan Varshava shartnomasiga qo‘shilgan mamlakatlar bilan aloqalari asta-sekin yo‘lga qo‘yilishi, XXR bilan norasmiy aloqalarining yaxshilanishi va Yaponiyani BMTga a’zo bo‘lishi yuz berdi. 1960-yilda Yaponiya ahamiyatining mustaqamlanishi qayd etilgan AQSh va Yaponiya o‘rtasida O‘zaro hamkorlik va xavfsizlik bitimi imzolandi. 1978-yilda Yaponiya va AQSh mudofaa sohasida Hamkorlikning yo‘l-yo‘riq prinsiplarini imzolashdi. 1997-yilda Xavfsizlik bitimi qayta ko‘rib chiqildi. Yaponiyaning Okinava oroli AQSh uchun muhim harbiy baza hisoblanadi. Yaponiya o‘z hududida AQSh qurolli kuchlarini ta’minoti bo‘yicha xarajatlarni qoplash uchun har yili 4 mlrd. dollar ajratadi.

1960-yillarda Yaponiya asta-sekin dunyo miqyosidagi iqtisodiy markazlardan biriga aylanib borib, iqtisodiy tomonlama dunyoda eng tez rivojlanayotgan mamlakatga aylandi.

1980-yillarda Yaponiya tashqi siyosatining bir muncha jonlanish davri boshlandi. XXR bilan iqtisodiy aloqalarning o‘sishi, “sovuq urush” yakunining yaqinlashayotganligi, Yaponiya rahbariyatining iqtisodiy kuch bilan siyosiy yo‘lni muvofiqlashtirishga intilishi yangi intilishlarning asosiy sababi bo‘ldi. Bu davrda Yaponiya 1987-yil Manilada bo‘lib o‘tgan sammitda ishtirok etib ASEAN va G‘arbiy Yevropa bilan o‘zining hamkorligini jonlantirdi.

Umuman olganda “sovuq urush” tugagunicha Yaponiya AQShning mintaqaviy ittifoqchisi sifatida g‘oyat chegaralangan doirada ish tutishga majbur bo‘ldi. “Sovuq urush”ning tugashi, Rossiyaning birdan zaiflashib

ketishi Yaponiya oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Yaponiya xalqaro ishlarda yanada faol ishtirok etishga harakat qila boshladi. Harbiy-siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlar o'rtasidagi katta farqlar tufayli Yaponiya nufuzining moliyaviy dastagiga tayanishda davom etmoqda.

Yaponiya 1991-yilda harbiy harakatlarni olib borish va Iroq tajovuzidan zarar ko'rgan mamlakatlarga yordam uchun mablag' ajratib, Fors ko'rfazidagi urushda moliyaviy tomonlama faol ishtirok etdi. Fors ko'rfazidagi bo'hron o'zgarayotgan dunyoda Yaponiyaning ahamiyatiga ortiqcha baho berilishiga sabab bo'ldi.

Yaponiya BMT rahbarligidagi tinchlikparvar harakatlarda ishtirok eta boshladi, xususan, 1992-yil oktyabrda tinchlik saqlash bo'yicha BMT harbiy harakatlari doirasida Kambodjaga ilk marotaba o'z mamlakatining muhandislik batalonini yuborib, Kambodjadagi mojaroni hal qilishda qator siyosiy tashabbuslar bilan chiqdi. Kambodjadagi vaziyatni hal qilishda faol ishtirok etish va bu mamlakatga ko'rsatgan moliyaviy yordam dunyoda Yaponiyaning roli o'zgarayotganligini ko'rsatishi lozim edi. Yaponiya Afg'oniston va Iroqdagi xalqaro harbiy harakatlarda ishtirok etmoqda.

Tashqi siyosatning o'zgarishi, eng maqbul to'xtamga kelish hozirgi paytda ham tugallanmagan uzoqqa cho'ziladigan jarayondir. Yaponiya rahbarlari va mutaxassisleri tomonidan taqdim etilayotgan tashqi siyosat rivojining turli variantlari Yaponiyaning mintaqaviy va dunyo miqyosidagi tashabbuslarining o'zgarganligi ifodasi hisoblanadi.

Masalan, 1997-yilda Yaponiya bosh vaziri tomonidan "Evrosiyo diplomatiyasi" g'oyasi ovoza qilindi. "Evrosiyo dimlomatiyasi" konsepsiyasi Yaponiya hamkorligining (AQSh bilan ARF, ATES va umuman ATR doirasida) an'anaviy yo'nalishlari bilan bir qatorda Yevrosiyo, birinchi navbatda "Buyuk Ipak Yo'li" bo'yida joylashgan mamlakatlar bilan aloqalarni jonlantirishga qaratilgan.

Yaponiya BMTning Xavfsizlik Kengashi tarkibiga doimiy a'zolarni kiritish maqsadini qo'yib, uni isloh qilish tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu masala BMTning ahamiyati jihatidan ikkinchi moliyaviy homiysi bo'lgan Yaponiyaning tashqi siyosatida muhim o'rin egallaydi.

Mamlakat tashqi siyosatida XXR bilan aloqalar ham muhim o'rin egallaydi. Iqtisodiy soha birlamchi ahamiyatga ega. Yadro quroliga ega yirik davlat bilan yaxshi va oldindan aytib berish mumkin bo'lgan aloqalari ham xavfsizlikning qo'shimcha kafolati hisoblanadi.

Dengiz chegarasi, tarixiy o'tmish, XXRning Rossiya bilan yaqinlashuvi masalalari bo'yicha mamlakatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar siyosiy aloqalarning rivojidagi jiddiy to'siqdir. Yaponiyaning tinchlikparvarlik harakatlarida ishtiroki va Yaponiya Konstitutsiyasining tegishli moddalarining qaytadan ko'rib chiqilishi

sababli XXR Yaponiya tashqi siyosatining jonlanishidan va harbiy xavfsizlik sohasidagi harakatlaridan xavotirga tushgan.

Yapon-rus aloqalari “shimoliy hududlar” muammolari tufayli yaxshi holatda emas. Rossiya va Yaponiya garchi diplomatik aloqalar tiklanib va muayyan yutuqlar bilan rivojlansa ham hanuzgacha tinchlik bitimini imzolashmagan. Hududiy muammolar bilan tinchlik bitimini haddan tashqari bog‘lanishi mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarning yaxshilanishini nihoyatda og‘irlashtirmoqda.

Oxirgi paytlarda Yaponiya bir necha bor o‘zi uchun pozitiv to‘xtamga kelish imkoniyatiga ega edi. Misol uchun, 1956-yilda o‘z pozitsiyasini yengillashtirishda Yaponiya rahbariyatining shayligi muammoning hal etilishiga olib kelmadi. 1980-yillar ikkinchi yarmida Yaponiyaning moliyaviy mexanizmlar vositasida vaziyatni hal etishga urinishi muvaffaqiyatga erishmadi. Nihoyat, 1993-yilda, Rossiya prezidentining tashrifi davomida, belgilangan imkoniyatlar Yaponiyaning murosasizligi sababli amalga oshirilmadi.

XXI asr boshida Rossiyaning kuchayishi Yaponiyaning “shimoliy hududlar” masalasini bir tomonlama murosasiz hal etishga bo‘lgan ishonchini puchga chiqarmoqda.

Ta’kidlash joizki, Yaponiya o‘zi uchun boshqa muhim masalani – BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a’zosi maqomini olishda Rossiyaning qo‘llab-quvvatlashiga muhtoj.

Koreya muammosining hal etilishi Yaponiya tashqi siyosatining birinchi galda yechilishi lozim bo‘lgan masalalaridan biridir. KXDR va Koreya Respublikasi bilan aloqalar Koreya yarim orolining uzoq davom etgan Yaponiya istilosi izini qoldirgan.

“Sovuq urush”ning tugashi mintaqada Yaponiya siyosatining jonlanishini bildirardi. Koreya Respublikasi va Yaponiya o‘z aloqalarini, eng avvalo iqtisodiy sohada yangi bosqichga olib chiqishga intilishlarini ikki mamlakat rahbarlarining qizg‘in munosabatlari ko‘rsatmoqda.

Yaponiyada istilo qilingan paytdan boshlab yashab kelayotgan janubiy koreyslarga siyosiy huquq berish, koreyslararo muloqot va Yaponiya va KXDRning diplomatik aloqalarining yaxshilanishi Yaponiya va Janubiy Koreya o‘rtasidagi iqtisodiy sohada va tarixiy o‘tmishdan tashqari, aloqalarining eng muhim masalalaridir.

Aloqalarni yo‘lga qo‘yilishi haqida Yaponiya va KXDR o‘rtasida uzoq paytgacha muzokara olib borishga imkon bo‘lmadi. Bunga sabab Shimoliy Koreya “sovuq urush” sharoitida o‘ziga xos talablarda yashashi va Koreya yarim orolining istilosi davrida Yaponi keltirgan zararni to‘lash haqidagi masaladir. Shunga qaramay, 1991-yil yanvardan 1992-yil noyabr oyiga qadar davr ichida bunday muzokaralarni boshlashga muvaffaq bo‘lindi.

Badal to'lanishiga oid KXDRning talablariga Yaponiya davlatlar o'rtasida hech qanday urush holati yuz bermagan deya javob bermoqda va 1970-1980-yillarda Yaponiya fuqarolarining o'g'irlab ketilishi munosabati bilan da'vo qilmoqda. KXDRning raketa va yadroviy dasturi 1998-yil Yaponiya tomonidan sanksiya kiritilishiga olib keldi.

Mamlakatlar o'rtasida mavjud qarama-qarshiliklarga qaramay Yaponiya va KXDR umuman samarasiz kechayotgan va vaqti-vaqti bilan uzilib qolayotgan muzokaralarni davom ettirishmoqda. Yaponiya Shimoliy Koreyaga gumanitar yordam ko'rsatmoqda. Muloqotda KXDR rahbariyatining intilish dinamikasi (jo'shqinligi) muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yaponiya pozitsiyasiga AQSh va koreyslararo muloqotning ko'tarilish sur'ati ta'sir ko'rsatmoqda. KXDR va KR aloqalarining yo'lga qo'yilishidagi muvaffaqiyat Shimoliy Koreya bilan muzokarlarda Yaponiya hukumatini yanada quyishqoq bo'lishga majbur qilishga qodir.

AQSh bilan aloqalar Yaponiya uchun juda muhimdir. San-Fransisko tinchlik shartnomasi imzolangan paytdan boshlab Yaponiya mustaqil davlat bo'la turib, AQShga harbiy xavfsizlikni ta'minlashda mislsiz haq-huquqlarni taqdim qildi. Yaponiya hududida amerika qo'shinlarining cheksiz muddatda hozir bo'lishi, o'z mamlakati hududini himoya qila oladigan yapon qurolli kuchlarining yo'qligi sharoitida xavfsizlikka amerika kafolati, harbiy korxonalar ustidan nazorat, AQShning "yadroviy soyaboni" – buning hammasi amerika istilosi tugatilishini tarkib toptirgan muhim omillar hisoblangan.

Yaponiya hududida AQShning yadro quroli o'rnatilgandir. AQSh qurolli kuchlari favqulodda holatlarda fuqarolar aerodromi va dengiz portlaridan foydalanish huquqiga ega.

Yaponiya, KXDR tomonidan bo'ladigan tahdid, Tayvan atrofidagi vaziyatning ehtimoliy keskinlashuvi va "shimoliy hududlar" muammosidan xavotirga tushib, AQSh yordamida milliy raketalariga qarshi mudofaa tizimini yaratishni nazarda tutgan. Undan tashqari, ko'pchilik mutaxassislarining fikriga ko'ra, Yaponiya kuchi jihatidan o'z yadro qurolini yaratishga qodir.

Yaponiyadagi harbiy bazalar AQSh uchun dunyo miqyosidagi strategik ahamiyatga ega. Yaponiya, o'z o'rnida, o'zining xavfsizligini o'zi ta'minlashga qodir emasligi, shuningdek, o'z qo'shnilari bilan munozarali masalalarda ehtimoliy keskinliklar kelib chiqishi tufayli AQSh bilan harbiy hamkorligining davom etishidan manfaatdor.

AQSh, Avstraliya va Yaponiya o'zaro hamkorligining yangi negizlarini shakllantirishmoqda. Bu hamkorlik kelajakda harbiy blok tuzilishiga olib kelishi mumkin.

AQSh Yaponiyaning qurolli kuchlarining rasmiy ravishda tiklanishiga asta-sekin o'tishini qo'llab-quvvatlamogda. Yaponiya Konstitutsiyasining 9-moddasi mamlakatga o'z armiyasiga ega bo'lishni, mojaralarda ishtirok etishini taqiqlardi. Hatto, AQSh Iroq yangi hukumatiga qat'iy vakolatni rasmiy ravishda topshirgandan so'ng ham, Yaponiya o'zini mudofaa qilish kuchlarining Iroqdagi harbiy harakatlarda ishtiroki Yaponiya qurolli kuchlarini tuzishga yuridik masalalargina to'g'anoq bo'layotganligini bildirar edi.

2006-yil 15-dekabrda Yaponiya Mudofaa vazirligi rasmiy ta'sis etildi va o'z mamlakatlaridan tashqarida tinchlikparvar harakatlarda ishtirok etish rasmiy ravishda ruhsat berilgan uning qurolli kuchlari tuzildi.

Shunday qilib, Yaponiya tashqi siyosati Ikkinchi jahon urushi natijalarining ta'siri ostida shakllandi. Iqtisodiy rivojlanishdagi yutuqlarga qaramay, Yaponiya o'zining milliy manfaatlarini munosib ravishda himoya qilish uchun siyosiy imkoniyatlarga ega emas edi.

“Sovuq urush”dan so'ng Yaponiya tashqi siyosatining o'zgarishini mintaq va dunyodagi geosiyosiy o'zgarishlar keltirib chiqardi. Yaponiya mintaqaviy mojarolarni hal qilishga katta e'tibor bera boshladi. Yaponiya rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko'rsatishda dunyoda yetakchiga aylandi. Yaponiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilar: AQSh asosiy harbiy-siyosiy va iqtisodiy hamkor sifatida; OTOM; Koreya Respublika va KXDR; XXR; Rossiya; YeI; energoresurslarga boy mintaqalar.

AQSh bilan o'zaro manfaatli va teng huquqli hamkorlikka o'tish davom etmoqda. Yaponiyaning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki faqatgina uning moliyaviy roldan iborat emas. Yaponiya mojarolarni hal qilishda yanada faol ishtirok etmoqda.

Tashqi siyosatning faolligiga qaramay, Yaponiya oldiga qo'ygan maqsadlarning eng muhimlariga – BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zoliq maqomiga va “shimoliy hududlar” muammosini hal qilishga hozircha erisha olmadi.

Aftidan, mamlakat tashqi siyosiy yo'lining o'zgarish jarayoni haligacha davom etmoqda. Yaponiya kelajakda OTOMda va dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallashi kutilmoqda.

5.2. Koreya Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari

Dars maqsadi:

- talabalar Koreya Yarimoroli davlatlaridagi siyosiy vaziyat borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;

- talabalarga Koreya Yarimoroli davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimida tutgan mavqei borasidagi to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *Sharqiy Osiyo mintaqasi, Koreys urushi, Kim Ir Sen, Kim Chen Ir, Koreya yarimoroli, KXDR, Koreya Respublikasi.*

Janubiy Koreyaning 1997-yildagir inqirozgacha bo'lgan ildam iqtisodiy rivoji "Sharqiy Osiyo Mo'jizasi" deb atalgan. Uch dekada shiddatli iqtisodiy rivojlanish kambag'al agrar mamlakatni dunyodagi o'n ikkinchi iqtisodiy-eksport davlatiga aylantirdi. 1996-yil 12- dekabrda Koreya iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT)ga qabul qilinishi haqiqatan Koreyaning avjga chiqqan payti bo'ldi. Koreyaning bunday tez rivoji yuqori darajadagi jamg'arma va sarmoyaga katta yordam berdi, shuningdek milliy ta'limning taraqqiy topishiga rag'bat bo'ldi. Shuning evaziga bugungi kunda bir qancha yosh o'g'il-qizlar dunyoning eng mashxur oliygohlarida ta'lim olishmoqda.

Lekin rivojlanishga bo'lgan yo'l oson bo'lmadi. Bu yo'lga ergashish turli qiyinchiliklarni yengib o'tishni talab etdi. 1945-yili Yaponiya qaramligidan ozod bo'lganidan so'ng milliy iqtisodiyotni rivojlantirish xalqning hayot-mamot masalasiga aylandi. Tabiiy boyliklarning cheklanganligi, ichki bozorning zaifligi, va iqtisodiy rivojlanish tajribasiga ega bo'lmasligiga qaramay, Koreya milliy iqtisodiyotni barqaror va mustaqil rivojlanishini amalga oshirdi.

1950-1953-yillarda bo'lib o'tgan Koreya urushi Janubiy Koreya iqtisodiyoti rivojlanishiga katta zarar yetkazdi. Bir xalqning o'zaro urushib ikki qismga bo'linishi Koreya tuprog'iga buzg'unchilik va alamli xotiralarni qoldirdi. Urush qurbonlari va nogironlar soni 1.5 mln.ni tashkil etadi. Urushning moddiy zarar qiymati 1953-yil narxlarida 3.1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

Janubiy Koreyaning urushdan ko'rgan zarari 1953-yilgi Milliy Yalpi Mahsulot (YaMM)ning 85%ini tashkil etti. Urushdan keyingi qayta tiklanish davrida (1953-1960-y) rivojlanish darajasi xorijiy davlatlarning yordamlari bo'lishiga qaramay past bo'ldi. Shunday bo'lsada, 1953-yildan 1995-yilgacha o'rtacha milliy yalpi mahsulot o'sishi 7.6%ni, bu esa 21 marta o'sganligidan dalolat berdi.

Bu vaqt davomida aholi yillik o'sishi 2.2%, YaMM real daromadi aholi boshiga 5.6%ni, yani 9.3 marta o'sishni tashkil etdi. 1953-yildan 2007-yilgacha Janubiy Koreya YaMM 2.3 mlrd.dan 1.2 trln AQSh dollariga o'sdi. Aholi boshiga YaMM daromadi qiymati 67 AQSh dollaridan 24600 dollarga o'sganini ko'rsatadi.

1960-yillarda boshlangan iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish sohasida o'z aksini topdi, asosan avtomobilsozlik, neftni qayta ishlash, elektronika, kemasozlik, tekstil va po'latni qayta ishlash sohalari bunga misol bo'la oladi.

Koreyaning o'sha davrdagi iqtisodiy ishlash tizimini quyidagicha izohlash mumkin. 1961-yildan boshlanib 1979-yilga qadar davom etgan qo'mondon Pak Jong Hi davlat rahbarligi davrida dunyodagi mavjud siyosiy ziddiyat sababli Janubiy Koreyaga g'arb davlatlari va Yaponiya sarmoya qila boshladi. Davlat koreys tilida "chebo'l" deb ataluvchi katta korxonalarni rivojlantirish maqsadida chet eldan kelgan sarmoyani ular uchun quyi foizlarda foydalanishiga ruxsat berildi. Bunga asos katta korxonalarining rivojlanishi, keyinchalik kichik va o'rta biznesni rivojlanishiga sabab bo'lishiga ishonch edi. Qo'mondon Parkning eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish siyosati 5 yillik rejalar asosida muvaffaqiyatlik amalga oshirildi.

Iqtisodiyot asosiy qismini qishloq xo'jaligi tashkil qilgan yillar ham bo'lgan. Endilikda esa Janubiy Koreya qayta ishlash sohasi bilan g'ururlansa bo'ladi, chunki 1997-yilning o'zida YaMM ning 25.7%ini ishlab chiqarish tashkil etdi. 1997-yilgi YaMM 5%ga, 1996-yil 6.8%ga, 1995-yil esa 8.9%ga o'sish kuzatilgan edi. 1998-yil YaMM o'sishi 6.7% manfiy ko'rsatkichni tashkil etdi. Buning asosiy sababi 1997-yilda Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlarida iqtisodiy inqiroz oqibatidir. Xorijiy sarmoyadorlarning Xitoy kabi boshqa rivojlanayotgan davlatlarga sarmoyalarini ko'chirishi bilan iqtisodiy ahvol yanada salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishiga qaramay, 1999- yil YaMM o'sishi 10.9%, 2000-yil 9.3%, 2001-yil 3%, 2002-yil 6.3%ni, 2007-yil 4.8%ni va miqdori 1.2 trillion AQSh dollarini tashkil etdi.

Siyosiy sohaga keladigan bo'lsak Janubiy Koreya prezidenti etib ilk bora ayol kishi saylandi. Bu haqida "Yonhap" axborot agentligi asosida Lenta.ru internet nashri deya xabar beradi Koreya OAV. Janubiy Koreya Markaziy saylov qo'mitasi hisob-kitoblariga ko'ra, hukmron "Senuri" partiyasidan nomzod qilib ko'rsatilgan Pak Kin Xe nomzodi saylovlarda g'olib chiqqan. 78,6 foiz saylov byulletenlari hisoblar chiqilganidan keyin ma'lum bo'lishicha, Pak Kin Xe saylovchilarning kamida 51,5 foiz ovozi to'plashga muvaffaq bo'lgan. Uning eng yaqin ta'qibchisi, muxolif Birlashgan demokratik partiyadan nomzod qilib ko'rsatilgan Mun Chje In 48 foiz ovozi to'plagan.

Saylov uchastkalaridan chiqishda o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, Pak Kin Xe 50,1 foiz ovoz to'plash bilan saylovlarda g'alaba qozonishi taxmin etilayotgan edi.

Pak Kin Xe 60 yoshda bo'lib, uning otasi Pak Chon Xi (Park Chung-hee) ham Janubiy Koreya prezidenti bo'lgan. U 1961 yilgi davlat to'ntarishi natijasida davlat tepasiga kelgan. U o'zining muvaffaqiyatli iqtisodiy siyosati, shuningdek, qatag'onlari bilan mashhur. U bir necha bor mamlakatda favqulodda holatni joriy etgan va o'ziga parlament ustidan nazorat o'rnatish imkonini beradigan konstitutsiyani qabul qilishga muvaffaq bo'lgan. Pak Chon Xi 1979-yili Janubiy Koreya Markaziy razvedka boshqarmasining rahbari tomonidan o'ldirilgan.

Saylovoldi kompaniyasi davomida Pak Kin Xe o'z otasining rejimini bir necha bor tanqid ostiga olgan edi. Sentyabr oyida esa u otasining jinoyatlari uchun omma oldida kechirim so'rab, u jinoyatlar Janubiy Koreyaning siyosiy taraqqiyotiga sekinlashtirgani va konstitutsiyaviy qadriyatlarga zarar yetkazganini ma'lum qilgandi.

O'zbekiston Respublikasi Janubiy Koreya mamlakatlari orasidagi masofa ancha uzoq masofani tashkil qilsada, lekin ular orasidagi ikki tomonlama hamkorlik masofani ahamiyatini yo'qotadi. O'zbekiston hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalishi qisqa fursatda farovonlikni oshirish strategiyasi hujjatida ifodalangan. Ushbu strategiya bo'yicha O'zbekiston o'zining manfaatini muhofaza qilish bilan birga, jamiyatni isloh qilish orqali xalqaro hamjamiyatga qo'shilish shart-sharoitlariga katta ahamiyat berdi.

1991-yilning 30-dekabrda Koreya Respublikasi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari orasida birinchilardan bo'lib O'zbekiston mustaqilligini tan oldi. 1992-yil 29-yanvar kuni Moskvada ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilishi haqidagi protokol imzolandi.

2006 -yilning 28-30-martida Seulda bo'lib o'tgan uchrashuvda ikki davlat rahbari tomonidan O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya imzolandi.

Mamlakatlarimiz BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar hamda moliyaviy institutlar doirasida yaqindan hamkorlik qilmoqda. Qayd etilganidek, amalda mamlakatlarimizning global va mintaqaviy ahamiyatga molik barcha dolzarb masalalar bo'yicha nuqtai nazari va yondashuvlari an'anaviy tarzda o'xshash va yaqindir. Bu esa xalqaro maydonda bir-birining taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun puxta zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Koreya Respublikasi rahbariyatining «sof rivojlanish» sohasi va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirish borasidagi siyosatini inobatga olgan holda, 2012-yilda BMTning iqlim

o'zgarishlari bo'yicha o'n sakkizinchi konferensiyasi Seul shahrida o'tkazilishini yoqladi.

Ayni paytda Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 2018-yilgi qishki olimpiya o'yinlariga mezbon etib Phyon-chhan shahrini tanlashga oid qarori O'zbekistonda mamnuniyat bilan qabul qilindi.

Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan Markaziy Osiyo yadro qurolidan holi hududga aylangani hamda O'zbekistonning Markaziy Osiyoda barqarorlikni saqlash va birgalikda taraqqiyotga erishishdagi o'rni va bunga qo'shayotgan hissasi Koreya Respublikasida yuksak qadrlanadi. Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan fikr almashuv chog'ida ushbu mamlakatdagi voqealar Afg'oniston muammosini faqat harbiy yo'l bilan hal qilib bo'lmasligini yaqqol ko'rsatayotgani ta'kidlandi. Yurtboshimiz Prezident Li Myon Bakning tashriflari ikki tomonlama munosabatlar tarixidagi muhim voqea ekanini, qaror topgan siyosiy muloqot mantiqiy va izchil davom etayotganidan hamda davlatlarimiz va halqlarimiz o'rtasidagi sheriklik va hamkorlikka yanada kuchli sur'at bahsh etish borasidagi qat'iy azmu shijoatning mushtarakligidan dalolat sifatida baholanishini ta'kidladi.

O'zbekiston Koreya Respublikasini shiddat bilan rivojlanib, oldinga intilayotgan, iqtisodiy va insoniy mezonlar bo'yicha ilg'or mamlakatlar safida turadigan hamda raqobatbardosh industrial-iqtisodiy, ilmiy-intellektual va yuksak texnologik salohiyatga ega bo'lgan zamonaviy davlat, deb biladi.

Bugungi kunda O'zbekiston-Janubiy Koreya munosabatlari davlatlararo va hukumatlararo darajada, iqtisodiy va tijoriy tuzilmalar, firma va kompaniyalar hamkorligi nuqtai nazaridan, jumladan, gumanitar sohada ham tom ma'noda yetuklik, har tomonlama puxtalik kasb etib, o'zaro manfaatdorlik asosida rivojlanmoqda va mamlakatlarimiz xalqlari manfaatlariga xizmat qilmoqda. Tomonlar o'rtasida muvaffaqiyatli va o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy hamkorlik borasida katta tajriba to'plandi. Koreya Respublikasi mamlakatimizning eng yirik savdo sheriklaridandir. O'zaro hamkorlik davrida Koreya Respublikasi tomonidan O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan sarmoyaning umumiy hajmi 5 mlrd. AQSh dollaridan oshdi, o'zlashtirilgan, asosan to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar hajmi 2 mlrd. AQSh dollaridan ko'proqni tashkil qiladi.

O'zbekistonda yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish va mavjudlarini modernizatsiya qilish uchun Janubiy Koreyadan zamonaviy texnologiyalar jalb qilish ikki tomonlama hamkorlikning asosiy yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov Janubiy Koreya sobiq Prezidenti Li Myon Bakning tashriflari doirasida ikki tomonlama sarmoyaviy hamkorlikka oid g'oyat muhim loyihaning amaliy ijrosi - Ustyurt gaz-kimyo majmui qurilishi boshlanishini, unga ramziy tamal toshi qo'yilishini alohida ta'kidladi. Bu majmuani barpo etish ishlariga 2,6 mlrd. dollardan ortiq to'g'ridan-to'g'ri sarmoya kiritish rejalashtirilmoqda.

Davlatlarning o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlari katta. Ikki mamlakat o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 2010-yili 1,6147 mlrd. AQSh dollaridan oshdi. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida esa mazkur ko'rsatkich 780 mln. AQSh dollariga yetdi. Yurtimizda koreyalik hamkorlar bilan tashkil etilgan 360 qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, 84 koreys kompaniyasi esa o'z vakolatxonasini ochgan.

O'zbekiston neft-gaz, kimyo, tog'-kon, mashinasozlik, elektrotexnika, farmasevtika va yengil sanoatga, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish texnologiyalarini joriy qilish sohalariga Janubiy Koreya kompaniyalarining sarmoya va zamonaviy texnologiyalarini yanada keng jalb etishdan manfaatdor. Navoiy shahrida erkin industrial-iqtisodiy zonasini rivojlantirish hamda qit'alararo logistika markazini barpo etish loyihasi koreys hukumati va ishbilarmon doiralari tomonidan qo'llab-quvvatlangani yuksak qadrlanadi. «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasidagi dastlabki mahsulot aynan koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda ishlab chiqarilganida, shubhasiz, chuqur ma'no bor. Navoiy shahri aeroporti negizidagi qit'alararo intermodal boshqarayotgan «Korean Eyr» aviakompaniyasining faoliyati ham diqqatga sazovordir. Bugungi kunda Seul, Milan, Bryussel, Frankfurt, Bangkok, Mumbay, Istanbul, Dubay kabi yirik shaharlarga xaftasiga amalga oshirilayotgan 24 qatnovga qo'shimcha ravishda Hanoy, Riga, Shanhay va boshqa yo'nalishlar bo'yicha yuk tashishni yo'lga qo'yish rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston bilan Janubiy Koreya o'rtasida madaniy-gumanitar sohalarida serqirra aloqalar qaror topganini ta'kidlab, kelgusida ta'lim, jumladan, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOISA) yo'nalishi bo'yicha, tibbiyot, sayyohlik, sport sohalarida, shuningdek, talabalar almashuvi va ilmiy-akademik doiralarning munosabatlari kabi sohalarida o'zaro hamkorlikni yanada faollashtirish uchun barcha qulay shart-sharoitni yaratishga tayyor ekanliklarini bildiradi.

Janubiy Koreya rahbarining tashabbusi bilan Toshkent shahrida barpo etilayotgan Seul bog'i xalqlarimiz o'rtasida yil sayin rivojlanib borayotgan do'stlik va hamkorlik rishtalarining o'ziga xos ramzi bo'lishiga shubha yo'q. ham o'zbek, ham koreys halqi uchun qadrlil bo'ladigan bu bog'

O‘zbekiston poytaxtining eng so‘lim go‘shalaridan birida ko‘hna Koreya madaniyati yog‘du taratadigan go‘zal maskan vazifasini o‘taydi. Ikki mamlakat madaniyat va san‘at namoyandalari O‘zbekiston va Janubiy Koreyada o‘tadigan xalqaro madaniy tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Xususan, 2013-yil Samarqandda bo‘lib o‘tgan navbatdagi «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivaliga Janubiy Koreyadan ham san’atkorlar tashrif buyurishdi.

Shuningdek, sanoat va energetika sohasida hamkorlik, injinering xizmati, uskuna yetkazib berish va qurilishga oid qator hujjatlar imzolandi. Umumiy hisobda yigirmadan ziyod hujjat imzolanishi rejalashtirilgan bo‘lib, ular O‘zbekiston-Janubiy Koreya strategik sherikligini ko‘plab sohalarda yangi mazmun bilan boyitish va o‘zaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asosini yanada mustahkamlashga qaratilgan.

I.Karimov O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘lida bosib o‘tgan barcha yillar davomida Koreya Respublikasi mamlakatimizning vaqt sinovidan o‘tgan va har jihatdan ishonchli strategik sherigi bo‘lib kelgani va bo‘lib qolishini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani tubdan isloh qilish va chuqur modernizatsiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli milliy dasturlarimizni amalga oshirishda yurtimizni qo‘llab-quvvatlayotganini ta’kidladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlatimiz rahbari qayd etganidek, uzoq muddatli hamkorlik yo‘lida bosib o‘tilgan samarali yo‘lga xolisona baho berib, shuni aytish mumkinki, Koreya Respublikasi O‘zbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish bo‘yicha milliy dasturlarni amalga oshirishda hamda jahon hamjamiyatiga bosqichma-bosqich integratsiyalashishda mamlakatimizni keng qo‘llab-quvvatlagan, vaqt sinovidan o‘tgan va har jihatdan ishonchli strategik sherikdir.

Savdo, fan va texnologiyalar, investisiya kafolatlari to‘g‘risidagi, ikki tomonlama soliq ushlanishidan himoyalanih to‘g‘risidagi asosiy bitimlardan tashqari, tabiiy zaxiralarni o‘zlashtirish, axborot texnologiyalari va sayyohlik to‘g‘risidagi memorandumlar imzolangan. Ushbu hujjatlar o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga zarur huquqiy va texnikaviy asos yaratdi.

O‘zbekiston Seulning Shimoliy va Janubiy Koreya o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali Koreya yarim orolida tinchlikni mustahkamlash va Janubiy-Sharqiy Osiyo umumiy taraqqiyotiga yo‘naltirilgan “Tinchlik va farovonlik” siyosatini ham ma’qullaydi.

Koreya Respublikasi O‘zbekistonning Jahon Savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi, uning xalqaro iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. Koreya Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq uni Markaziy Osiyodagi o‘zining eng muhim sherigi deb hisoblaydi va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni,

iqtisodiyotimizni rivojlantirishga yirik investisiyalar berish orqali qo‘llab kelmoqda.

Siyosiy hamkorlik darajasini belgilab berayotgan yana bir omil - harbiy-texnikaviy sohada aloqalarning mustahkamlanishidir.

Munisipal darajada, shu jumladan, ikki mamlakat poytaxti - Seul va Toshkent o‘rtasida ham yaqin hamkorlik aloqalar yo‘lga qo‘yilmoqda.

Ikki mamlakat o‘rtasida savdo va iqtisodiyot, mineral zaxiralar, neft va gaz ishlab chiqish sohasida hamkorlik aloqalarining kengayishi munosabati bilan yaqin yillarda ikki tomonlama tovar ayrboshlash hajmi sezilarli ravishda ko‘payishi kutilmoqda.

Koreyaning iqtisodiyotimizga kiritgan investitsiyalari 1-mlrd AQSh dollaridan oshdi. O‘zbekiston mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o‘rin tutadi. Qolaversa, ikki davlat rahbarining ikki tomonlama tashriflari tufayli tabiiy energetika zaxiralarini o‘zlashtirish borasidagi hamkorlik jadal rivojlana boshladi.

Bu sohalardagi loyihalarni amalga oshirish uchun 1.8 mlrd AQSh dollari miqdorida mablag‘larni jalb etish ko‘zda tutilmoqda. Masalan, “O‘zbekneftegaz” holding kompaniyasi va Koreya neft korporatsiyasi o‘rtasida Farg‘onada geolog-qidiruv ishlarini amalga oshirish bo‘yicha imzolangan bitimning moliyaviy asosi 50 mln. AQSh dollarini tashkil etadi. Masalan, “O‘zbekneftegaz” xolding kompaniyasi va “KOGAZ” kompaniyasi o‘rtasi tuzilgan bitimga ko‘ra, Ustyurda geolog-qidiruv ishlarini amalga oshirishga 62,4 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritish rejalashtirilmoqda. Tashkil etilishi mo‘ljallagan “O‘zkores Mayning” qo‘shma korxonasi Ta‘sis shartnomasining qiymati 204,2 mln. AQSh doll.teng bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining Koreyaning Ekschenj banki bilan tuzgan kredit bitimi 20 mln. AQSh doll., O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Koreyaning Eksimbanki o‘rtasida mamlakatimiz o‘rta maktablarini ahborotlashtirish loyihasi haqida tuzilgan bitimga ko‘ra, bu sohaga 30 mln. AQSh doll. kiritish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston eksportining yarmidan ko‘pini pahta tolasi, qolgan qismini gazlama va ip, transport, sayyohlik, sug‘urta, ahborot, transport-ekspeditorlik xizmatlar tashkil etadi.

Importning asosiy moddalarini avtomobillarga ehtiyot qismlar, plastmassa va undan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, mehanik uskuna, tekstil materiallar, mebel, qora metallar va ulardan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, elektr uskunalar, xizmatlar, shu jumladan, transport, sug‘urta, ahborot xizmatlari hamda mualliflik va litsenziya to‘lovlari tashkil etdi.

Koreyaning Eksport-import banki tomonidan O‘zbekistonga berilgan kreditlarning umumiy miqdori 103 mln.doll.tashkil etdi.

Shuningdek, Koreyaning Eksimbanet tomonidan “O‘zDEUavto” AJda “Matiz” rusumidagi avtomobilning yangi modelini ishlab chiqarishga 35,9 mln. AQSh doll., shoyi to‘qish korxonalarini qayta jihozlashga 2,5 mln. AqSh dollari miqdorida tijorat kreditlari ajratilgan.

O‘zbekistonda 1995-yildan akkredetatsiya qilingan Koreya xalqaro hamkorlik Agentligi (KOIKA) bilan hamkorlik izchil rivojlanib bormoqda. 1992-2004-yillar davomida KOIKA tomonidan O‘zbekistonga ko‘rsatilgan moliyaviy yordam miqdori 14 mln. dollardan oshdi. KOIKANing stajirovka dasturi doirasida mamlakatimizning turli vazirlik va idoralari vakillaridan 630 nafar kishi Koreya Respublikasida malaka oshirib qaytdi. Mazkur tashkilot orqali qar yili 40 nafar kishi malaka oshirish uchun Koreya Respublikasiga borib kelmoqda.

Mamlakatimizda janubiy koreya investisiyalari ishtirokida tashkil etilgan 138 ta korxonalar (shundan 17 tasi 100 foiz koreya sarmoyalari asosida) faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, yurtimizda 37 ta koreya kompaniyalari vakolathonalari ro‘yhatga olingan.

1994-yildan iqtisodiy hamkorlik va savdo bo‘yicha o‘zbek-koreya va koreya-o‘zbek qo‘mitalari faoliyat olib bormoqda. 2003-yil Toshkentda Afg‘oniston iqtisodiyotini tiklash bo‘yicha ikki tomonlama idoralararo Ijroiya qo‘mitasining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

2004-yilning may oyida madaniy masalalar bo‘yicha ikki tomonlama qo‘mita tashkil etilib, uning dastlabki yig‘ilishi Toshkentda o‘tkazildi.

Ikki davlat o‘rtasida parlamentlararo almashuvi muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. 1995-yilda KR Milliy Assambleyasida “Koreya-O‘zbekiston” do‘stlik Assosiativasi tuzildi.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga Janubiy Koreyaning jami to‘g‘ridan to‘g‘ri investisiyalarning hajmi 2 mlrd. doll. oshgan.

KR Eksimbanki Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik Jamg‘armasi (EDCF) tomonidan taqdim etilgan imtiyozli kreditlar 117 mln. doll. tashkil etgan.

O‘zbekiston hududida turli xil loyihalarda Koreya kompaniyalarning ishtiroki sezilarli darajada ko‘zga ko‘rinib bormoqda. Ular orasida neft va gaz konlarini ishlab chiqish va gaz-kimyolar komplekslarini barpo etish, turar joy va tijorat komplekslarini barpo etish, korxonalar aktivlarini sotib olish yo‘li bilan xususiylashtirish jarayonida ishtirok etish, to‘qimachilik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida qo‘shma korxonalar yaratish bo‘yicha ish olib bormoqda.

Koreyalik tadbirkorlar ishtirokida Navoiy erkin industrial iqtisodiy zonasini yaratish bo‘yicha jadal ishlar amalga oshirilib borilmoqda. Bugungi kunda tarkibiga Navoiy sh. aeroportini boshqarish xuquqiga ega bo‘lgan «Korean Eyr» kiruvchi «Xandjin grup» kompaniyalar guruhi

tomonidan aeroportning qayta ta'mirlash va yangi infratuzilmalarni yaratish ishlari amalga oshirilib bitkazildi.

Navoiy shahri aeroporti asosida xalqaro logistik markaz yaratish bo'yicha dasturining ilgari surilishida muhim qadamlardan Seul shaxrida 3-5-mart kunlari o'tkazilgan "Navoiy shaxridagi erkin industrial iqtisodiy zonasi: koreys hamkorlar uchun yangi investitsion imkoniyatlar" konferensiyasi bo'ldi. Konferensiya ishida 1300dan ortiq kompaniya va korxonalar, moliyaviy institutlar rahbarlari va namoyondalari ishtirok etdi.

O'tkazilgan ko'rgazmalar natijasida Janubiy Koreya tadbirkorlari Navoiy EIIZ doirasidagi dasturlarni investisiyalashtirish va rivojlantirishga yuqori qiziqish bildirishmoqda.

1992-yildan Toshkentda Koreya ta'lim markazi faoliyat olib borayotgan bo'lib, tanlov asosida Koreyada til o'rganish bo'yicha amaliyotlarini, oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalari uchun malaka oshirish kurslarini o'tkazib kelmoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti va Samarqand davlat jahon tillari institutida Koreys tili va madaniyati va kompyuter markazlari ish olib bormoqda. O'tgan davr mobaynida KR Toshkentdagi elchixonasi ko'magida ular eng yangi adabiyot, video va audiokassetalar bilan jihozlanishdi.

Respublika bo'yicha jami 9 oliy o'quv yurtida koreyashunoslik kafedralari ochilgan va 22 maktabda koreys tili o'rgatiladi.

1999-yildan "O'zbekiston-Koreya" do'stlik jamiyati ish olib bormoqda.

5.3. KXDR yadroviy dasturi va ikki Koreya birlashuvi muammosi

Dars maqsadi:

- talabalar Koreya Yarimoroli davlatlaridagi siyosiy vaziyat borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Koreya Yarimoroli davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimida tutgan mavqei borasidagi to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *Sharqiy Osiyo mintaqasi, Koreys urushi, Kim Ir Sen, Kim Chen Ir, Koreya yarimoroli, KXDR, Koreya Respublikasi.*

Koreya yarim orolida ikki davlatning yuzaga kelishi boshlangan “sovuq urush”ning natijasi edi. 1948-yilda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi va Koreya Respublikasi tashkil topdi.

Xitoydagi urush yakunlangandan va XXR tashkil topgandan so‘ng, Koreya yarim oroli “sovuq urush”ning qarama-qarshilik markazi bo‘lib qoldi. 1950-1953-yillardagi Koreys urushi yarim orolni Shimol va Janubga ajralib ketishini ta‘minladi. “Sovuq urush” yillarida AQSh Koreya Respublikasi xavfsizligini ta‘minlashni o‘z bo‘yniga oldi. 1954-yilda KR va AQSh o‘rtasida o‘zaro mudofaa haqidagi shartnoma imzolandi. Har ikki tomon harbiy tajovuz chiqqan holda bir-birlariga yordam berishga kelishishdi. Janubiy Koreya hududida AQSh qurolli kuchlari bazalari va yadroviy qurol joylashtirildi. 1978- yilda Janubiy Koreya armiyasi va KRda joylashtirilgan AQSh qurolli kuchlari harakatlarini uyg‘unlashtirish uchun birlashgan qo‘mondonlik shakllantirildi.

Janubiy Koreya qurolli kuchlari mustahkamlangani sari xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning ayrim jihatlari o‘zgara boshladi. KR ikki mamlakatning harbiy sohadagi muhim rolni o‘ziga ola boshladi. Janubiy Koreya, iqtisodiy rivojlangani sari, KRda AQSh qurolli kuchlari hozirligi xarajatlarining yanada katta qismini to‘lay boshladi. 1994-yil oxirida Janubiy Koreya qurolli kuchlari faoliyati ustidan nazorat tinch davrda KRga topshirildi.

KXDR dunyoda eng harbiylashtirilgan va yopiq davlatlardan biriga aylandi. Shimol va Janub o‘rtasida vaqti-vaqti bilan keskinlik yuzaga kelib turdi. KXDR AQSh va uning Koreya yarim orolining janubidagi qo‘g‘irchoq tuzumiga qarshi turuvchi yagona mustaqil koreys davlati sifatida o‘zini ko‘rsatardi. KXDR mafkurasiga ko‘ra, AQShga qarama-qarshi turish hozirgi dunyoda markaziy hisoblanadi, Koreya yarim oroli esa 1950-1953-yillardagi urushdan boshlab, butun dunyo hamjamiyati uchun asosiy, muhim mintaqaga bo‘lib qoldi.

1960-yillarda Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlanish sur‘ati bo‘yicha KXDRni ortda qoldira boshladi. Mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar nihoyatda keskin bo‘lib qoldi. “Sovuq urush” tugashiga yaqin KXDR va KR o‘rtasidagi muloqotni boshlash uchun zamin yaraldi. Tashqi yordamning qisqarishi KXDR uchun og‘ir iqtisodiy oqibatlariga olib keldi.

1990-yillar boshida KXDR ancha ochiq tashqi siyosiy yo‘lga intilishi yanada ravshanlasha boshladi. Shimoliy Koreya Yaponiya, Janubiy Koreya va AQSh bilan muloqot qila boshladi.

Yaponiya va KXDR o‘rtasida aloqalarni o‘rnatish jarayonlari bir maromda kechmadi. 1991-yil, 1992-yillarda boshlangan muzokaralar uzulib qoldi. 1992-yilda bosh vazirlar darajasida sakkiz raundlik muzokaralar olib borildi va Koreya Shimoli va Janubi o‘rtasida normal

aloqalarni o'rnatish yo'lida muhim qadam qo'yildi. KXDR va KR yarashish (murosa), hujum qilmaslik, almashinuv va hamkorlik to'g'risidagi shartnomalarni imzolashdi. Boshlangan o'zaro amerika-janubiy koreys harbiy mashg'ulotlar muzokara jarayonini to'xtatib qo'ydi.

1993-yilda AQSh va KXDR o'rtasidagi ikki tomonlama muzokaralar boshlandi. 1994-yil 21-oktyabrda Jeneva shahrida imzolangan Ramkali kelishuvni katta yutuq deb hisoblasa bo'ladi. Ushbu kelishuvda Shimoliy Koreya yadro qurolining yaratilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan dasturni to'xtatish majburiyati, AQSh esa alternativ energiya (quvvat) manbasini berishga va'da qilgani qayd etilgan. KXDR KR bilan rasmiy muzokaralarni boshlashga va'da berdi. Chunki AQShning fikricha, Koreya yarim orolida tinchlik masalasi birinchi galda ikki Koreya o'rtasida hal qilinishi lozim. Biroq Shimol va Janub o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivoji rasmiy e'tirof etilishiga olib kelmadi. Xavfsizlik masalalarini hal qilishda KXDR AQSh bilan to'g'ridan-to'g'ri muzokara olib borishni talab qildi. Chunki KXDR fikriga ko'ra, Janubiy Koreya hukumati qo'g'irchoq hukumatdir va muzokaralarda mustaqil ishtirok eta olmaydi.

Yadro dasturining ishlab chiqilishi 1961-yildan SSSR va KXDR o'rtasidagi ittifoqchilik bitimining bekor qilinishi va AQSh tomonidan yadroviy tahdid bilan asoslandi.

Boshlangan tinchlik jarayoni KXDRning o'zgarmas rahnamosi Kim Ir Senning o'limi sababli to'xtatildi. KXDRda o'ziga xos rejali iqtisodiyot va harbiy ehtiyojlardagi (yadroviy dasturni inobatga olgan holda) nomutanosib katta xarajatlar, mantiqsiz va oldindan aytib bo'lmaydigan siyosiy tuzum sabab bo'lgan doimiy iqtisodiy bo'hron, ehtimol, mintaqadagi eng nochor mamlakatni beqaror va xavfsizlikka tahdid o'chog'iga aylantirdi.

1996-yilda AQSh va Koreya Respublikasi AQSh, KR, XXR va KXDR ishtirokida muzokaralar olib borish bo'yicha tashabbus bilan chiqishdi. Bu tashabbus 1997-yilda mujassamlantirildi, so'ng esa Rossiya va Yaponiya jalb qilinishi bilan olti tomonlama muzokaralarga o'zgartirildi.

KXDRning Yaponiya hududi tepasidan uchib o'tgan, yangi raketalari sinoviga javoban Yaponiya iqtisodiy sanksiyalar kiritdi va shaxsiy RQM (PRO) rejasini ishlab chiqishga kirishdi.

2001-yilda kichik-Dj.Bush ma'muriyati KXDR bilan vaqtinchalik muloqotni uzdi. Bu bilan bir paytda Shimoliy Koreya pozitsiyasi yanada keskin tus ola boshladi. Birinchi o'ringa tamomila Shimoliy Koreya yadro-raketa dasturi chiqdi.

2002-yil may oyida Xitoy rahbarining KXDRga qilgan tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamladi. O'sha yili KR rahbari XXRga davlat tashrifi bilan keldi. 2002-yilda Shimoliy va Janubiy Koreya

o'rtasidagi aloqalarning yo'lga qo'yila boshlanishi XXR tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Aloqalarni yo'lga qo'yilishidagi vaziyatni Shimoliy Koreya rahbarining mantiqsiz xulqi qiyinlashtirmoqda. Misol uchun, 2000- yilda Kim Chen Ir kosmosni o'zlashtirishdagi yordam evaziga raketa dasturidan voz kechish ehtimoli haqida ma'lum qildi. Buning ketidan, o'z bayonotini bekor qildi, keyinchalik esa ushbu masalaga yana qaytdi.

KXDRning olti tomonlama muzokaralardagi ishtiroki ham mantiqsiz bo'ldi. Vaqti-vaqti bilan Shimoliy Koreya muzokaralarni tark etishini ma'lum qilardi. Misol uchun, 2004-yilda KXDR olti davlat vakillarining navbatdagi uchrashuvini tayyorlash bo'yicha ishchi guruhda ishtirok etishdan bosh tortdi. Rad javobiga KXDR fuqarolariga boshpana bergan Janubiy Koreya harakatlari asos qilib ko'rsatildi. Shimoliy Koreya KR o'z fuqarolarini o'g'irlashda ayiblagi va bu ishlarga, munosabatlarning keskinlashishiga aloqador bo'lgan mamlakat sifatida Vetnamga po'pisa qildi.

KXDRning olti tomonlama muzokaralardagi pozitsiyasi (o'rni), odatda, muhosasiz edi. Shimoliy Koreya fikriga ko'ra, AQSh, yetarlicha taklif qilmagan. AQShning fikricha, Xitoy, yetarlicha tazyiq ko'rsatmagan.

2005-yil 19-sentyabrda olti tomonlama muzokaralar ishtirokchilari O'zaro bayonot imzolashdi. Unda, xususan, yadro qurolini yaratish dasturining to'xtatilishi va Yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi shartnoma va Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik kafolati doirasiga qaytish haqida so'z yuritilgan.

2005-yil fevralda KXDR yadro qurolini yaratganini rasmiy ravishda ma'lum qildi. 2006-yil 3-oktyabrda KXDR TIVi hozirlanayotgan yadro portlash haqida ma'lumot berdi, ozginadan so'ng esa Shimoliy Koreya yer osti sinovini o'tkazdi. Bunday harakatlar butun dunyo hamjamiyati tomonidan qoralandi.

KXDR va KR Kim Ir Senning tashabbusi bilan Koreya yarim orolini yadrosiz hudud deb e'lon qilingani haqida imzolangan o'zaro deklaratsiyaga qaramay, 1993-yilda KXDR Yadro qurolini tarqatmaslik haqidagi kelishuvdan chiqqan edi. 1993-yil may oyida BMT Xavfsizlik Kengashi 825-qarorni qabul qildi. KXDR maqsadlaridan tashvishga tushgan BMT XK MAGATEni vaziyat ustidan nazorat qilish masalasini yo'lga qo'yishga, KXDRni esa Yadro qurolini tarqatmaslik kelishuvini bajarishga qaytishiga chaqirdi.

2006-yil 15-iyulda BMT Xavfsizlik kengashi 1695-qarorni qabul qildi. Qarorda BMT KXDR ballistik raketalarini ishga tushurishini qoraladi, raketalarni ishga tushirishda moratoriylarni qaytadan tiklashni talab qildi, KXDRga yadro-raketa dasturini amalga oshirish uchun texnologiya va

material bermaslikni davlatlarga majburiyat qilib yukladi va olti tomonlama muzokaralarni yangidan boshlashga chaqirdi.

Bularga javoban KXDR, uning bayonotiga ko'ra, 2006-yil 9-oktyabrda yadro quroli sinovini o'tkazdi. 2006-yil 14 oktyabrda BMT XK yangi – 1718-qarorni qabul qildi. Unda Shimoliy Koreya harakatlarini qoralab, KXDRdan yadro sinovlari va raketa uchirishni to'xtatishini, YaQTK va raketa sinovlari moratoriysiga qaytishni, OQQning barcha turidan voz kechishini, olti tomonlama muzokaralarga qaytishini talab qildi. BMT XK barcha mamlakatlarni KXDRga har qanday oddiy, shuningdek, OQQ bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu shakldagi qurol-yarog'ni yetkazib berishni to'xtatish bo'yicha chora ko'rishlariga chaqirdi. Shimoliy Koreyaga qo'yilgan sanksiya (jarima)lar moliyaviy-iqtisodiy tomonlama ta'sir etish, KXDR rahbariyati uchun chet el safarlariga cheklov qo'yish va boshqa choralarni o'z ichiga oladi.

2007-yilda KXDR yadro dasturini to'xtatganligi haqida ma'lum qilib, yana muzokaralarga qaytdi. KXDRni yadrodan qurolsizlantirish bo'yicha qaytadan tiklangan olti tomonlama muzokaralarda mamlakatlar xavfsizlikka kafolat va energetika sohasida yordam evaziga Shimoliy Koreya yadro ob'ektlarini ishdan chiqarish haqida bir to'xtamga kelishdi. Bu kelishuvlarga erishilishi Shimoliy va Janubiy Koreya o'rtasidagi muzokaralarning qayta tiklanishida asos bo'lib xizmat qildi. 2007-yil may oyida KXDR rahbarining Seulga tashrifi o'zaro rivoj, tinchlik va ravnaq topish bo'yicha ilgariroq erishilgan bitimlarning bajarilishini siljishiga olib keldi.

Sariq dengizda alohida tinchlik va hamkorlik hududini yaratish bo'yicha muzokaralar muhim ahamiyatga ega. Suv ayirg'ichidagi bahsli chegara birgalikda o'zlashtirish hududi bo'lib qolishi lozim.

Shimoliy va Janubiy Koreya o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy hamkorlikning kengayishi Shimolning rivojida va ikki davlat birlashishi maqsadi yo'lida katta ahamiyat kasb etishi lozim. Shimoli va Janubiy Koreya temir yo'llarini birlashtirish loyihasining amalga oshishi nafaqat Koreya yarim oroli uchun, balki Rossiyaning Transsibir magistrali KXDR temir yo'llariga ulangani sababli Rossiya uchun ham pozitiv imkoniyat keltiradi.

2007-yil oktyabrda Koreya Respublikasi rahbari KXDRga tashrif buyurdi. Ilgari erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, tinchlik va farovonlik sari bo'lgan siljish, hukumat rahbarlari darajasidagi muzokaralarning tiklanishi uchrashuvning muhim mavzulari bo'ldi. Bu uchrashuvdan so'ng ikki mamlakat Shimoliy va Janubiy Koreyaning birlashishi jarayoniga ko'maklashish uchun BMTga iltimos bilan murojaat qilishdi.

KXDR uchun XXR bilan bo'lgan aloqalar muhim ahamiyat kasb etadi. XXR KXDRga iqtisodiy yordam ko'rsatmoqda va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirmoqda. Chegara mudofasi sohasidagi hamkorlik haqidagi xitoy-koreys bitimi chegara hududlarida o'zaro ta'sir ko'rsatishning yaxshilanishiga, shu bilan bir qatorda, KXDRdan noqonuniy ko'chib o'tishning oldini olishga qaratilgan.

XXR KXDRga xavfsizlik kafolatini bergan holda Koreyani denuklearizatsiya qilishni yo'qlab chiqmoqda. XXR KXDR yadro sinovlarini qoralab, olti tomonlama muzokaralar yadro muammosini hal etishning eng maqbul yo'li deb hisoblaydi. XXR AQSh va KXDRni faqat tinch yo'l bilan hal etilishi lozim deb topgan yadro muammosining asosiy tomonlari deb hisoblaydi. XXR Janubiy Koreya bilan hamkorlik va sherikchilik aloqalarini tutib turibdi.

XXR kabi pozisiya (o'rin)ni Rossiya ham tutib turibdi. 1990-yillarda KXDRga ko'rsatiladigan iqtisodiy yordamning to'xtatilishi Koreya Shimolini ocharchilik yoqasida qoldirdi. XXI asr boshidan Rossiya KXDR bilan asta-sekin an'anaviy do'stona aloqalarni yo'lga qo'yimoqda.

Yaponiya, AQShning ittifoqchisi bo'lib, Koreya muammosi bo'yicha bir oz farq qilgan pozisiyaga ega. 1965-yilda Janubiy Koreya bilan aloqalarining yaxshilanishiga qaramay, ikki mamlakat o'rtasida muayyan murakkabliklar mavjud. Savdo balansi zamonaviy texnologiyalarga yo'l ochib bermayotgan Yaponiya foydasiga ishlamoqda.

Ayni zamonda KXDR va Yaponiya o'rtasida umuman mo'tadil davlatlararo aloqalar mavjud emas. Koreya Shimoli va Janubining birlashishi Yaponiya uchun qo'shimcha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Koreya yarim orolidagi vaziyatni hal etishning optimal yo'lini topish Yaponiya uchun jiddiy masala hisoblanadi.

Shunday qilib, KXDR hozirgi kunda dunyodagi eng qashshoq, ehtimol shu bilan birga yadro quroliga ega, mamlakatlardan biri sifatida gavdalanadi. Tashqi siyosatning mantiqsiz yo'li, KXDR siyosiy rahbariyatining kutilmagan harakatidan kelib chiqib, Koreya birlashuvi istiqbollari, olti tomonlama muzokaralarda va Koreya Shimoli va Janubining ikki tomonlama aloqalari doirasida yadro masalasi va raketa dasturining hal qilinishini oldindan aytish qiyin.

Nazorat va topshiriq savollari:

1. Jahon xaritasida Shimoliy Sharqiy Osiyo davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?
2. OTOM davlatlari tashqi siyosat konsepsiyasi asosiy o'lchamlari tushunchasiga ta'rif bering ?
3. JShO davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering?

4. JShO davlatlarining AQSh va Yevropa davlatlari bilan munosabatlari nimadan iborat deb o‘ylaysiz ?
5. Bugungi kunda AQShning OTOM siyosati qanday?
6. Uzoq Sharq davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
7. ASEANning bugungi kuni va istiqbollari haqida ma’lumot bering.
8. Yaponiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.
9. Koreyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering
10. “Hozirgi davrda OTOM muammolari” mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
11. “JShO davlatlarida islom omili” mavzusini muhokama etish.
12. Yevropa Ittifoqining JShO davlatlari munosabatlari haqida ma’lumot bering.
13. Shimoliy Sharqiy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tavsif bering.
14. Indoneziyaning jahon hamjamiyatidagi o‘rniga baho bering.
15. Zamonaviy bosqichda KXDR – Koreya Respublikasi munosabatlari qanday?
16. KXDR tashqi siyosatida Yaponiya va Koreya Respublikasining tutgan o‘rni qanday?

Mustaqil ish savollari:

1. Siyosiy xarita yordamida Uzoq Sharq davlatlarini siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering ?
2. AQShning Uzoq Sharqdagi siyosatini xarita yordamida aytib bering?
3. Osiyo mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o‘rganish.
4. Yaponiyaning xalqaro munosabatlardagi o‘rnini yoritib bering.
5. Avstraliya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini tavsiflab bering.
6. Zamonaviy bosqichda Koreya yarimoroli davlatlarda yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
7. “OTOM - Yevropa munosabatlari” mavzusida nutq tayyorlash.
8. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatida ASEAN davlatlari to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash.
9. Xitoy tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini yoritib bering.
10. Yaponiya tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari.
11. Xitoyning OTOM siyosati.
12. “JShO davlatlari va jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz” mavzusida ma’ruza tayyorlang.
13. OTOM davlatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

14. XXI asrda OTOM: yutuq va muammolari mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

15. AQSh tashqi siyosatida ASEAN davlatlari.

6-BOB. YEVROPA DAVLATLARI MINTAQAVIY SIYOSATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

6.1. Yevropa Ittifoqi: maqsadi, vazifalari va faoliyati tamoyillari

Dars maqsadi:

- talabalar Yevropa davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'ri borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Yevropa davlatlarida siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.
- Magistrantlarda davlatni har tomonlama rivojlantirish jarayonida o'ta muhim, o'ziga xos rol o'ynovchi tashqi siyosat va uning maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan xalqaro muzokaralar bo'yicha nazariy bilim va amaliy mahoratni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Yevropa sivilizatsiyasi, Yevropa mamlakatlari, Yevropa Ittifoqi tashqi siyosati, xalqaro nizolar, Yel Sharqqa kengayishi, Yevropa integratsiyasi.*

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi doirasida keng rivojlanib borayotgan integrasion jarayonlarni tarixiy asoslarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yevropa birligi g'oyalari o'z siyosiy ifodasini Yevropa hamjamiyati vujudga kelgunga qadar topgan edi. Tarixchilar fikricha, Yevropani alohida dunyo, insoniyat naslining o'ziga xos oilasi sifatida qarashlar ilk o'rta asrlarga borib taqaladi. Uning yaqqol ko'rinishlarini esa XI asrdan boshlab kuzatish mumkin.

Ma'lumki, dastlab Yevropa birligi g'oyalari siyosiy maqsadlarni ifoda etgan. Ularning asosida mudofaa va harbiy ittifoqlarni tuzish ko'zda tutilgan.

XIX asrning 30-yillarida Juzeppe Madzini Yevropa Qo'shma Shtatlarini tuzish g'oyasini ilgari surdi. 1849-yil nasifistlarining Parij kongressida esa Viktor Gyugo ushbu g'oyani keng ommaga yoydi. V.Gyugo, Yevropa "Yevropa millati boshqaruvidagi birlik, ittifoqchilik arbitraji hamda demokratiyaga" muhtoj ekanligini ko'rsatib berdi. Shunga qaramay, Yevropada bunday ittifoq tashkil topa olmadi. Bunga yetarli tarixiy zamin ham yaratilmagan, harakatga keltiruvchi kuchlar ham mavjud emas edi.

Birinchi jahon urushining tugash davriga kelib, vaziyat boshqacha tus ola boshladi. Bu vaqtda Yevropaning katta qismi vayron bo'lgan edi.

Urush o‘n milliondan ortiq odamlarni hayotdan olib ketdi. Harbiy harakatlar Versal tinchlik shartnomasi tuzilgach to‘xtadi. Aynan shu davrdan boshlab, AQSh Yevropa siyosatida yetakchi rol o‘ynay boshladi. Yana kelib chiqishi mumkin ziddiyatlarni oldini olish uchun esa davlatlar o‘rtasida Millatlar ligasi tuzildi.

I jahon urushi Yevropa siyosiy xaritasidagi o‘zgarishlar bilan yakunlandi. Endilikda bu yerda 38 ta davlat bo‘lib, ular orasidagi chegara uzunligi 8 ming kilometrgacha cho‘zildi. Undan tashqari, AQSh va SSSR Millatlar Ligasida yetarli ahamiyat kasb etishmasdi. Bularning barchasi Yevropada tinchlikning barqaror bo‘lmasligiga xizmat qildi.

Bu oradi Yevropani birlashtirish g‘oyalari yanada avj ola boshladi. Pan Yevropa harakatining yetakchisi bo‘lgan Avstriya grafi Richard Kudenxove-Kalergi, 1923-yil Yevropa Qo‘shma Shtatlari rejasini ilgari surdi. Bu g‘oya asosida mustaqil siyosiy va iqtisodiy Yevropa birlashmasini tuzish turardi. Bir vaqtning o‘zida bu birlashma Sobiq Ittifoqqa, Buyuk Britaniyaga hamda AQShga qarshi qaratilishi mumkin edi.

Kudenxove-Kalergi Yevropa madaniyati dunyoga keng tarqalganini, faqatgina uning siyosiy birligi mavjud emasligini ta’kidlagan. Lekin aytish lozimki, bu g‘oya shunchaki nazariya sifatida qolmadi, balki Kudenxove-Kalergi uni qisman bo‘lsada amalga oshirishga harakat qildi. 1926-yil, Venada ilk bor panYevropa kongressi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi, va natijada PanYevropa Ittifoqi tashkil qilindi. Fransiya tashqi ishlar vaziri A.Brian Ittifoq prezidenti sifatida Millatlar Ligasi ichida Yevropa Ittifoqini tashkil etish rejasini taklif qildi. Lekin bu reja na davlatlar va na siyosiy doiralar ichida qo‘llab-quvvatlandi. Bir tomondan, albatta, Yevropa davlatlari A.Brian rejasiga o‘z suverenitetlariga tahdid sifatida qarashgan. Boshqa tomondan, Millatlar Ligasi butunjahon tashkilotiga aylanmagan bo‘lsa ham, Yevropa davlatlari bu yerda yetakchi o‘rinni egallashardi. PanYevropa federatsiyasining vujudga kelishi esa ularning manfaatlariga javob bermasdi. Tabiiyki, bunday vaziyatda Brian rejasi amalga oshmay qoldi.

Bu orada Yevropada davlatlararo ziddiyatlar keskinlashib bordi. Aynan II-jahon urushi nafaqat boshqa davlatlar uchun, balki Yevropa uchun ham ko‘p yo‘qotishlar hamda achchiq saboqlar bilan yakunlandi. Yevropa iqtisodiyoti izdan chiqqan, ko‘plab shaharlar yer yuzidan yo‘q bo‘lgan edi.

Endilikda urushlar oldini olish hamda xalqaro xavfsizlikni ta’minlash maqsadida, 1945-yil San-Fransiskoda 50 ta davlat vakillari ishtirokida Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) nizomi imzolandi. Shuningdek, G‘arbiy Yevropa davlatlari ham yakka holda mavjud muammolarni hal eta olishmasdi. Urushdan so‘ng shu asnoda Yevropani birlashtirish g‘oyalari

yana avj ola boshladi. Lekin endi mintaqa ikki bir-biriga qarshi turuvchi harbiy-siyosiy va iqtisodiy blokka ajralib qolgan edi. Yevropa sharqida SSSR ta'siri kengayib borib, mintaqadagi davlatlarning hukumat tepasida kommunistik tizim hukmron bo'ldi.

Aynan bu ikki blokning Yevropa integratsiyasiga ta'sir ko'rsatmadi deyish qiyin. Yevropani birlashtirish loyihalari Moskva, Tehron, Potsdam konferensiyalarida ko'rib chiqildi. SSSR ham, AQSh ham Yevropani birlashtirishga salbiy munosabatda bo'lib, ishonchsizlik bilan qarashdi. Demak, aytish mumkinki, Yevropani birlashtirish uni tashqi ta'sirdan himoya qilish, ya'ni "barer"ni vujudga keltirishdan iborat edi.

Masalaning yana bir muhim jihati mavjud; Yevropani birlashtirish g'oyalari Yevropa davlatlarining o'zlari qanday munosabatda bo'lishgan? Ular o'rtasida ziddiyatlar mavjud bo'lganmi?

Bizga ma'lumki, Germaniya Yevropa davlatlari orasida eng kuchli davlatlardan biri bo'lib kelgan. Aynan urushdan so'ng Yevropada Germaniya muammosini yechishda Yevropaning birlashuvi eng to'g'ri yo'l edi. Bundan Germaniyaning qo'shni davlatlari, jumladan Niderlandiya va Belgiya ham manfaatdor edi. Chunki Germaniyaning rivoji bevosita ushbu davlatlarga ham ta'sir ko'rsatardi. Tarixan koloniyalarga ega kuchli davlatlar Fransiya va Buyuk Britaniya esa bunday birlashuvga salbiy munosabatda bo'lishdi. Ko'pgina ta'sir qiluvchi omillar bilan bir qatorda, asosiy sabab ushbu davlatlarning o'z milliy suverenitetlari cheklanishiga yo'l qo'ymasliklaridan iborat edi.

Bundan tashqari, Yevropada biror bir davlatning gegemoniyasiga yo'l qo'ymaslik Britaniya diplomatiyasining o'ziga xos jihati edi.

Bu orada Yevropa ittifoqini tuzish bo'yicha norasmiy guruhlar faoliyati kengayib bordi. 1946-yil, Syurixdagi nutqida Angliya Bosh vaziri Uinston Cherchill "Biz Yevropani o'ziga xos Qo'shma Shtatlarga aylantirishimiz kerak. Agar avvaliga, Yevropaning hamma davlatlari ham bunday ittifoqqa o'z roziligini bildirishmasa yoki unga kirish imkoniyatida bo'lishmasa, biz kirishni xohlovchilar va bunday imkoniyatga ega davlatlar uchun iloji boricha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz lozim" deb ta'kidlagan edi.

Yuqorida keltirilganlardan xulosa qilish mumkinki, tarixda Yevropani birlashtirish uchun ma'lum qadamlar qo'yilgan. Buni siyosiy arboblarning Yevropa birligi g'oyalari bilan chiqishlaridan, mintaqadagi davlatlarning bunga munosabatidan ham ko'rishimiz mumkin. Shu asnoda, umuman bugungi Yevropa Ittifoqi doirasida rivojlanib borayotgan integratsiyaning amaliy asoslari qachon vujudga kelgan degan o'rinli savol tug'iladi. Umumiy qaraydigan bo'lsak, urushdan keyingi davr, ya'ni 1945-1950-yillarni Yevropa birligidagi boshlang'ich qadamlar desak bo'ladi. Bu davrda bir qancha tashkilotlar vujudga keldi: AQShdan kelayotgan

yordam, ya'ni Marshal rejasi asosida Yevropani iqtisodiy hamkorligi tashkiloti tuzildi. Keyinchalik bu tashkilotga 1960-yilda AQSh va Kanada kiringach, ushbu tashkilot iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti deb nomlana boshlandi. Shuningdek, shu yili Benilyuks Ittifoqi vujudga keldi. Unga Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg kirgan bo'lib, dunyo uchun iqtisodiy sohadagi hamkorlikning timsoli sifatida namoyon bo'ldi.

Umuman integrasion jarayonlar har qanday sohani qamrab olishi mumkin, shu jumladan xavfsizlikni ta'minlashdagi harbiy sohani ham. Buning o'ziga xos shakli sifatida Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida tuzilgan o'zaro yordam va ittifoq to'g'risidagi shartnomani aytish mumkin (Dyunker, mart 1947-yil). Umuman, Dyunker shartnomasini ikki davlat tomonidan boshqasiga (Germaniyaga) qaratilgan an'anaviy harbiy ittifoq edi desak bo'ladi. Bunday himoyaga asos ham bor edi, ya'ni Germaniya o'zining agressiv siyosatini ko'rsatgandi. Aynan ushbu shartnoma G'arbiy Yevropaning harbiy-siyosiy integratsiyasiga asos yaratib berdi. Bu Ittifoqqa Benilyuks davlatlari qo'shilgach, Bryussel pakti asosida G'arbiy Ittifoq vujudga keldi. Bundan uch oy o'tgach, AQSh va Kanada ittifoq a'zolari bilan birgalikda yanada kengroq doiradagi harbiy birlashmani tuzish bo'yicha muzokaralar o'tkazishdi. Natijada 1949-yil Shimoliy Atlantika Ittifoqi (NATO) vujudga keldi.

Shunday qilib, jahon urushlarigacha bo'lgan Yevropa siyosiy birlikka intilgan bo'lsa, urushdan keyingi davrda esa harbiy-siyosiy sohadagi hamkorlik rivojlanib bordi. Bir tomondan harbiy-siyosiy integratsiya "sovuq urush"i davriga xos xususiyat edi. Aynan Yevropa mintaqasi bu "urush"da markaziy frontga aylantirilgandi. Natijada Yevropaning o'zi ham ikki ijtimoiy tizim hamda-ikki harbiy-siyosiy blokka ajralib qoldi. Geografik va madaniy jihatdan yaqin va tarixiy umumiylikka ega bo'lgan Yevropadagi davlatlar endilikda bir-biriga qarama-qarshi qonuniyat asosida rivojlanib borishdi.

Umumiy qilib aytganda, Yevropa integratsiyasining rivojlanishi uchun ma'lum tarixiy asoslar yaratilgan edi. Mavjud voqelik asosida Yevropa siyosiy integratsiyaga bo'lgan intilishlar o'rnini iqtisodiy integratsiya egalladi. Keyinchalik keng miqyosda rivojlanib ketgan iqtisodiy integratsiyaning ilk ijobiy natijalari G'arbiy Yevropa integratsiyasida namoyon bo'ldi.

G'arbiy Yevropa davlatlari iqtisodiy va siyosiy integratsiyaga erishgunga qadar ikkita jahon urushi va uning achchiq saboqlarini boshdan o'tkazishdi. Endilikda ushbu xatolarni takrorlamaslik hamda mavjud muammolarni birgalikda bartaraf etish G'arbiy Yevropa davlatlari uchun hayotiy zaruratga aylandi.

Shunday qilib, keyingi asosiy qadamlardan biri ham qo'yildi. Uzoq davom etgan muzokaralardan so'ng, 1949-yil 5-mayda Yevropa Kengashi tuzildi. Avval Yevropa kengashiga G'arbiy Ittifoqqa a'zo davlatlar bilan birga Norvegiya, Shvesiya, Daniya, Irlandiya va Italiya kirdi. Tez orada Islandiya, Gresiya, Turkiya, G'arbiy Germaniya va Avstriya ham qo'shildi. Aytish mumkinki, Yevropa kengashi siyosiy va parlamentlararo hamkorlikni amalga oshirish vositasiga aylandi.

Integratsiyaning keyingi bosqichda rivojlanib borishiga Jan Monne va Robert Shumanlar katta hissa qo'shishdi. Oldindan yuqori lavozimlarni egallab kelgan J.Monne o'sha paytda Fransiyani rejalashtirishi bo'yicha komissar lavozimini egallardi. Fransiya tashqi ishlar vaziri bo'lgan R.Shuman esa J.Monne bilan yaqindan hamkorlikda bo'lib, ko'mir va po'lat bo'yicha fransuz-nemis birlashmasini tuzishni taklif qilishdi. Monne-Shuman tashabbuslari nafaqat Fransiya va Germaniyada, balki Italiya va Benilyuks davlatlarida ham katta qiziqish uyg'otdi.

"Shuman rejasi" deb nomlangan ushbu deklaratsiyani Germaniya va Fransiya o'rtasidagi tarixan mavjud ziddiyatga chek qo'yish vositasi sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Avvalo bu reja umumiy va kuchli ishlab chiqarish bazasi orqali erishish mumkin bo'lgan iqtisodiy integratsiyani nazarda tutgan. Shunday qilib, 1951-yil 18-aprelda Yevropaning ko'mir va po'lat bo'yicha birlashmasini tuzish to'g'risida Parij shartnomasi imzolandi. Bu "oltilik" tashkiloti hisoblanib, unga Fransiya, Germaniya, Italiya va Benilyuks davlatlari kirdi. Buyuk Britaniya esa shartnomaga kirish taklifini rad etdi. Bunga ikki asosiy sababni aytish mumkin: Birinchidan, Buyuk Britaniya o'z suverenitetini cheklashni istamadi. Ikkinchidan esa, Buyuk Britaniya AQSh bilan "alohida munosabatlar"ini saqlash niyatida edi;

Yevropaning ko'mir va po'lat bo'yicha birlashmasi (YeKPB) a'zo davlatlar uni ratifikatsiya qilgach, 1952-yil 23-iyulda kuchga kirdi. Shu o'rinda savol tug'iladi: ushbu tashkilotning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud edi? U Yevropada hukumatlararo hamkorlik amaliyotiga qanday yangilik kirita oldi? Avvalo, bu tashkilot orqali umumiy bozor, ya'ni erkin savdo zonasini yaratish nazarda tutilgan. Undan tashqari, tarixan nazar solsak, Yevropa davlatlari birlashishga milliy suverenitetlariga tahdid sifatida qarashgan. YeKPB shartnomasida esa birlashuv o'z vazifalarini davlatlarning milliy suverenitetlariga cheklangan miqdorda aralashgan holda amalga oshirilishi belgilangan.

Shunday qilib, Yevropadagi integrasion jarayonlar rivoji iqtisodiy sohada muvaffaqiyatli aks topdi. Bu o'z navbatida integratsiyaning kengayib borishidagi dastlabki bosqichlardan biri bo'lib xizmat qildi. Albatta, YeKPB tuzilishi, a'zo davlatlarning iqtisodiy hamkorligiga

sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Lekin hali ko'zlangan maqsadga erishilmagan edi. A'zo davlatlar endi nafaqat bir yo'nalishga qaratilgan, balki iqtisodiyotning keng sohasini qamrab oladigan integratsiyani rivojlantirishga intilishdi. 1956-yil Venesiyada bo'lib o'tgan konferensiyada Belgiya tashqi ishlar vaziri P.Spaakning iqtisodiy hamkorlik hamda yadro energiyasidan samarali foydalanish bo'yicha ittifoq tuzish to'g'risidagi ma'ruzani olti YeKPB ga a'zo davlatlari qo'llab-quvvatlashdi. Albatta ma'lum qarama-qarshiliklar ham mavjud edi, ya'ni hamma a'zo davlatlarning ham iqtisodi bir tekis rivojlanmayotgan edi. Fransiya ham iqtisodiy siyosatining asosiga aylangan proteksionizmdan kechishi oson emas edi.

Shunga qaramay, Yevropada iqtisodiy integratsiyasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit mavjud edi. Natijada YeKPB ga a'zo "oltilik" 1957-yil 25-martda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati hamda Yevropaning atom energiyasi bo'yicha Hamjamiyatini tuzish to'g'risida shartnomalar imzolashdi. "Rim shartnomalari" deb nom olgan ushbu shartnomalar 1958-yil 1-yanvarda kuchga kirdi.

Avvalo, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (YeIH) yagona bozorni shakllantirishga qaratilgandi. Yagona bozor "to'rt erkinlik"ni qamrab olib, ya'ni mahsulot, shaxs, xizmat va kapitalning erkin harakati, yagona bozorni shakllantirishga xizmat qilishi lozim edi. Yagona bozorga belgilangan 12 yil mobaynida bosqichma-bosqich o'tish belgilandi. 1-bosqichda yagona tarif orqali Bojxona Ittifoqi tuzilgan bo'lib, davlat ichidagi tarif va kvotalar bekor qilindi. Keyingi bosqichda aytib o'tilgan "to'rt erkinlik" yo'lga qo'yish hamda yagona valyuta Ittifoqini tashkil qilish rejalashtirildi. Shunday qilib, YeIH doirasida a'zo davlatlar faqatgina yagona bozorni shakllantirish bilan cheklanmasdan, balki agrar, transport, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy hamkorlikni ham yo'lga qo'yishdi.

Yevropaning atom energiyasi bo'yicha Hamjamiyati (Yevratom) faoliyati tor masshtabdagi integratsiyaga qaratilgan edi. Aynan XX asrning o'rtalarida AQSh va SSSR qarama-qarshilikning keskinlashuvi, atom energiyasi sohasida nafaqat tadqiqod o'tkazish, balki uni amalda qo'llashga turtki bo'ldi. Bunday sharoitda G'arbiy Yevropa davlatlarining alohida faoliyati, ularning bu sohada ancha orqada qolishlariga sabab bo'lishi mumkin edi. Undan tashqari, borgan sari energiya taqchilligi sezila boshladi. Ko'mir endi bu masalani yecha olmas, neftga esa bu mintaqa boy emas edi. Aynan davlatlarning birligi bu sohani rivojlantirishga imkon yaratdi.

Shunday qilib, G'arbiy Yevropada uch Ittifoq tashkil topdi. Aytib o'tilgan shartnomalarning maqsadi, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, a'zo

davlatlar aholisi yashash darajasini ko‘tarish, Yevropa davlatlarida urushlar oldini olish hamda barqarorlikni mustahkamlashdan iborat edi.

O‘tgan asrning 70-yillariga kelib, G‘arbiy Yevropa integratsiyasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. 1968-yilning oxirida Bojxona Ittifoqini tashkil etish masalalari o‘z nihoyasiga yetdi. Shuningdek, 1981- yilgacha iqtisodiy va valyuta Ittifoqini tuzish masalalarini yakunlash, Hamjamiyat institutlarini isloh qilish hamda umumiy tashqi siyosatni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ammo 80-yillarning boshiga kelib, rivojlanib borayotgan jarayonlarda uzilish paydo bo‘ldi. Bu G‘arbiy Yevropa va jahon iqtisodiyotining goh tushishi va goh ko‘tarilishi bilan bog‘liq edi. Albatta, bunday jarayonda asosiy sohadagi ishlab chiqarishning keskin pasayishi, yuqori infilyatsiya darajasi, ommaviy ishsizlar sonining o‘sishi kuzatildi. A‘zo davlatlar mavjud vaziyatdan chiqish yo‘llarini izlay boshlashdi. Ayniqsa, savdoning rivojiga Bojxona Ittifoqi sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, 80-yillarning o‘rtalariga kelib, Hamjamiyat nisbatan qiyinchiliklarni yengib o‘tdi. Natijada uning byudjeti ham o‘sib bordi. Bu o‘z navbatida, G‘arbiy Yevropa davlatlarining Hamjamiyatga a‘zolikka intilishlarini kuchaytirdi. Umuman, Hamjamiyatning kengayib borish bosqichlari quyidagicha ko‘rinishga ega:

- 1-yanvar 1958-yil – Gresiyaning YeIH ga a‘zo bo‘lishi to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi;
- dekabr 1973-yil – “Oltilik”ka Daniya, Buyuk Britaniya va Irlandiyaning a‘zo bo‘lishi;
- yanvar 1981-yil – Gresiyaning Hamjamiyatga a‘zo bo‘lishi;
- yanvar 1986-yil – Ispaniya va Portugaliyaning Hamjamiyatga a‘zo bo‘lishi

Hamjamiyatga a‘zo 12 ta davlat tomonidan 1986-yil 17-28-fevral kunlari hukumatlararo konferensiya nihoyasida (Gaaga va Lyuksemburg) Yagona Yevropa akti imzolandi (YaEA). Aktda Yevropa Ittifoqini tuzish hamda hamjamiyat doirasida erkin mahsulot, xizmat, kapital va shaxs harakatiga asoslangan yagona bozorga 1992-yil 31-dekabr gacha o‘tish masalalari belgilab qo‘yildi. Endilikda integratsiya asosini iqtisodiy muammolarni yechish, a‘zo davlatlarning “yagona siyosat”ini amalga oshirishda o‘zaro ta‘sirni kengaytirish masalalarini tashkil qildi. Shuningdek, integratsiya tashqi va xavfsizlik siyosatini o‘rnatish hamda jinoyatchilikka qarshi-kurash masalalariga ham yo‘naltirildi.

O‘tgan asrning 90-yillariga kelib, Sobiq Ittifoqning parchalanishi nafaqat Yevropada, balki boshqa mintaqalarda ham siyosiy holatni keskin o‘zgartirib yubordi. Germaniyaning birlashishi ham Yevropa mintaqasidagi muhim o‘zgarishlardan biri edi. Shunday vaziyatda Yevropa

Hamjamiyati xalqaro maydonga alohida va mustaqil kuch sifatida kirib bordi. 1990-yilning boshlaridayoq Yevropa Hamjamiyati o'zining 344,6 million aholisi bilan 5,53 trln. doll. ga teng mahsulot va xizmatlarni taklif qildi. AQShda bu miqdor 5,47 trln. doll. ni tashkil etardi.

Bu orada Yevropa davlatlari yetakchilari a'zo davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish hamda siyosiy integratsiyani kuchaytirish taklifi bilan chiqa boshladilar. Misol uchun, 1985-yil Yevropa parlamentidagi chiqishda R.Fon Vayszeker: "Yevropa Hamjamiyati demokratik davlatlar birlashmasigina bo'lib qolmasdan, fuqorolar hamjamiyati, ya'ni demokratik hamjamiyatga aylanishi lozim" deb ta'kidlab o'tdi.

Shunday qilib, o'zida siyosiy integratsiyani qamrab olgan Yevropa Ittifoqini tuzish 1991-yil 9-10-dekabrda Maastrixtda bo'lib o'tgan Yevropa Kengashi yig'ilishida asosiy masalaga aylandi. A'zo davlatlar Yevropa Hamjamiyatlariga asoslangan holda hamkorlikning yangi shakllari bilan to'ldirilgan Yevropa Ittifoqini tuzish haqida kelishib olishdi. 1992-yil 7-fevral kuni shartnoma imzolanishi yakunlandi. Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi Maastrixt shartnomasi a'zo davlatlar ratifikatsiyasidan o'tgach, 1993-yil 1-noyabrda kuchga kirdi. Lekin shartnomaning imzolanishi milliy qarashlar borasidagi ma'lum qarama-qarshiliklar bilan ham izohlanadi. Misol uchun, Fransiyada o'tkazilgan referendumda aholining qo'llab-quvvatlashi cheklangan edi. Qo'llab-quvvatlovchilar 34-36% ni, betaraflar esa 33,07% ni tashkil etdi. Bu o'z navbatida aholining Yevropa Ittifoqini tashkil topishi integratsiyaning chuqurlashuviga xizmat qilishiga ishonchsizligini bildirardi.

Shunga qaramay, Maastrixt shartnomasi Yevropada integrasion jarayonlarning chuqurlashuviga yangi bosqich bo'ldi. Shartnomaga ko'ra, Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati to'g'risidagi Rim shartnomasi nomini YeIH dan Yevropa Hamjamiyatiga o'zgartirdi. YeIH nomi o'zgarishi uning nafaqat iqtisodiy, balki keng sohalarga ham yo'naltirilgani bilan izohlanadi. Shuningdek, umumiy va tashqi xavfsizlik siyosati, sud va ichki ishlar sohasidagi hamkorlik, fuqorolik va immigratsiya masalalari ham Maastrixt shartnomasining asosiga aylandi. Yana bir alohida jihat shundan iboratki, Maastrixt shartnomasi iqtisodiy va valyuta ittifoqini tuzish, Yevropa Ittifoqi doirasida yagona valyutaga o'tish masalalariga yo'naltirilgan asosiy holatlarni o'z ichiga oldi. Bu xususida keyingi bobda alohida to'xtalib o'tamiz.

Maastrixt shartnomasining imzolanishi davridan boshlab, hamjamiyat kompetensiyasi doirasi kengaydi hamda u kundalik hayotning ko'pgina sohalarni o'z ichiga oldi. Bu o'z navbatida Yevropa Ittifoqi Institutlarining ahamiyatini oshib borishiga xizmat qildi. Umuman,

Yevropa Ittifoqi institutlari qanday tuzilgan va ularning asosiy funksiyalari nimadan iborat?

Yevropa Ittifoqining institut va boshqa organlari saralanishi, statusi va zarur vakolatlar belgilanishi aniq o'ylangan konsepsiyalar yordamida ko'rib chiqilgan. Yevropa integratsiyasi kabi uning boshqaruv tizimi ham ilk bosqichlardan shakllanib borgan. Albatta, hamjamiyatning kengayib borishi o'z navbatida qaror qabul qilish va ayniqsa uni amalga oshirish jarayonlarini qiyinlashtirdi. Lekin shunga qaramay, Yevropa Ittifoqining institutlari keng faoliyat yuritib, bevosita integratsiya masalalarini hal etishga qaratilgan qurolga aylangan.

Yevropa qo'mitasi yangi qonuniy aktlar qabul qilish bo'yicha taklif kiritadi. Yevroparlament bu xususida o'z mulohazasini bildirib, kerak bo'lsa ma'lum tuzatishlar kiritadi. Yevropa Kengashi esa qaror chiqaradi. Sud esa Yevropa Ittifoqi huquqiy normalarini to'g'ri bajarilishi va izohlanishiga javobgar organ hisoblanadi.

Demak, Yevropa Ittifoqining muhim hal qiluvchi organi Kengash bo'lib, muntazam ravishda yig'ilib turadi. Kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- qaror qabul qilish huquqiga ega
- a'zo davlatlarning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi
- Yevroparlament bilan birgalikda byudjet loyihasini tuzadi

Chizmada ko'rsatilganidek, Yevropa Kengashi bir qancha kengashlar doirasida yig'ilishlar o'tkazadi. Eng yuqori darajadagisi davlat va hukumat boshliqlari kengashi hisoblanadi. Uning o'ziga xos jihati shundaki, Ittifoq doirasiga kiruvchi muhim masalalar bevosita davlat va hukumat boshliqlari ishtirokida ko'rib chiqilib, hal etiladi. Oxirgi yillarda Kengash o'z e'tiborini asosan iqtisodiy va valyuta Ittifoqini tuzish, "evro"ning kiritilishi hamda Yevropa Ittifoqining kengayishi masalalariga qaratdi. Tashqi siyosat sohasida davlat va hukumat boshliqlari Kengashi sobiq sotsialistik tizimdagi davlatlarda islohotlarni samarali amalga oshirish masalalariga e'tibor qaratgan.

Shuningdek, Kengash davlatlar bilan hamda xalqaro tashkilotlar bilan bitimlar imzolash vakolatiga ega. Bunda u Yevroqo'mita bilan birga muzokaralar olib boradi.

Boshqaruv tizimida alohida ahamiyatga ega bo'lgan yana bir institut "ijro etuvchi" organ, ya'ni Yevropa Ittifoqi Qo'mitasi hisoblanadi. Qo'mita boshqa vazifalar bilan bir qatorda, uch asosiy funksiyani o'z ichiga oladi:

- Kengash va Yevroparlament qo'mita taklifi bilan huquqiy aktlarni qabul qilishi mumkin;

- Ijro etuvchi hokimiyat sifatida Yevrokomissiya o‘z vakolatlari doirasida Yevropa Ittifoqi siyosatini amalga oshirish masalalari bilan shug‘ullanadi;

- “Shartnomalar himoyachisi” sifatida Yevrokomissiya shartnomalarning huquqiy faoliyatini nazorat qiladi;

Yevrokomissiya 17 ta a‘zodan tashkil topgan bo‘lib, ular a‘zo davlatlarning fuqorolaridan tayinlanadi. Umuman, komissiya tashabbuslar organi sifatida integratsiyani harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi, hamda a‘zo davlatlarning manfaatlarini aks ettiradi.

Yevroparlament vakolatlariga kelsak, u nisbatan cheklangan vakolatlarga ega. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi nisbatan “demokratiya taqchilligi” tanqidi ham shu cheklangan vakolatlarga asoslanadi. Yevroparlamentning asosiy vakolatlaridan biri bu Yevroqo‘mitaga ishonchsizlik votumini ko‘tarib chiqa olishidir. Lekin Yevroparlament bu huquqdan shu paytgacha foydalanmagan. Umuman, Yevroparlament uchta asosiy maslahat, tavsiya hamda qonunlarni ishlab chiqarishda ishtirok etish funksiyalarini bajaradi. Yevroparlament deputatlari a‘zo davlatlar aholisi tomonidan saylanadi. Lekin haligacha umumiy tartibda saylovlar o‘tkazish ishlab chiqilmagan. Agar kelgusida bu masala amalga ohsa, aholining turli qatlamlarida integrasion jarayonlarga nisbatan yanada qiziqish uyg‘onadi. Bu o‘z navbatida, a‘zo davlatlar aholisining muammolarini tushunib yetishga hamda unga o‘z munosabatlarini bildirishga imkon yaratadi.

Yevropa Ittifoqi Sudi esa Hamjamiyat huquqiy normalarini barcha a‘zo davlatlar uchun bir xil asosda amalga oshishini ta‘minlaydi. Albatta, integratsiyaning chuqurlashib borishi hamda unga nisbatan turli yondashuvlar natijasida qarama-qarshiliklar ham vujudga keladi. Aynan Yevropa Ittifoqi Sudi ushbu kelishmovchiliklarni tartibga solib, hal etadi. Yevropa Ittifoqi Sudi nafaqat Hamjamiyat huquqiy normalarini nazorat qiladi, balki yagona Yevropa huquqini shakllantirishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, Yevropa Ittifoqi institutlari Yevropa Ittifoqi doirasidagi boshqaruvda muhim ahamiyatga ega. Lekin shu bilan bir qatorda, Yevropa Ittifoqi boshqaruv tizimida o‘z o‘rniga ega organlar ham mavjud. Bular: iqtisodiy va ijtimoiy qo‘mita, mintaqalar qo‘mitasi, Yevropa Investision Banki hamda Yevropa Markaziy Banklaridir.

Bugungi kunda mavjud muassasalar yangilari bilan to‘ldirilmoqda. Misol uchun, Amsterdam shartnomasiga asosan faoliyat yurita boshlagan Yevropa masalalari bo‘yicha qo‘mitalar konferensiyasini aytish mumkin. Konferensiya Yevropa Ittifoqi institutlari tizimining maxsus muassasalar bilan kengayib borishi, keng doiradagi masalalarni hal etish yo‘llarini

yengillashtiradi. Bu o'z navbatida mintaqadagi integrasion jarayonlarning boyishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan bir qatorda, yana bir jihatga e'tibor berishimiz lozim. Ma'lumki, Yevropa Ittifoqining boshqaruv tizimi hukumat tomonidan boshqarilmaydi. A'zo davlatlar esa Yevropa Ittifoqi institutlarining ishlashiga o'z manfaatlari asosida turlicha yondashadilar. Shuning uchun ham bugungi kunda institutlarning legitimligi masalasi muzokaralarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa uning yuqori darajada ishlashi hamda mukammal siyosiy tizimga aylanishiga e'tibor qaratilgan.

6.2. Yevropa Ittifoqining rivojlanish muammolari

Dars maqsadi:

- talabalar Yevropa davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlardagi o'rni borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Yevropa davlatlarida siyosiy jarayonlari borasidagi to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.
- Magistrantlarda davlatni har tomonlama rivojlantirish jarayonida o'ta muhim, o'ziga xos rol o'ynovchi tashqi siyosat va uning maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan xalqaro muzokaralar bo'yicha nazariy bilim va amaliy mahoratni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *TASIS dasturi, WARMAP loyihasi, Yevrokomissiya, Yevropa mamlakatlari, Yevropa Ittifoqi tashqi siyosati, xalqaro nizolar, YeI Sharqqa kengayishi, Yevropa integratsiyasi.*

Hozirgi davrda Yevropa Ittifoqi 4 324 782 km² hududni egallagan, 506 820 764 mln. aholidan iborat 28 ta davlatdan iborat. Bu davlatlar Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Vengriya, Germaniya, Gresiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Kipr, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Finlyandiya, Fransiya, Xorvatiya, Chexiya, Shvesiya va Estoniya hisoblanadi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi avvalambor uzoq vaqt urushlar natijasida bo'lingan Yevropa mintaqasining birlashishga hamda barqarorlik, xavfsizlik va iqtisodiy yuksalishni sharqqa kengayishiga imkon yaratdi. Bu borada Yevropa Ittifoqining sharqqa kengayish masalalari bo'yicha komissari Gyuter Ferxoygen "1-may 2004-yildan Markaziy va Sharqiy Yevropa

davlatlarining Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish bilan, Hamjamiyat asoschilarining Yevropa mintaqasida tinchlik o'rnatish bo'yicha loyihasi yakuniga yetdi", deb ta'kidlangan. Haqiqatdan, o'sha davrda loyiha asosida Fransiya va Germaniya o'rtasidagi adovatni yo'qotish turgan bo'lsa, bugungi kunda esa Yevropa integratsiyasining chuqurlashuvi Yevropa mintaqaviy hamkorlikni rivojlanishiga va mintaqa ahamiyatining oshib borishiga xizmat qilmoqda. Germaniya Federativ Respublikasi sobiq tashqi ishlar vaziri Yoshka Fisher bu masalada quyidagicha fikr bildirgan: "Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi natijasida Yevropa Ittifoqi g'arbiy Yevropadan umumYevropa tashkilotiga aylandi.

Yevropa Ittifoqi kengayishidan kutilayotgan ijobiy natijalarga qaramay, integratsiyaning chuqurlashuvi yangi muammolarni keltirib chiqarishi ham tabiiy. Ta'kidlash lozimki, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishiga tayyorgarligi davrida amalga oshirilgan tadbirlarga qaramay, hanuzgacha ko'pgina sohalar islohotlar zaruriyatini ko'rsatadi, jumladan davlat apparati mexanizmining va yuridik tizimning samarasizligini ta'kidlash lozim. Yangi a'zo-davlatlardan, Polsha sobiq Bosh vaziri Leshek Miller fikricha, "Yevropa Ittifoqi – birinchi va ikkinchi tabaqadagi Yevropaga ajralib qolmasligi lozim. Bu halokatga olib keladi. Yevropa yagona bo'lishi kerak! Lekin bizda, ya'ni Sharqda jiddiy ortda qolishi kuzatilmoqda va biz g'arbiy davlatlarga yetib olishimiz uchun yanada tez sur'atda rivojlanishimiz darkor".

Umumiy qilib aytganda, birinchidan, Yevropa Ittifoqining kengayishi jahon urushlari va "sovuq urush" sababli bo'lingan Yevropa mintaqasini birlashtirdi. Yevropa Ittifoqi doirasidagi integrasion jarayonlar barqarorlik, xavfsizlik va demokratiyaning sharqqa kengayishiga imkon yaratdi.

Ikkinchidan, kengayish tufayli Yevropa Ittifoqining geosiyosiy holati o'zgardi. Endilikda Ittifoq 28 ta a'zo davlatga ega bo'lib, taxminan 500 mln.dan ortiq aholini o'z ichiga olgan Ittifoqqa aylandi.

Uchinchidan, Yevropa Ittifoqining sharqqa kengayishi yagona bozorning ham kengayishiga xizmat qilib, mintaqaning iqtisodiy o'sishiga yordam beradi. Hozirgi kungacha Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari Yevropa Ittifoqi qo'llab-quvvatlagan loyihalar ko'magida turli sohalardagi islohotlarni samarali amalga oshirib kelmoqdalar. Endilikda Yevropa davlatlari o'rtasiga savdo hamkorligi va investisiyalar hisobiga ham avvalgi a'zo davlatlarga ham "yangi" a'zo davlatlarda iqtisodiy o'sish darajasi ko'tariladi.

Shuningdek, Yevropa Ittifoqining sharqqa kengayishi Ittifoqni va umuman Yevropa mintaqasini xalqaro munosabatlarda ham iqtisodiy ham

siyosiy jihatdan ahamiyatini oshirishi tabiiy. Qolaversa, Ittifoq doirasidagi Yevropa davlatlari hamkorligi avvalgi va yangi a'zo davlatlarga yangidan-yangi imkoniyatlar ochadi. Shuningdek, Ittifoqning kengayishi ko'pgina ichki siyosat bo'yicha sohalardagi muammolarni birgalikda bartaraf etishga ko'maklashadi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqining yangi a'zo davlatlar bilan ichki ishlar sohasidagi hamkorlik, uyushgan jinoyatchilik kabi muammolarni hal etishga yordam beradi.

Umuman, Yevropa Ittifoqi integratsiyasining chuqurlashib borishiga e'tibor qaratar ekanmiz, bu jarayon haqiqatdan muvaffaqiyatli amalga oshayotganini ta'kidlash lozim. Agarda Yevropa integratsiyasi ilk bosqichlarda Yevropa Ittifoqini asosan savdo-iqtisodiy Ittifoq sifatida rivojlangan bo'lsa, hozirda esa Ittifoq geosiyosiy va iqtisodiy kuchga ega dunyo markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Endilikda kengaygan Yevropa Ittifoqi oldidagi asosiy masala yigirma beshta va undan ko'p madaniyati, tili va qadriyatlari xilma – xil bo'lgan a'zo Yevropa davlatlari bilan avvalgidek samarali faoliyat yurita olishdan iborat bo'lib, aynan Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining qanchalik muvaffaqiyatli Yevropa Ittifoqiga integratsiyalashib borishi, kelgusida Ittifoq integratsiyasining yo'nalishlarini belgilab beradi.

Yevropa Ittifoqiga Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining a'zo bo'lishi va shu tarzda Ittifoqning yirik kengayishi nafaqat Yevropa, qolaversa jahon siyosati uchun burulish pallasi bo'ldi. Turli millat va elatlardan iborat 500 milliondan ortiq aholini birlashtirgan hamda yer sharida eng ulkan iqtisodiy potensialga ega bo'lgan Yevropa Ittifoqi “yangi toifadagi umumiylik” asosida faoliyat yurita boshladi. Ushbu kengayish natijasida nafaqat Yevropa Ittifoqining aholisi va hududi kengaydi, balki Ittifoq jahonda o'z ta'sir kuchiga ega markazlardan biriga aylandi. Navbatdagi kengayish iqtisodiy va valyuta Ittifoqining yakunlanishi, siyosiy Ittifoqning shakllanishi va xavfsizlik sohasidagi hamkorlikning chuqurlashuvi davriga to'g'ri keldi. Ittifoq kengayishi jarayonining istiqbollari borasida nafaqat Yevropada, balki butun jahonda xilma – xil fikrlar ilgari surildi. Ko'pchilik mutaxassislar Yevropa Ittifoqi kengayishining ham Ittifoq uchun ham boshqa mintaqalar uchun siyosiy – iqtisodiy ta'sirini ta'kidlab o'tishdi.

Shunday ekan, Ittifoq doirasidagi integrasion jarayonlarning rivojlanishi va Ittifoqning kengayishi o'z navbatida Markaziy Osiyo mintaqasidagi hamkorlikka, jumladan O'zbekistonga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ana shunday sharoitda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish O'zbekiston Respublikasi diplomatiyasi oldida turgan muhim vazifalar qatoriga kiradi. Demak, O'zbekiston Respublikasi buning uchun xalqaro tashkilotlar, xalqaro

mintaqaviy tashkilotlar, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarni yanada rivojlantirishi lozim. Bunda biror bir tashkilot yoki mamlakatni boshqasidan ustun qo'ymaslik, xalqaro hamjamiyatning barcha sub'ektlari bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda, Yevropa Ittifoqining kengayishi, unga yangi a'zo bo'lgan Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari bilan alohida hamkorligimizga ham jumladan, iqtisodiy sohada yangi imkoniyatlar ochadi.

Ma'lumki, har bir davlat tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlari savdo iqtisodiy hamkorlikka qaratilgan. Bundan kelib chiqqan holda, Yevropa Ittifoqi kengayishining Markaziy Osiyo davlatlari va shu jumladan, O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollarning ahamiyatli jihatlariga e'tibor qaratsak. Yevropa davlatlarining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqiga yangi a'zo davlatlarning kirishi, Ittifoqning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ham iqtisodiy ham siyosiy hamkorligi rivojiga imkon yaratadi. Yevropa Komissiyasining tashqi aloqalar bo'yicha sobiq komissari Kristofer Pattenning fikriga ko'ra, Yevropa Ittifoqiga o'nta yangi davlatlarning a'zo bo'lishi, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ikki tomonlama savdo hajmini 20 foizga oshiradi.

Undan tashqari, navbatdagi Yevropa Ittifoqining kengayishi bilan Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoga geografik jihatdan yaqinlashdi. Bu esa o'z navbatida qo'shma loyihalar jumladan, transport kommunikatsiya va energetika sohasidagi loyihalar ahamiyatini oshiradi. Albatta, bunda Markaziy Osiyo davlatlarining uglevodorod xom ashyolari katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining bu sohada Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar Polsha, Chexiya, Slovakiya va Vengriya davlatlari bilan hamkorligi ikki tomonlama manfaatli bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi munosabatlarida iqtisodiy sohada hamkorlik qilish alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda, Yevropa Ittifoqi kengayishining O'zbekiston uchun iqtisodiy sohadagi ijobiy jihatlariga to'xtalib o'tsak:

Birinchidan, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining ko'pchiligi jumladan, Polsha, Latviya davlatlari O'zbekiston bilan muhim savdo-iqtisodiy hamkor hisoblanadi. Misol uchun, O'zbekiston Davlat Statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, Latviya O'zbekistondagi paxta tolasi importi bo'yicha beshinchi o'rinda turadi. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarning Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi O'zbekiston mahsulotlarini jumladan, paxta, ipak tolalarini ham Markaziy va Sharqiy Yevropa

davlatlariga eksport qilishga va bu orqali Yevropa Ittifoqi bozoriga kirib borishga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, Yevropa Ittifoqi kengayishi bilan a'zo davlatlar savdo operatsiyalarini amalga oshirishda yagona huquqiy bazaga ega bo'lishadi. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarining Yevropa Ittifoqi tashqi savdo siyosatining yagona qonun va normalarini qabul qilishlari, O'zbekistonga sharqiy Yevropadagi hamkor davlatlar bilan Ittifoq doirasida umumqabul qilingan sharoitlar va narxlarda savdo qilish imkonini beradi.

Uchinchidan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar O'zbekistonga sarmoya kiritish, yangi ish joylarini tashkil etish va yangi texnologiyalar olib kirish orqali ikkitomonlama va Ittifoq doirasidagi hamkorliklarni rivojlantirib boradi.

Demak, Yevropa Ittifoqining kengayishi bilan bog'liq imkoniyatlardan to'la foydalanish uchun Markaziy Osiyo davlatlari mintaqada integratsiyani rivojlantirishlari lozim. Buning uchun Yevropa Ittifoqining kelgusidagi kengayishini hisobga olgan holda muvofiqlashgan mintaqaviy savdo va iqtisodiy siyosatni ishlab chiqarishlari kerak. Albatta, bunda mintaqadagi davlatlar raqobatbardoshligini oshirish uchun iqtisodiy modernizatsiya qilish jarayonlarini tezlashtirish ko'zda tutiladi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Markaziy Osiyo Hamkorligi" tashkiloti doirasida Yevropa integratsiyasining boshlang'ich bosqichlari bilan mos keladigan umumiy bozorni tashkil qilish tushabbusi bilan chiqqan. O'zbekistonning bu loyihani amalga oshirish va bu boradi boshqa davlatlar bilan birgalikda hamkorlik qilish konsepsiyasi ko'pchilik davlatlarda qiziqish uyg'otdi.

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston hamkorligining yana bir alohida sohasi atrof – muhitni himoya qilish borasida hamkorlikdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa Orol muammosi O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatda markaziy o'rinni egallaydi. Sababi Orol dengizining hozirgi ahvoli mintaqada ekologik vaziyatni keskinlashtirmoqda va yildan-yilga yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Albatta, Orol dengizi va Orolbo'yi muammolari faqatgina Orol dengizi havzasida joylashgan davlatlar va u yerdagi aholining muammosi bo'lib qolmay, butun dunyo hamjamiyatining muammosi bo'lishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, Orol dengizida va orolbo'yi muammolari Sharqiy Osiyo davlatlarining hamkorligida hal etilishi lozim bo'lgan birinchi darajali muammolardan bo'lib, bu o'z navbatida Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha davlatlarning o'zaro foydali hamkorligini rivojlantirish uchun tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bu borada aynan Yevropa Ittifoqi tajribasidan foydalanish muammolarni davlatlar bilan birgalikda hal etishga ko'maklashmoqda.

Yevropa Ittifoqi ham o'z navbatida mintaqadagi ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashish uchun TESIS dasturi doirasida WARMAP loyihasini (suv-energetika muammolarini hal etishga ko'maklashish) ishlab chiqib, muvaffaqiyatni amalga oshirdi.

Yevropa Ittifoqining kengayishi O'zbekiston uchun avvalombor iqtisodiy foydalar bilan izohlanadi. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi orqali yagona Yevropa qonun – qoidalarini, iqtisodiy standartlarini qabul qilishadi. Shuningdek, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish orqali O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ShHBga qo'shilishi esa, mamlakatlarimiz o'rtasidagi yangi bosqichga ko'tarilib, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari va O'zbekiston o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash borasida ko'pgina imtiyozlar keltiradi. Yevropa Ittifoqining kengayishi O'zbekistonga Yevropadan kelayotgan sarmoyalar miqdorining oshishiga ham imkon yaratadi.

Ma'lumki, Yevropa Ittifoqi davlatlari O'zbekiston iqtisodiga yirik sarmoyalar olib kirish bilan ajralib turadi. Kelgusida O'zbekistonda chet el sarmoyasi jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yanada kengaytirish, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlaridan ham jumladan, Estoniya, Vengriya, Chexiya va Sloveniyalardan ham O'zbekistonga sarmoya jalb qilishga keng imkoniyatlar ochadi. Bizning fikrimizcha, Yevropa Ittifoqi kengayishi O'zbekiston uchun nafaqat savdo – iqtisodiy hamkorlikning rivojiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, balki Yevropa Ittifoqi alohida davlatlar bilan siyosiy masalalar bo'yicha fikr almashinish, diplomatik vakolatxonalar darajasida axborat almashinish, hamda ilmiy ta'lim va madaniy sohalarda hamkorlikni kengaytirishga yo'l ochadi.

Nazorat va topshiriq savollari:

1. Yevropa davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.
2. Yevropa mamlakatlarini hamkorlik tashkilotidan Yevropa Ittifoqiga aylanishi haqida ma'lumot bering.
3. AQShdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.
4. Yelga yangi a'zo davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.
5. GFRning Yevropa Ittifoqidagi o'rni haqida ma'lumot bering.
6. Shimoliy Amerika davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tavsif bering.
7. AQShning jahon hamjamiyatidagi o'rniga baho bering.
8. Zamonaviy bosqichda Yevropa Ittifoqi – Rossiya munosabatlari qanda bosqichda rivojlanmoqda ?

Mustaqil ish savollari:

1. Zamonaviy bosqichda Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.
2. "AQSh-Yevropa munosabatlari" mavzusida nutq tayyorlash.
3. Yevropa Ittifoqining Sharqqa kengayishi to'g'risida ma'lumotlar to'plash.
4. AQSh tashqi siyosatida Yaqin Sharq muamosini yoritib bering.
5. Fransiya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.
6. Buyuk Britaniyaning Yel dagi siyosati.
7. "AQSh va jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz" mavzusida ma'ruza tayyorlang.
8. B.Obama prezidentlik davrida AQSh tashqi siyosati: mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
9. XXI asrda Yevropa Ittifoqi: yutuq va muammolari mavzusida prezentatsiya tayyorlash.
10. AQSh tashqi siyosatida Lotin Amerikasi davlatlari.

7-BOB. ARAB DAVLATLARI XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA

7.1. Fors ko‘rfazi monarxiyalari zamonaviy xalqaro munosabatlarda

Dars maqsadi:

- talabalar Yaqin Sharq mintaqasi davlatlaridagi siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- magistrant va talabalarga Yaqin Sharq mintaqasi davlatlarining xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni borasidagi to‘la ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish.
- magistrantlarda davlatni har tomonlama rivojlantirish jarayonida o‘ta muhim, o‘ziga xos rol o‘ynovchi tashqi siyosat va uning maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan xalqaro muzokaralar bo‘yicha nazariy bilim va amaliy mahoratni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Fors ko‘rfazi, Yaqin Sharq, Xormuz bo‘g‘ozi, FKADHK, “jahoniy davlat”, “mintaqaviy davlat”, “odatdagi davlatlar”, “Qaynoq nuqta”, Arab-Isroil mojarosi.*

Bugungi kunda ko‘pchilik davlatlar tashqi siyosiy strategiyalarida energetik resurslar xavfsizligi, energetika infrastrukturasi rivojlantirish va umumiy energetika tizimini shakllantirish masalalari asosiy geosiyosiy omillar sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, Fors ko‘rfazi mintaqasi xavfsizligida energetik xavfsizlikka nisbatan yangicha yondashuvlarning yuzaga kelishi natijasida mintaqada davlatlari siyosatida an’anaviy ustuvorlikka ega bo‘lgan neft-gaz siyosatiga nisbatan munosabat yanada markazlashtirilmoqda.

Yaqin Sharq - Osiyo, Afrika va Yevropaning kesishgan mintaqasida joylashgan. Bundan tashqari geosiyosiy ahamiyati jihatidan Yaqin Sharq, Kavkaz va Markaziy Osiyo bilan birgalikda chegaradosh sifatida qaralib, geostrategik va geosiyosiy imperializmga, shu jumladan AQSh gegemonlik loyihasida juda muhim o‘rin egallaydi.

Yaqin Sharq mintaqasi jahonning muhim transport koridori hisoblanadi. Aynan shu yerda Atlantika va Hind okeanini bir biriga bog‘laydigan muhim geostrategik ahamiyatga ega bo‘lgan Suvaysh kanali joylashgan hamda shu mintaqada davlatlari qulay dengiz yo‘llariga chiqish imkoniyatiga ega, bu xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi rolini oshirish va ishtirokini kengaytirishda zaruriy omillardan biridir.

Yaqin Sharq dunyo aholisining deyarli yarmi e'tiqod qiladigan uch eng yirik jahon dinlari: Islom, Yahudiy va Xristian dinlarining kelib chiqish markazi hisoblanadi.

Yaqin Sharq jahon neft zaxirasining 61,7%iga va tabiiy gaz zaxirasining 40,6%iga egalik qiladi. Mintaqadagi ikki davlatda esa dunyo neft zaxirasining 35%i jamlangan: Saudiya Arabistonida 26%, Eronda 9%. AQSh Energetika Departamenti tahliliga ko'ra, jahonda energetika mahsulotiga bo'lgan talab 1993- va 2015-yil oralig'ida 50%ga ortadi. Bu esa mintaqa davlatlarining jahon iqtisodiyotida va siyosatida ta'siri oshishiga olib kelmoqda. Xususan, bir qator manbalarga ko'ra 2003-yilgacha faqatgina Saudiya Arabistoni tomonidan AQShga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri kiritilgan investisiya miqdori 4000 mlrd. AQSh dollari atrofida bo'lgan. Lekin shu bilan bir qatorda mazkur energetika zaxiralari mintaqaga nisbatan yirik davlatlarning qiziqishi va ta'sirini ortishiga va bevosita mintaqa davlatlari ichki ishlariga aralashishga sabab bo'lmoqda.

Bu mintaqadagi neft tarixi 1914-1918-yillar "Buyuk urush" nomi bilan mashhur bo'lgan urush davomida Britaniya Harbiy dengiz floti tuzish bilan bog'liq. Britaniya imperiyasi bu yerda harbiy kemalar uchun energiya zaxiralari qazib olishni maqsad qilgan. Shundan buyon Yaqin Sharqning katta energetika zaxiralari doimo sobiq va hozirgi yetakchi davlatlarni: Fransiya, B.Britaniya, AQSh va Sobiq Sovet Ittifoqini jalb etib kelgan. Neft kashf etilishi sababli mintaqada diniy nizolar va boy resurslar hamda unumdor yerlar uchun kurash boshlandi.

Bundan tashqari, Arab dunyosi jahon siyosiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi rolini yaqqol namoyish etadi. Arab dunyosi mamlakatlari yakdilligining dunyo miqyosidagi siyosiy va iqtisodiy ahamiyati shunda namoyon bo'ladiki, u jahon neft bozoridagi vaziyatga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishga qodirdir. Birinchi marta bu 1973-1974-yillarda "energetik tanglik" davrida namoyish etildi. Oktabr urushi (1973) chog'ida G'arb mamlakatlari Isroilni qo'llab-quvvatlaganiga javoban OPEK mamlakatlari jahon bozoriga neft yetkazib berishni to'xtatib qo'ydilar. Bundan ko'rinadiki, arab olamining siyosiy va iqtisodiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati hozirgi kunda bir qator yirik davlatlarning milliy manfaatlari ijrosidagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy davrda hech bir davlat mustaqil o'z energetik ehtiyojlari va imkoniyatlarini yuzaga chiqara olmaydi. Ayniqsa, jahon siyosatida energiya taqchilligi va xavfsizligi masalalari global muammo sifatida ko'rilayotgan bir davrda mintaqalar va davlatlarning bir-biriga energetik bog'liqlik darajasi yanada ortdi. Shu bois hozirgi vaqtda energetika siyosati bir qator davlatlarning, xususan, jahonning yirik davlatlari tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor

yoʻnalishlaridan biri boʻlib qolmoqda. Bunday fenomen bir qancha omillar bilan tushuntirilishi mumkin. Jumladan, jahon energetika bozori subʼektlarining oʻz energetik xavfsizligini taʼminlashga boʻlgan ehtiyoji, energetika sohasidagi samarali biznes manfaatlari, neft-gaz xom ashyosini qazib olish, qayta ishlash, transportirovka qilish va boshqalar. Shuni taʼkidlash joizki, zamonaviy dunyoda energetika jahon iqtisodiyotining dinamik rivojidadagi eng asosiy unsur boʻlishi bilan birga, umumiy xalqaro munosabatlar tizimiga taʼsir koʻrsatuvchi birlamchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqdi. Bundan tashqari, dunyo miqyosida energetik bogʻliqlik va energiyaning birlamchi manbalari isteʼmoli hajmi oshib borayotganligi mintaqada xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar koʻlamining kengayishi xavfini tugʻdiradi. Shuning uchun “Arabiston oltiligi” davlatlari oldida mintaqaviy energetik xavfsizlikni taʼminlash masalasi har qachongidanda dolzarbdir.

Arabiston oltiligi davlatlarining ulkan energetik imkoniyatlari jahonning yirik davlatlari eʼtiborini tortmasdan qolmaydi. Ayniqsa global energetik isteʼmol darajasining kun sayin oshib borayotganligi, neft va gaz zaxiralarining esa tobora kamayib borishi, bundan tashqari, muqobil energiya manbalarini yaratish harakatlari unchalik ham kutilgan natija bermayotganligi energetik raqobatning kuchayishiga sabab boʻldi. Maʼlumki, jahon energetik ehtiyojlarning asosiy qismi neft va gazga boy mintaqalar hisobiga qondirilib kelinmoqda.

Bugungi kunda FKADHK davlatlarining siyosiy va iqtisodiy xavfsizligiga eng katta tahdid Eronning yadroviy dasturi borasidagi siyosatidir. Jahon hamjamiyatining Eronga nisbatan keskin siyosiy va iqtisodiy bosimlari Kengash davlatlarining jiddiy xavotiriga sabab boʻlmoqda. Bundan tashqari Iroqdagi vaziyatning toʻliq izga solinmaganligi Kengash davlatlarining istiqbolli iqtisodiy loyihalari amaliyotiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Maʼlumki, Iroqda jahon neft zaxiralarining 11 % joylashgan. Bu koʻrsatkich mintaqaviy energetik loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oxirgi yillarda Fors koʻrfazi arab davlatlari mintaqaviy energetik xavfsizlikni va jahon energetika tizimi barqarorligini taʼminlash masalalariga koʻproq eʼtibor berishga majbur boʻlishmoqda. Ayniqsa, mintaqada davlatlarining energetik resurslari tashiladigan asosiy yoʻlak – Xormuz boʻgʻozi atrofida kechayotgan geosiyosiy jarayonlar va siyosiy beqarorlik kichik davlatlararo xarakterga ega boʻlgan neft quvurlarini tashkil etish gʻoyalarini yuzaga keltirdi. Xormuz boʻgʻozidan kuniga oʻrtacha 20-30 ta tankerlar qatnovi amalga oshiriladi. Har kunlik dunyo neft talabining 25% Xormuz yoʻnalishi orqali etkazilib beriladi. Fors koʻrfazi mintaqasi davlatlarining 88% benzin mahsuloti aynan Xormuz

orqali eksport qilinmoqda. Bo'g'oz orqali tankerlarda kuniga 16-17 mln. barrel neft tashilmoqda.

O'tgan ikki o'n yillik davomida Ko'rfaz davlatlari Trans – Arab neft quvurlarini qurish borasida qiziqish bildirishib kelishdi. Bugungi kunda mazkur qiziqishining ortishiga va uni hayotga tadbiq etishga undovchi bir nechta omillar mavjud:

Birinchiidan, Fors ko'rfazi mintaqasi va unga tutash mintaqalardagi siyosiy beqarorlik neft ishlab chiqaruvchi arab davlatlari o'rtasidagi xavotirga sabab bo'lmoqda. Bu davlatlar jahon bozoriga neftni erkin va xavfsiz eksport qilish imkoniyatlariga tahdidlar ko'lamining ortib borayotganligidan xavotirga tushishgan. Avvalo, bunday kayfiyat mintaqaviy davlatlarning siyosiy hatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchiidan, jinoiy va terroristik guruhlar kabi nodavlat kuchlarning ta'sir etish imkoniyatlari kuchayib borayotganligi bilan bog'liq.

Ikkinchiidan, mintaqadagi Saudiya Arabistoni va BAA kabi etakchi neft ishlab chiqaruvchi davlatlarning kelgusi yillarda ishlab chiqarish hajmini oshirishga intilishlari bilan bog'liq. Mintaqadan eksport qilinayotgan neft oqimining kuchayishi o'z navbatida uning transportirovkasi xavfsizligiga e'tiborni kuchaytirishni talab qiladi va bu borada aniq echimlar, neft tashuvining muqobil yo'llarini ishlab chiqishga ehtiyoj kuchayadi.

Uchinchiidan, kelgusida ham neft narxining oshib borishi tendentsiyasi Trans – Arab neft quvurlari loyihasi borasidagi qiziqishlarni oshirib bormoqda. Mintaqa neftiga bo'lgan talabning oshishi, yuqori narxlarning saqlanishi va ishlab chiqarish hajmining ortishi mintaqa davlatlarining katta mablag'lar talab qilinadigan quvurlarni qurish borasidagi moliyaviy ishonchini orttiradi.

To'rtinchiidan, oxirgi o'tgan o'n yillikda Ko'rfaz davlatlari iqtisodiy va strategik hamkorlikning aniq yo'nalishlarida samarali natijalarga erishishdi. Yirik hajmdagi umumiy loyihalar amalga oshirildi yoki hayotga tadbiq etish jarayonidadir. Erkin savdo va moliyaviy sarmoyalar ko'chuvining ta'minlanishi, bojxona va inson resurslaridan samarali foydalanish masalalarida ulkan yutuqlarga erishildi. Bundan tashqari, Ko'rfaz davlatlari hamkorlikda bir nechta loyihalarni amalga oshirishdi. Masalan, kichik davlatlararo gaz quvuri (Qatar – BAA, Ummon)ning qurilishi yoki Trans- Arab temir yo'li loyihasining muhokama qilinayotganligini alohida ta'kidlash kerak.

Beshinchiidan, bugungi kungacha Trans - Arab neft quvurlarini qurish loyihasi Arab yarimorolidagi davlatlar o'rtasida xalqaro chegaralarning aniq o'rnatilmaganligi va yakuniy kelishuvga kelinmaganligi sababli amalga oshirilmay kelindi. Oxirgi yillarda bu muammolarning bir qanchasi hal etilib, chegara shartnomalari imzolandi va ratifikatsiya qilindi.

Voqealarning bunday rivoji Fors ko'rfazi davlatlari hududidan kesib o'tuvchi neft quvurlari loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini oshirmoqda.

Hozirda Fors ko'rfazi arab davlatlari oltita yo'nalish bo'yicha quvurlarni tashkil etishga qiziqish bildirishmoqda:

1.Saudiya Arabistoni – BAA (Ummon ko'rfazidagi Fujara portigacha)

Ish jarayoni Abu –Dabidan (Habshan va boshqa konlardan) Fujaraga neft etkazib beruvchi BAA neft quvurini konstruktsiya qilishdan boshlanadi. Quvurning uzunligi 350 km bo'lib, kuniga 1.5 mln barrel neft eksport qilishga mo'ljallandi.

2.Saudiya Arabistoni – BAA– Ummon (Ummon portlariga)

3.Saudiya Arabistoni – Ummon (Ummon portlariga)

4.Saudiya Arabistoni – BAA – Yaman (Yaman portlariga)

5.Saudiya Arabistoni – Yaman (Yaman portlariga)

6.Trans – Ko'rfaz quvuri (Quvayt - Saudiya Arabistoni – BAA – Ummon - Yaman)

Mazkur quvurning neft tashish imkoniyati kuniga 5 mln. barrelga etadi va u neftni Quvaytdan (Iroq neft konlari bilan bog'lanish imkoniyatlari bilan) Saudiya Arabistoniga, BAA va Ummon yoki Yamanga etkazib beradi.

Fors ko'rfazi davlatlari neft eksporti xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi tahdidlar:

1.Fors ko'rfazi suvlarida erkin qatnovni amalga oshirishda Eron davlatining roli. 2003-yildan boshlangan Eron yadroviy dasturi borasidagi tanglik mintaqaning barqarorligi va xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Eronga nisbatan xalqaro hamjamiyat va AQShning bosim o'tkazishi yoki harbiy kuch ishlatish ehtimolining yuzaga kelishi Ko'rfaz davlatlarining jiddiy xavotiriga sabab bo'ldi. Eron mudofaa strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida Fors ko'rfazidagi erkin qatnov jarayonlariga aralashish yoki butunlay izdan chiqarish imkoniyatlarining ishga solinishi mintaqaning energetik xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi eng katta tahdiddir. Eronga nisbatan bosimlarga javoban davlat rasmiylari mintaqadan eksport qilinayotgan neft oqimini to'xtatish va o'z nazoratiga olishni ochiqdan –ochiq e'tirof etishmoqda. Xususan, 2004-yildagi Eron diniy rahnomasi Oyatullo Humaynining bir nutqida ta'kidlanadiki, Tehronning tinchlik maqsadlarda ishlatishga mo'ljallayotgan yadroviy dasturiga qarshi AQSh tomonidan qurolli harakatlar amalga oshirilsa Fors ko'rfazi mintaqasidan etkazib berilayotgan energetik resurslar oqimini butunlay izdan chiqarishi to'g'risida ogohlantiradi. 1980-1988- yillardagi Iroq-Eron urushi davomida ham Eron harbiylarining asosiy nishonlari qatorida neft

tankerlari, neft infratuzilmasi ob'ektlari va portlar joy olgan edi. Natijada juda katta yo'qotishlar va energetik tanglik yuzaga kelgan.

2. Nodavlat aktorlar tahdidi. Fors ko'rfazi va Hormuz bo'g'ozidan eksport qilinayotgan neft xavfsizligiga tahdidlardan biri jinoiy va terrorchilik guruhlarining turli shakldagi qo'poruvchilik harakatlaridir.

2000-yilgi AQSh, 2002-yilgi Fransiya neft supertankerlariga uyushtirilgan hujumlar natijasida juda katta yo'qotishlar qilingan. 2004-2005-yillarda Al-Qoida terrorchilik guruhi bir necha bor Ko'rfaz davlatlari neft infratuzilmalariga qo'poruvchilik harakatlarini uyushtirishgan.

Neft eksporti yo'nalishlari diversifikatsiyasi Fors ko'rfazi arab davlatlari mavqeini mustahkamlash bilan birga mintaqaviy energetik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omili hamdir. Umumiy qiymati 4-6 mlrd. AQSh dollariga baholanayotgan Trans-Arab neft quviri loyihasi neft bozori ishonchliligining mustahkamlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Muqobil neft eksporti yo'nalishlarini shakllantirish mintaqadagi Saudiya Arabistoni, Quvayt va BAA kabi davlatlarning energetik imkoniyatlarini oshirib, mavjud Hormuz bo'g'ozini yo'nalishga bo'lgan qaramlikka chek qo'yiladi. Iste'molchilarga har qanday vaziyatda etarli miqdordagi neftni etkazib beruvchi davlatlar sifatida jahon energetika siyosatidagi mavqelari mustahkamlanadi. Yaman va Ummon kabi tranzit davlatlar katta miqdorda moliyaviy foyda ko'rishlari va imtiyozli shartlar asosida neftga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashlari mumkin.

1980-1990-yillarda Fors ko'rfazi arab davlatlari munosabatlarida davlatlararo raqbatchilik va gegemonlik kayfiyati ustun bo'lgan bo'lsa, hozirda terrorizm, Iroqdagi xavfsizlik va siyosiy rivojlanish, Eron yadroviy dasturi kabi umumiy xavfsizlikka chaqiriqlarda hamkorlik qilish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Chunki bunday chaqiriqlar Fors ko'rfazi davlatlarining o'zaro yaqin hamkorliklarini talab qiladi.

Tobora diniy nizolarning avj olayotganligi, sunniy va shia mazhabi o'rtasidagi doimiy raqobat muhiti, natijada mintaqaga nisbatan butun bir terrorizm o'chog'i sifatida qaralishi, islom dini va madaniyatiga nisbatan radikal qarashlarning kuchayishi neft va gaz sohasiga xorijiy investisiyalarning jalb qilinishi va istiqbolli bozorlarni egallashga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Qudratli davlatlarning mintaqadagi siyosati bevosita neft va gaz resurslarini qo'lga kiritish bilan bog'liq ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas.

Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, Yaqin Sharq mintaqasi jahon hamjamiyatida o'zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi, qulay geoiqtisodiy sharoitlarga egaligi va uch yirik dinning kelib chiqish markazi ekanligi bilan muhim o'rin egallab kelmoqda. Mazkur omillar bir

tomondan mintaqa davlatlarining xalqaro maydonda iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rolining oshishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan mintaqaning dunyoda yirik davlatlar manfaatlari to'qnashuv markaziga aylanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Yaqin Sharqdagi urushlar jahonning boshqa mintaqalardagi kabi yirik fojiali natijalar keltirdi. Yaqin Sharqdagi urushlar nafaqat davlatlararo, yoki tuzimlararo balki siyosiy, ijtimoiy guruhlar o'rtasida yuz berganligi bilan ajralib turadi. Ular siyosiy o'zgarishning fundamental o'zagi bo'lib, bu energetik zaxiralar va muammolarga boy mintaqaning siyosati va tarixidagi parodaksal va muhim omillarga sabab bo'ldi. Yaqin Sharq tadqiqotchilari tomonidan har tomonlama, atroflicha o'rganilgan va o'rganilmoqda. Biroq, sanoqli tadqiqotchilargina sobiq Sovet Ittifoqining Afg'onistonga kirishi (1979-1988), Eron-Iroq urushi (1980-1988), Iroqning Kuvaytga bostirib kirishi (avgust 1990), Arab-Isroil tinchlik muzokaralarini borishi, hududiy muammolar, AQSh va Buyuk Britaniyaning Yaqin Sharq, xususan Fors ko'rfazidagi mavqeining mustahkamlanishi, strategik masalalarni dolzarb mavzuga aylanishida asosiy turtki bo'lganini atroflicha tahlil etganlar.

XX asrning oxiridagi voqealar mintaqa tarixida xorijiy ta'sirning yanada hukmron mavqe egallaganligini e'tirof yoki zikr etish bilan xarakterlidir. Fors ko'rfazining yirik kuchlari Iroq, Eron va Saudiya Arabistoni mintaqaviy masalalardagi ustunligini G'arbga boy berdi. Yaqin vaqtgacha AQSh bilan ashaddiy dushman bo'lgan davlatlar hozirda u bilan aloqalarni rivojlantirishga, eng kamida, mintaqaviy masalalarda uning mavqei va munosabatini e'tiborga olishga majburdirlar. Hozirda AQShning Yaqin Sharqdagi manfaatlari va mavqeiga asosiy xavf solib turgan omil davlatlar emas, balki Eron inqilobi, islomiy fundamentalizm, Arab millatchiligi kabi g'oyalardir. Hozirda G'arb Yaqin Sharqdagi har qanday tuzum faoliyatini nazorat qilish va uni chegaralab qo'yishga qodir. Ammo u islomiy fundamentalizmning jilovlashga ojizlik qilmoqda. Shuning uchun G'arbning asosiy siyosati Yaqin Sharq va Fors ko'rfazi davlatlarini kuchayib borayotgan fundamentalizmga qarshi kurashishga da'vat etib, tazyiq o'tkazmoqda. Oxirgi davrlarda asosan Fors ko'rfazida AQSh mavqei sobiq mustamlakachilar Buyuk Britaniya va Fransiya mavqeiga o'xshab ketdi. AQSh tomonidan mintaqaga ko'rsatilayotgan harbiy, iqtisodiy va madaniy ta'sir uning mavqeini mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda.

G'arb va Yaqin Sharq davlatlari munosabatlarida AQShdan yuqoriroq bo'lgan omil ularning o'zaro iqtisodiy bog'liqligidir. 1995- yilda G'arb davlatlari AQShdan ko'ra (5 mln. barrel) 2 barobar ko'p (kuniga 5 mln. barrel) neft import qildi. Fors ko'rfazi G'arbning 24% ehtiyojini, AQShni

19% ehtiyojini qondirdi. Eksport sohasida Germaniyaning o'zi 20 mlrd. AQSh dollarlik mahsulotni Yaqin Sharqqa sotdi. Bu raqam umumiy AQSh eksporti bilan tengdir. Shu jihatdan savdo Yevropa Ittifoqi va Yaqin Sharq aloqalarida markaziy o'rin tutib, diplomatik munosabatlarning asosiy yo'nalishini ifodalaydi.

Jahon bozorida o'zaro raqobatchilikning kuchaygani sari AQSh Yaqin Sharqdagi iqtisodiy cheklov siyosati AQSh-G'arb munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu o'rinda Buyuk Britaniya mavqei Yevropa Ittifoqi davlatlaridan farq qiladi. U AQSh siyosatining to'liq qo'llab-quvvatlovchisidir. Ingliz siyosiy doiralari Yaqin Sharqdagi siyosat bilan bu mintaqada hanuz muhim ta'sir kuchiga ega ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

Hozirgi kunda Fors ko'rfazidagi AQSh va Buyuk Britaniya harbiy qudrati Yevropa Ittifoqi davlatlari ishtirokisiz harbiy amaliyotlar o'tkazish imkoniyatiga ega. Buni 1998-yil oxiridagi Iroq voqealaridan va keyinchalik Iroqdagi Saddam Husayn tuzumini ag'darib tashlash operatsiyalarida guvohi bo'ldik. Hozirda AQSh Yaqin Sharq mintaqasining eng yirik ehtiyoji zamonaviy qurol-yaroq va harbiy mudafaasini ta'minlaydi.

Oxirgi paytlarda G'arb davlatlari Yaqin Sharq bilan asosan iqtisodiy hamkorlik, o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatishga intilmoqda. Sovuq urush davri tugaganidan keyin Yaqin Sharqda yuzaga kelgan siyosiy tanglik oldida ularning bu siyosati mintaqa davlatlari tomonidan ijobiy kutib olindi. Yaqin Sharq barqarorligini ta'minlashdan asosiy maqsad G'arb davlatlari va AQSh uchun yagona-neft mahsulotlari yetkazib berilishining to'xtovsizligini ta'minlashdan iborat. YeI davlatlari Yaqin Sharq davlatlari bilan o'zaro iqtisodiy assosiat-siyalar tuzish, ularning ish faoliyatini rivojlantirish orqali o'zlarining mintaqa bilan aloqalarini yangi bosqichga ko'tardilar. Bu omil har ikki taraf uchun ham o'zaro manfaatli munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Ular o'rtasidagi aloqalarning yana bir jihati Yaqin Sharqning siyosiy, iqtisodiy muvofiqlashmaganidir (integratsiya). Bu doimo siyosiy kelishmovchiliklar keltirib chiqaradi. Arab davlatlari, neftga boy, yoki boy bo'lmasligiga qaramasdan, qoniqarsiz iqtisodiy taraqqiyot, aholining tez o'sishi, demokratik jarayonlar, davlat boshqaruvining qobiliyatsizligi kabi vaziyatlarga yuz tutdi.

Ikkinchi jahon urushi davridan boshlab AQShning Yaqin Sharq mintaqasiga kirib kelishi uning mintaqa xavfsizligi masalalarida asosiy rol o'ynashiga sabab bo'ldi. Mintaqa xavfsizligini ta'minlashdagi AQShning aralashuvi muhim o'rin tutadi. AQShning Yaqin Sharq manfaatlariga xizmat qilar ekan AQShlik siyosatchilar xavfsizlik masalalarida

o'zlarining aralashuv ta'sirlarini quyidagi omillardan iborat ekanligini ta'kidlaydilar:

- Arab-Isroil muammolarini tinchlik muzokaralari orqali hal etish, bu o'rinda ular o'rtasidagi muzokarada AQShdan boshqa vositachi yo'qligiga ularni ishontirish;

- Mintaqaning asosiy muammolari: iqtisodiy taraqqiyot, qochoqlar, suv manbalari, atrof-muhit, qurollanishni oldini olish masalalarini ko'p tomonlama, hamkorlikda hal etish uchun xalqaro hamjamiyatga olib chiqish. Bu o'rinda AQShning roli har bir masalaning hal etishida homiylik qilishidir:

Mintaqadagi radikal tuzimlarni xalqaro terrorizmni qo'llab-quvvatlashini oldini olish;

Mintaqa davlatlariga tahdid solayotgan tuzumni yo'q qilish;

Mintaqa davlatlarining mudofaa va harbiy qudratini oshirish maqsadida ular bilan birgalikda strategik hamkorlikni rivojlantirish;

O'zlarining radikal siyosat olib borayotgan qo'shnilaridan himoya qilishga intilib, mudofaa tizimlarini mustahkamlayotgan davlatlar bilan zamonaviy texnologiyalar yetkazib berishda hamkorlik qilish;

O'zlarining radikal siyosatlari natijasida ommaviy qirg'in qurollarini rivojlangan davlatlarning zamonaviy texnologiyalariga ega bo'lishini nazorat qilish;

Ularning mazkur qurollangan qo'shni davlatlarga tahdid solishini oldini olish;

Iqtisodiy, ijtimoiy qiyinchilikka uchragan rivojlangan davlatlarga yordam berish ularning hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli terroristik tashkilotlar, islomiy guruhlar xurujini bartaraf etish;

Yaqin Sharqda demokratiya, inson huquqlari, erkin so'z huquqi, axborot targ'ib etish bu mintaqa iqtisodiy guruhlarning jahon bozoriga chiqishi va erkin faoliyat yuritishini ta'minlash;

AQShning Isroilni qo'llab-quvvatlashi uning Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Isroil Arab davlatlari nazarida Yaqin Sharq xavfsizligi va barqarorligiga xavf solib turgan eng birinchi davlatdir (omildir). G'arb davlatlari Isroil bilan mustahkam savdo aloqalari bo'yicha bog'langan. Isroil muhim qishloq xo'jaligiga ega. Hozirgi kunda Isroilda yuqori texnologik yutuqlarga erishmoqda.

3-dunyo davlatlari sifatida Arab davlatlari iqtisodiy jihatdan murakkab vaziyatda AQSh va G'arb davlatlari shu vaziyatdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib, ularga iqtisodiy yordamni oshirdi. Natijada Arab davlatlari moddiy jihatdan ularga tobe bo'lib qoldi. G'arb davlatlari ana shu tobelikni oshirish maqsadida ularga yordamni qurol-yarog'lar yetkazib berish bilan oshirmoqda.

XX asrning oxirida AQSh va G'arb siyosiy doiralari Arab dunyosining harbiy qudrati avvalo o'zlariga qaratilishi mumkinligini angladilar. Endilikda ular Arab dunyosini iqtisodiy muammolar jihatidan nazorat qilishga intilmoqda. Biror sabab topilishi bilan ular G'arb davlatiga qarshi harbiy chora qo'llamokda. Fors ko'rfazi davlatlari neft mahsulotlarining doimo G'arb bozorida ularning investisiyalari kabi xaridorgir bo'lishini istaydilar. G'arb davlatlari Fors ko'rfazi neftiga tobe bo'lish bilan birgalikda doimo bu ehtiyojni qondirishning yangi yo'llarini topishga intiladi. Chunki Yaqin Sharqning doimo beqarorligi AQSh va G'arbning rivojlangan iqtisodiy rivojini xavf ostiga qo'yadi.

AQSh o'zining Yaqin Sharq siyosati yo'nalishida Misr va Iordaniyani strategik hamkor sifatida ko'radi. Bunday yondoshuv ushbu davlatlarning arab va musulmon dunyosida ahamiyatli obro-e'tiborga ega ekanligi bilan belgilanadi, shuningdek, ular Isroil bilan tinchlik shartnomasini imzolagan yagona arab davlatlari hisoblanishadi.

Yaqin Sharqning mintaqaviy xavfsizligi Arab-Isroil muammolariga boribgina taqalmaydi. Mintaqaning ko'plab davlatlari boshqa muammo va ziddiyatlarga aralashib ketgan. Shunga qaramasdan Falastin masalasi Arab-Isroil muammolarining asosini tashkil etgan, u o'nlab yillar davomida Yaqin Sharq mintaqasi xavfsizligi masalalarining xalqaro hamjamiyat markazidagi asosiy masalalaridan biri bo'lib qolaveradi. 50 yildan ortiq davr davomida Arab-Isroil muammolarining davom etishi, Falastinning mavjudligi va bu muammoni hal etish zarurligini ta'kidlaydi. Yaqin Sharqdagi bu muammo xalqaro hamjamiyat ishtirokisiz hal bo'lmaydi. Biroq, undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanish, Arab-Isroil ziddiyatlarini xali-beri oxiriga yetkazmaydi. Mintaqadagi vaziyatga ob'ektiv, tarixiy manbalarga, inson huquqlarini himoya qilgan holda, umumjahon talablarga amal qilgan holda yondoshish kerak.

Arab dunyosi Isroil o'zlarining umumiy dushmani, agressiv siyosatchi, ekspansionist, mintaqada gegemoniyaga intilayotgan, tinchlik muzokaralaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanayotganini ta'kidlaydi. Uning bosib olgan yerlaridan chiqib ketmasdan turib, tinchlik muzokaralari oxirigacha hal bo'lmasligini bildiradilar.

AQShning Yaqin Sharqqa nisbatan siyosatining umumiy mazmunga egaligi, uning mintaqadagi strategik manfaatlaridan kelib chiqqan holdadir. AQSh uchun, mintaqaning barqarorligi, turli siyosiy, harbiy ziddiyatlardan ozodligi katta ahamiyatga ega. Bu mintaqa davlatlari qay darajada barqaror bo'lgani sari AQShning manfaatlari xavfsizligi ta'minlanmay mintaqa davlatlari o'rtasidagi urush, ziddiyatlar savdo-sotiq, tovar aylanmasi, investisiyani to'xtatadi, qochoqlar sonini ko'paytiradi, bu esa AQShning yaqin ittifoqdoshlari Yevropa davlatlari ichki siyosatida

muammolarni kuchaytiradi. Janubiy Yevropa davlatlari bu vaziyatda AQShdan ko‘ra ko‘proq salbiy oqibatlariga uchraydilar. Ikkinchi muhim jihati - AQSh Fors ko‘rfazi va Shimoliy Afrikadan munosib narxda neft bilan ta‘minlanishning doimiyligidan katta manfaatdor. Yaqin Sharq nefti AQSh ittifoqdoshlari G‘arb davlatlari iqtisodiy rivojining asoslaridan biridir. Shuningdek, G‘arb davlatlari Yaqin Sharq neftiga AQShdan ko‘ra ko‘proq muhtojdirlar. Shu o‘rinda Yaqin Sharq har bir inqiroz neft ta‘minoti doimiyligining buzilishi, narxining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Neft narxining oshishi Yevropa davlatlari uchun katta iqtisodiy zarar keltiradi. Bu vaziyat AQSh va G‘arb davlatlarida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolar olib keladi. Oxirgi vaqtda AQSh Yaqin Sharqda harbiy qurol yordamida siyosat yuritdi. Endilikda esa ular bu siyosatni faqat o‘z manfaatlarini himoya qilibgina olib boradilar. Uchinchi jihati AQShning Yaqin Sharqda kuchli tijoriy manfaatlar mavjud. Yaqin Sharq AQSh harbiy va maishiy mahsulotlarining eng ahamiyatli bozoridir. AQSh bu mintaqaga katta miqdorda qurol-yaroq va tovarlar sotish bilan neftga sarflanayotgan mablag‘larni qaytarib oladi. Iqtisodiy raqobat kuchaygan ushbu davrda bu muhim bozorning ochiq bo‘lishi katta manfaatdorlik omilidir.

Mintaqaning muhim strategik suv yo‘llari, kommunikatsiyasi nafaqat savdo-sotiq rivoji balki, AQShning harbiy qudrati uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu yo‘llardan eng muhimi Suvaysh kanali, Xormuz ko‘rfazi, Qizil dengiz, Bosfor, Dardanel, O‘rta yer dengizi portlari shular jumlasidandir.

Oxirgi jihati esa AQSh Yaqin Sharq mintaqasi davlatlarida bozor iqtisodi, demokratiya g‘oyalarini targ‘ib qilishga qattiq urinmoqda. Bu omil gohida boshqa manfaatlar bilan muammoga uchrashi mumkin. Jumladan, barqarorlik bilan, shuning uchun G‘arb davlatlari monarxiya usulidagi davlatlar, asosan Fors ko‘rfazi davlatlari bilan kelishib siyosat yuritishga majbur (neftning doimiyligini ta‘minlash maqsadida). AQSh o‘z manfaatlariga ta‘sir ko‘rsatmaslik sharti bilan Yaqin Sharqdagi ochiq jamiyatlar, inson huquqlari tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

7.2. Arab Mag‘ribi davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni

Dars maqsadi:

- talabalar Arab Mag‘ribi davlatlari tashqi siyosati va siyosiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;

- talabalarga Arab Magʻribi davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlarda tutgan oʻrni borasidagi toʻla maʼlumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning oʻziga xos jihatlarini singdirish.

- Magistrantlarda davlatni har tomonlama rivojlantirish jarayonida oʻta muhim, oʻziga xos rol oʻynovchi tashqi siyosat va uning maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan xalqaro muzokaralar boʻyicha nazariy bilim va amaliy mahoratni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *Arab Magʻribi, Afrika Ittifoqi, Afrika Birligi Tashkiloti, Abdulaziz Butafliga, Muhammad VI, Marokash, Qirol Xasan II, Tuvareg, Barbar, Mavritaniya.*

1989-yil fevralda Shimoliy Afrika davlatlarining Marokashdagi ikkinchi uchrashuvida Magʻrib Arab Ittifoqi tuzilishi eʼlon qilindi va unga Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash, Tunis davlatlari aʼzo-davlatlar sifatida qoʻshilib, tashkilotning “Ittifoq tuzilishi toʻgʻrisida shartnoma”, “ittifoq tashkil topishi toʻgʻrisidagi deklaratsiya”, “katta Magʻrib kommissiyalari yakuni boʻyicha rezolyusiya”larni imzolashdi.

Oʻtgan asrning 90-yillari boshida Magʻrib davlatlari oʻzaro integratsiyani kuchaytirishga yoʻnaltirilgan turli loyihalarni amalga oshirdilar va hatto 2000-yilgacha toʻliq iqtisodiy ittifoqqa erishish maqsadini qoʻyishgan, biroq oʻsha vaqtda aʼzo-davlatlar rejalari oʻzgaradi va hozirgi kunda ushbu davlatlar oʻrtasidagi integratsiyalashuvni YeI bilan integratsiya yoʻlida tashlangan qadam sifatida qabul qilinmoqda. Uning oʻziga xos sabablari mavjud. Avvalo mintaqa Yevropaga geografik yaqinligi, hamda Yevropa davlatlari (Franiya) savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanayotganligi bilan ahamiyatlidir. Magʻrib Arab Ittifoqi tashqi savdo aylanmasining 2/3 qismi Yevropaga toʻgʻri kelib, neft va neft mahsulotlari eksportining 60-70% (Liviya – 90% gacha) fosforitlar va qayta ishlangan mahsulotlarining hamda turli sanoat xom ashyosi, qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining 80% Yevropa davlatlariga eksport qilinadi. Yevropadan Magʻrib davlatlariga 65-79% sanoat uskunalari va yarim tayyor kiyimlar, tayyor kiyimlar, oziq-ovqat mahsulotlari import qilinadi. Shimoliy Afrika davlatlarining Gʻarbiy Yevropa davlatlariga boʻlgan innovasion texnologik tobeligi doimiy ravishda oʻsmoqda.

Shimoliy Afrika va Yevropa davlatlari orasidagi keng siyosiy - iqtisodiy munosabatlar koʻp asrli tarixga ega. Dunyoning qadimiy sivilizatsiya oʻchoqlaridan biri – Oʻrta yer dengizi sivilizatsiyasi hozirgi kunda 15 davlat tarkibidagi, shu jumladan Falastin avtonomiyasi xalqlarini birlashtirgan. Ushbu sivilizatsiya meʼrosi nafaqat xalqaro aloqalariga oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda, balki uning taʼsiri xoʻjalik va gumanitar sohalarida ham sezilib turadi. Jahon siyosiy jarayonlari globallasuvi, ayniqsa

ko'plab ijtimoiy hayot voqealariga ta'sir ko'rsatuvchi va informasion axborot maydonlari rivojlanishi O'rta yer dengizi sivilizatsiyasi markazlashish tendensiyasini kuchaytirib kelmoqda.

Hozirgi kunda xalqaro aloqalarni mintaqaviy, mintaqalararo, jahon miqyosida tartibga soluvchi Yevropa Ittifoqi, "Katta sakkizlik", Butunjahon savdo tashkiloti (BJS), Jahon banki kabi savdo-iqtisodiy va siyosiy birlashmalar o'z darajasi va samarasi ta'siri shu qadar oshdiki, ularning faoliyat chegaralari geografik jihatdan ham, sohaviy jihatdan ham yangi-yangi qo'shilayotgan davlatlar hisobiga keskin ko'tarilmoqda. O'zaro aloqalarning o'sishi kelajakda savdo-iqtisodiy va siyosiy guruhlar a'zo-davlatlarining siyosiy va iqtisodiy salohiyatini bir necha bor oshishiga olib keladi. Mazkur tendensiya Shimoliy Afrika va Yevropa o'rtasidagi siyosiy-iqtisodiy aloqalarga ham tegishli bo'lib, ular orasida oxirgi o'n yil ichida siyosiy munosabatlar maxsus Shimol-Janub shaklida rivojlanmoqda.

Arab Mag'ribi Ittifoqining mintaqadagi integrasion jarayonlarda o'zaro hamkorlik munosabatlarining ustuvor yo'nalishlari albatta, Yevropa Ittifoqi a'zo-davlatlari hisoblanadi.

Arab Mag'ribi ittifoqi integrasion aloqalarini rivojlantirishda eng avvalo unga a'zo-davlatlar iqtisodiy salohiyatlarini Yevropa mintaqasi davlatlari darajalariga tenglashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Albatta, Yevropa mintaqasi davlatlari iqtisodiy darajalari yuqori hisoblanadi, biroq MAI davlatlari siyosiy strategik vazifalarini Shimolga nisbatan yo'naltirishi zarur.

Ma'lumki, Shimoliy Afrika mintaqasi davlatlarida o'zga tizim qonuniyatlari hukm suradi. Mintaqaning qator mamlakatlarida, jumladan Tunis, Jazoir, Misr davlatlarida sotsialistik dekretlarni qabul qilinishi Shimolga orientatsiyalashuvga katta ta'sir o'tkazadi. Masalan, 1956-yilda Suvaysh kanali milliylashtirilgan, 1964-yilda Tunis va Jazoirda Fransuzlarga tegishli yerlar musodara qilingan va hokazo. Ammo bunday inqilobiy o'zgarishlar ham arab davlatlarining sobiq metropoliyalar bilan bo'lgan aloqalarini to'liq uzilishiga olib kelmadi, vaholanki o'sha davrda Shimoliy Afrika tashqi iqtisodiy aloqalari ba'zi sohalarida Sovet Ittifoqi va Amerika Qo'shma Shtatlari o'zlarining siyosatlarini olib borishiga qaramay Yevropa davlatlari ustunliklari saqlanib qolingan. 60-yillarning ikkinchi yarimida Shimoliy Afrika va G'arbiy Yevropa davlatlari orasida hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan tendensiya paydo bo'ldi, o'zgaruvchan siyosiy kon'yunkturaning salbiy ta'sirlaridan ozod etishga qaratilgan va iqtisodiy aloqalarning yangi shakllarini o'rnatishga intilgan jarayon boshlandi.

Bunday rivojlanishga bir qator siyosiy va iqtisodiy omillar asos bo'ldi. Eng avval "Umumiy bozor" qatnashchilari dinamik rivojlanishiga e'tibor berish lozim, bu davlatlarda ilmiy-texnika inqilobini joriy etish bo'yicha katta sa'yi harakatlar boshlandi. Bunday sharoitlarda Yevropa iqtisodiy ittifoqi a'zolari Shimoliy Afrika bozorlarini saqlab qolish bilan cheklanib qolmay, ularni kengaytirishga bo'lgan barcha urinishlarni kuchaytirishdi.

50-60-yillarda "Umumiy bozor" qatnashchilarining Yaqin Sharq neft va gaz importiga bog'liq bo'lishlari Shimoliy Afrika va Yevropa o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga katta qiziqish uyg'otdi. Birinchidan, Jazoir yirik neft importyorlari soni oshdi, ikkinchidan mintaqa Yevropaga yoqilg'i eksportining tabiiy transport yo'lagida joylashgan edi.

O'z navbatida arab davlatlari milliy iqtisodiyotlarini tez rivojlantirishga va zamonaviylashtirishga katta asos bo'luvchi Yevropaning innovasion texnik va texnologiyalariga muhtoj hisoblanishadi.

Shimoliy Afrika davlatlari tashqi savda aloqalarining katta qismi Yevropa ittifoqi davlatlariga to'g'ri keladi. Xalqaro valyuta fondi ma'lumotlariga ko'ra Jazoir tashqi savdo aylanmasining 52%, Misr – 34.4%, Marokash tovar aylanmasining 57.9% hamda Tunis savdo aylanmasining 70.3% Yevropa ittifoqi davlatlari tashkil etadi.

Shimoliy Afrika mamlakatlarini Yevropa bozorlari qiziqtirib qo'ygan. Afrikadan Yevropaga asosan paxta, o'simlik yog'lari, sabzavotlar, va h.k. qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda neft, gaz, fosfaritlar, to'qimachilik mahsuloti eksport qilinadi.

Qator iqtisodiy omillardan tashqari siyosiy vaziyat ham Shimoliy Afrika va sobiq metropoliyalar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning asta-sekin o'z me'yoriga tushishiga imkon bermoqda.

Shimoliy Afrika davlatlarida mahalliy va Yevropa kapitali ishtirokida tashkil etilgan ko'plab qo'shma korxonalar, firmalar ishlab chiqarish hamda iste'mol maqsadlariga mo'ljallangan mahsulotlarni qamrab olishar edi. Tashqi savdo hajmi va chuqurlashayotgan ishlab chiqarish kooperatsiyasi asta-sekin 70-yillarning o'rtasida Yevropa va Afrikaning ayrim davlatlari orasida iqtisodiy sohada hamkorlik bo'yicha siyosiy bayonnomalar imzolanishiga olib keldi. Ushbu siyosiy hujjatlar asosida Yevropa iqtisodiy yordam ko'rsatishi, shu bilan birga o'zaro savdo sohasida boj chegirmalarini kamaytirishi shart edi, bundan tashqari iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda bir xil uslublardan foydalanish nazarda tutilgan ham edi.

Shimoliy Afrika va Yevropa davlatlari orasidagi siyosiy-iqtisodiy aloqalar rivojlanishining keyingi bosqichi 70-yillardan 90-yillarning boshigacha davom etgan. Bu davr ichida Arab davlatlari uchun Yevropa

davlatlarining savdoda asosiy hamkor sifatida yetakchi ahamiyati mustahkamlanadi.

Shimoliy Afrika mintaqasidan Yevropa davlatlariga ishchi kuchi migratsiyasi darajasi keskin oshib bormoqda. Bu ham davlatlar orasidagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mintaqaning turli davlatlariga Yevropa kapitali kirib kelishi o'sib bormoqda. Tendensiya tezligi mahalliy iqtisodiyot erkinligiga bog'liq, ammo Yevropa sarmoyalarini jalb etishga boshqa omillar ham ta'sir ko'rsatadi, xususan jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasi, milliy xo'jalik rivojlanishi va hokozolar shular jumlasidandir. Ammo milliy iqtisodiyotda davlat ulushi katta bo'lishiga qaramay (aksariyat davlatlarda davlatning ulushi YaIM ning 50% va undan yuqorini tashkil etadi) Yevropa xususiy kapitallari Shimoliy Afrikada o'sib bormoqda. O'sha davrning o'zida Tunis, Misr va Marokashda investisiyalarni jalb etish shart-sharoitlari erkinlashdi, mahalliy iqtisodiyotgan chet el sarmoyalarini jalb etishga va uni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamini oshirildi. Ta'kidlash kerakki, birgina Tunisda Yevropa xususiy kapitallari ishtirokida 600 dan ortiq firma va kompaniyalar o'z faoliyatini amalga oshirishmoqda.

XX asrning oxirlarida Shimoliy Afrika mintaqasining Yevropa mintaqasi davlatlari bilan siyosiy-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishiga qaramasdan arab davlatlari "uchinchi dunyo" ning muvaffaqiyatli rivojlanayotgan davlatlar qatoriga kirishgan emas. Ko'pgina milliy iqtisodiyotlar katta qismi qishloq xo'jaligi va xom ashyo sanoatiga asoslangan siyosatda edi. Iqtisodiyotning zamonaviy yetakchi sohalari ahamiyati esa past edi. Bu holat natijasida Yevropa va Shimoliy Afrika davlatlari o'rtasida ishlab chiqarish sohasida emas, balki savdo sohasida ham tashqi iqtisodiy aloqalar vujudga keldi. Bu esa hamkorlik munosabatlarini ancha kuchsizlantirishga olib keldi.

Biroq, o'sha davrda Tunis ajralib turar edi, oxirgi 20 yil ichida bu mamlakatda katta muvaffaqiyatlar yuz berdi. 70-yillar oxirida davlat YaIM ishlab chiqarishning ulushi 1/3 ni tashkil etdi, shu bilan birga qayta ishlash sohalari rivoji natijasida qishloq xo'jaligi rivojlanish darajasi ham oshdi.

Hozirgi kunga kelib Mag'rib arab ittifoqining Yevropa ittifoqi bilan o'zaro ustuvor yo'nalishlari yangi bosqichlarga ko'tarildi. Bu davrda jahon xo'jalik va siyosiy munosabatlarda chuqur o'zgarishlar kuzatildi, savdo-iqtisodiy, siyosiy uyushmalar shakllandi. Yevropa umumiy bozori yopiq iqtisodiy guruh sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan bo'lsa, endilikda turli mintaqaviy siyosiy-iqtisodiy integrasion tashkilotlar soni va ishtirokchilari keskin oshib bormoqda. YeI bilan bir qatorda boshqa yirik siyosiy va savdo-iqtisodiy tuzilmalar paydo bo'ldi (OTOM – Osiyo-Tinch okean

mintaqasi davlatlari iqtisodiy ittifoqi, NAFTA – Shimoliy Amerika davlatlari va Meksika uyushmasi va boshqalar). Mazkur uyushmalar xususiyati ularda, Osiyo va Lotin Amerikaning rivojlanayotgan davlatlari ishtiroki kengayib bormoqda. Bu davlatlarning iqtisodiy siyosati sezilarli ravishda rivojlanmoqda va ular sanoati rivojlangan davlatlar bilan siyosiy-iqtisodiy ittifoqlarda ishtirok etishmoqda. Bunday siyosiy-iqtisodiy integrasion tashkilotlarni shakllanishida jahon siyosiy iqtisodiyotining yetakchi markazlari katta ahamiyatga ega. Bu esa ularning jahon xo‘jalik aloqalariga bo‘lgan nuqtai nazarlari o‘zgarganligini ifodalaydi. Shu kabi siyosat asosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy fundamental omillar mavjud.

Yirik mintaqalararo siyosiy-iqtisodiy birlashmalar ishtirokchilari soni oshishi mustahkam doimiy tendensiyaga aylandi. Mazkur tendensiya Shimoliy Afrika davlatlariga ham tegishli, chunki oxirgi o‘n yillik ichida bu mintaq va Yevropa orasidagi iqtisodiy, siyosiy munosabatlar keskin oshmoqda.

Jarayonlarda ikki mintaqani yaqinlashtiruvchi iqtisodiy, siyosiy omillar muhim rolni o‘ynaydi. Yevropa davlatlari Shimoliy Afrika mamlakatlariga qiziqishi, Mag‘rib arab ittifoqi davlatlari iqtisodiy salohiyatining o‘sishi, jahon yoqilg‘i xo‘jaligiga yirik energetik ta‘minotchi davlatlar sifatida chiqishlariga ham ta‘sir etmoqda.

Bu borada Yevropa Ittifoqi taniqli rahbarlari ma‘ruzalari tahlili quyidagi xulosaga olib keladi: Shimoliy Afrikaga nisbatan bo‘lgan yangi siyosat va siyosiy hamkorlik (tashqi siyosatni tartibga solish, harbiy-siyosiy, gumanitar sohalardagi hamkorlik, umumiy tartibga soluvchi organlarni shakllantirish)da Yel iqtisodiy manfaatlari bo‘lishiga qaramay, ikki mintaqaning har tomonlama integratsiyalashuvini chuqurlashtirish o‘ta muhimdir.

Yevropa Ittifoqi tomonidan e‘lon qilingan uslub yangi integrasion siyosat muvafaqiyatli bo‘lsa va tajribada amalga ohsa, yaqin orada Yevropa va Arab davlatlari integratsiyalashuv imkoniyatlari yuqori deyishga asos bo‘ladi hamda mavjud iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jihatlar hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Integratsiya harakati ikki tomonga yo‘naltirilgan ko‘chaga o‘xshashdir. Ammo bu harakat ishtirokchilari nafaqat umumiy maqsadlarni balki, iqtisodiy rivojlanishiga bog‘liq jihatlari bo‘lishi mumkin. Bu farqlarni to‘g‘ri tushunish iqtisodiy va siyosiy tizimlar yaqinlashishi jarayoni muddatlarini va kelajagini anglashga imkoniyat beradi. Jumladan, Yel hozirgi kunda Shimoliy Afrika davlatlarida siyosiy islohotlar, mintaqaviy munosabatlarni sog‘lomlashtirish, mintaqaviy integratsiyani rivojlantirish kabi siyosatga katta e‘tibor qaratmoqda.

Arab Magʻribi Ittifoqining Yevropa Ittifoqi bilan mintaqaviy integrasion jarayonlarda oʻzaro hamkorlik munosabatlarining ustuvor yoʻnalishlari milliy iqtisodiyotlar salohiyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Ammo, Magʻrib ittifoqi davlatlari integratsiyalashuvidagi maqsadlari YeI davlatlarida katta qiziqishga ega boʻlmasligi mumkin.

Istiqbolda siyosiy munosabatlarga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, AMI va YeI mintaqaviy integrasion jarayonlari rivojlanayotganligini koʻrishimiz mumkin. Ikki tomonlar manfaatlari deyarli teng. YeI uchun yangi siyosat, iqtisodiy bozor va markazlarni kashf etish hamda ularni oʻzlashtirish boʻlsa, AMI uchun zamonaviy siyosiy va iqtisodiy rivojlanish bosqichlarini qoʻllash, milliy xoʻjalikni rivojlantirish, mintaqa hamda jahon siyosiy arenasida mustahkam oʻrinlarga ega boʻlish shular jumlasidandir.

7.3. Islom Hamkorlik Tashkiloti zamonaviy xalqaro munosabatlarda

Dars maqsadi:

- talabalar Islom Hamkorlik Tashkilotiga aʼzo davlatdagi siyosiy jarayonlar borasida tasavvur hosil qilishlariga koʻmaklashish;
- magistrant va talabalarga nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qoʻllashni oʻrgatish;
- magistrant va talabalarga IHT xalqaro munosabatlar tizimidagi oʻrni borasidagi toʻla maʼlumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning oʻziga xos jihatlari bilan ularni tanishtirib borish.
- magistrantlarda davlatni har tomonlama rivojlantirish jarayonida oʻta muhim, oʻziga xos rol oʻynovchi tashqi siyosat va uning maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil hisoblangan xalqaro muzokaralar boʻyicha nazariy bilim va amaliy mahoratni shakllantirish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: *SOMSES, COMSTECH, IRSICA, ISESCO, Quddus, Arab-Isroil mojarosi, Islom konferensiyasi, Marokash, A. Exsan oʻgʻli, musulmon mamlakatlar.*

Bir qator musulmon mamlakatlarining olimlari, ziyolilari va ijtimoiy-siyosiy soha arboblari guruhi dunyodagi musulmonlar manfaatlari yoʻlida jahon miqyosida faoliyat koʻrsatadigan doimiy tashkilot tuzish toʻgʻrisidagi tashabbus bilan chiqdilar. Bu tashabbus qoʻllab-quvvatlandi va Bugungi kunda jahondagi 57 mamlakatni birlashtirayotgan Islom konferensiyasi tashkiloti ilk bor bir guruh musulmon davlatlari

rahbarlarining 1969-yil 25-sentyabrda Marokash poytaxti Rabotda o‘tkazilgan sammitida tashkil topdi¹.

Bu tashkilotning tarixini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u Bog‘dod paktining tanazzuli, SENTOning obro‘sizlanishi, “Qo‘shilmaslik harakati”ning kuchayishi, Arab davlatlari ligasida mamlakatlarida antiimperialistik kayfiyatlar ustun bo‘lishi, kolonizator davlatlarning Yaqin Sharq va umuman Osiyo va Afrikadan chiqib ketishi ayon bo‘lib qolgan bir davrda vujudga keldi. Bu sanab o‘tilgan omillar islom dini tarqalgan monarxiya tipidagi davlatlarning rejimiga salbiy ta’sir ko‘rsatar edi. Saudiya Arabistoni diniy asosga qurilgan xalqaro blok tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Zero, shunda noarab bo‘lgan hamda strategik ahamiyatga ega yirik va kuchli musulmon mamlakatlari (Eron, Indoneziya) ham bu tashkilotga tortilar edi. Diniy asosdagi hamkorlik tuzish g‘oyasi gigant davlatlar ta’siridan tashqarida siyosat olib borish xom xayollarini ham tug‘dirar edi. Islom dinining musulmon mamlakatlari xalqlari hayotida tutgan muhim o‘rni ham mamlakat siyosiy elitasini bunday tashkilot g‘oyasiga qarshi chiqishga yo‘l bermasdi. 1957-yili Saudiya Arabistoni arab mamlakatlari, Turkiya, Eron va Pokistondan iborat Islom paktini tuzish taklifi bilan chiqdi. Bu loyiha ortida musulmon mamlakatlarining AQSh bilan yaqinlashuvi va Misrga qilingan agressiyasiga javoban Fransiya, Buyuk Britaniya va Isroilga qarshi blok tuzish rejasi ko‘zlangan edi. Shu bilan birga “kommunizmga qarshi sanitar kordon” vujudga kelishi rejalashtirilgan edi. Ammo bu loyiha faqatgina Eron va Iordaniya tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Saudiya musulmonlarning eng muqaddas qadamjolari joylashgan hududda ekani, uning moliyaviy imkoniyatlari musulmon olamida diniy rahnamolikni o‘z qo‘liga olishga undar edi. 1965-yil Saudiya Arabistoni podshosi Faysal o‘zining Eronga qilgan rasmiy tashrifi chog‘ida barcha islom mamlakatlari rahbarlarini to‘plab konferensiya o‘tkazish taklifini ilgari surdi. Ammo bu safar ham faqatgina Eron va Iordaniya bu taklifni qo‘llab-quvvatladi. O‘sha paytda arab va umuman islom olamida juda katta obro‘ga ega Misr prezidenti Jamol Abdul Nosir bu taklifga o‘z munosabatini Qohira universitetida 1966- yil 22-fevralda o‘tkazilgan ommaviy mitingda bildirgan edi: “Biz bu yerda, BARda dinni imperializm va reaksiyon maqsadlarda foydalanishlariga qarshi chiqamiz. Biz islom pakti va Islom konferensiyasiga ham qarshi chiqamiz, xuddiki, ilgari Bag‘dod pakti, Eyzenxauer doktrinasi va boshqa barcha reaksiyon manyovrlarga qarshi chiqqanimiz kabi. Biz bayonot beramizki, haqiqiy islomiy birdamlik – bu imperializmga qarshi kurashayotgan barcha

¹2011 yil 28-30 iyun kunlari Astana shahrida o‘tkazilgan tashkilotning yillik yig‘ilishida tashkilotning nomi Islom hamkorlik tashkilotiga (IHT) o‘zgartirilgan.

musulmon xalqlarning birodarligi. Aslo islom dinini reaksiyon maqsadlarda soxtalashtirib, tarix g'ildiragini ortga burib, taraqqiyot yo'lida to'g'anoq bo'layotgan bir to'da reaksiyon hukumatlar birdamligi emas".

Ammo Isroilning 1967-yil iyun oyidagi agressiyasi arab Sharqidagi vaziyatni tamomila o'zgartirib yubordi. Bu tajovuz oqibatida Misr va Suriya davlatlari o'z harbiy-iqtisodiy imkoniyatlarini tiklash uchun Saudiya Arabistoni bilan aloqalarni yaxshilashga majbur bo'ldilar. Natijada Saudiya Arabistoni musulmon mamlakatlari tashkilotini tuzish tashabbusini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatga ega bo'ldi. Bunda u barcha musulmon mamlakatlarni Isroil agressiyasiga qarshi turish va islomning asosiy muqaddas qadamjolari joylashgan Quddus shahrini himoya qilish uchun birlashishni asosiy sabab qilib ko'rsata boshladi. Quddusdagi al-Aqso masjidi yoqib yuborilgandan keyin to'rt kun o'tib, 1969-yilning 25-avgust kuni Qohirada 14 arab davlatining tashqi ishlar vazirlari yig'ildilar va Saudiya Arabistonining Yaqin Sharq muammolari borasida islom mamlakatlari rahbarlari yig'ilishini o'tkazish taklifini qo'llab-quvvatladilar. Marokash poytaxti Rabot shahrida 1969-yil 24-sentabr kuni o'tkazilgan musumon mamlakatlari rahbarlari yig'ilishida taklif etilgan 35 davlatdan 25 tasi ishtirok etdi, ularning 10 tasidagina davlat rahbarlari tashrif buyurgan edi. Bu yig'ilish qabul qilgan deklaratsiyada musulmon mamlakatlari yuqori darajadagi uchrashuvlarining sabab va maqsadlari, o'tkazilish asoslari yoritilgan bo'lib, unda diniy asosda ta'sis etilayotgan yangi xalqaro tashkilot tuzish muayyan dasturi aks ettirilmagan edi. Deklaratsiyada yig'ilish ishtirokchi davlatlarining Yaqin Sharq muammolari, xususan Quddus fojiasi bo'yicha pozisiyalari batafsil bayon etilgan.

Islom konferensiyasi tashkilotining nizomi faqatgina 1972- yildagina tashkilotning Jiddada fevral-mart oylarida bo'lib o'tgan uchinchi yig'ilishida qabul qilindi. Nizomga muvofiq 1969-yilda Rabotdagi musulmon mamlakatlari rahbarlari uchrashuvi, 1970-yilda Karachi va 1972-yilda Jiddadagi musulmon mamlakatlari tashqi ishlar vazirlari ishtirok etgan yig'ilishlarda qatnashgan davlatlar musulmon mamlakatlari xalqaro tashkilotining a'zolari hisoblanar edilar. Tashkilotga a'zo bo'lish uchun tashqi ishlar vazirlarining navbatdagi yig'ilishidan 90 kun oldin Bosh kotibiyatga ariza topshiriladi. Ariza kelib tushgan kundan 30 kun o'tib Bosh kotibiyat tashkilot a'zo davlatlarini bu haqda xabardor qiladi. Naavbatdagi tashqi ishlar vazirlari yig'ilishida bu masala muhokamaga taqdim qilinadi. A'zolik arizasi qondirilishi uchun tashkilotga a'zo davlatlarning 2/3 qismi ovozi to'planishi talab etiladi.

Nizomga ko'ra tashkilotning maqsad va tamoyillari quyidagicha belgilangan:

- musulmon birdamligini mustahkamlashga ko‘maklashish;
- siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ilmiy sohalarda hamkorlik qilish hamda xalqaro tashkilotlar doirasida a‘zo davlatlar o‘rtasida konsultatsiyalar o‘tkazib turish;
- irqiy kamsitish va mustamlakachilikning barcha shakllariga barham berish;
- adolat asosida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlashga ko‘maklashish;
- muqaddas islom qadamjolarini muhofaza etish va falastin xalqi kurashini qo‘llab-quvvatlash borasidagi xatti-harakatlarni muvofiqlashtirish;
- barcha musulmonlarni o‘z qadriyatlari, mustaqilligi va milliy huquqlarini ta‘minlash yo‘lidagi kurashini qo‘llab-quvvatlash;
- tashkilotga a‘zo mamlakatlar va boshqa davlatlar o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro anglashuvni rag‘batlantirish;
- xalqaro miqyosda tinchlik va barqarorlikka ko‘maklashish;
- xalqaro terrorizmga qarshi kurashish.

A‘zo davlatlar yuqorida zikr etilgan maqsadlardan kelib chiqib, qarorlar qabul qiladi va majburiyatini o‘z zimmasiga oladi hamda quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- tashkilotga a‘zo mamlakatlar o‘rtasida teng huquqlilik;
- tashkilotga a‘zo mamlakatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini hurmat qilish va ularning ichki ishlariga aralashmaslik;
- tashkilotga a‘zo mamlakatlarning suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini hurmat qilish;
- tashkilotga a‘zo mamlakatlar o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan mojarolarni tinch yo‘llar, muzokaralar, vositachilik, yarashish yoki hakamlik sudlari orqali hal etish;
- tashkilotga a‘zo har qanday mamlakatning hududiy yaxlitligi va daxlsizligi yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatish yoki tahdid qilishdan o‘zini tiyish.

Islom konferensiyasining nizomi 3-bandiga muvofiq quyidagi boshqaruv organlariga asoslanadi: davlat rahbarlari yig‘ilishlari – sammit, tashqi ishlar vazirlari yig‘ilishlari – sessiya, Bosh kotibiyat va uning yordamchi organlari. Davlat rahbarlari yig‘ilishlari – sammitlar tashkilotning eng oliy darajadagi organi hisoblanib, har uch yilda bir marta o‘tkazib turiladi. Yig‘ilish islom dunyosining eng dolzarb masalalarini muhokama etish va IHT siyosatini muvofiqlashtirish maqsadida chaqiriladi. Sammit qaror va rezolyusiyalari konsensus asosida qabul qilinadi.

Tashqi ishlar vazirlari uchrashuvlari sessiyalar ko‘rinishida yilda bir marta yoki talab etilganda tashqi ishlar vazirlari darajasida yoki ular tomonidan tayinlangan rasmiy vakillari ishtirokida o‘tkaziladi. Sessiyalar Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo mamlakatlarning birida bo‘lib o‘tadi. Favqulodda holat sodir bo‘lganda tashkilotga a‘zo davlatlardan biri yoki Bosh kotibning murojaati bilan ham sessiya chaqirilishi mumkin, agar bunga a‘zo davlatlarning 2/3 qismi rozi bo‘lsa. Tashkilot nizomining 5-moddasiga binoan tashqi ishlar vazirlari sessiyasi vakolatiga quyidagilar kiradi: tashkilotning asosiy siyosatini amalga oshirish vositalarini ko‘rib chiqish; o‘tgan sessiyalarda qabul qilingan rezolyusiyalarni bajarilish holatini ko‘rib chiqish; tashkilotning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda o‘zaro muhim ahamiyatga ega masalalar rezolyusiyalar qabul qilish; moliyaviy qo‘mita hisobotini tinglash va muhokama qilish; Bosh kotibiyat byudjetini tasdiqlash; muhokama etish; Bosh kotib hamda uning to‘rt o‘rinbosari va o‘rinbosar maqomidagi ikki lavozimga tayinlash; a‘zo mamlakatlar manfaatlariga daxldor bo‘lgan va kerakli choralar ko‘rilishi lozim har qanday muammoni o‘rganish; tashqi ishlar vazirlari darajasida bo‘lib o‘tadigan uchrashuvlarning vaqti va o‘tkaziladigan joyini belgilaydi; tashkilotga a‘zo davlatlarning uchdan ikki yoki undan kuproq qismining roziligi bilan qarorlar va tavsiyalar qabul qilinadi.

Tashkilotga a‘zo davlatlarning uchdan ikki qismining sessiyalarda ishtiroki talab etilgan kvorum hisoblanadi va qarorlar qabul qilinishi uchun yetarli asos bo‘ladi.

Tashqi ishlar vazirlarining uchrashuvlari podshohlar, davlat boshliqlari va hukumat rahbarlari darajasidagi uchrashuvlarda rasmiylashtiriladigan hujjatlarning qonun-qoidalarini joriy etadilar. Uchrashuvlarda har bir sessiya uchun vakillar belgilanadi. Shuningdek, joriy etilgan qarorlar podshohlar, davlat boshliqlari, hukumat rahbarlari va tashqi ishlar vazirlari darajasidagi uchrashuvlarda ta‘sis etilgan yordamchi organlar tomonidan o‘rganib chiqiladi.

IHTning 1980-yildagi tashqi ishlar vazirlari sessiyasida a‘zo davlatlardan saylangan 11 vazir va IHT Bosh kotibidan iborat doimiy faoliyat olib boradigan komissiya tashkil etildi. Komissiya doirasida a‘zo davlatlar xavfsizligi bo‘yicha “beshlik guruhi” ta‘sis ham etildi. Qo‘mita tashkilotga a‘zo mamlakatda yuzaga kelgan favqulodda holatlar, tanglik vaziyatini ko‘rib chiqish, musulmon mamlakatlari o‘rtasida yuzaga kelgan nizo va mojarolarni hal etish, tashqi ishlar vazirlari yillik yig‘ilishlarida belgilangan vazifalarni bajarish vakolatiga ega. Bunday tashkiliy tizim bilan IHT tobora BMTga o‘xshab bormoqda. Shu bilan birga IHT tizimida kollektiv xavfsizlik tamoyili shakllantirilgan. Chunonchi, 1991-yilgi IHT mamlakatlari rahbarlari yig‘ilishida qabul qilingan Dakar deklaratsiyasida

shunday deyiladi: “Tashkilotga a’zo har qanday davlatga nisbatan yo‘naltirilgan tahdidni biz xalqaro tinchlik va xavfsizlikka hamda tashkilotga a’zo mamlakatlarga qaratilgan tahdid, deb baholaymiz”². Bu hujjat Iroqqa qarshi qaratilgan “Sahrodagi bo‘ron” operatsiyasi yakun topgandan keyin qabul qilindi.

IHTning asosiy uchinchi organi – Bosh kotibiyat tashqi ishlar vazirlarining 1970-yildagi birinchi yig‘ilishida ta’sis etilgan va “Quddus ozod etilgunga qadar” uning qarorgohi Jidda shahrida joylashishi belgilangan.

Tashqi ishlari vazirlari konferensiyasida to‘rt yil muddatga tayinlangan Bosh kotibi Kotibiyat yetakchisi hisoblanadi. U keyingi yana bir muddatga saylanish huquqiga ega. IHT nizomining 6-moddasiga muvofiq Bosh kotibiyat vakolatlariga quyidagilar kiradi: Bosh kotib kotibiyat xizmatchilarini qobiliyati, to‘g‘ri so‘zligi va sodiqligiga e’tibor bergan holda, a’zo davlatlar fuqarolaridan tayinlaydi; Bosh kotibiyat tashkilotga a’zo davlatlar orasida o‘zaro aloqalarni rivojlantirish, hamda mazkur a’zo davlatlarni qiziqtiradigan masalalar yuzasidan maslahatlashuvlar, fikrlar almashinuvi va axborotlar tarqatishni tashkil etadi; Bosh kotibiyat konferensiyalarda qabul qilingan qarorlar, tavsiyalar va hisobotlarni bajarilishi yuzasidan nazorat olib boradi va qilingan ish bo‘yicha hisobot taqdim etadi; a’zo davlatlarga eslatma maktublar hamda yig‘ilishlarning qaror va tavsiyalari doirasidagi ishchi hujjatlarni yetkazadi; tashkilotning navbatdagi yig‘ilishlarini mezbon davlat bilan hamkorlikda tayyorlaydi. Bosh kotibiyat tarkibiga Bosh kotib devonxonasi va 19 ta turli departament va xizmatlar kiradi. IHT tarkibida quyidagi tuzilmalar faoliyat yuritadi. **Doimiy qo‘mitalar:** 1) Quddus bo‘yicha doimiy qo‘mita – 1975-yilda sammit va sessiyalar qarorlarini ijro etish uchun tuzilgan, Marokash qiroli uning raisi hisoblanadi. Qo‘mita a’ziligiga IHTning 16 a’zo davlatidan vakillar uch yilga saylanadi. 2) Savdo va iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha doimiy qo‘mita (SOMSES) – 1984-yildan boshlab yiliga bir marta Istanbulda a’zo davlatlar o‘rtasida savdo va iqtisodiy hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga bag‘ishlangan sessiya o‘tkazadi. Turkiya prezidenti qo‘mita raisi hisoblanadi. 3) Ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo‘yicha doimiy qo‘mita (COMSTech) – 1983-yildan e’tiboran ikki yilda bir marta Islomobod shahrida soha bo‘yicha aloqalarni yaxshilash masalalariga bag‘ishlangan sessiyalarni o‘tkazadi. Pokiston Islom Respublikasi prezidenti mazkur qo‘mita raisi hisoblanadi. 4) Axborot va madaniy masalalar bo‘yicha doimiy qo‘mita (COMIAC) – 1981- yildan Dakar shahrida tashkilot sammitining qo‘mita faoliyati yo‘nalishida chiqargan qarorlari ijrosi va

²Dokumenti OIK. Dakarskaya deklaratsiya VI Konferensiya glav gosudarstv i pravitelstv gosudarstv – chlenov OIK (9-11 dekabrya 1991 goda). – S.2.

a'zo mamlakatlar o'rtasida axborot va madaniyat sohasida aloqalarni yanada mustahkamlash bo'yicha sessiyalar o'tkazadi. Senegal Respublikasi prezidenti bu qo'mitaning raisi hisoblanadi.

Doimiy moliyaviy qo'mita – IHT Nizomining 7-moddasiga (yangi nizomda 31) muvofiq tuzilgan. Unga tashkilotga a'zo barcha davlat vakillari a'zo hisoblanadilar. Qo'mita yilda bir marta Jidda shahrida yig'iladi va Tashqi ishlar vazirlari sessiyasida rahbarlik qilayotgan davlat qo'mita sessiyasida ham rahbarlik qiladi.

Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy qo'mita – islomiy qadriyatlarga muvofiq IHT nizomida ko'zda tutilgan fuqarolik, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy huquqlarni ilgari suradi. Bu qo'mitani tuzish taklifini Bosh kotib A.Ehsonog'li bergan edi. Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy qo'mitaning nizomi Tashqi ishlar vazirlarining 2011- yil 28-30 iyun kunlari Astana shahrida o'tkazilgan sessiyasida tasdiqlandi. Ammo qo'mita qarorgohi qaerda joylashishi kerakligi haqida a'zo davlatlar o'rtasida tugal kelishuvga erishilmayotgani uchun masala ochiqligicha qolmoqda. Binobarin, Indoneziya, Saudiya Arabistoni va Eron qo'mita qarorgohi o'z mamlakatlarida joylashtirish talabi bilan chiqmoqdalar.

IHT doirasida quyidagi yordamchi organlari tuzilgan bo'lib, tashkilotga a'zo davlatlar avtomatik ravishda ularga ham a'zo hisoblanadilar: 1) Islom mamlakatlari uchun statistik, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar va treninglar o'tkazish markazi (SESRIC) – 1977- yil Tashqi ishlar vazirlari sessiyasida tuzilgan. Uning asosiy maqsadi – IHTga a'zo mamlakatlar o'rtasida statistik ma'lumotlar to'plash, tadqiqotlar olib borish, trening va texnik hamkorlik o'tkazish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohada hamkorlikni qo'llab-quvvatlashdir. Markaz qarorgohi Anqara shahrida joylashgan. 2) Islom tarixi, san'at va madaniyatini o'rganish tadqiqot markazi (IRSICA) – 1976-yil Tashqi ishlar vazirlari sessiyasida tuzilgan. Markazning asosiy maqsadi islom tarixi, fan va madaniyati, ma'naviy meros bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, kitoblar nashr etish va shu yo'nalishda konferensiya va simpoziumlar o'tkazish. Markaz qarorgohi Istanbul shahrida joylashgan. 3) Islom texnologiyalar universiteti (IUT) – 1978-yilda tashkilotga a'zo davlatlarga texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash maqsadida tuzilgan. Universitet Bangladeshning Dakka shahrida joylashgan. 4) Savdoni rivojlantirish bo'yicha islom markazi (ICDT) – 1981-yil IHT davlatlari o'rtasida savdo aloqalarini kuchaytirish maqsadida tuzilgan. Markaz IHT davlatlarida savdo ko'rgazmalari, seminarlar o'tkazadi, nashrlar tayyorlaydi. Uning qarorgohi Marokashning Kasablanka shahrida joylashgan. 5) Xalqaro islom fiqh akademiyasi – 1981-yil IHT sammitida zamonaviy masalalarga fiqhiy nuqtai nazardan munosabat bildirish va tegishli xuloslar berish maqsadida

tuzilgan. Akademiya qarorgohi Jidda shahrida joylashgan. 6) Islom birodarlik fondi – 1974-yili IHT sammitida tashkil etilgan. Fond tabiiy ofatlardan aziyat chekkan barcha musulmon mamlakatlariga va nomusulmon davlatlardagi musulmon jamoalariga yordam ko‘rsatadi. 7) Nigeriya islom universiteti – 1974-yilda Afrika musulmonlari yashash sharoitlarini ta‘lim orqali yaxshilash maqsadida ta‘sis etilgan. Universitet Nigeriyaning Say shahrida joylashgan bo‘lib, Afrikada islom mavzusida ham tadqiqotlar olib boradi.

IHT doirasidagi ixtisoslashtirilgan to‘rt muassasa ham faoliyat olib borib, ularda ishtirok etish IHTga a‘zo davlatlar uchun fakultativ xarakterga ega. 1) Islom taraqqiyot banki – 1975-yildan o‘z faoliyatini boshlab, hozirgi kunda IHTning nafaqat ixtisoslashtirilgan muassasasi, balki xalqaro moliya tashkiloti hamdir. Bankning asosiy maqsadi IHTga a‘zo davlatlarda islom qadriyatlariga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash. Bankning qarorgohi Jidda shahrida joylashgan. 2) Ta‘lim, fan va madaniyat bo‘yicha islom tashkiloti (ISESCO) – 1980-yil Tashqi ishlar vazirlari sessiyasida tuzilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi IHT davlatlari o‘rtasida ta‘lim, fan va madaniyat sohalarida yaqin hamkorlikni o‘rnatish hamda ta‘lim va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlashga yordam berish. ISESCO qarorgohi Marokashning Rabot shahrida joylashgan. 3) Radioeshittirishlar islom ittifoqi – 1975-yil Tashqi ishlar vazirlari sessiyasida IHT davlatlaridatashkilot manfaatlariga xizmat qiluvchi radio va teledasturlar tayyorlash, ularning almashinuvini yo‘lga qo‘yish maqsadida tashkil etilgan. Ittifoqning qarorgohi Jidda shahrida joylashgan. 4) Xalqaro islom axborot agentligi – 1972-yil Tashqi ishlar vazirlari sessiyasida tuzilgan. Uning qarorgohi Jidda shahrida joylashgan bo‘lib, asosiy maqsadi – IHT davlatlari OAV o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatilishini qo‘llab-quvvatlash, axborot agentliklari o‘rtasida texnik hamkorlikni amalga oshirish.

IHT doirasida sammit va sessiyalar qarorlariga muvofiq turli davrlarda tashkilotning 12 yordamchi institutlari ta‘sis etilgan. Ularga a‘zo bo‘lish ixtiyoriy bo‘lib, byudjeti ham Bosh kotibiyatdan alohida tuziladi. Ular: Islom savdo-sanoat palatasi (Karachi), Islom poytaxtlari va shaharlari tashkiloti (Jidda), Sport birdamligi bo‘yicha islom federatsiyasi (Arriyod), Xalqaro yarim oy bo‘yicha islom qo‘mitasi (Bengazi), Kemachilar islom uyushmasi tashkiloti (Jidda), Arab-islom xalqaro maktablari jahon federatsiyasi (Qohira), Muloqot va hamkorlik bo‘yicha yoshlar forumiislom tashkiloti (Istanbul, Baku), Musulmon boyskautlari xalqaro ittifoqi (Jidda), musulmon mamlakatlari maslahatchilari federatsiyasi

(Istanbul), Jahon islom fanlar akademiyasi (Ammon)³, Islom banklari va moliyaviy institutlari bosh kengashi (Manama), Musulmon mamlakatlari pudratchilari federatsiyasi (Kasablanka).

IHTning rasmiy hujjatlarida yana bir asosiy organga ishora qilinadi – Xalqaro islom sudi. Xalqaro islom sudi 1987-yilgi IHTning Kuvaytda o‘tkazilgan sammitida ta’ sis etilgan. Mazkur suddan maqsad tashkilotga a’zo davlatlar o‘rtasiga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan munozarali masalalarni hal etish, tashkilot nizomi talqinida uchraydigan bahsli holatlarni ko‘rib chiqish, IHT sammit va sessiyalarining talabiga muvofiq yuridik masalalar bo‘yicha xulosalar berish ko‘zlangan edi. Ammo IHTga a’zo davlatlar Xalqaro islom sudining maqomini ratifikatsiya qilmagani bois, sud hali o‘z faoliyatini boshlamadi. Sud qarorgohi al-Kuvaytda joylashishi ko‘zda tutilgan⁴.

Nazorat va topshiriq savollari:

1. Jahon xaritasida Afrika davlatlarining siyosiy-geografik holatini tavsiflab bering ?

2. Arab Mag‘ribi davlatlari tashqi siyosat konsepsiyasi asosiy o‘lchamlari tushunchasiga ta’rif bering ?

3. Afrika Ittifoqi davlatlari xavfsizlik tizimi masalalari haqida aytib bering ?

4. Afrika davlatlarining AQSh va Yevropa davlatlari bilan munosabatlari nimadan iborat deb o‘ylaysiz ?

5. Bugungi kunda AQShning Afrikadagi siyosatiga Fransiya va boshqa Yevropa davlatlarining munosabatlari qanday?

6. Shimoliy Afrika davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga tavsif bering.

7. Afrika Birligi tashkilotidan Afrika Ittifoqiga aylanish istiqbollari haqida ma’lumot bering.

8. Marokashdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga umumiy tavsif bering.

9. Marokashning Afrika Ittifoqiga a’zoli muammolari nimadan iborat ?

10. “Hozirgi davrda G‘arbiy Saxro muammosi” mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

11. “Arab Mag‘ribi davlatlarida islom omili” mavzusini muhokama etish.

12. Islom hamkorlik tashkiloti davlatlari o‘zaro munosabatlari haqida ma’lumot bering.

³Bu akademiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi bilan o‘zaro tushunish memorandumini imzolagan.

⁴Ma’lumotlar O‘zR TIV ichki hujjatlari asosida tayyorlandi.

13. IHTga a'zo davlatlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga tavsif bering.

14. IHT rivojlanish bosqichlariga baho bering.

15. Zamonaviy bosqichda IHT jahon hamjamiyatidagi o'rniga baho bering.

Mustaqil ish savollari:

1. Siyosiy xarita yordamida Afrika davlatlarini siyosiy, iqtisodiy – ijtimoiy va geografik holatini gapirib bering ?

2. IHT davlatlarini xarita yordamida aytib bering ?

3. Afrika mamlakatlarining hozirgi siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini internet tizimlari orqali mustaqil o'rganish.

4. Nigeriyaning xalqaro munosabatlardagi o'rnini yoritib bering.

5. JAR tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini tavsiflab bering.

6. Zamonaviy bosqichda Shimoliy Afrika davlatlarida yuz berayotgan rivojlanish jarayonlariga tavsif bering.

7. “Afrika Ittifoqi - Yevropa munosabatlari” mavzusida nutq tayyorlash.

8. Yevropa Ittifoqi tashqi siyosatida Arab Mag'ribi davlatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash.

9. Misr tashqi siyosatida Yaqin Sharq muamosini yoritib bering.

10. Jazoir tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari.

11. JARning Afrika Ittifoqidagi siyosati.

12. “Afrika davlatlari va jahon moliyaviy iqtisodiy inqiroz” mavzusida ma'ruza tayyorlang.

13. “Rangli inqiloblar”dan so'ng Shimoliy Afrika davlatlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

14. XXI asrda Afrika Ittifoqi: yutuq va muammolari mavzusida prezentatsiya tayyorlash.

15. IHT doirasida Afrika davlatlarining o'zaro munosabatlari to'g'risida ma'ruza

8-BOB. AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA

8.1. AQShning jahon hamjamiyatidagi roli

Dars maqsadi:

- talabalar AQShning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- talabalarga AQSh tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari borasida to‘la ma‘lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *“Monro doktrinasi”, Ruzvelt Korollari (Gunboat Diplomacy), 1919-1920-yillar. “Izolyatsionizm” (Isolationism) doktrinasi, siyosati” (Good Neighbor Policy), 1941-yil. “To‘rt erkinlik” doktrinasi (Four Freedom Doctrine), New World Order Reagan Doctrine), ANZUS ittifoqi.*

2009-yil 20-yanvardan AQSh davlat tepasiga B.Obama boshligida demokratlar ma‘muriyatining kelishi kelgusida mamlakat tashqi siyosatida milliy manfaatlarni ta‘minlashning yangi medologiyasini ishlab chiqilishi bilan xarakterlanadi.

AQSh milliy manfaatlari uchun demokratlar va respublikachilar siyosiy elitasining hokimiyat almashinishi ob‘ektiv zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Buni yanada tushinarliroq yoritadigan bo‘lsak, fe‘l – atvoridan kelib chiqqan holda elitalar ikki muhim turlarga - “tulkilar” (rahbarlikning “yumshoq” metodi – muzokaralar, yon bosishlar, ishontirish va shu kabilardan foydalanuvchi uddaburonlar) va “sherlar”ning (asosan kuchga tayanuvchi keskin va qat‘iy shaxslar) ajratiladi va ularning tsirkulyatsiyasi, ya‘ni muntazam almashinib turishi orqali jamiyat rivojlana boradi.

AQSh siyosiy hayotida Kichik J.Bushning keyingi muddatdagi boshqaruvi yakunlariga kelib reytingi juda past darajagacha tushib ketdi. Unga ta‘sir ko‘rsatganlikda tanqid qilingan kuchlar, xususan, neokonservatorlar ham keskin tanqid qilina boshlandi. Umuman saylovlar arafasida butun bir Respublikachilar partiyasining ko‘rsatkichlari kamayib, partiya ichki siyosati muammolari ko‘rinib qoldi. 2008-yilgi saylovlarda nomzodi ilgari surilgan Jon Makkeynning tashqi siyosiy yondoshuvlari Kichik J.Bush qarashlaridan u darajada farq qilmas edi. U ham Iroq urushini davom ettirish va Eronga nisbatan keskin munosabatini namoyon qilgan. Demokratlardan nomzodi ko‘rsatilgan Barak Obama esa AQSh

etakchiligining muqobil vositalarini taklif etdi. U tashqi siyosatda noharbiy diplomatik vositalar, “yumshoq kuch” kontseptsiyasini ilgari surdi.

AQSh davlat tepasiga ikki partiya vakillari kelishidan qat’iy nazar milliymanfaatlarning uyg’unligiga sodiq qolgan holda qo’llanilayotgan vositalardagi an’anaviylik xususiyati saqlanib qoliniladi. Boshqacha aytganda ikki partiya tashqi siyosati rotatsiya xarakteriga ega bo’lib, asosiy maqsad jahonda antiamerikaizmning kuchayishiga yo’l qo’ymagan holda gegemonlikni saqlab qolishdir. Shu nuqtai nazardan demokratlar ko’pgina hollarda “tinchlik” siyosatini ilgari surib, respublikachilar davrida yuzaga kelgan keskin vaziyatlarni diplomatik yo’l bilan yumshatishga e’tibor qaratishadi. Siyosiy jarayonlarni kuzatadigan bo’lsa, respublikachilardan bo’lgan J.U.Bush tashqi siyosati o’zining dastlabki davridan 11-sentyabr voqealari, Afg’onistonga qo’shin kiritish, Iroq muammosini vujudga keltirgan bo’lsa, B.Obama tashqi siyosati davlat kotibi ta’kidlaganidek “aqilli kuchga” (“smart power”)ga asoslanishini e’lon qildi.

AQSh hukumatiga demokratlarning kelishi butun dunyo va Yaqin Sharqdagi antiamerikaizm kayfiyatini bartaraf etish, qolaversa, AQShdagi ichki mafkuraviy-siyosiy qarama-qarshiliklarning oldini olish maqsadidagi siyosiy vaziyatning yuzaga keltirilishi va AQSh neokonservatorlari tomonidan qo’llab-quvvatlanishi umumamerika milliy konsensusining o’ziga xos xususiyatini ko’rsatdi. Mazkur konsensus va AQSh milliy manfaatlari yangi hukumat, xususan prezident B.Obama oldiga quyidagi muammolarini echish vazifasini qo’ydi: Birinchidan, oxirgi Respublikachilar hukumati davrida antiamerikaizm kayfiyatining kuchayishi va AQShning global etakchilik mavqeini tiklash, g’arb va islom olamidagi qarama-qarshilik siyosati oqibatlarini bartaraf etish; Ikkinchidan, vaqtinchalik neft narxining tushishiga qaramay xalqaro tizimli inqirozlarning o’sib borayotganligi va neft-gaz manbalari uchun kechayotgan raqobatning davom etishi, bu jarayonda AQSh ishtirokini susaytirmaslik siyosatini davom ettirish zaruriyati; Uchinchidan, Yaqin Sharqda milliy majoralarning yanada rivojlanishi uchun imkoniyatlarning yuqori ekanligi, ayniqsa yadroviy qurol xavfining kuchayishi yangi hukumat an’anaviy “tiyib turish” siyosatini olib borish kerakligini taqozo qiladi.

AQSh neokonservatorlari tomonidan shakllantirilgan g’oyalar ijrosini oxirgi Respublikachilar hukumati amalga oshirishi natijasida AQSh dunyoda o’z strategik mavqeini mustahkamlashga erishdi. Albatta buning uchun uzoq yillar davomida shakllangan strategiyalar, kontseptsiyalarni isbotlash orqali erishish oson bo’lmadi. Shunday bo’lishiga qaramasdan, AQSh dunyodagi yagona qudratli davlat ekanligini isbotlab kelmoqda. Kelgusi siyosiy vaziyat esa mana shu ustunlik va erishilgan

muvofaqiyatlarni ushlab turish, kelgusi strategik vazifalar uchun asos yaratish maqsadida AQSh tashqi siyosatida “yumshoq ta’sir”dan foydalanish strategiyasidan ham foydalanishga zarurat sezdi. Barak Obama boshchiligidagi Demokratlarning hukumatga kelishi jahon hamjamiyatini tashvishlantirayotgan qator global muammolarni bartaraf etish, hamda jahon hamjamiyat bilan hamkorlikda siyosat olib borishning zarurati bilan bog’liq bo’ldi. Bizga ma’lumki, AQSh davlat boshqaruviga Demokratlar kelgan davrlarda inson huquqlari, xalqaro huquq normalariga rioya etish, muammolarni birgalikda hal etish masalalariga ustuvor ahamiyat berib kelingan. Shuning uchun AQSh tashqi siyosatidagi talay muammolarni – Eron yadroviy dasturi, xalqaro terrorizm – kabi, hal etishda halqaro hamjamiyatning yordamiga va ishonchiga erishish zaruratining mavjud ekanligi AQSh neokonservativ strategiyalarining ma’lum muddat mo’tadillashishini talab qildi. Ma’lumki, neokonservatorlar qarashiga ko’ra barcha shartnoma va kelishuvlar dunyodagi tartibotni qo’llab-quvvatlashga emas, balki AQSh kuchlarini “chegaralash va nazorat qilish”ga qaratilgan.

Saylovoldi jarayonlarda B.Obama o’z chiqishlarida asosiy e’tiborni Iroq va Afg’onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, Isroil-arab munosabatlarini yaxshilash, iqtisodiy inqirozlar sharoitida ichki muammolarga qaratishini ta’kidlagan edi.

B.Obama hukumati o’z faoliyati boshidan ichki va asosan, tashqi siyosiy yondoshuvlarni qayta ko’rib chiqa boshladi. 2007-yildayoq J.Nay va R.Armitajlar rahbarligida “Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi” doirasida faoliyat yurituvchi ikkipartiyaviy komissiya dokladida ilgari surilgan “yumshoq kuch” kontseptsiyasiga tayanishi ma’lum bo’ldi. Uning asosida AQSh qo’yilgan maqsadlarga erishishda demokratiyani olg’a surish, inson huquqlari va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishida qurol-yarog’ omilidan voz kechishi masalasi yotadi. Shu bilan birga global chaqiriqlar xalqaro institutlar hamda yirik raqobatchi sub’ektlar bilan hamkorlikni taqozo etishi ham ta’kidlanadi. Milliy xavfsizlik va mudofaa sohasida esa harbiy harajatlarni qisqartirish, ixchamlashtirish va yangi davr talablariga mos samarali vositalardan foydalanish choralari ilgari suriladi. Albatta, B.Obama hukumatining bunday pozitsiyasi neokonservatorlar tomonidan keskin tanqidga uchradi. “Yumshoq kuch” vositasini inkon etmagan holda harbiy omilning hal qiluvchi ahamiyatini keng e’tirof etishga harakat qilindi. R.Keygan ta’kidlaydiki, XX-XXI asrlardagi dunyo tartiboti Amerika qudrati bilan qaror topgan. U.Kristol ishonch bilan ta’kidlaydiki, agar AQSh tinch va barqaror rivojlangan davlatchilikni istar ekan, u holda u asosiy tahdidlarni tiyib turish, ularning o’zlari zarurat yuzasidan boshlagan urushlarda g’alaba qilish hamda

xalqaro hamjamiyatda politsiyachilik vazifasini bajarishi uchun etarlicha harbiy ustunlikka ega bo'lishi kerak.

Prezidentlik vazifasiga kirishar ekan B.Obama demokrat liberalchilarga xos qadamlar bilan siyosiy vazifalarni bajarishga kirishdi. Xususan, u Yaqin Sharq muammolarini hal qilishda Eron, Suriya kabi davlatlar bilan munosabatlarni ijobiylashtirish tashabbusini ilgari surdi.

Prezident B.Obamaning saylov oldi kampaniyasidagi shiori "o'zgarishlarga muxtojmiz" ("we need change"), Iroq muammosini hal etish, Afg'onistondan 16 oy ichida qo'shinlarni olib ketish, Guantanamo qamoqxonasini tugatish va'dasi tashqi siyosatning dastlabki ko'rsatkichi edi. Buning mohiyati shuki, O.Obamaning tashqi siyosiy vazifasi – Respublikachilar davrida yuzaga kelgan keskinlikni diplomatik vositalar orqali bartaraf etishdir. Albatta, bu AQSh siyosiy elitasining tashqi siyosat borasida katta tajriba va puxta ishlab chiqilgan strategiyaga ega ekanligining isbotidir.

Rus olimi A.G.Gadjiev ta'kidlaganidek, hokimiyatga B.Obamaning kelishi AQSh global miqiyosdagi geostrategik paradigmalarga bir qator o'zgartirishlar olib kirildi:

*Birinchi*dan, Respublikachilar davrida putur etgan AQShning jahondagi mavqeyini tiklash;

*Ikkinchi*dan, do'stlar, sheriklar va raqiblari bilan o'zaro xurmatga asoslangan muloqotni boshlash;

*Uchinchi*dan, sherikchilikni yuzaga keltirish uchun birgalikda faoliyat boshlash;

Tashqi siyosatning zamonaviy vazifalaridan kelib chiqqan holda yangi ma'muriyat jadal ravishda bir qator AQSh mavqeyini ko'tarishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirdi.

Yaqin Sharq. Mintaqada AQSh ustunligi saqlab qolish, musulmon davlatlar bilan murosa yo'li asosida mamlakat manfaatlariga nisbatan ehtimoliy tahdidlarni bartaraf etish va an'anaviy ittifoqdoshi Isroilning xavfsizligini ta'minlash B.Obamaning Yaqin Sharq siyosati asosini tashkil etadi, deyish mumkin. So'nggi yillarda AQShning ochiqdan ochiq Isroilga yon bosishi, Iroqqa qo'shin kiritishi, Afg'oniston, Sudan va Eronga nisbatan siyosatida bir tomonlamalikning kuchaygani AQSh va musulmon olamida munosabatlar sovushi kuzatigan. Mazkur jarayonlar davomiyligi saqlanib qolsa, AQShning gegemonlik g'oyalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada AQSh siyosatchilari Yaqin Sharqda murosa zarurligini va musulmon olamiga AQSh siyosati xolislikka asoslanganini isbotlash maqsadida B.Obama prezidentlik davrining ikkinchi kuni sobiq senatori Jorj Mitchelni Yaqin Sharq buyicha maxsus elchi lovozimiga tayinladi.

Isroil-Falastin masalasi. Yangi xukumatning mintaqa siyosatidagi asosiy vazifalardan biri – Isroil xavfsizligini ta’minlash, tanlangan uslub – diplomatik vositadir. Xususan, AQSh Davlat kotibi X.Klinton Isroil o‘z xavfsizligini ta’minlash huquqiga to‘liq ega ekanligini, Obama ma’muriyati Isroilni XAMAS raketa xujumidan himoyalaniishi qo‘llab-quvvatlashini va XAMASni Isroilga qarshilik qilishni to‘xtatish va uni tan olishga chaqirishini ta’kidlagan. Shuningdek, Quddus shahrida Isroil tomonidan qurilayotgan aholi yashash punktlari masalasidagi nizo yuzasidan 2010-yil 24-mart kuni ikki davlat rahbarlarining ilk rasmiy uchrashuvida biror bir jiddiy taklif ilgari surilmadi. Demak, yaxudiy lobbilari kuchli ta’sirida shakllangan B.Obama ma’muriyatining Isroil–Falastin borasidagi siyosatining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, AQSh tinchlik muzokaralarida vositachilikni amalga oshirishi, turli konsepsiyalarni ilgari surgan holda jiddiy yechimni ta’minlay olmaydi, deyish mumkin.

2009-yilda AQSh va Isroilda hukumatlarning bir vaqtda almashishi kuzatildi. Isroil siyosiy rahbariyatiga “Likud” partiyasi etakchisi Benyamin Netanyahuning kelishi va arablarga nisbatan keskin siyosat yuritish tarafdori A.Libermannning tashqi ishlar vaziri sifatida faoliyat boshlashi Isroil-AQSh munosabatlari, qolaversa, mintaqadagi yangi siyosat yo‘nalishlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etishi kutilgan edi. Ma’lumki, AQShda B.Klinton demokratlari hukumati davrida Benyamin Netanyahu Isroil hukumatini boshqargan edi. Bundan tashqari, yangi hukumat siyosiy elitasi jamoasi ichida Isroil manfaatlari himoyachilari va yahudiylar anchagina kishini tashkil etadi. Yangi Isroil hukumati falastinliklar bilan muzokaralarga kirishishni ta’kidlagan bo‘lsada, yon bosishlar, turli xil imtiyozlarga tayyor emasligi ma’lum bo‘ldi. Ayniqsa, bir tomondan AQShda davlat kotibi lavozimiga Isroil manfaatlari tarafdori X.Klinton xonimning kelishi, ikkinchi tomondan esa Isroil tashqi ishlar vaziri sifatida arablarga nisbatan qattiq siyosat tarafdori Libermannning kelishi muammolarni hal etishning ijobiy yo‘llarini topish imkoniyatlarini qiyinlashtirishidan darak edi. Haqiqatdan ham AQSh davlat boshqaruviga demokratlarning kelishidan keyingi o‘tgan davr mobaynida Isroil–Falastin muammosi borasida biror salmoqli natijaga erishilgani yo‘q. Biroq, AQSh rahbariyati Isroilning keskin hatti-harakatlarini tiyib turishga intilib keldi. Buning o‘ziga yarasha sabablari bor albatta. Ya’ni 2011-yildan boshlagan keng qamrovli rangli inqiloblar to‘lqini barcha siyosiy etakchilar e’tiborini “arab bahori”ga qaratdi. Shu bilan birga B.Obama hukumati davrida AQSh – Isroil munosabatlaridagi qarama-qarshilik manbai – bu Iordan daryosining g‘arbiy qirg‘og‘idagi aholi turarjoylarining qurilishi hamda Sharqiy Quddus mavqei yuzasidan

fikrlarning turlicha ekanligi edi. Shu bilan birga Falastin davlatchiligi e'tirof etilish masalasi ham ko'plab bahslarga sabab bo'ldi. Hukumat o'z siyosatida "ikki millat uchun ikki davlat" tamoyilini qo'llagan bo'lsada bunga erishish imkonsiz bo'ldi. Neokonservatorlar esa hukumatning Eron bilan yaqinlashuvi va Isroil davlatchiligi borasidagi yondashuvlarini keskin tanqid qilib chiqdi. Masalaning qiziq tomonlaridan bir shuki, AQShda istiqomat qiluvchi yahudiylarning 80%ga yaqini Falastin davlati tuzilishini ma'qullashgan. Isroillik yahudiylarning esa 46 %i bu tashabbus tarafdorlari bo'lishdi. Eron yadroviy dasturi kelishuvi masalasida Isroil yahudiylarning 60 % i qarshi fikr bildirgan bo'lsa, amerikalik yahudiylarning 60 % ijobiy qabul qilgan. Umuman aytish mumkinki, AQSh neokonservatorlarining tashqi siyosat sohasidagi qarashlari ko'proq Isroil yahudiylari qarashlari bilan yaqindir.

Iroq masalasida. B.Obama Yaqin Sharq siyosatida muvafaqqiyatini ta'minlaydigan omil Iroq muammosining hal etilishi bo'lishi kutilgan edi. Bundan tashqari arab dunyosi bilan hamkorlik kengaytirish imkoniyati hamdir. Shu maqsadda 2009-yil 27-fevralda B.Obama Iroq urushini nihoyasiga yetkazish bo'yicha rejasini e'lon qildi va 2010-yil 31-avgustgacha AQSh harbiylarining mamlakatdagi harakatlari to'xtatilib, Iroq harbiylari qo'lga topshirilishini bildirdi. Bu bir tomondan yangi hukumatning tashqi siyosati diplomatik vositalarga tayanganini amalda isbotlasa, boshqa tomondan AQShning Iroq muammosini hal etishi, Isroilga nisbatan xavfining kamayganligi va Iroqda o'zga diniy oqimlarga hokimiyatga kelish imkoniyatining teng yaratib berilganligi bilan izohlash mumkin. Bu esa S.Xusayn kabi AQSh manfaatlari zid faolit yurituvchi hukumat keladigan bo'lsa, harbiy vositalarsiz jamiyatni bo'lib tashlash imkoniyatini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Demokratlarning ikkinchi muddatga ham saylangan prezidentligi boshqaruvi davrida ham Iroq operatsiyasining muvofaqiyati ta'minlanmadi. Iroqdagi Al-Qoida keyinchalik esa ISHIDning yuzaga kelishi butun mintaqani global jihodchilik poligoniga aylantirib qo'ydi. Masalaga neokonservativ yondoshish zarurligi ta'kidlana boshlandi. Demokratlarning Iroqdagi vaziyatni yumshatish taktikasi o'zini oqlamayotgani tanqid ostiga olindi. Biroq masala boshqa tomondan qaralganda, O'rta Er dengizi sharqiy qirg'oqlaridagi beqarorlik kelgusi neokonservativ amaliyot uchun, ularning hokimiyatga kelishini asoslovchi muhim siyosiy mo'ljal bo'lishi mumkinligi e'tiborga olinganligi borasida ham qarashlar mavjud.

Yaqin Sharq masalalari siyosatida neokonservatorlar mo'tadil bo'lishga ham urinishdi, Afg'oniston va Iroqdagi tuzum o'zgarishi siyosati xulosalaridan kelib chiqib "domino tamoyil"i bo'yicha tezkorlikda mintaqani demokratlashtirish g'oyalarini qayta baholash zaruratini ham

inobatga ola boshlashdi. Ammo, bu g'oyalardan to'liq voz kechilmadi. Bu davrda neokonservatorlar Afg'oniston va Iroqdagi harbiylarni qisqartirish qarorlarni tanqid qilishdi. Mintaqaning "militaristik islom" mafkurasi xususiyatlaridan kelib chiqib bu ikki davlatdagi harbiy mavjudlikni saqlash mamlakatlarni demokratlashtirishning samarali strategiyasi sifatida qaralishi ko'p bora ta'kidlab o'tildi. "Tashqi siyosiy tashabbus" tomonidan prezidentga yo'naltirilgan xatda ham Afg'onistondagi harbiy mavjudlikni qisqartirish, qo'shinlarni olib chiqib ketish Pokiston kabi davlatlarning toliblar va boshqa qarshi kuchlar qo'llovining kuchayishini ta'minlashi ta'kidlab o'tilgan edi.

Iroqdagi harbiy kontingentning ham qisqarishi mamlakatdagi shakllanayotgan demokratik institutlar samaradorligiga jiddiy zarba bo'ldi. AQSh tomonidan amalga oshirilgan barcha sa'y-harakatlar o'z ahamiyatini yo'qotib borishi ta'kidlandi. Shu bilan birga neokonservatorlar Iroqni boshqa Yaqin Sharq davlatlari uchun, xususan, bo'lg'usi Eron uchun demokratik model sifatida qarash kerakligi g'oyasidan voz kechishmadi. Ko'p e'tiqodli, ko'p millatli arab dunyosida demokratiya qaror topish mumkinligini ko'rsatishda Iroqdagi erishilgan demokratik islohotlar namuna bo'lishi kerak edi.

2011-yilda Yaqin Sharqda "Arab bahori" nomi bilan boshlagan jarayonlar neokonservatorlar tomonidan ijobiy qarshilandi. Ya'ni ular bu voqealarni butun mintaqa rivoji uchun asos bo'lishi omili sifatida ko'rishdi. Ular AQShning bu jarayonlardagi aralashmaslik pozitsiyasini "amoral" baholashdi. Suriya va Liviyadagi muxolif kuchlarni qo'llab-quvvatlash etarli darajada bo'lmaganligini ta'kidlab, bu davlatlardagi muxolifatchilar professional tayyorgarlikdan o'tgan doimiy harbiy kuchlar bilan kurash olib borayotganligini e'tirof etishdi.

E.Abrams fikriga ko'ra, arab olamida Suriya Eroning yagona ittifoqchisi bo'lib qolmoqda. U orqali Tehron Hizbullohga qurol-yaroq etkazib berish va Isroil chegaralarigacha borish imkoniga ega bo'ladi.

Iroqda IShIDning paydo bo'lishi neokonservatorlar uchun bashorat qilinganidek, AQSh qo'shinlarining olib chiqilishi oqibati sifatida ko'rildi. Qator siyosat arboblari (B.Obama, T.Bler kabi) hamda halqaro ekspertlar IShIDning paydo bo'lishida AQShning Yaqin Sharq siyosati va Iroqdagi urushi oqibatlari sifatida baholagan bo'lsa, bu borada neokonservatorlar qarashlari butunlay boshqacha edi. Xususan, ular IShIDning paydo bo'lishini Iroqqa harbiy bosqin, mavjud ijtimoiy-siyosiy farqlar hamda institutlarning yo'q qilinishi natijasi emas, aksincha bu davlatda olib borilgan noto'g'ri siyosat va boshidanoq harbiy ishtirokning etishmasligi hamda qisqarishi natijasi sifatida baholashdi. Agar javob chora sifatida yanada harbiy kuchlar sonini oshirish choralari ko'rilganda edi, bu iroqlik

sunniylarning IShID saflariga o'tishini cheklagan bo'lar edi, deya baholashadi neokonservatorlar. Neokonservatorlar Suriyada IShIDga qarshi kurashda harbiy kuchlardan keng ko'lamda foydalanish eng samarali chora sifatida ko'rishdi.

Eron masalasi B.Obama tashqi siyosatining e'tiborligi jihatidir. Eron sanksiyalarga qaramasdan uranni boyitish uchun tsentrifuglar qurilishini faol davom ettirib keldi. Eronning dasturdan tinchlik maqsadlarida foydalanishi borasidagi tushuntirishlariga qaramasdan, bu boradagi kelgusi ishlar Eronning yadroviy qurolga ega bo'lishi imkonini berishi mumkin edi. Bu esa o'z navbatida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda xavfsizlikka jiddiy ta'sir ko'rsatishi barchaga ma'lum. Shu bilan birga Eron bir necha bor AQShning yaqin ittifoqchisi Isroilga nisbatan ochiqchasiga dushmanlik munosabatini bildirib o'tgan, hatto Isroilni "xaritadan o'chirish" gacha. Shu bois AQSh yumshoq kuch yondoshuvi doirasida Eron yadroviy muammolarini ko'ptomonlama muzokaralar yo'li orqali hal etishga harakat qildi.

AQSh prezidentining Yaqin Sharq va Eronga o'zining maxsus elchisi qilib neokonservativ qarashlar tarafdori D.Rossni tayinlashi ham kelgusi Eron-AQSh munosabatlari uchun muhim ko'rsatkichlardan biri bo'ldi. D.Ross Klinton davrida ham Yaqin Sharq bo'yicha uning elchisi sifatida faoliyat yuritgan. O'sha davrdayoq Iroqqa nisbatan harbiy harakatlar olib borish g'oyasini qo'llab-quvvatlab kelgan va Eronga nisbatan keskin qarashlarga ega ekanligi ham neokonservativ strategiyalarga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil etishda muhim hisoblanadi. Yangi hukumat komandasidagi Klinton xonimning qarashlarida ham Eronga nisbatan keskin munosabatni ko'rish mumkin. Bundan ko'rinadiki, yangi hukumat Eron bilan munosabatlarni mo'tadillashtirishga intilishi va bu jarayonlarga jahon hamjamiyati diqqat e'tiborini yanada qaratishi ayon bo'ldi.

Taniqli siyosatshunos Z.Bjezinskiy ham AQSh Eron bilan muzokaralarga iloji boricha tezroq kirishi lozimligini uqtirgan. Bundan tashqari, davlatlararo munosabatlar xususiyatlari Eronning yangi prezidenti shakllantiradigan tashqi siyosiy strategiyaga ham bog'liq bo'ldi. Eronning yangi rahbariyati halqaro hamjamiyat bilan munosabatlarda yadroviy dastur borasida nisbatan yon bosish siyosatini ma'qul ko'rmoqda. O'zining mo'tadil qarashlari bilan nom qozongan prezident H.Ruhoniy yadroviy dastur borasida AQSh bilan munosabatlarida ham demokratlarga xos vazminlik siyosati shakllantirishga urindi.

Bir tomondan masalaga jamoaviy yondoshish uni xalqaro nazorat ostida ushlashga olib kelsa, ikkinchi tomondan bundan muzokaralar AQShning o'z etakchilik iddaolarini yangilash imkoniyatini taqdim etar edi. 5Q1 doirasidagi Tehron bilan muzokaralar 2005-yildayoq boshlangan

edi. Va bu Obama hukumati uchun muhim tashqi siyosiy tashabbus bo'lishiga harakat bilan tavsiflanadi. O'n yildan so'ng, ya'ni 2015-yili Eron va "oltita" xalqaro vositachilar (AQSh, Britaniya, Xitoy, Frantsiya, Germaniya, Rossiya) ko'p yillik muammo – Eron atomi bo'yicha tarixiy kelishuvga erishildi. Bu formatdagi hamkorlik rejasining shakllanishi hukumatning tashqi siyosiy muvaffaqiyati sifatida ko'rildi. Bu kelishuv asnosida tomonlar uchun muayayn shartlar amal qila boshladi. Evaziga xalqaro sanksiyalar yumshatildi. Demokratlar bu boradagi kelishuvni katta yutuq deya baholagan bo'lsa, Respublikachilar esa tashqi siyosiy inqiroz deb baholashdi.

Neokonservatorlar esa butunlay bu jarayonga qarshi bo'lishgan va mazkur kelishuv AQShning etakchilik mavqeini butunlay tushirib yuborganligini e'tirof etishadi. Ular bu kelishuvga Eronning amal qilishiga shubha bilan qarashadi. Ular fikricha Eron istalgan vaqtda yashirincha shartnoma shartlarini buzishi mumkin. Aksincha bu Eronga yadroviy qurol yaratish uchun vaqtdan yutish imkonini beradi. Neokonservatorlar e'tiroziga ko'ra, mazkur kelishuv jarayonida mintaqadagi manfaatdor tomonlar, xususan, Saudiya Arabistoni va Isroil jalb qilinmadi. Eronda yadroviy sanoatning saqlanishi o'z navbatida Eronning yadroviy maqomini tan olishni anglatadi hamda Isroil uchun real tahdidni tug'diradi. Natijada bu AQSh va Isroil munosabatlariga zarar etkazadi, ayni B.Obama davrida bu yaqqol namoyon bo'ldi.

J.Bolton fikricha, Eron kelishuvi Eron xulqini o'zgartirmadi, bu esa aslida Vashington uchun muhim maqsad bo'lgan. Bu davlat baribir Liviya, Suriya va Iroqdagi Eron manfaatini ifodalovchi Hizbulloh kabi xalqaro terrorizmni qo'llovchi yirik davlat bo'lib qolmoqda. R.Reygan prezidentligi davridan Eronning terrorizm homiylari davlatlari ro'yhatiga qo'shilganligi vaziyati o'zgarmadi. Neokonsevatorlar sanksiyalar rejimiga qaytish lozimligini o'qtirib kelishdi. J.Bolton fikriga qaraganda, Eronda tuzumni o'zgartirish AQShning asosiy maqsadi emas, balki asosiy maqsad Eron hukumati "xulqi"ni o'zgartirishdir. Bu yondoshuvdan xulosa qilinsa, bir tomondan tuzumlarni o'zgartirishda kuch vositasidan foydalanish g'oyasidan bosqichma-bosqich chekinilayotgani kuzatilayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa neokonservatorlarning tushunishicha Eronning mintaqadagi o'rni va harbiy salohiyati kuch vositalaridan foydalanish taktikasini chegaralashini anglatadi. Shu bois ko'proq "yumshoq kuch" vositasi samarali bo'lishi e'tirof etildi. Umuman, AQSh – Eron munosabatlaridagi iliqlikka harakatlar mintaqadagi sunniy-shia qarama-qarshiligining yanada keskinlashuvi sharoitida yuzaga kelgandi. AQSh demokratlarining internatsionalizm siyosati mintaqadagi ittifoqchilar va muxolifat kuchlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash va keskinlikning

eng yuqori chegarasigacha tiyib turish zarurati bilan bog'liq bo'ldi, deyish mumkin.

AQSh-musulmon olami. Bugungi kunda dunyodagi strategik hududlarning ulkan qismida musulmon davlatlari joylashgan: Atlantika okeani (Marokash)dan Tinch okeani (Indoneziya, Malayziya)gacha. AQShning so'nggi yillardagi Eron, Iroq, Afg'oniston, Sudan, Suriya singari davlatga nisbatan agressiv siyosati G'arb va musulmon sivilizatsiyalarida keskinlik chiziqlarini ortishiga olib keldi. Musulmon jamiyatlarida AQShga nisbatan qarashlar o'zgara boshladi. Shunday sharoitda B.Obama ma'muriyati G'arb va musulmon olami o'rtasida o'zaro aloqalarni kuchaytirish, jamiyatlarda shakllangan salbiy qarashlarni yumshatish, ishonchni tiklash orqali musulmon kapitallarini AQShga kiritilishini ta'minlashni tashqi siyosatning asosiy vazifasi sifatida belgiladi. Ushbu siyosatda yangi davrni boshlab berish maqsadida, 2009-yil 4-iyunda Qohira Universitetida so'zlagan nutqida Prezident B.Obama birgalikda hal qilinishi zarur bo'lgan masalalarni sanab o'tdi:

1. ekstremizmning har qanday ko'rinishini birgalikda tugatish;
2. isroilliklar, falastinliklar va arab dunyosidagi vaziyatni qayta ko'rib chiqish;
3. yadro qurollari bo'yicha davlatlarning huquq va majburiyatlariga taalluqli masalalarni hal etish;
4. demokratiyani rivojlantirish;
5. din erkinligi;
6. xotin-qizlar huquqlari;
7. iqtisodiy rivojlanish va imkoniyatlar to'g'risida. Albatta, qo'yilgan masalalarning aksariyatini hal etilishi uzoq vaqt va qarashlarda uyg'unlikni talab etadi, shunday bo'lsada, musulmon olami bilan ziddiyatlarni minimum xolatda saqlab turish B.Obama davrida ijobiy natija hisoblanadi.

Markaziy va Janubiy Osiyo. Demokratlar ma'muriyati tashqi siyosatida markaziy o'rinning egallagan masalalardan biri Afg'onistondir. Bu Markaziy Osiyo uchun "katta o'yin" makoni hisoblangan Afg'onistonda AQShning uzoq muddatli faoliyatini kam qurbonlar hisobiga ta'minlash B.Obama tashqi siyosatining maqsadlaridandir. Afg'onistonning geostrategik joylashuvi: neft va transport kooridori ekanligi, Yaqin Sharqqa chegaradoshligi, Eronni nazoratda tutish, Pokiston va Hindiston yadroviy salohiyati ustidan nazorat, Rossiya, Xitoy siyosatini kuzati borish imkonini taqdim etadi. Shu sabab AQShning Afg'onistondagi operatsiyasi siyosiy xato emas, aslida yutuqlari jumlasidandir. B.Obama ma'muriyating dastlabki yillardan boshlab Pokiston va Afg'oniston bo'yicha maxsus vakil etib R.Xolbrukni, ISAF qo'mondoni sifatida general Steynli MakKristalni, Afg'onistonga elchi sifatida Karl

Aykenberrini tayinlashi, 2009-yil 27-mart kuni Pokiston va Afg'oniston bo'yicha yangi strategiyaning qabul qilinishi kelgusida AQSh manfaatlari davomiyligini ta'minlaydi deyish mumkin.

2009-yil 27-martdagi strategiya Pokistonga yiliga 1,5 mlrd, umumiy hisobda 7,5 mlrd yordam ko'rsatishni belgilagan. Afg'onistonga esa qo'shimcha 17 ming askar yuborish belgilandi. Shuningdek, Prezident B.Obama 2009-yil 1-dekabrda Vestpoint harbiy akamediyada qilgan nutqida Afg'onistonga amerika ma'muriyati yana 30 ming qo'shin yuborishini bildirgan. Hozirda 68 ming AQSh qo'shini va 39 ming ittifoqchilar qo'shini mavjudligini ta'kidlagan.

Bundan tashqari Afg'oniston-Pokiston chegarasida "Qayta tiklash imkoniyatlar zonasi"ni rivojlantirish loyihasi ham kiritildi. Unga ko'ra AQSh xukumati pushtunlardan iborat 50 ming qo'shinga ega "Pushtun qabilalari chegara korpusi"ni shakllantirishga e'tibor qaratgan. Ushbu korpus toliblar ekvivalenti sifatida AQShning mintaqadagi manfaatlariga xizmat qilishi kerak, ularning tashkiliy jihati va maqomi to'liq belgilanmaguncha AQSh tashqi siyosati yutug'i sifatida qo'lga kiritilgan Afg'onistonda B.Obama davrida ham amerika qo'shinlarining saqlanib qolish ehtimoli katta, deb xulosa qilish mumkin.

Rossiya, NATO va Ommaviy qirg'in qurollari (OQQ). Demokratlar tashqi siyosiy tamoyillariga tayanadigan bo'lsa, Yeeroatlantika xavfsizligi, NATOning Sharqqa kegayishi borasida Rossiya bilan yuzaga kelgan tanglik diplomatik yo'llar bilan hal qilinishi belgilangan. 2009-yil mart oyidayok Jenevada o'tgan yadroviy xavfsizlikka bag'ishlagan konferensiyada hamkorlikka asoslangan ilk munosablarni shakllantirishga urinishni kuzatish mumkin. Negaki, 2008-yil NATOning Buxurest sammitidan oldin J.U.Bush tomonidan Ukranina va Gruziyaning tashqilot a'ziligiga qabul qilinish borasida takliflar, Rossiyaning 2000-yillarda hamkorlikda RQMT (PRO) tizimini ishlab chiqish taklifining rad etilish, 2001-yil noyabrda AQShning PRO to'g'risidagi shartnomadan bir tomonlama chiqishi kabi bir qancha omillar munosabatlar real keskinlikni vujudga keltirdi va Rossiyaning keskin vositalar qo'llashga majburlay boshladi. Natijada AQSh tashqi siyosati diplomatiyaga asoslanishi davr talabi ekanligini ko'rsatdi. B.Obamaning Rossiya siyosatiga vazifalari:

1. Yadroviy qurollar masalasidagi shartnomaning yangi variantini imzolash. 2009-yil 5-dekabrda "Strategik xujumkor qurollar" (SNV 1) bo'yicha shartnomaning amal qilish muddati tugadi. Ushbu shartnomani yangi ko'rinishini tuzish ikki davlat manfaatlariga xizmat qilib, 2010-yil aprelda Chexiyaning Praga shahrida ushbu turdagi yangi shartnoma imzolandi. AQSh Davlat departamenti siyosiy masalar bo'yicha kotib muovini U.Bernsning 2009-yil 27-28- aprel Butunjahon Rossiya

Forumida B.Obama ma'muriyati uran boyitish dasturlarini rad etuvchi mamlakatlar uchun Rossiyaning Xalqaro yadro issiqlik markazini tashkil etish loyihasini qo'llab-quvvatlashini bildirgan.

Bundan tashqari AQSh jahondagi yadroviy qurollanishning jadal tendensiyasini va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish borasida yangi strategiyasini ishlab chiqdi. Ushbu strategiya bilan jahon hamjamiyatini B.Obama 2009-yil 5-aprelda Pragada so'zlagan nutqida tanishtirdi. Prezident amalga oshiriladigan yadroviy tahdidni bartaraf etishning quyidagi bosqichlarini ko'rsatib berdi:

*Birinchi*dan, AQSh yadroviy qurollar xoli dunyoni vujudga keltirishga intilishi va bu yo'lda "sovuq urush"dan qolgan fikrlashdan voz kechgan holda AQSh milliy xavfsizlik strategiyalarida yadroviy qurol rolini pasaytirish va yangi Strategik qurollarni qisqartirish Shartnomasi borasida Rossiya bilan muzokaralarni boshlash;

Ikkinchi, yadroviy qurolni tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomani asos qilib olgan holda hamkorlikni mustahkamlash;

*Uchinchi*dan, terroristlarning hech qachon yadroviy qurolga ega bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Ushbu strategiya asosida OQQga noqonuniy egalikni tugatish va mavjud qurollar salohiyatini qisqartirish borasidagi siyosati "global zero" nomini oldi.

2. NATO va Rossiya hamkorligini kuchaytirish, Yevroatlantik xavfsizlik tizimida Rossiya bilan hamkorlik qilish. AQSh tashqi siyosatidagi strategiyasi o'zgaruvchan, milliy manfaatlari mos ravishda turli vositalarning qo'llanilishini 2010-yil 28-mart kuni NATO Bosh kotibi A.F.Ruamussen tomonidan hamkorlikda RQMT (PRO) tashkil etish masalasidagi taklifi bilan Rossiya davlati rahbariga murojaatidan ham kuzatish mumkin. Dastavval Rossiya tomonidan ushbu taklif 2000-yillarda AQSh rahbariyatiga taklif etilgan edi. 2009- yil 17-sentyabrda Pentagon rahbari R.Geyts RQMTni yaratish borasida AQSh rejasiga o'zgartirishlar kiritilganini e'lon qildi. AQSh Yevropaga RQMTni joylashtirishni rad etmagan holda uning muddatini 2015-yilgacha surdi, tizim to'la shaklda to'rt bosqichda 2020-yilgacha amalga oshirilishi ta'kidlandi. Demokratlarning ushbu siyosati Rossiya bilan munosabatlarni yumshatish va shu orqali Yevropada pozitsiyasini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Istiqbolda AQShning Rossiya bilan RQMTdagi hamkorligi B.Obama ma'muriyati tashqi siyosatining jahon hamjamiyati tomonidan qanday qabul qilinishi, samaradorligiga bog'liq. Agar "tinchlantiruvchi" siyosat qo'lga kiritilgan imkoniyatlarni saqlab qolaolmasa, keyingi ma'muriyatlar tashqi siyosatida harbiy vositalarning ta'siri ortadi, deyish mumkin.

Umumlashtirgan xolda, AQShning global tashqi siyosatini tadqiq etgan holda zamonaviy davrda mamlakat tashqi siyosiy qarorlarining qabul

qilinishi va jahondagi rolini aniqlab berishga asos bo'lgan xolatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tashqi siyosat AQShning global yetakchiligini mustaxkamlashga yo'naltirilgan;

2. AQSh global tahdidlarga qarshi o'zga davlatlar bilan hamkorlik asosida kurashishni ko'zlagan. Amerika global tahdidlarni yolg'iz bartaraf eta olmaganligi singari, Vashington e'tiroficha, boshqa davlatlar ham ushbu muammolarni AQSh ishtirokisiz hal eta olmaydilar;

3. Oq Uy ma'muriyatining hozirgi tashqi siyosati "aqli kuch"ga asoslangan bo'lib, davlat ixtiyoridagi jamiki vasitalar majmuasini qo'llashni taklif etadi. Shuningdek, "aqli kuch" tashqi siyosatda diplomatiya afzalliklarni tan olgan holda, harbiy kuch yoki bir tomonlama faoliyat ustun qo'ymaydi.

4. AQSh BMT va o'zga xalqaro institlar mexanizminidan imkon darajasidan foydalanishni ko'zlagan deyish mumkin.

Shunday ekan, "Amerika o'ziga xosligi" va "jahonda ma'naviy yetakchilikka" intilishi AQSh tashqi siyosatining mafkuraviy asosini tashkil etadi. Shu bois yangi ma'muriyat oldingi ma'muriyatdan farq qilmaydi. Faqatgina ushbu o'ziga xoslikni amalga oshirish vositasi o'zgargan. Kuch siyosati ikkinchi planga ko'chgan, uning o'rnini esa diplomatiya va ishonch, uzoq muddatli iqtifoqchilik egallagan.

8.2. AQSh tashqi siyosatida Yaqin Sharq mintaqasining o'rnini demokratlashtirish va neokonservativ gegemonlik strategiyasi

Dars maqsadi:

- talabalar AQShning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rnini borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;

- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;

- talabalarga AQSh tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari borasida to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlari singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *"Saxrodagi bo'ron", neokonservativizm, axis of evil, yadro dasturi, PNAC, dual containment, S.Husayn, gegemonlik, Yaqin Sharq, Katta Yaqin Sharq, demokratlashtirish.*

Yaqin Sharq dunyo siyosiy xaritasida bir asrlik tarixga ega keskinlik o'choqlarining mavjudligi, diniy, milliy va madaniy rang-baranglikka boy

bo'lgan mintaqa sifatida alohida o'rinni egallaydi. Mintaqa bo'lgan qiziqishning doimiy ortib borishi mintaqaning geografik chegaralari borasidagi qarashlarni ham o'zgartirib keldi. Geografik nuqtai nazaridan biz so'z yuritayotgan hudud Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi sifatida e'tirof etiladi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda ham "Middle" so'zi "O'rta" ma'nosini anglatadi. Ammo siyosiy nazariyalar va mintaqalarning geosiyosiy o'rni borasidagi qarashlarda asosan ingliz tilidagi "Near" ("yaqin" ma'nosida) so'zi o'rniga "O'rta" ma'nosini ifodalovchi so'z ishlatilib kelinmoqda. Shuning uchun ham aksariyat G'arb tadqiqotlarida Yaqin Sharq atamasi "O'rta" ma'nosini anglatuvchi so'z orqali ifodalanadi (Middle East). Va mazkur mintaqada kechayotgan jarayonlar borasidagi talqinlarda keng qamrovli geografik makonga tegishlilikka urg'u berishadi. Masalan, Yaqin Sharq davlatlari deyilganda Afrika qit'asi shimolida joylashgan bir qator arab davlatlari, Turkiya, Eron, Iroq kabi davlatlar joylashgan O'rta Sharq va butun Fors ko'rfazi, Kaspiy dengiziga tutash janubiy hududlar, Afg'oniston va Pokiston davlatlari hududlarini tushunish an'anaga aylandi. Bu hududlardagi ijtimoiy jarayonlar Yaqin Sharq mintaqasi qamroviga tegishli ekanligi ilmiy tahlillar va nazariyalarda aks etmoqda. Bunday yondashuv AQSh neokonservativ qarashlarida ham uchraydi. Mintaqa bilan bog'liq neokonservativ tashqi siyosiy kontseptsiyalarning barchasida Yaqin Sharq geografik talqinga emas, balki geosiyosiy o'lchamlar asosida talqin etiladi. AQSh davlat boshqaruviga respublikachilar partiyasining kelishi (2000-yil) bilan boshlangan keng ko'lamli neokonservativ amaliyot jarayonida ham mintaqaga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi. Mintaqaning geosiyosiy o'lchamlari va AQSh manfaatlar zonasi borasida yangi-yangi g'oyalar ilgari surildi. Xususan, bu borada "Buyuk Yaqin Sharq", "Katta Yaqin Sharq" va "Yangi Yaqin Sharq" kabi atamalarning yuzaga kelishini aytish mumkin. Mintaqaning asl geografik mohiyatidan chetlashishga bo'lgan urunish albatta globallashuv va gegemonizm mafkurasi kabi omillarga borib taqaladi. Zero bugungi kunda er kurrasining biror bir joyida yuz berayotgan voqea boshqa bir joyiga tezkorlikda ko'chishi ehtimoli yuzaga keldi. Gegemonizm uchun esa mintaqalar chegaralarining kengaytirilishi ta'sir ko'lamini kuchaytirish uchun juda yaxshi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, AQShning mintaqadagi neokonservativ tashqi siyosati o'zining keng ta'sirliligi va ko'p tomonlama manfaatdorligi bilan ajralib turadi. Aynan Yaqin Sharq mintaqasiga nisbatan shakllantirilgan tashqi siyosiy kontseptsiyalar o'z qamrovi nuqtai nazariyadan ham tutash mintaqalar xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, 11-sentabr voqelaridan keyingi davrda mintaqalararo munosabatlarda bunday holat borasidagi xavotirlar anchayin kuchaydi. Masalan, Sharqiy Evropa

va Markaziy Osiyo mintaqalarida ro'y bergan "demokratiya inqiloblari" mintaqalararo faol munosabatlarning biroz turg'unlashishiga ham sabab bo'ldi.

AQShning Afg'oniston va Iroqdagi harbiy harakatlaridan so'ng respublikachilar hukumati tomonidan neokonservatorlarning faol ishtirokida 1990-yillar davomida nazariy asoslari yaratilib kelinayotgan kontseptsiyalarni yuzaga chiqarish va amaliyotga tadbiiq etishga urinishlar boshlandi. AQSh neokonservatorlari ta'sirida Yaqin Sharq mintaqasining keng ma'noda tushuntiruvchi neokonservativ qarashlar tizimi shakllana bordi va keng jamoatchilikka taqdim etildi. Mana shunday qarashlardan biri "Katta Yaqin Sharq" kontseptsiyasi bo'lib, u 2003-yilda ishlab chiqilgan va hozirgi kungacha bir qator yangilanishlar bilan "Yangi Yaqin Sharq" sifatida e'tirof etilmoqda. AQSh ma'muriyati vakili bayonotiga ko'ra, "Katta Yaqin Sharq" geografik kengligiga quyidagi davlatlar kiritiladi: Shimoliy Afrika (Marokash, Jazoir, Tunis va Liviya), an'anaviy Yaqin va O'rta Sharq va Fors ko'rfazi (Misr, Isroil, Suriya, Iordaniya, Livan, Yaman, Iroq, Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Baxrayn, Ummon, Qatar) va shuningdek Eron, Afg'oniston va Pokiston kiradi. Bir qator amerikalik mutaxassislar hisoblashicha, Turkiya ham shu mintaqaga tegishli. Bundan tashqari, sobiq sovet respublikalaridan Kavkazorti va Markaziy Osiyoni ham qo'shishadi. Vashingtonning fikricha, Katta Yaqin Sharq uchun birlashtirilishning asosiy xususiyati ularning ko'plarida u yoki bu darajada xalqaro terrorizm manbalari, ommaviy qirg'in qurollarining yoyilishi, siyosiy va iqtisodiy beqarorlik mavjud.

Bir qator ekspertlar fikricha bu strategiyalarning asosiy maqsadi Isroil mavqeini mustahkamlash va AQSh manfaatlarini qo'llab-quvvatlovchi tuzumlarni shakllantirishdir. Eronlik mutaxassislar fikricha, "Katta Yaqin Sharq" mintaqani AQShga qaram etish, "siyosiy islom"ni kuchsizlantirish, "islom renessansi"ga yo'l qo'ymaslik, AQShga nomaqbul tuzumlarni ag'darish va islomiy dalatlarni to'liq qayta mafkuralashtirishdan iborat. Ularning fikricha umumiy holda "Katta Yaqin Sharq" kontseptsiyasini amalga oshirish doirasida AQShning vazifalari quyidagilar: Yaqin Sharqda Isroil rolining oshishi va manfaatlarini himoya qilish; neft zahiralari AQSh uchun imkoniyatlar yaratish; Eronga bosim o'tkazish; madaniy va mafkuraviy siyosat jabhasidagi vazifalar.

Ko'pgina mutaxassislar muhokamasiga sabab bo'layotgan yangi kontseptsiyalardan biri "Yangi Yaqin Sharq" (New Middle East) loyihasidir. Bu kontseptsiya to'liq neokonservativ ruhda shakllantirilgan bo'lib, 2000-yillardan keyingi AQSh tashqi siyosatining muhim jihatlarini namoyon qiladi. "Yangi Yaqin Sharq" jumlasini ilk bor 2006-yil iyunda

AQSh Davlat Kotibasi K.Rays tomonidan “Greater Middle East”(Buyuk Yaqin Sharq)ga o’rindosh sifatida Tel-Avivdagi chiqishida e’lon qilingan. Uning ahamiyatli jihatlaridan biri Boku – Tbilisi – Jayxun neft terminalining ishga tushishi bilan bir vaqtda e’tirof etilganidir. K.Raysning ma’lumot berishicha “Yangi Yaqin Sharq” loyihasi Livandan boshlanadi. Ekspertlar fikricha bu chaqiriq Angliya – Amerika –Isroilning Yaqin Sharqdagi “yo’l xaritasi”ni tasdiqlash hisoblanadi. Mintaqa bo’yicha urush o’choqlari va tartibsizlik vaziyatini tug’dirayotgan “ijodiy kaos” kuchlarini barpo etishga qaratiladi. “Yangi Yaqin Sharq” vositasida AQSh, B.Britaniya va Isroil o’zlarining geostrategik va boshqa manfaatlariga muvofiq Yaqin Sharq xaritasini qayta shakllantirish imkoniyatiga ega bo’lishadi.

Professor M.Levinning ta’kidlashicha, neoliberal globalistlar va neokonservatorlar, hamda kichik J.Bush hukumati o’zlarining yangi dunyo tartibotini yaratish yo’lidagi “ijodiy yo’q qilish” strategiyasini amalga oshirmoqda.

Taniqli nazariyotchi Z.Bjezinskiy ham o’z kitobida Evrosiyo Bolqoni hududining dastagini nazorat qilishda zamonaviy Yaqin Sharqni ham nazarda tutgan edi. Evroosiyo Bolqoniga Kavkaz, Markaziy Osiyo, Eron va Turkiyani kiritadi. Eron va Turkiya Yaqin Sharqning muhim shimoliy chegarasi hisoblanib, Evropa v sobiq SSSRga kirishdagi strategik mavqeini e’tirof etgan. Uning ta’kidlashicha, Turkiya va Eron ichki etnik nizolarga tortilish ehtimoli yuqori, lekin ularning biri yoki ikkovi beqarorlashtirilsa mintaqadagi ichki muammolar boshqarilib bo’lmaydigan, hal etib bo’lmaydigan darajaga keladi.

Neokonservatizm tarafdorlari yoki ularning ta’siri yuqori bo’lgan AQSh hukumatlari davrida ilgari surilgan “Milliy xavfsizlik strategiyasi”, “Birlashgan yadroviy operatsiyalar Doktrinasini” va bevosita Yaqin Sharq mintaqasi bilan bog’liq bo’lgan “Katta Yaqin Sharq”, “Yangi Yaqin Sharq” va “Katta Markaziy Osiyo” kabi kontseptsiyalarda neokonservativ gegemonlik g’oyalari ifodalanganligini ta’kidlash joiz. Ular orasida Yaqin Sharq mintaqasi bilan bog’liq qarashlar ustunlik qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, AQSh dunyoda gegemonlik qilish vazifasini Yaqin Sharq mintaqasiz amalga oshirib bo’lmaydi. Shuning uchun AQSh tashqi siyosiy strategiyasida Yaqin Sharq mintaqasi “muhim hayotiy manfaatlar hududi” deb e’tirof etildi. Chunki, birinchidan, Yaqin Sharq mintaqasi boy energiya manbalariga ega, jumladan, dunyo uglevodorodlar zahirasiining 2G’3 qismini tashkil etadi; ikkinchidan, geosiyosiy jihatdan mintaqaga bevosita aloqador Xormuz bo’g’ozi ahamiyatining ortib borayotganligi. Xormuz orqali dunyo neft tashivuning 40 % amalga oshirilmoqda; uchinchidan, mintaqada AQShning asosiy ittifoqchisi Isroil davlatining

mavjudligi va uning xavfsizligi muammosi; to'rtinchidan, mintaqa davlatlari va AQSh o'rtasida harbiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarining rivojlanib borayotganligi kabi omillar AQSh siyosiy doiralari e'tiborini doim o'ziga qaratib kelgan. Ayniqsa, 1990-yillardan keyin Yaqin Sharq mintaqasi AQSh neokonservatorlarining asosiy diqqat markazidagi mintaqasi sifatida ko'рила boshlandi. Shu davrdan boshlab AQSh gegemonligini asoslovchi chaqiriqlar neokonservativ oqim namoyondalari tomonidan uzluksiz targ'ib etila boshlandi. Xususan, 1992-yili taniqli neokonservatorlardan biri P.Vulfovits tomonidan "Hukmronlik strategiyasi" ishlab chiqildi. Neokonservativ ruhdagi bu strategiyaning asosiy mazmuni Yaqin Sharqdagi qurolli interventsyaning zaruratini isbotlash bo'lib, urush uning fikricha, Fors ko'rfazi mamlakatlari hududidagi neft zahiralarini kabi hayotiy muhim tabiiy manbalar uchun imkoniyatlarni ta'minlash uchun juda muhimdir. Strategiyada ta'kidlanishicha, AQSh dunyodagi yagona qudratli davlat bo'lib, asosiy maqsad – yangi raqobatchining paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikdir. Bundan tashqari, bu kontseptsyaning muhim jihatlaridan biri shundaki, "AQSh yakka o'zi yoki kaolitsiyani boshqargan holda tashqi tahdidlarga qarshi muddatli urushlarga tayyor bo'lishi lozim".

1990-yillarning boshiga kelib AQSh o'zining iqtisodiy, texnologik, madaniy va harbiy qudrati bilan dunyoda yagona qudratli davlatga aylandi. AQSh siyosiy doiralari kun tartibida o'ziga xos dilemma yuzaga keldi: yoki o'zining harbiy kuchlari imkoniyatlarini qisartirish evaziga mamlakat ichki hayotida demokratiyani yanada yaxshilash bilan shug'ullanish, J.Kirpatrik aytganidek, "me'yoriy mamlakat"ga aylanish yoki barcha kuchlarni "geosiyosiy bo'shliqni to'ldirish", yangi dushmanlar topish va dunyo hukmronligiga da'vogarlik qilish. Amerikalik siyosatshunoslar AQShning global hukmronlikdagi ustunligini "bir qutbli vaziyat" deya atashdi.

Neokonservatorlar nuqtai nazariga ko'ra, AQShning global harbiy-siyosiy etakchiligining zarurat ekanligi g'oyasi shu bilan asoslanadiki, tarixiy sabablar asosida dunyoda tartibni saqlash hamda global gegemonlik qilish huquqiga ega bo'lgan yagona davlatdir. Boshqa davlatlar esa, xususan, yirik xalqaro sub'ektlar bo'lmish SSSR, keyinchalik Rossiya Federatsiyasi yoki Xitoy xalqaro tartibni saqlash vazifalarini bajarishga tayyor emas. Ulardagi avtoritar boshqaruv AQSh uchun real tahdidni yuzaga keltiradi.

Neokonservativizm nuqtai nazariga ko'ra, dunyoviy hukmronlik borasidagi yutuqlar AQShning uzoq muddatli tashqi siyosiy maqsadi bo'lib, AQSh jamiyati hamda davlatchilikni saqlab qolishni ta'minlaydi. Uning ichki siyosiy yutug'i esa shundaki, sotsium va davlat institutlarining

uyg'unlashuviga erishishi hamda mafkuraviy beqarorlashuvning oldini olishga hizmat qiladi.

“Amerika asri” yoki “Pax American”ni qurish imkoniyatiga ishonchning saqlanishi bobida neokonservatorlari bir qutbli dunyo tarafdorlari bo'lib chiqishdi. Neokonservatorlar ko'p qutbli dunyo va ko'pmarkazlilik g'oyalariga qarshi chiqishadi. Ularning fikricha, xalqaro munosabatlarning bunday modeli haqqoniy bo'la olmaydi.

Neokonservatorlar nuqtai nazariga ko'ra AQShdan tashqari barcha, to'lovlarsiz, javobgarliksiz ko'p qutbli dunyoda teng huquqli hamkorlikni istashmoqda. Hech bir davlat global inqirozlarni boshqarish uchun javobgarlikni o'z qo'liga olishga tayyorligini namoyish qilmayapti. Mazkur kontekstda ko'pmarkazlilik dunyo tartiboti neokonservatorlar fikricha, xaosdir, kimdir javob berish imkoniyati kam. Faqat birgina “Marhamatli gegemoniya” dunyoni “ortiqcha” qurollanish, avtoritar tuzumlarning ko'tarilishi va qarama-qarshi bloklar tuzishdan ushlab turishi mumkin. Ular fikricha, “Amerika gegemonligi – xalqaro tartib va dunyo(tinchlik)ni yo'q qilishdan yagona va ishonchli himoyadir”.

Taniqli neokonservator Charlz Krautxammer ta'kidlashicha, AQSh gegemonligini mustahkamlashga yo'naltirilgan biror bir chora tadbir amalga oshirilmasa, dunyo tartiboti birinchi jahon urushi arafasidagi holatga qaytishi mumkin.

U.Kristol va R.Keyganlar bu g'oyalarni rivojlantirib, SSSR mavjud bo'lmasada Amerika tashqi siyosatining asosiy maqsadlari o'zgartirilmasligini ta'kidlashadi. Keyingi jiddiy tahdidni kutish o'rniga AQSh uning paydo bo'lishi imkoniyatlarini yo'qqa chiqarishi lozim. AQSh uchun asosiy maqsad xalqaro tartibni saqlashdir. Aks holda bunday tartib AQSh manfaatlari va qadriyatlarini o'zida ifodalamaydigan boshqa bir kuchlar tomonidan o'rnatiladi. Bunday maqsadga erishish muhimdir. Va shuning uchun u uzoq muddatli, jamiyatni birlashtiruvchi vazifalarni qo'yadi. Bu holatdan ko'rish mumkinki neokonservatizm da milliy manfaatlar masalasi ustuvor atribut hisoblanadi.

Neokonservatizmdan farqli o'laroq, siyosiy realizmda milliy manfaatlar mafkurasizlashtirilgan va suverenitet hamda xavfsizlikni saqlashga qaratilgan ratsional hatti-xarakatlarga asoslanadi.

Gegemonlik strategiyalar asosiga milliy manfaatlarni ta'minlash g'oyasining qo'yilishi bilan bog'liq neokonservativ yondoshuvlarga nisbatan tanqidiy qarashlar ham yuzaga keldi. Xususan, K.Primakov AQSh gegemonligini rad etar ekan, uning fikricha xalqaro munosabatlarga kiritilajak yangi ruhiyat bir tomonlama va hatto eng kuchli derjava bo'lgan taqdirda ham alohida qarorlar qabul qilish bilan emas, balki jahon hamjamiyati ishtirokida bo'lishi darkor. K.Brutents tadqiqotlarida esa

neokonservatizmni butun dunyo va hatto AQShning o'zini ham halokatga olib keluvchi tajovuzkor, ekstremistik mafkura sifatida talqin etilishini kuzatish mumkin.

Global ustuvorlik strategiyasi tarafdorlari ichida mashhur kontseptsiyalardan biri F.Fukuyamaning "Tarixning intixosi" va G'arb liberal demokratiyasining universallasuvi g'oyasidir. Boshqa bir neokonservativ siyosatshunos S.Xantington global rivojlanishning boshqachi bir bashoratini berdi. Uning g'oyasi bo'lgan "Tsivilizatsiyalar to'qnashuvi" kontseptsiyasi dunyoning sakkizta etnomadaniy formatsiyalarga bo'linishi va jahon tarixining kelgusi rivoji aynan mazkur guruhlarining o'zaro munosabatlari bilan belgilanishini asoslanadi. Keyinchalik neokonservatorlar mazkur ikki kontseptsiyani birlashtirishdi. Agar "Tarixning intixosi" mafkuraviy maqsadlari qismi bo'lib xizmat qilsa, "Tsivilizatsiyalar to'qnashuvi" esa uning amaliyoti, qo'yilgan vazifalarga erishuvi sifatida e'tirof etiladi. Ularning asosiy harbiy-strategik yondoshuvlari 1992-yilda yuzaga chiqdi. Ya'ni, Katta J.Bush administratsiyasida mudofaa vaziri bo'lgan Dik Cheyni 1994-1996-yillarga mo'ljallangan yangi mudofaa strategiyasi – "Mudofaaviy rejalashtirish qo'llanmasi"ni shakllantirish tashabbusini ilgari suradi. Uni ishlab chiqishda vazirlik xodimlari bo'lgan guruh – P.Vulfovits, Zalmay Xalilzoda va L.Libbilardan iborat guruh tomonidan amalga oshirildi. 1992-yildagi hukumatdagi o'zgarishlar "Mudofaaviy rejalashtirish qo'llanmasi"ni amalga oshirish imkonini bermadi. Bill Klinton demokratiyasi jamoasi Amerika etakchiligini mustahkamlash yondoshuvini saqlagan holda "kooperativ xavfsizlik" yo'nalishi bo'yicha boshqaruvni shakllantira boshlashdi. Bu vaqtda gumanitar intervensiya g'oyasi dolzarblashtirildi, ya'ni insonparvarlik operatsiyalari olib borish va fuqarolarni himoya qilish vaji asosida boshqa davlatlarning ichki ishlariga qurolli aralashuv taktikasidan foydalanish afzal ko'rildi. Bu borada xalqaro tashkilotlar, institutlar bilan hamkorlikka ham e'tibor qaratildi. 1994-yili Klinton hukumati tomonidan qabul qilingan "Milliy xavfsizlik strategiyasi"da izolyatsionizm va savdo proteksionizmi g'oyalaridan voz kechish belgilab qo'yildi. AQSh global manfaatlar va majburiyat yukuni o'ziga olgan yirik jahoniy kuch ekanligi e'tirof etildi.

1990-yillarda U.Kristol va R.Keyganlar R.Reygen prezidentligi davri yutuqlarini o'zida ifodalovchi "neo-reyganizm" strategiyasini taklif qilishadi. Ya'ni, mamlakatning ichki siyosiy realligi bilan bog'langan holda AQShning qudratini cheklashi qarorini bekor qila olgan Reygen tashqi siyosatda ulkan yutuqlarga erishdi. Ular fikricha, aynan ichki to'siqlar AQSh gegemonligi yo'lida to'siq bo'lib turibdi. Keygan fikricha, Amerikaning har qanday kamchiliklariga qaramasdan, dunyo uchun

boshqa har qanday gegemon kam darajada “marhamatlidir”. Sovuq urushdan keyingi davrda ham aynan ichki to’siqlar Amerika etakchiligiga to’siq bo’lib qolmoqda. U.Kristol va R.Kaganlarning “Neoreyganizm tashqi siyosati tomon yo’l” nomli maqolasida qo’yilgan maqsadlarga erishish borasida quyidagi talablarni ilgari surishadi: birinchidan, harbiy byudjetni oshirish; ikkinchidan, jamoatchilik e’tiborini tashqi siyosat masalalariga qaratish – amerikaliklar milliy manfaatlarni aniq tushuna bilishi lozim; uchinchidan, neokonservatizm tamoyillaridan bir bo’lgan “axloqan oydinlik”: mafkuraviy maqsadlar va fundamental tashqi siyosiy manfaatlar doimiy garmoniya holatida bo’lishi lozim. Shuni ta’kidlash joizki, aynan mazkur g’oyalar faylasuf Leo Shtraus qarashlari bilan o’ziga xos uyg’unlikka egadir.

Neokonservatorlarning ikkinchi avlodi vakillari g’oyalarida “bir qutbli vaziyat” g’oyasini rad etish hamda AQShning asosiy tashqi siyosiy maqsadi global harbiy-siyosiy hukmronlik hisobiga uni maksimal darajada uzoq muddatga uzaytirish masalalari ilgari suriladi. Harbiy ustuvorlik AQShning jahon maydonida unga raqobatchi paydo bo’lishigi yo’l qo’ymaslik uchun asosiy vosita hisoblanadi. Shu bilan birga AQShning “Marhamatli gegemonlik”ka erishishi hamda shu mavqeni tutib turish AQSh jamiyatini mustahkamlashda samarali turtki bo’lib hizmat qiladi.

Neokonservativ gegemonlik g’oyalarining rivoji sifatida 2000 yilga kelib neokonservativ tahlil markazi bo’lgan “Yangi Amerika asri uchun loyiha”(Project for the New American Century) tomonidan “Amerika mudofaasini qayta qurish: yangi asr uchun kuchlar va resurslar” kontseptsiyasi ishlab chiqildi. Unda ta’kidlanishicha, “O’n yilliklar davomida AQSh Fors ko’rfazi xavfsizligini ta’minlashda mustahkam mavqeni egallashga intilib keldi. Haligacha Iroq konfliktining hal etilmaganligi mintaqada AQShning harbiy mavjudligini oqlashga xizmat qiladi va Saddam Husayn tuzumini tugatish masalasi e’tirof etilaveradi”.

Shunday mazmundagi yana bir muhim xujjatlardan biri “AQSh milliy xavfsizlik strategiyasi” – “Bush Doktrinasi” neokonservativ ruhdagi muhim strategiya hisoblanib, u 2002-yil 20-sentyabrda qabul qilingan. Aynan 11-sentabr voqealaridan keyin kichik J.Bush boshchiligidagi respublikachilar hukumati asosiy e’tiborni terrorizmga qarshi kurashga va bir qator “hulqi yomon” davlatlar tuzumini o’zgartirishga qaratdi. “Bush Doktrinasi”da dushmanlarning hujum vaqti va joyi noaniq bo’lib qolishiga qaramasdan, xavf - xatarlar tug’ilishiga imkoniyat bermasdan turib xavfga qarshi kurashishi va himoyalani lozimligi asoslandi. Bundan ko’rish mumkinki, AQSh neokonservativ tashqi siyosiy strategiyalarida bir qutbli dunyo tartibotini o’rnatish va milliy manfaatlarni har qanday usullarda ta’minlash

masalasiga ustuvor ahamiyat berildi. AQSh neokonservatorlari “unipolyaristik” g’oyalarni keng targ’ib eta boshladi.

Ekspertlar fikricha, bir qutubli dunyoni qurish rejasi istiqbolsiz, lekin qaror topgan haqiqatdir (Agar AQSh muayyan teng kuchga emas, balki aniqlab, o’xshatib bo’lmaydigan, nazoratga, tartibga solish va boshqarishga bo’ysunmaydigan xalqaro tartibsizlik, kaos, boshboshdoqlikka qarshi turish vazifasini o’z zimmasiga olishdan kelib chiqsa). AQSh xalqaro hamjamiyat fikrlariga e’tibor bermasdan, hozirdanoq o’zining milliy manfaatlari foydasiga tashqi siyosiy xatti-harakatlarini olib bormoqda”.

Umuman, neokonservativizm mafkurasining global gegemonlikka chaqiriqlari zahirida milliy manfaatlarni ta’minlash va davlat kuch-qudratidan samarali foydalanish orqali muhim siyosiy, xavfsizlik va iqtisodiy ta’sirlarga erishish turganligi ayon bo’ladi. Ayniqsa, Yaqin Sharq va Fors ko’rfazi kabi energetik imkoniyatlari yuqori bo’lgan mintaqalardagi ustunlikni ta’minlash AQSh neokonservatorlarining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Taniqli siyosatshunos Z.Bjezinskiyning AQSh gegemonligi g’oyasi va uning amaliyoti borasidagi fikrlari bilan tanishar ekanmiz, uning qarashlariga ko’ra, tarix taqozosi bilan AQSh jahonda yakka hokim bo’lib qoldi. Bunday sharoitda u jahonda hukmronlikka emas, balki etakchilikka, o’z ortidan boshqalarni ergashtirishga intilishi lozim, deb hisoblaydi. AQSh o’zi to’g’risida jahon xalqlarida ijobiy tasavvur hosil qilishga urinishi, faqat o’zining bir tomonlama geosiyosiy yoki iqtisodiy foydasini emas, balki o’zaro manfaatlarni ko’zlab ish tutishi lozim. Har qanday masalaga o’z hukmini o’tkazish pozitsiyasidan yondashish AQShni yomon qo’ruvchilar sonini ko’paytiradi, xolos. Bjezinskiy “o’ta buyuk davlat - musbat”, “o’ta buyuk davlat - manfiy” tushunchalarini qo’llaydi. Birinchi xolatda jahon jamoatchiligi tasavvurida buyuk davlat to’g’risida ijobiy, ikkinchi holda salbiy obraz gavdalanadi. Amerika oldidagi strategik tanlash imkoniyati muallif muhim xulosalar chiqarishga asos bo’ladi. Ularning eng birinchisi, o’zaro foydali va mudom mustahkamlanib boradigan Amerika – Evropa global hamkorligining hal qiluvchi ahamiyatini tan olishdir. O’zaro foydali biroq hanuzgacha assimetrik Atlantika ittifoqi, shubhasiz, har ikki tomonning manfaatlariga javob beradi.

Muallif Amerikaning doim diqqat markazida bo’lgan, Evropa Ittifoqini ham tashvishlatiradigan mintaqa bu – Yaqin Sharqdir, deb hisoblaydi. Falastin-Isroil muammosini hal etish, Iroqni demokratik mamlakat sifatida qayta tiklash haqida so’z yuritadi. “Mojaroning tinch yo’l bilan qilinishi qo’shni arab jamiyatlarida aksilamerika kayfiyatining pasayishiga olib

keladi. Aynan AQShning bir necha ma'muriyati ushbu muammoni hal etishga urinmagani mazkur mintaqada ekstremizm rivojlanishining omillaridan biri bo'ldi".

AQShning Yaqin Sharqdagi tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri bu – mintaqani demokratlashtirish masalasidir. AQSh talqinidagi demokratik globalizm nafaqat axloqiy balki geosiyosiy o'lchovlarga egadir. Ya'ni "amerikatsentrizm" dunyo tartibotining o'rnatilishi xom ashyo manbalari va ularning tashish yo'laklari ustidan nazoratni o'rnatish bilan ham izohlanadi. 1970-1980-yillardayoq yashirin tarzda AQShning dunyoviy gegemonligini o'rnatish maqsadida "demokratik mamlakatlar" hududini shakllantirish ehtimollari borasida fikrlar yuritila boshlangan. Er yuzining istalgan hududida joylashgan har qanday AQSh manfaatlariga qarama-qarshi turuvchi davlat "milliy manfaatlar" uchun tahdid sifatida qaralib, xavf sifatida uni har qanday vositalar bilan bartaraf etish lozimligi e'tirof etila boshladi. Neokonservatorlar o'zlarini demokratik globalizm tarafdorlari sifatida namoyon qilishga harakat qilishadi va bu yondoshuv butun dunyo va AQSh xavfsizligini ta'minlash kafolati sifatida talqin etiladi.

Liberal demokratik tamoyillarning mamlakat ichki va tashqi siyosatida aks etishi borasida neokonservatorlar bilan liberalizm mafkurasi tarafdorlari o'rtasida muayyan birlashuvni kuzatish mumkin. Shu bilan birga ichki siyosiy qarorlarda liberalizm qoidalarining ko'proq aks etishi yoki tashqi siyosatda demokratiyani yoyish g'oyalarining amaliyoti ba'zan o'zining kamchiliklarini ham ko'rsatadi. XX asr va XXI asr boshlarida demokratik davlatlar bir birlari bilan urushmaydi, degan tamoyil qanchalik jozibador bo'lmasin, mas'uliyatsizlik, beparvolik, harbiy qudratni oshirishga e'tiborning kamayishi kabi holatlar ham kuzatildi. Ammo, neokonservatorlar fikricha, demokratiyaning xavfsiz mavjudligining yagona echimi – bu uning harbiy kuch-qudrati, ustunligidir. Neokonservatorlar avtoritarizm va teokratiya tuzumlarini Yaqin Sharqdagi anti Amerikanizmning kuchayishi va keng yoyishining omili sifatida ko'rishadi. Shu bois ular mintaqada demokratik qayta qurishlarni amalga oshirishga zo'r berishadi.

2001-yil 11-sentyabr voqealaridan keyin AQSh Arab dunyosida demokratiyani targ'ib qilishni moliyalashtirishni kuchaytirdi. Yangi Yaqin Sharq loyihasi bosh rasmiy xujjati bu "AQShning Yaqin Sharqdagi yangi milliy xavfsizlik strategiyasi: 11- sentyabrdan so'ng tahlil" deb nomlanadi. Bu loyihada AQSh Marokash va Marvitanianidan tortib Afg'onistongacha bo'lgan 24 davlat chegarasini o'zgartirishga harakat qiladi. Katta Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika amerikaliklar uchun Evroosiyo yuragi (Heartland)ni egallash uchun platsdarm hisoblanadi. Katta Yaqin Sharq

kontsepsiyasining bosh maqsadini musulmon davlatlarida fuqarolik jamiyatlari institutlarini tashkil etish, qonun ustivorligini ta'minlash, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, ijtimoiy sohalarda ayollar rolini oshirish, mustaqil OAV rivojlantirish, axolining global kompyuter axborot tarmoqlariga va boshqa zamonaviy axborot manbalariga ulanish imkoniyatlarini kengaytirgan holda chuqur modernizatsiyalashga yordamlashish hisoblanadi. Demak, AQSh neokonservativ tashqi siyosati rivoji tendentsiyalariga e'tibor qaratilganda, kichik J.Bush ma'muriyati hukmronligi davrida bosqichma-bochqich demokratiyani ilgari surish g'oyalari shakllantirilib borilishi va amaliyotga joriy qilinganligini ta'kidlash joiz. Masalan, Yaqin Sharq mintaqasi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida mintaqadagi bir qator salbiy "obrazlar"ning shakllantirilishi amaliyotchi neokonservatorlar uchun muhim asos bo'ldi. Xususan, prezident kichik J.Bush 2002-yil 29-yanvarda Iroq, Eron va Shimoliy Koreyani "Yovuzlik o'qi" deya ataydi. Bu kabi chaqiriqlar AQShning tashqi siyosatida ko'p marotaba ishlatilgan. Amerika xalqi demokratik tamoyillarni o'ziga asos qilib olgani tufayli AQSh hukumati ommaning noroziligisiz tashqi siyosatda erkin ravishda gesiyosiy maqsadlarni ro'yobga chiqarishi qiyin kechadi. Shuning uchun ham omma fikrini geosiyosiy maqsadlar bilan bir maromda yo'naltirish uchun AQSh hukumati ko'pincha "yaxshi" va "yovuz" terminlarini (binar yondoshuv) ko'p ishlatadi. Unga ko'ra AQSh hukumati doim "yaxshi" pozitsiyada bo'ladi, unga qarshi kuchlar, tajovuz qiluvchilar yoki "o'ljalar" barchasi "yovuz" kuch sifatida e'tirof etiladi. 1980-yillarda Ronald Reyganning Sovet Ittifoqini "yovuz mamlakat" deb atashi ham bunga yaqqol misol bo'ladi. Bu siyosatga ko'ra AQSh o'zini dunyoga tsivilizatsiya va demokratiyani yoyuvchi "yaxshi" kuch sifatida ko'rsatadi va bu vazifa "Ilohiy missiya" deb ham qaraladi. Bu kabi dunyoqarash AQShning XIX asrdagi g'arbiy hududlarini zamonaviylashtirishidan meros bo'lib, hozirgi kunda AQShning dunyoda o'z ta'sirini yoyishida ko'p ishlatilmoqda. "Salbiy" va "yovuz" kuchlarga qarshi xalqaro kurashni avj oldirishga urinish o'zining ikki qarama-qarshi jihatiga egadir. Birinchidan, xalqaro hamjamiyatning bunday kuchlarga qarshi kurashishidagi munosabati bir xil emas. Ikkinchidan esa neokonservatorlarning unipolaristik pozitsiyasi xalqaro hamkorlikni chegaralaydi. Shunga qarmasdan AQSh neokonservatorlari ta'sirida demokratiyani ilgari surishning xalqaro tashabbuslari ham yuzaga keldi. Xususan, 2003-yil 6-noyabrda prezident J.Bush NED (The National Endowment for Democracy-NED fondi 1983-yili Prezident R.Reygan va AQSh Kongresi tomonidan butun dunyoda nohukumat institutlar harakatlari orqali demokratik institutlarni mustahkamlash uchun tashkil qilingan bo'lib, har yili yuzlab grantlar

Afrika, Osiyo, Yaqin Sharq va boshqa mintaqalarda demokratik guruhlarini qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladi) fondi tashkil etilganligining yigirma yilligiga bag'ishlangan chiqishida AQShning yangi tashqi siyosati mazmunini belgilaydigan - "Global demokratik inqilob" ni e'lon qildi. Lekin bu tashabbus oldinroq Yaqin Sharq mintaqasida qo'llanib bo'lingan, Iroqni "ozod qilish" bilan boshlangan bo'lib, bu mintaqadagi boshqa davlatlar uchun saboq bo'lishi ta'kidlangan edi. Kichik J.Bushning e'tiroficha, dunyodagi 40-50 ta davlatlarda mana shunday erkinlashtirish ishlarini olib borish zarurati mavjud bo'lib, Yaqin Sharq yangi siyosatida diqqat markazdagi asosiy hudud bo'lib qolmoqda. Birinchi navbatda bu Eron, Saudiya Arabistoni va Suriya davlatlari bo'lib, ular etarli miqdorda neft zahiralari ega, shu bilan birga bu mintaqadagi AQSh manfaatlariga qarshi bormoqda va Isroil xavfsizligiga tahdid soladi. Shu jihatdan, neokonservatorlar AQSh xavfsizligi dunyodagi demokratik davlatlar soniga bog'liq deb hisoblashadi. Ammo, ular uchun dunyo siyosatidagi hal qiluvchi omil harbiy kuchdir. Ushbu ikki jihatdan kelib chiqib aytish mumkinki, 2000-yillarda neokonservatorlar tomonidan kuch vositasida demokratiyani ilgari surish amaliyoti to'liq neokonservativ mantiqqa ega bo'ldi. Ammo, ta'kidlash joizki, demokratiyani ilgari surish neokonservatorlar uchun tashqi siyosiy kun tartibidagi ustuvor masala sifatida qaralmaydi. Strategik planda ular an'anaviy tarzda Amerikaning global etakchiligi va boshqa bir raqobat qiluvchi derjavalarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka kuchli e'tibor qaratishadi.

Demokratlashtirish siyosati nafaqat taniqli neokonservatorlar yoki Oq uy ma'muriyati vakillari nutqlarida balki shu masalaga aloqador qonun loyihalarida ham o'z aksini topdi. Masalan, 2005-yil 3-martda senatorlar J.Makkeyn va J.Liberman hamda Vakillar palatasi a'zolaridan T.Lantos va F.Vulf tomonidan Kongressga "Nodemokratik mamlakatlarda demokratik qadriyatlar va demokratiyani tarqatish qonun"i loyihasini kiritishdi. Aslida bu loyiha asoschilari Gudzon institutida to'plangan neokonservativ qarashlar tarafdorlar, diplomat va tadbirkor M.Palmer, huquqshunos E.Kadel, siyosatshunos M.Gorovits va B.Tantilolar hisoblanishadi. Qonun loyihasiga ko'ra, AQSh tashqi siyosatining asosiy maqsad va missiyasi xorijiy davlatlarda erkinlik va demokratiyani yoyish bo'lib, horijiy davlatlarda demokratik qadriyatlar, tamoyillar va amaliyotni kuchaytirish, keng yoyish va qo'llab - quvvatlash uchun barcha ta'sir etish vositalarini ishlatish lozim. Loyihaga binoan AQSh Davlat departamenti qonunda ko'rsatilgan barcha vazifalarni bajaruvchi va mas'ul muassasa hisoblanadi. Asosiy e'tibor davlatlardagi yoshlar bilan ishlash masalasiga qaratilgan bo'lib, demokratlashtirishga bag'ishlangan ma'ruza va maxsus

dasturlar ishlab chiqilayotganli ham muhim jihatlaridan biridir. Qonun loyihasi neokonservatorlar va liberallar tomonidan birdek ma'qullanishi umumiy manfaatlar yo'lida g'oyaviy kurashlardan voz kechish vaziyatini ko'rsatib bermoqda.

Prezident J.Bush tomonidan "Global demokratik inqilob" e'lon qilingani bilan bir vaqtda M.Palmer "Breaking the Real Axis of Evil:How to oust the World's last Dictators by 2025" nomli kitobini nashr ettirdi. Unda AQSh tomonidan nomaqbul siyosiy tuzumli davlatlarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan asosiy 25 shart-sharoitlar ko'rsatib o'tiladi. Dunyoviy demokratik inqilob neokonservativ kontseptsiyasi tamoyillarini rad etmagan holda Palmer uni qurolli yo'llar bilan emas, balki tinch va zo'ravonliklarsiz amalga oshirish uslublarini taklif qilgan. Uning fikricha, asosiysi, bu usul arzon va AQSh uchun ancha qulay bo'lib, mahalliy nohukumat tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Palmer taklifining ahamiyatli jihati shundaki, uning qarashlarini AQShdagi bir qator siyosat va jamoat faollari, ham neokonservatorlar, ham liberallar birdek yuqori baholashgan. Neokonservatorlardan J.Muravchik, MRB (TsRU)ning sobiq direktori J.Vulsi, taniqli siyosatshunos F.Fukuyama va boshqalar uning fikrlarini qo'llab-quvvatlashgan.

2006-yil martida qabul qilingan AQShning "Milliy xafvsizlik strategiyasi"da quyidagilar belgilangan edi: "Qo'shma Shtatlar siyosati bizning dunyomizda bora-bora zolimlik(tiraniya)ni bartaf etish maqsadida xar qanday davlat va madaniyatda demokratik harakatlarni qo'llab-quvvatlash va unga yordam berishdan iborat. ... Bizning siyosatimizning maqsadi dunyoda o'z fuqarolari ehtiyojlarini qondira oladigan xalqaro arenada javobgarlikni bo'yniga oladigan demokratik, yaxshi boshqariladigan davlatni bunyod etishga ko'maklashish hisoblanadi. Bu – amerika xalqi xafvsizligini ta'minlashning eng yaxshi usulidir". Shu maqsadda 2005-yil mart oyida Amerika razvedka milliy kengashi tomonidan AQSh milliy manfaatlariga tahdid solishi mumkin bo'lgan 25 davlat ro'yxati tuzib chiqildi va AQShning mazkur davlatlardagi "demokratlashtirish" ishlariga aralashishi zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, bu masala davlat rahbarlari nutqida ham aks etadi. 2005-yil may oyida J.Bush "Demokratiyani yoyish ikkinchi prezidentlik muddatim davomida men uchun bosh vazifalardan biridir. Bugun ozodlik Er kurrasi bo'ylab mislsiz rivojlanish va yoyilish kasb etayotgan ekan – bu hali debocha xalos. ...Kavkazda, O'rta Osiyoda, qolaversa, hamma-hamma mintaqalarda millionlab odamlar bo'lajak buyuk o'zgarishlarni orziqib kutmoqda. Va albatta, ro'y beradi", deya ta'kidlagan edi.

Yaqin Sharq mintaqasini demokratlashtirish masalalaridagi yana bir muhim jihat mintaqadagi islomiy tashkilotlarga bo'lgan munosabatdir.

Chunki bu borada nazariyotchilar o'rtasida o'ziga hos qarama-qarshi fikrlarni uchratish mumkin. Bizga ma'lumki, 11- sentabr voqealarigacha mintaqani demokratlashtirish va islom ekstremizmi AQSh milliy xavfsizligining asosiy yo'nalishi sifatida e'tirof etilmas edi. Islomiy tashkilotlarga bo'lgan munosabat 11- sentabr voqealaridan keyin keskin o'zgardi. Mo'tadil islomiy qarashlarga ega bo'lgan tashkilotlarning mintaqa davlatlari siyosiy boshqaruvida ishtirokiga bo'lgan munosabat ham turlicha talqin etila boshlandi. Vashington Yaqin Sharq Institutining eksperti M.Kramer barcha islomiy tashkilotlarni radikal va demokratiyaga qarshi tashkilotlar sifatida baholaydi. D.Payps esa, islomiy guruhlarining siyosiy ishtirokini ta'minlash dushmanga yordam berishdir, deb baholaydi.

Bugungi kunda neokonservatorlar o'rtasida ham demokratlashtirish masalasida fikrlar qarama qarshiligi mavjud. Xususan, Amerikalik neokonservatorlardan F.Fukuyamaning ta'kidlashicha, eng avvalo davlat boshqaruv institutlari shakllantirilishi va modernizatsiyalashtirilishi lozim, ya'ni, armiya, politsiya, sud organlari, soliq xizmati, markaziy bank, sog'liqni saqlash tizimi, ta'lim va boshqalar. Hatto u neokonservativizmning taniqli vakillaridan biri bo'lishiga qaramay neokonservativizmning barcha masalalarga kirib borayotganligini tanqid qilib, bunday holatlarni qo'llab-quvvatlamasligini, J.Bush ma'muriyatining hatti-harakatini esa "asl" neokonservativ xususiyatga va asosga ega emas, deb ta'kidlagan. Shu bilan birga, u tomonidan ilgari surilgan "Tarixning intixosi" va butun dunyoda liberalizmning o'rnatilishi kontseptsiyasi tadqiqotchilar tomonidan haqqoniy voqelikdan yiroq, metafora sifatida qabul qilinmoqda.

Charlz Krautxammerning "agar demokratiya biz uchun yaxshi bo'lsa, demak, u boshqalar uchun ham yaxshi ekanligiga ishonishimiz kerak" chaqirig'iga qaramasdan, taniqli Amerikalik ekspertlar Z.Bjezinskiy va G.Kissenjerlar erkinlik va demokratiyani ilgari surish jarayonida shoshma-shosharlik va biryoqlamalik teskari natijaga olib kelishi to'g'risida ogohlantirganlar.

Amerikaning musulmon mamlakatlarini demokratlashtirish to'g'risidagi bayonotlarini (kichik J.Bush prezidentligi davrida) Bjezinskiy qo'llab-quvvatlasa-da, etiyotkorlikka chorlaydi. Har qanday ish mutaassiblar qo'lida teskari natija berishi mumkin. O'rta asrlarda mo'minlik va hamdardlik bilan sug'orilgan din inkvizitsiya dahshatini yaratdi. Gilotina frantsuz inqilobining "ozodlik, tenglik va birodarlik" timsoliga aylandi. Sotsializm idellari noinsoniy leninizm-stalizm qiyofasida qayta tug'ilgani sabab o'tgan asrda odamzodga misli ko'rilmagan uqubatlar keltirdi.

Demokratiyani ilgari surish mutaassiblarcha tirishqoqlik bilan, islomning tarixiy va madaniy an'analarini hisobga olmay kirishilsa, bu

demokratiya g'oyasining o'zini inkor etilishiga olib kelish mumkin. Ayrim islom davlatlari, ayniqsa, Turkiya, shuningdek, Marokash va Eron tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, demokratlashtirish yot kuchlar tomonidan dogmatik tarzda tiqishtirilmasdan uzviy rivojlanish natijasi bo'lsa, islom jamiyati asta-sekin demokratiyaning siyosiy madaniyatini qabul qiladi, deydi Z.Bjezinskiy.

Aslini olganda, demokratiyani ilgari surish g'oyasining o'zi, garchi Bjezinskiy umumiy tarzda uni yoqlasa-da, ilmiy jihatdan xato, amaliy jihatdan xavfli. Chunki barqarorlikni izdan chiqaradi, turli ijtimoiy qatlamlar o'rtasida to'qnashuvlarga sabab bo'ladi, mamlakatni qarama-qarshi guruhlarga bo'lib yuboradi. Shimoliy Afrika mamlakatlari, xususan, Misr, ayniqsa Liviya hamda Suriyada yuz bergan voqealar buni tasdiqlab turibdi. Qolaversa, qudratli davlatlarning xolisligiga nisbatan shubhani kuchaytiradi.

Yaqin Sharq mintaqasidagi davlatlarga turli xildagi moliyaviy yordamlar ko'rsatish ishlari davlat tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rila boshlandi. Bu borada AQSh Kongressi quyidagi isloxot dasturlarini moliyalashtirishga e'tibor qaratib keldi: MEPI (Middle East Partnership Initiative) – Davlat Kotibiyati dasturi hisoblanib, arab davlatlarida isloxotlar o'tkazishga qaratilgan. Bunda asosan jamiyatni demokratlashtirish, kichik biznesni qo'llab quvvatlash, siyosiy ishtirokni kengaytirish va ayollar huquqlarini ta'minlash maqsad qilingan; HRD (Human rights and Democracy Fund) – musulmon mamlakatlarida inson huquqlarini himoya qilishni moliyalashtiradi; NED (The National Endowment for Democracy) - demokratik loyiha bo'lib, butun dunyoda demokratik institutlarni kuchaytirish maqsad qilinadi. Bundan tashqari, Yaqin Sharq mintaqasida demokratiyani qo'llab-quvvatlovchilar sifatida quyidagi tashkilotlarni ko'rsatish mumkin: NDI (The National Democratic Institute for International Affairs) - Milliy demokratik instituti; IRI (The International Republican Institute) –Xalqaro Respublika instituti; MEPI (The Middle East Partnership Initiative) – Yaqin Sharq hamkorlik tashabbusi; USAID (The United States Agency for International Development) – AQSh halqaro rivojlanish agentligi va boshqalar. Ma'lumotlarga ko'ra bugungi kunda AQSh dunyo bo'ylab demokratiyani yoyish g'oyalariga xizmat qiladigan 350 dan ortiq dasturlarni qo'llab-quvvatlamogda.

Neokonservativ jamoani boshqargan kichik J.Bushning demokratiyani olg'a surish siyosati nafaqat xalqaro miqyosda balki AQShning o'zida ham keskin tanqidlarga uchradi. Bu siyosatning salbiy ta'sirlari borasida xavotirli bashoratlar bildirila boshlandi. Shunday talqinlardan biri liberal vilsonchilar oqiminiing taniqli vakillaridan bo'lgan J.Sorosga tegishlidir.

U neokonservatorlarga tanqidiy munosabatini bildirar ekan, J.Bushning demokratiya tahdidi AQShning “ochiq jamiyati” taqdiriga xavotir uyg’otadi. Bu borada AQShning sobiq prezidenti J.Karterning quyidagi fikrini keltirish o’rinli: “Bush va uning ma’muriyati tashqi siyosatda o’n yillar davomida amerikaliklar uchun asos bo’lgan ma’naviy-ahloqiy tamoyillarni qo’pol tarzda buzib, AQShning xalqaro obro’siga nihoyatda katta putur etkazdi. Endilikda ahvolni to’g’rilab olish uncha oson kechmasa kerak”.... Bjezinskiy “Los Anjeles tayms”dagi maqolasida britaniyalik mashhur tarixchi Arnold Toynbining “Tarixni o’rganish” asaridagi har qanday imperiyaning qulashiga davlat rahbarlarining xalokatga olib boruvchi xatti-harakatlari sabab bo’lgan, degan xulosaga to’la qo’shiladi. U Jorj Bush faoliyatining tarixiy yakuni imperiyaviy siyosat, o’zidan boshqalarni mensimaslik odatlari og’ir oqibatlariga olib keladi, deb hisoblaydi. Amerika demokratiyasining asoschilaridan biri Tomas Jefferson o’z davrida bugungi kun uchun ham ibratli bo’lgan quyidagi xulosani bejiz bayon qilmagan: “Hech bir mamlakat jahon afkor ommasini chinakam hurmat qilmasdan turib, o’z muammolarini echa olmaydi”.

Bularning barchasi demokratiyani eksport qilish siyosatining kommunistikni olamga yoyish uchun bo’lgan harakatlar kabi boshi berk ko’chaga kirib qolayotganini anglatadi. Dunyoga gegemonlik qilish, o’z andozalarini boshqalarga tiqishtirish, o’ziga mos tuzum va hukumatlarni zo’rlik va mablag’lar evaziga ushlab turish siyosati oxir-oqibat halokatli tugashi muqarrar.

Fukuyama neokonservatorlarni tanqid qilar ekan, ular demokratiyaning transformatsiyalashuvi, fuqarolik jamiyatini qo’llab-quvvatlash, yangi demokratiyalarni iqtisodiy rivojlantirish va harbiy holatdan keyingi davrdagi rivojlantirish dasturlari bilan emas, balki harbiy islohotlar va raketaga qarshi kurash muammolari bilan mashg’ul bo’lishdi. Neokonservatorlar o’z g’oyalarini qanday amaliyotda o’z tasdig’ini topish masalasini ochiq qoldirmoqda. Masalan, tuzumi o’zgartirilgan davlatlarda yangi demokratik institutlarni qanday qilib shakllantirish, bunday institutlar qanday sharoitlarda rivojlanadi va mustahkamlanadi, kabi savollarga aniq javoblar berilmadi. Umuman, ularning siyosiy falsafasi anchayin amaliyotdan uzoqdir.

Umuman, AQShning Yaqin Sharqdagi manfaatlarini kontseptsiyalarining ilgari surilishi, erkinlik va demokratiya g’oyalarining targ’iboti mintaqadagi ijtimoiy-siyosiy holatning o’zgarishiga sabab bo’lmoqda. Geoiqtisodiy va geosiyosiy maqsadlar uchun insoniyat mafkurasi va ma’naviyatini o’zgartirishga bo’lgan urinishlarning asosiy sabablari bugungi kunda yaqqol ko’zga tashlanmoqda. AQSh

neokonservatorlarining Yaqin Sharqni demokratlashtirish kontseptsiyalarining salbiy xususiyati shundaki, ular mintaqa davlatlari ichki ishlariga aralashish va davlatlarning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari, mentaliteti kabi omillarga etarlicha e'tibor berishmaydi. Natijada ularning asosiy maqsadi jamiyatni erkinlashtirish emas, balki geosiyosiy va geoiqtisodiy maqsadlarini amalga oshiruvchi va AQSh gegemonligini taminlovchi vosita sifatida talqin etilishiga asos bo'ladi.

Neokonservativ gegemonizm mafkurasi XX asrning oxiri XXI asr boshlaridagi AQSh tashqi siyosati strategiyasi shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omil bo'lib, dunyoviy hukmronlik agressiv tashqi siyosat yuritish sharoitini yaratdi. Nafaqat harbiy kuchlardan foydalanish balki, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy ta'sir o'tkazish usullaridani foydalanish ham gegemonlik mafkurasi va strategiyasi amaliyotida keng foydalanila boshlandi. Gegemonlik chaqirig'iga sabab bo'luvchi omillar qatorida energetik xavfsizlik omilini o'rni ortib, deyarli barcha tashqi siyosiy ekspantsiyalar mazkur omil bilan bevosita va ba'zan bilvosita bog'liqlikka ega bo'ldi. Gegemonlik mafkurasi asosidagi tashqi siyosiy kontseptsiyalarning muvofaqiyati va AQShning dunyoviy qudratga erishishi bilan bog'liq qarama-qarshi qarashlar shakllanib, yangi asrning dastlabki o'n yilligida dunyoviy hukmronlikdan etakchilikka chaqiriqlari ortmoqda.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Zamonaviy dunyoda AQShning yuksalishida geografik omilning roli qanday?

2. Zamonaviy bosqichda AQShning asosiy tashqi siyosiy yo'nalishi qanday?

3. "AQSh va zamonaviy dunyo tartiboti" mavzusini muhokama qilish.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. "AQShning siyosiy institutlari va siyosiy amaliyotiga tarixning tasiri" mavzusida ma'ruza tayyorlang.

2. "AQShda ijtimoiy siyosat nimaga yo'naltirilgan" mavzusida habar tayyorlang.

3. "AQSh va jahon moliyaviy inqirozi" mavzusida ma'ruza tayyorlang.

4. "2006 yilgi Milliy xavfsizlik strategiyasining asosiy tutgan o'rni nimada" mavzusida prezentatsiya tayyorlang.

5. "Barak Obama-AQShning yangi prezidenti" mavzusida prezentatsiya tayyorlang.

9-BOB. ROSSIYA FEDERATSIYASI ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA

9.1. Rossiya Federatsiyasining jahon hamjamiyatidagi roli

Dars maqsadi:

- talabalar Rossiya Federatsiyasining zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rnini borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari borasida to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlari singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *Yevrosiyo, MDH, "RFning tashqi siyosiy konsepsiyasi", "RF milliy xavfsizlik konsepsiyasi", "RF harbiy Doktrinasi".*

Rossiya Federatsiyasi jahon siyosatida yetakchi kuch markazlaridan biri bo'lib, rus olimlarini ta'kidlashlaricha "buyuk davlat" sifatida Rossiya 250 yillik tarixga ega. Shu jihatdan jahonda yangi siyosiy tartibotning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsata olish potensialiga egadir. Bu, eng avvalo, xalqaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Rossiyaning tashqi siyosiy resurslari bilan belgilanadi. Ushbu resurslar tarkibiga rus olimi G.A. Drobot e'tirof etganidek, geografik, demografik, iqtisodiy va harbiy resurslarni keltirish mumkin. Bu resurslar moddiy xarakterga ega bo'lib, nomoddiy resurslar siyosiy, ijtimoiy, mafkuraviy, madaniy, informasion va ilmiy-texnakaviy resurslardan iborat.

Qisqacha Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosiy resurslariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Rossiya geografik jihatdan dunyodagi eng katta hududga ega - 17.075.200 km kv. Bu yer sharidagi quruqlikning 1/8 qismini tashkil etadi. Jahonning strategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan Yaqin Sharq, Yevropa, Markaziy Osiyo, Uzoq Sharq mintaqalari bilan tutash chegaralarga ega va ko'plab dengizga chiqish portlari mavjud. Sharq va G'arb davlatlarini bir biri bilan bog'lab turish vazifalaridan birini bajaradi.

Rossiyaning demografik holatiga ko'ra aholisi 2008-yil iyuldagi ma'lumotlarga binoan 140,702,096ni tashkil etib, bu jihatda jahonda yettinchi o'rinda turadi. Biroq aholi o'sishi yildan yilga kamayib bormoqda, bu ko'rsatkich 2008-yilda - 0,474%ga teng bo'lgan.

Iqtisodiy potensialiga ko'ra, Rossiya tez taraqqiy etib borayotgan davlatlardan biridir. YaIM 2007-yilda 129 mlrd.dollarni tashkil etgan.

Asosiy eksport hamkorlari Niderlandiya - 12.2%, Italiya - 7.8%, Germaniya -7.5%, Turkiya - 5.2%, Belarus - 5%, Ukraina - 4.7%, Xitoy - 4.5% (2007) va import hamkorlari Germaniya - 13.3%, Xitoy - 12.2%, Ukraina - 6.7%, Yaponiya -6.4%, AQSh - 4.8%, Belarus - 4.4%, Janubiy Koreya - 4.4%, (2007). Shuningdek, Rossiyaning iqtisodiy jihatdan jadal suratda o'sishiga uning ulkan boyliklarga ega ekanligi, xususan, energetikaga talab va bahosining oshib borishidir. Bugungi kunda mamlakat neft zaxirasi 60 mlrd. barrel va tabiiy gaz zaxirasi esa 47,57 trln. kub m. (2008-yil 1-yanvar). Jahon jamiyati neft eksportining 15% Rossiya hissasiga to'g'ri keladi va bu jihatdan Saudiya Arabistonidan (16,1%) so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Biroq ta'kidlash joizki, Rossiya eksporti va YaIMning katta qismi xom ashyo daromatiga to'g'ri kelishi, Rossiya FA xalqaro xavfsizlik Markazi direktori A.Arbatov ta'kidlaganidek, uning jahon siyosiy maydonida barqaror rolini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa bugungi jahon iqtisodiy inqirozi va neft narxining keskin tushib ketgan davrida.

Tashqi va xavfsizlik siyosatida hal qiluvchi omil bo'lgan Rossiya harbiy potensialiga to'xtaladigan bo'lsak, bu borada Rossiya jahonda ikki harbiy qudratli davlatlardan biridir. Hozirgi davrda jahondagi yadroviy qurol zaxirasining 95% AQSh va Rossiyaga tegishlidir. Garchi sobiq Ittifoq parchalangandan so'ng harbiy xarajatlar qisqarganiga qaramay, 2007-yilda harbiy xarajatlar 35,4 mlrd. dollarni tashkil etgan, bu jahondagi shu sohada umumiy xarajatlarning 3% tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha dunyoda yettinchi o'rinda turadi. Stokgolm xalqaro tinchlikni tadqiq etish instituti (SIPRI)ning 2007-yilgi dokladiga binoan jahon qurol yaroq bozorida Rossiya ulushi 25%ni tashkil etgan (AQSh-31%). 2003 – 2007-yil umumiy yetkazib berilgan qurollarning 45% Xitoy, 22% Hindiston, 5% Venesuela va 4% Jazoir hissasiga to'g'ri kelgan.

XX asrning so'ngi o'n yilligi va XXI asrning boshlaridagi jahon siyosiy maydonidagi keskin o'zgarishlar: ikki qutbli dunyo tartibotining barham topishi, Sobiq SSSR va Varshava tashkilotining parchalanishi, global xarakterdagi muammolarning vujudga kelishi, xalqaro xavfsizlikka tahdidning yangi ko'rinishlarining yuzaga kelishi, xalqaro munosabatlar tizimida yangi yetakchilikka da'vogar kuch markazlarining shakllanishi Rossiya tashqi siyosatini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy davr talablariga moslashtirish zarurati tug'ildi. Bu esa tashqi siyosatning yangi huquqiy asoslarining yaratilishiga zamin yaratdi.

Rossiya tashqi siyosatining huquqiy asoslari sifatida xalqaro ko'p va ikki tomonlama shartnomalardan tashqari quyidagi hujjatlarni keltirish mumkin:

- Eng avvalo, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi (1993-yil 12-dekabr);
- Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosiy konsepsiyasi (12-iyul 2008-yil);
- Rossiya Federatsiyasi milliy xavfsizlik Konsepsiyasi (2000-yil 10-yanvar);
- Rossiya Federatsiyasi harbiy Doktrinasi;
- 2020-yilgacha davrdagi Rossiya Federatsiyasi dengiz Doktrinasi (2004-yil 18-avgust);
- Rossiya Federatsiyasi axborot xavfsizligi Doktrinasi (2000-yil 20-yanvar);
- xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik sohasida Rossiya Federatsiyasi davlat siyosati Konsepsiyasi (2000-yil 20-yanvar);
- Rossiya Federatsiyasi ekologik doktrinasi;
- Rossiyaning Mustaqil davlatlar hamdo'stligi ishtirokchi davlatlari bilan strategik Kursi;
- Rossiya Federatsiyasi davlat milliy siyosati Konsepsiyasi va boshqa hujjatlar.

Ma'lumki, Rossiya tashqi siyosatining ustivor yo'nalishlari va bu boradagi faoliyatining shakllanishida yuqorida keltirilgan, boshqa bir qator xalqaro va milliy qonunchilik me'yorlari huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, 2008-yil 12-iyulda Prezident D.Medvedev tomonidan tasdiqlangan "Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosiy Konsepsiyasi"da Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosiy prinsiplari va ustivor yo'nalishlari, uning mohiyati belgilab berilgan. Konsepsiyaga muvofiq, Rossiyaning xalqaro maydonda va global muammolarni hal qilish tashqi siyosiy ustivor yo'nalishlari (prioritetlari) sifatida quyidagilar belgilab berilgan:

1. Yangi jahon tuzilmasini tashkil etish. Bu sistema jahon hamjamiyatining har bir a'zosiga siyosiy, iqtisodiy, harbiy, informasion, gumanitar va boshqa sohalarda ishonchli va tenglik tamoyiliga asoslangan xavfsizlikni ta'minlashga da'vat qilishdan iborat. Uning bosh instrumenti ko'p tomonlama diplomatiya belgilangan. BMT xalqaro munosabatlarni boshqarish va tartibga solishdagi rolini oshirishga aloxida to'xtalib o'tilgan;
2. Xalqaro munosabatlarda huquq ustuvorligini ta'minlash;
3. Xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash;
4. Xalqaro iqtisodiy va ekologik hamkorlikni kuchaytirish;
5. Xalqaro gumanitar hamkorlik va inson huquqlari ustivorligini ta'minlash;
6. tashqi siyosiy faoliyatni axborot bilan ta'minlash;

Shuningdek, ushbu konsepsiyada Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatining mintaqaviy ustivor yoʻnalishlari borasida ham toʻxtalib oʻtilgan. Ular orasida quyidagilarni ajratib koʻrsatish mumkin:

—MDH davlatlari bilan ikki va koʻp tomonlama aloqalarni mustahkamlash (shuningdek, Yevrosiyo, KXShT va ShHTdoirasida);

—Qora dengiz va Kaspiy dengizi qirgʻogʻidagi davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

—Yevropa yoʻnalishi – shuningdek, YeXHT va Yevropa Kengashi doirasidagi aloqalar;

—Yevropa Ittifoqi bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish. Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Finlandiya, Gresiya, Niderlandiya, Norvegiya va boshqa bir qator Gʻarbiy Yevropa davlatlari bilan oʻzaro foydali ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish;

—Arktika va Yevropa Artika mintaqasida Shimoliy Yevropa bilan qoʻshma loyihalarni amalga oshirish;

—AQSh, NATO va Rossiya Kengashi doirasida munosabatlarni rivojlantirish;

—ATR mamlakatlari, ASEAN, Xitoy va Hindiston bilan kelgusi hamkorlikni rivojlantirish;

—Yaqin Sharq, musulmon mamlakatlari, Afrika va Lotin Amerika davlatlari bilan oʻzaro hamkorlikni kuchaytirish.

Bevosita 1990-yillardan boshlab, Rossiya tashqi siyosati tendensiyasini tahlil qiladigan boʻlsak, rus olimi G.A. Drobot taʼkidlaganidek zamonaviy Rossiya tashqi siyosatini uch bosqichga boʻlish mumkin:

Birinchi bosqich. Rossiya tashqi siyosatining bu bosqichi 1980-yillar oxirida sovuq urushi barham topishi, Vashington Shartnomasi tashkilotining tugashi, Sovet Ittifoqining parchalanishi bilan boshlangan. Bir necha yillar davomida, yaʼni 1990-yillar ikkinchi yarmiga qadar demokratik tizimga oʻtish rivojlandi. Gʻarbda “demokratik Rossiya endi bizga dushman emas” holati vujudga kela boshladi va oʻzaro qarama qarshilik, nizolar uchun sabab boʻlgan bosh omillar tugadi deyish mumkin. Bir qator tahlilchilar nazdida, Rossiya AQSh yetakchilik qilayotgan Gʻarb dunyosiga birlashib ketdi degan qarashlar ham yuzaga keldi.

Rossiyada ham liberal xarakterga ega davlat rahbari B.Elsin va tashqi ishlar vaziri A.Kozirev davrida Gʻarb bilan, xususan, AQSh bilan doʻstona aloqalar ikki yoʻnalishda: iqtisodiy va harbiy siyosiy yoʻnalishda rivojlandi. 1992-yil boshida Rossiya tomoni AQSh bilan aloqalarda ochiqlikni namoyon etdi. Prezident B.El'sin rasmiy ravishda mamlakatning yadroviy qurollari AQSh territoriyasiga yoʻnaltirilmasligini bildirgan. Rossiya iqtisodiy islohatlar uchun 1990-yillarda Gʻarbning katta moliyaviy yordamlaridan foydalandi. Natijada barcha muhim xalqaro

masalalar, jumladan qurollanish bo'yicha muzokaralarda, Rossiyaning AQSh tashqi siyosati ta'siriga berildi deyish mumkin.

Bu davrda Rossiyaning rolini tushishi va uning muhim xalqaro muammolarda AQShga yon berishini ikki omil orqali izohlash mumkin:

Birinchidan, mamlakatda aniq va puxta ishlab chiqilmagan islohotlar natijasida dastavval Rossiyaning iqtisodiy va harbiy potentsiali sezilarli darajada tushib ketishi;

Ikkinchidan, Rossiyaning iqtisodiy, harbiy va texnikaviy qudratining tushib ketishi, uning xalqaro maydondagi obro'sining tushiga olib keldi. Boshqacha aytganda, ikki qutbli davrdagi ta'sirini boy berganligidir. Masalan, 1999-yil Yugoslaviya inqarozida G'arbga ta'sir o'tkaza olmaganligi.

Bugungi kunda solishtiradigan bo'lsak, Rossiyaning tashqi siyosatga ajratayotgan xarajati past ko'rsatkichda qolmoqda. Tashqi siyosatga AQSh - 300 mlrd. dollar, Yaponiya - 50 mlrd. atrofida, Angliya - 40 mlrd.ga yaqin, Rossiya esa - 8 mlrd.dollar sarflaydi.

Ikkinchi bosqich. Rossiya tashqi siyosatining ikkinchi bosqichi o'tgan asrning so'nggida boshlandi. Sabab NATONing Sharqqa kengayishi bilan bog'liq birinchi muzokaralarning boshlanishi va Alyansning Yugoslaviya (1999)ga qarshi agressiyasi bilan bog'liq. Bu Rossiya tashqi siyosati uchun jiddiy zarba edi.

Shuning uchun ham aytish mumkinki, 1996-yil oxiridan boshlab Rossiya tashqi siyosatidagi bosh muammo NATONing sharqqa kengayishidir. NATOga post sovet mamlakatlarini qabul qilishning birinchi to'lqini 1997-yil iyulda NATONing Ispaniyaning Madrid shahridagi kengashida Polsha, Vengriya va Chexiyani qabul qilish borasida qaror qabul qilingan va bu jarayon 1999-yilda nihoyasiga yetgan edi. Bu mamlakatlardagi qayta qurollanish va harbiy infrastrukturani tiklash uchun 10-15 mlrd.dollar ajratilishi ham hisobga olindi.

Mazkur davrdagi muhim jihatlardan yana biri jahon siyosatida yana bir kuchli aktor - Xitoyning tasiri kuchaya boshlaganidir. 1990-yillar oxiridan - Den Syaopin boshlagan islohotlardan taxminan yigirma yildan so'ng - jahon hamjamiyati e'tiborini XXRga qaratishdi. Iqtisodiy qudrati oshgan Xitoyning harbiy potentsialini modernizatsiya qilishga o'tishi, mamlakat xalqaro munosabatlarning yangi davrida jiddiy omilga aylandi.

Rossiya tashqi siyosatining yangi davri boshlanishini aniqlab bergan omillardan biri AQShning 1900-2000-yillarda xalqaro munosabatlardagi rolining o'zgarganligi va yagona yetakchi pozitsiyasini egallashga urinishi bilan xarakterlanadi. Rossiyaning o'z muammolari doirasida qolganligi, Xitoyning yetarlicha raqobatbordosh emasligi, Yevropa ittifoqi va Yaponiyaning AQSh bilan birgaligi Amerikaning dunyoda gegomonlikka

intilishiga olib keldi. Shu davrdan boshlab, AQSh “o‘z yo‘lidan yurish”ni sinab ko‘rmoqda, qolgan davlatlar u bilan hisoblashishi zarur, degan fikrni bildirgan olim G.A.Drobot.

Rossiya tashqi siyosatining ikkinchi davri boshlanishi amaliyotda Rossiya Prezidenti sifatida 2000-yilda V.Putinning saylanishi bilan bog‘liq. Uning tashqi siyosatini buyuk davlatchilik tamoyiliga asoslangan deyish mumkin va ikki muhim tarkibiy qismini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

Birinchidan, Rossiya tashqi siyosiy yo‘nalishini qayta tashkil etish, shuningdek, zamonaviy dunyoda yetakchi kuch markazlarining katta qismi bilan, shu jumladan AQSh, YeI, Xitoy, Hindiston, Lotin Amerika davlatlari va Yaqin Sharq bilan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa sohalarda aloqalarni qo‘llab-quvvatlash.

Ikkinchidan, jahonda AQSh gegomonligiga yo‘l qo‘ymaslik siyosatidan borish, 1990-yil oxiridan, tashqi ishlar vaziri Ye.Primakov bo‘lgan davrdan, boshlangan. Jorj Mason Universiteti professori M.N. Katsning ta’kilashicha, Rossiyaning hozirgi prezidenti D.Medvedev va sobiq prezident V.Putinning tashqi siyosati AQSh “gegemoniyasi” va “bir qutbli dunyo” g‘oyasi ta’sirini kamaytirishga urinishmoqda va ko‘p qutbli dunyo tartibotida Rossiyani yirik qudratli davlatga aylantirishga urinishmoqda.

Ye.Primakov bilan Rossiyaning buyuk davlat maqomini saqlashga kelishgan holda, V.Putin G‘arb tomonidan bo‘ladigan taxdidlar ta’sirini kamaytirishga e’tibor qaratdi. Shu bilan birga u Yevropa davlatlari va AQSh bilan hamkorlikni rivojlantirishga urindi.

V.Putin Rossiyaning o‘ziga xos xususiyatlari uning Osiyo davlati emas, Yevropa davlati sifatida qolishini tasdiqladi. Bu boradagi ko‘plab qiyinchiliklarga qaramasdan, Prezident o‘zining ikkinchi prezidentlik davrida (2004-2008) Rossiyaning Yevropa davlati sifatida qolishini ta’minlashda davom etdi. Professor S.N. Kortunov fikricha, Rossiyaning yaqin kelajakdagi muhim milliy va uzoq muddatli manfaatlari - G‘arbgaga maksimal darajada siyosiy va iqtisodiy jihatdan yaqinlashishi va yagona yevroatlantik makonni shakllantirishdir. Shuning uchun Prezident D.Medvedev yangi tashqi siyosiy kursda Yevropa vektori bosh vektor sifatida ta’kidlangan.

Uchinchi bosqich. Rossiya tashqi siyosatining uchinchi bosqichini Prezident V.Putinning 2007-yil fevralda Myunxen shahrida bo‘lib o‘tgan Xavfsizlik bo‘yicha konferensiyada chiqishi bilan bog‘lash mumkin. Bu davr norasmiy tarzda “xujumkor davr” deb nomlandi va asosiy jihatlari quydagilardan iborat:

1. AQSh dunyoga bir nizo ketidan boshqasini olib kelayotgan tashqi siyosatini keskin tanqid qilish. So‘z bu borada, eng avvalo, Iroq

muammosi, Eronga urush bilan tahdid qilish haqida bormoqda. Rossiya AQShning BMTning jahonda harbiy xavfsizlik masalasini bee'tibor qoldirishda va Yevropada o'rnatishni rejalashtirayotgan RXQMT(PRO) masalasida tanqid qildi.

2. Yevropa yo'nalishida Rossiya Yevropada odatiy qurolliy kuchlar to'g'risidagi shartnoma (DOVSE)ni ishtirokchilar tomonidan amali sust ketayotganlikda aybladi. 2007-yil dekabrda DOVSEda ishtirok etishga monotoriy e'lon qildi. Bundan tashqari Rossiya Yevropada energetik xavfsizlik bo'yicha o'zining siyosatini qat'iy belgilab oldi. Shuningdek, YeXHT ga MDH hududida Rossiya manfaatlariga qarshi "demokratlashtirish"ni qo'llab-quvvatlash orqali faoliyat olib borayotganligi uchun badal pulini to'lashni to'xtatishini e'lon qildi.

3. Yaqin Sharqda Rossiya Falastindagi G'arb tomonidan terrorchi tashkilot sifatida e'lon qilingan yetakchi XAMAS tashkiloti bilan rasmiy munosabatlar o'rnatdi. Markaziy Osiyoda Rossiya tinchlik yo'lida Eron bilan yadroviy texnologiya borasida aloqalarni qo'llab quvvatladi.

Bugungi kunda Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, O'zbekiston bilan aloqalar tobora keng rivojlanib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 4mlrd.dollardan ga teng bo'lib, bu ko'rsatgich yiliga jadal suratlar bilan o'sib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik huquqiy asoslari sifatida 1992-yil 30-mayda imzolangan O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi davlatlararo munosabatlar, do'stlik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi shartnoma, 2005-yil 16-iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi strategik hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, 2005-yil 14-noyabrdagi ikki davlat o'rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomalarni keltirish mumkin. Bu esa O'zbekiston Rossiya tashqi siyosatining muxim yo'nalishi sifatida qolishini anglatadi.

Umuman aytganda 1990-yillarda dunyodagi ikki qutbli tizimning parchalanishi, Rossiya tashqi siyosatida yangi davrni ochilishga olib keldi. Bu davrda Rossiya tashqi siyosatining huquqiy asoslarini va ustuvor yo'nalishlarini belgilab beruchi "Rossiya Federatsiyasining tashqi siyosiy konsepsiyasi", "Rossiya Federatsiyasi milliy xavfsizlik konsepsiyasi", "Rossiya Federatsiyasi harbiy Doktrinasi", "Rossiyaning Mustaqil davlatlar hamdo'stligi ishtirokchi davlatlari bilan strategik Kursi" kabi bir qator xujjatlar qabul qilindi. Shuningdek, XXI asrda Rossiyaning jahondagi mavjud va shakllanib kelayotgan kuch markazlari bilan iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ilmiy texnikaviy va madaniy sohalarda aloqalari kuchaydi, tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida MDH davlatlari, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari bilan teng huquqli munosabatlar mustahkamlandi, jahondagi muammolarni hal qilishdagi roli oshdi.

Bularning barchasi Rossiyaning ko'p qutbli dunyo tartibotining shakllanishida yetakchi aktor bo'lib qolishini ko'rsatadi.

9.2. Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatida Yaqin Sharq mintaqasining o'rni

Dars maqsadi:

- talabalar Rossiya Federatsiyasining zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari borasida to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *“Katta Yaqin Sharq”, “Yangi Yaqin Sharq”, “RFning tashqi siyosiy konsepsiyasi”, “RF milliy xafsizlik konsepsiyasi”, “RF harbiy Doktrinasi”.*

Ikki asr chegarasida jahon siyosiy maydonida ro'y bergan o'zgarishlar: ikki raqobatdosh lagerning parchalanishi, ya'ni ikki qutbli tartibotning barham topishi davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning yangicha shaklining yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va turli sohalardagi aloqalarda bog'liqlik kuchayib bormoqda. Bu tarkibi kengayib borayotgan global tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish imkonini ham bermoqda. Shuningdek, globallashuv xalqaro munosabatlarda nodavlat aktorlarning faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bu bir tomondan, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi faqatgina davlatlar o'rtasida hamkorlik va ularning manfaatlari ta'siri ostida rivojlanishini cheklasa, ikkinchi tomondan, xalqaro xavfsizlikni ta'minlash muammosining ortishi va yangi tahdidlarning kuchayishida nodavlat aktorlarning (uyushgan jinoyatchilik, terroristik, ayirmachilik guruhlar) o'rni oshib bormoqda. Shuningdek, xalqaro munosabatlarning bosh aktorlari sifatida bugungi kunda ham davlatlar hisoblanishadi. Ko'p qutbli dunyo tartibotining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsata oladigan yangi kuch markazlari Xitoy, Hindiston, Braziliyalarning roli oshib bormoqda. AQSh Xalqaro munosabatlar bo'yicha kengashi prezidenti R.Xaasning e'tiroficha, jahondagi asosiy kuch markazlari Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Hindiston, Rossiya, AQSh va Yaponiya. Ushbu mamlakatlar hududida dunyo aholisining yarmi istiqomat qiladi. Ular hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 75%i va jahon harbiy xarajatlarining 80%i to'g'ri keladi. Bugun va kelajakda jahon

tinchlik va baqarorlikning ta'minlanishi mazkur yetakchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va ular bilan uchinchi dunyo mamlakatlari bilan do'stona aloqalariga bog'liq.

Jahon siyosatiga kuchli ta'sir o'tkazadigan qudratli davlatlardan biri Rossiya Federativ Respublikasidir. Hozirgi kunda Rossiyaning iqtisodiy va harbiy siyosiy jihatdan taraqqiy etib borishi xalqaro munosabatlarda ta'sirini yana kengroq oshishiga olib kelmoqda:

Birinchiidan, Rossiya BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy va "Katta sakkizlik" a'zosi, rasmiy yadroviy qurolga ega besh davlatdan biri, dunyoda harbiy sohada qudratli bo'lgan ikki davlatdan biri (AQSh va Rossiya). Siyosatshunos R.T. Muxaev ta'kidlaganidek, xalqaro munosabatlarda Rossiya bilan hisoblashishga majbur etadigan omillardan biri uning yirik yadroviy potensialga egaligidir.

Ikkinchiidan, mamlakatning jahon siyosatiga toboro ta'siri oshib borayotgan yirik energetika resurslariga va tabiiy boyliklarga egaligidir.

Uchinchiidan, qulay geostrategik hududda joylashganidir. Rossiyaning ulkan hududi (quruqlikning 1/8 qismi) G'arb va Sharqni bog'lash "koridori" vazifasini bajarmoqda.

To'rtinchiidan, jahonning turli mintaqalarida, xususan, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropada va boshqa mintaqalarda xavfsizlikning ta'minlanishi, barqaror vaziyatning shakllanishi, kuchlar muvozanatining saqlanishi va davlatlar o'rtasidagi turli nizo va kelishmovchiliklarni hal etishda Rossiya hal qiluvchi rollardan birini o'ynaydi.

Ma'lumki, zamonaviy xalqaro munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri yagona bir xom ashyo turi - energetika resurslarining davlatlar o'rtasidagi qarama qarshilik manbaiga aylanishidir. Ana shunday energetika zaxiralariga eng boy hudud bugungi kunda Yaqin Sharq mintaqasi bo'lib, Yaqin Sharq jahon neft zaxirasining 61,7%iga va tabiiy gaz zaxirasining 40,6%iga egalik qiladi. Bundan tashqari mintaqada dunyo aholisining 6% i yashaydi, biroq jahondagi nizolarning 35% shu mintaqaga tegishlidir. Shuningdek, mintaqa birinchiidan, qulay geografik joylashuvga egaligi, ikkinchiidan, uch asosiy jahon dinlari: islom, xristian va yaxudiy dinlarining vujudga kelgan markazi sifatida ham dunyoda yetakchilik uchun kurashayotgan va jahon siyosatida o'z ta'sirini saqlab qolishga intilayotgan davlatlarning diqqat e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda. Shu jumladan, Rossiya Federatsiyasi ham.

Yaqin Sharq bevosita Rossiya ta'sir zonasi chegarasida joylashgan bo'lib, mintaqadagi beqarorlik va yetakchi davlatlarning siyosati, mamlakatlar ichki ishlariga aralashuvi jarayoni kuchayishi Rossiya milliy manfaatlarini zid deb baholash mumkin. Shuning uchun Rossiyaning Yaqin Sharqdagi rolining oshib borishi va mintaqada kuchlar nisbatining aks

etishiga tasiri Rossiya davlati, balki Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham juda ahamiyatli.

Markaziy Osiyo mintaqasi bevosita Yaqin Sharqqa tutash mintaqaga hisoblanib, u yerdagi nizolarning saqlanib qolishi va davom etishi mintaqaga xavfsizligiga, jumladan, O'zbekiston xavfsizligi uchun ham xavf solish ehtimoli katta. Ularni G'arb olimi Z.Bzejnskiy tomonidan ishlab chiqilgan "Evrosiyo bolqoni" konsepsiyasi, AQSh hukumatining "Katta Yaqin Sharq" va "Yangi Yaqin Sharq" strategiyalari, rus olimlari tomonidan ilgari surilayotgan Rossiya "Yangi Yaqin Sharqi", Afg'oniston, Eron, Pokiston atrofidagi muammolarida ko'rish mumkin.

Rossiya Markaziy Osiyo davlatlarining strategik va ittifoqdosh hamkoridir, shuningdek mintaqada kechayotgan jarayonlarda ta'siri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan kuch markazidir. O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "... xalqaro maydonda olib borilayotgan siyosat to'g'risida gapiradigan bo'lsam, Rossiya qudratli davlat, Rossiyaga suyanadigan, Rossiyaning imkoniyatlariga, salohiyatiga suyanadigan davlatlar juda ko'p. Bugun dunyoda bo'layotgan xalqaro siyosatni inobatga olsak, dunyodagi katta-katta muammolar Rossiya ta'sirisiz, Rossiya davlati qatnashmasdan hal qilinmaydi. Mana, Yaqin Sharqni olaylik. Falastin-Isroil mojarosi necha yildan beri bo'layapti. Dunyoning boshqa joylarini ko'ringlar. Rossiya siyosatda faol qatnashadi. Boshqa davlatlar Rossiya siyosatini inobatga oladi"⁵.

Rossiyaning Yaqin Sharqdagi siyosati Markaziy Osiyo davlatlari uchun qanday oqibatlariga olib kelishi bilan ahamiyatli.

Umuman aytganda, Rossiyaning Yaqin Sharq siyosati uzoq tarixga ega bo'lib, Rossiyaning Yaqin Sharq bilan hamkorligi ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng AQShning mintaqadagi ta'sirini kamaytirish bilan boshlandi. Turli davrlarda Turkiya bilan aloqalari rivojlandi. O'tgan asrning 80-yillari oxiridan Bahrayn, Quvayt, Misr, Iordaniya va Saudiya Arabistoni shuningdek, mintaqadagi AQShning eng yaqin ittifoqchisi Isroil bilan aloqalari rivojlanib bordi. 1987-yil sobiq Ittifoq Kuvaytning kemalarini Fors ko'rfazida Eron hujumidan himoya qildi va Isroil bilan konsullik aloqalarni yo'lga qo'ydi. Liviya, Suriya va Yaman bilan ham aloqalar faollashdi. Biroq Sovet Ittifoqining oxirgi davrlarida Liviya, Iroq, Falastin ozodlik tashkiloti va Kuvaytga nisbatan ta'siri susaya boshladi. 1990-yillar Iroq bilan do'stlik shartnomasi bo'lishiga qaramay sobiq Ittifoq AQSh boshliq xalqaro kaolisyaning Kuvaytni ozod qilishini qo'llab-quvvatladi.

Rossiya Harbiy fanlar akademiyasi professori N.P. Romashkinaning ta'kidlashicha, Yaqin Sharqning bugun xalqaro siyosatidagi rolining ortib

⁵ Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - T.:O'zbekiston, 2001. 9-jild. 305-bet

borishiga va jahon hamjamiyatining diqqat markaziga tushushiga sabab bo'layotgan bir necha omillar mavjud:

- Eng avvalo, jahon iqtisodiyotini ulkan energiya bilan ta'minlash uchun mintaqaning geostrategik ahamiyati. Zamonaviy davrda Yaqin Sharqda jahon neft zaxirasining 61,7%i va tabiiy gaz zaxirasining 40,6%i jamlangan. AQSh Energetika Departamenti tahliliga ko'ra, jahonda energetika mahsulotiga bo'lgan talab 1993- va 2015-yil oralig'ida 50%ga ortadi. Bu esa mintaqaning qudratli davlatlar manfaatlari to'qnashuv zonasi sifatida rolini yanada oshiradi;

- mintaqa davlatlarining kapital joylashtirish, mahsulot import qilish, harbiy va texnikaviy, shuningdek, rivojlangan davlatlarning texnologiyalari uchun bozor sifatidagi roliga egaligi;

- mintaqadagi davlatlar guruhining AQSh va G'arbiy Yevropaning moliyaviy donori sifatida ahamiyatining kattaligi (G'arb banklarida bugungi kunda faqatgina Saudiya Arabistonining taxminan 500 mlrd.dolarga yaqin mablag'lari saqlanmoqda);

- Zamonaviy jamiyatda dunyoning turli mintaqalarida siyosatlashib borayotgan, jumladan, Rossiyada ham islom dinining roli va o'rnining o'sib borishi. Ma'lumot o'rnida ta'kidlash joizki, Yaqin Sharq dunyo aholisining deyarli yarmi istiqomat qiladigan uch eng yirik jahon dinlari: Islom, Yahudiy va Xristian dinlarining kelib chiqish markazi hisoblanadi.

- Zamonaviy globallashtirish ta'hdidi sharoitida muhim ahamiyatga ega bo'lgan Yaqin va O'rta Sharq davlatlarining milliy davlat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha konseptual yondashuvlari va uning oqibatlari;

- Ikkinchi jahon urushidan so'ng mintaqaviy keskin va davomli nizolarning biri bo'lgan - Arab - Isroil nizosining hal qilinmayotgani va so'nggi yillar ichida jahon aholisining atiga 6%, nizolarining esa 35%i aynan Yaqin Sharq mintaqasi hissasiga to'g'ri kelishi;

- Fuqarolik urushiga yaqin bo'lgan Iroqdagi vaziyat;

- Yaqin va O'rta Sharqdagi ommaviy qirg'in qurollar ta'hdidi va uning jahonning turli mintaqalariga yoyilish xavfi. Masalan, Eron tevaragidagi muammolar yoki Saudiya Arabistonining bu boradagi siyosati. 2006-yil martda AQSh, Isroil va Germaniya maxsus xizmatlari ma'lumotiga ko'ra, Pokiston ekspertlari Saudiya Arabistoniga yadroviy dasturlarni rivojlantirishga yordam berish uchun tashrif buyurdi. Saudiya Arabistoni ham o'z o'rnida Pokiston yadroviy dasturini mablag' bilan ta'minlagan;

- Mintaqa davlatlari hududida yirik xalqaro terroristik bazalarning joylashganligi muammosi;

- Geostrategik jihatdan qulay joyda joylashganligi. Yaqin Sharq uch kontinent: Osiyo, Afrika va Yevropaning kesishgan mintaqasida joylashgan. Bundan tashqari Yaqin Sharq mintaqasi jahonning muhim

transport koridori hisoblanadi. Aynan shu yerda Atlantika va Hind okeanini bir biriga bog'laydigan muhim geostrategik ahamiyatga ega bo'lgan Suvaysh kanali joylashgan hamda shu mintaqa davlatlari qulay dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatiga ega, bu xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi rolini oshirish va ishtirokini kengaytirishda zaruriy omillardan biridir.

Ma'lumki, sobiq Ittifoqning parchalanishi va uning hududida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi oqibatida 1990-yillar boshida Rossiyaning Yaqin Sharqdagi siyosati o'zining yangi davrini boshladi deyish mumkin. Garchi ayrim manbalarda AQShning siyosiy ta'siri va Yelning iqtisodiy ta'siridan so'ng Rossiya mintaqada uchinchi planda rol o'ynaydi deb ta'kidlanadi.

Rossiyaning Yaqin Sharq siyosatining muhim jihati xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liqdir. Yaqin Sharq jahonning qurolli nizolarga boy bo'lgan hududlaridan biridir, yuqorida keltirilganidek, jahon nizolarining 35%i shu mintaqa hissasiga to'g'ri keladi. Yaqin Sharq urushlar, radikal terrorist tarmoqlari va OQQ yoyilishi "yaqin chegarasi"dagi manfaatlariga tahdid soladi. E'tibor qaratadigan bo'lsak, Rossiya hududi, Markaziy Osiyo mintaqasi kabi yadroviy qurol va ularni tashuvchi ballistik raketalariga ega davlatlar qurshovida qolgan: Sharqdan G'arbga tomon - Shimoliy Koreya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Eron yadroviy tadqiqoti, Isroil, Fransiya va Angliya kabi yadroviy davlatlar Rossiyani qurshab olgan. Yaqin Sharqdagi Eron yadroviy tadqiqoti va ballistik raketalari ("Shahob" turkimidagi), Isroilning norasmiy yadroviy davlat ekanligi va "Ierixon" turkimidagi uzoq masofaga uchuvchi raketalari, Misrning «Al-Zafar» (375 km), «Al-Qohira» (600 km) i «Al-Rayd» (1000 km) raketalar sistemasiga egaligi, Saudiya Arabistoni ballistik raketalar bo'yicha Yaqin Sharqda katta potensialga ega ekanligi. 1998-yilda Xitoy DF-3 "CSS-2" uzoqlikka uchuvchi masofasi 2700 km bo'lgan raketalarni sotib olganligi. Bularning barchasi Yaqin Sharqning xavfsizlik masalasida Rossiya tashqi siyosatida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Yaqin Sharqning Rossiya harbiy sanoati uchun yirik bozor sifatida va geosiyosiy jihatdan dolzarb bo'lgan Rossiya harbiy bazalarini joylashtirish bo'yicha ahamiyatga egaligi. Ushbu mintaqa Xitoy va Hindistondan so'ng Rossiya qurollarini sotib olish bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Yaqin Sharqni bu jihatdan ahamiyatini Rossiya federal harbiy va texnikaviy hamkorlik xizmati direktori o'rinbosari A.Denisov 2005-yidagi so'zlari bilan izohlash mumkin, "eng avval, biz milliy manfaatlarimizni hisobga olishimiz kerak. Suriya biz uchun 80% sovet qurollariga ega bozor. Eron ham bu borada huddi shunday". Masalan, 1992-yil 25-avgustda Texron va

Moskva 800 millionga Busherda ikkita reaktor qurish bo'yicha shartnoma imzoladi.

2007-yil fevralda V.Putin jahonda gaz mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha uchinchi o'rinda turuvchi Qatarga tashrifi chog'ida Putin rad etilgan bo'lishiga qaramay, Eronning gaz karteli - OPEKni tuzishni taklif qilishi Rossiyaning mintaqa bilan hamkorligini kengaytirish siyosatidan borayotganini ko'rsatadi.

Yaqin Sharq va Rossiya aloqalarining ahamiyatli jihatidan yana biri rus-musulmon hamkorligining kengayib borishidir. Hozirda Rossiyada 20 milliondan ortiq musulmon aholi iste'qomat qilmoqda, bu umumiy aholining 15%ni tashkil etadi. Musulmonlar soni tez suratlar bilan o'sishi kelajakda Rossiyaning musulmon davlatlar orasida yirik davlatlardan biri aylanib qolish ehtimoliga ham olib kelishi mumkin. Biroq Rossiyaning Yaqin Sharq davlatlari bilan aloqasiga salbiy ta'sirlardan biri aynan shu din omili bilan ham bog'liq. Masalan, Rossiyaning Checheniston hududidagi faoliyati va Bosniya musulmonlariga qarshi Serbiya tarafida turishi. Rossiya ayni vaqtda o'zaro munosabatlarni mustahkamlash yo'lidan bormoqda va natijada 2004-yil Islom Konferensiyasi tashkilotiga (Bugungi kunda "Islom Hamkorlik tashkiloti" deb yuritiladi) kuzatuvchi sifatida qabul qilindi. Bu o'zaro hamkorlik tizimidagi ulkan muvafaqqiyatlardan biridir.

9.3. Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatida Markaziy Osiyo yo'nalishi

Dars maqsadi:

- talabalar Rossiya Federatsiyasining zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni borasida tasavvur hosil qilishlariga ko'maklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo'llashni o'rgatish;
- talabalarga Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari borasida to'la ma'lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o'ziga xos jihatlarini singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *Yevrosiyo, MDH, "RFning tashqi siyosiy konsepsiyasi", "RF milliy xafsizlik konsepsiyasi", "RF harbiy Doktrinasi", KXShT, YevrOsIH.*

Butun postsovet davrida Rossiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan munosabati doimo o'zgarib borgan.

Rossiya tashqi siyosatining Markaziy Osiyo yo'nalishini uchta asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

- birinchi bosqich (1992-1995-yillar) o‘z ichiga 90-yillarning o‘rtalarini qamrab oladi va u Markaziy Osiyoni Rossiyaning G‘arbga intilgan siyosati tufayli nazardan chetda qolishi bilan bog‘liq;

- ikkinchi bosqich (1996-1999-yillar) 90-yillarning oxiriga to‘g‘ri keldi va Rossiyaning o‘z tashqi siyosati, shu jumladan Markaziy Osiyodagi siyosatini qayta ko‘rib chiqishi bilan bog‘liq;

- 2000-yil Kreml da V.Putin va uning guruhini hokimiyatga kelishi bilan boshlangan uchinchi bosqichni (2000-yil - hozirgi payt) Rossiya xalqaro pozitsiyasini kuchaytirish uchun mintaqani Moskvaning ta‘sir doirasiga kritishga urinishi bilan xarakterlash mumkin.

2000-yil Putin va uning guruhini hokimiyat tepasiga kelishi Rossiya Federatsiyasini taraqqiyotida anchagina sezilarli voqea bo‘ldi. Rossiya tashqi siyosat strategiyasi mamlakatni zamonaviy xalqaro munosabatlar va global iqtisodiyotning markazlaridan biri sifatida tobora aniq yo‘nalishlarini kasb eta boshladi.

90-yillar bilan taqqoslaganda Moskvaning Markaziy Osiyodagi faolligi tez o‘tdi, “iliq hamkorlikni rivojlantirish zarauriyati ” to‘g‘risidagi ko‘p sonli deklaratsiyalar real tarkib bilan to‘la boshladi.

Rossiya Federatsiyasining Markaziy Osiyo yo‘nalishidagi tashqi siyosatida institusional hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha aniq harakatlarga va tashabbuslarga o‘tishi yangi va muhim davr bo‘ldi. Rossiya siyosatining yangi nozik tomonlari namoyon bo‘la boshladi: Moskva birdaniga bir qancha integrasion institutlarni – YevrAzES, YaIH, MOHT, KXShTni rivojlantira boshladi.

Mintaqa mamlakatlari bilan harbiy sohda va xavfsizlik masalalari bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish Moskva tomonidan mintaqada o‘z ta‘sirini kuchaytirishning asosiy mexanizmi sifatida qaralyapti. Moskva aniq hamkorlik bo‘yicha harakatlari 2001-yil avgust Bishkekda Markaziy Osiyo bo‘yicha Antiterroristik bo‘limning tuzilishi bo‘ldi. Unga Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston maxsus xizmati xodimlari yig‘ilgan edi. Shundan keyin tez orada Rossiya 2003-yil Qirg‘izistonda (Kant shahri) harbiy aviabazani ochdi.

Hozirda Qozog‘iston, Tojikiston, shuningdek O‘zbekiston bilan harbiy sohada va xavfsizlik masalalari bo‘yicha hamkorlik faol rivojlanmoqda. Moskva 90-yillar xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqarib, mintaqa mamlakatlarini aynan Rossiya bilan hamkorlikka qiziqtirishga katta ahamiyat bera boshladi.

2002-yildayoq Moskva KXShT ishtirokchi-mamlakatlariga harbiy kadrlarni Rossiya harbiy o‘quv yurtlarida tayyorlash uchun qulay sharoitlar yaratib berdi, shuningdek milliy harbiy kuchlar bo‘linmalari uchun ichki Rossiya bozori narxlari bo‘yicha Rossiya qurol-yarog‘lari va

texnikasini sotib olish huquqini berdi. 2004-yildan boshlab mintaqaviy xavfsizlikka tahdidlarga qarshi kurashishga yo'naltirilgan har yilgi qo'shma o'quv amaliyotlarini o'tkazish an'anaga aylandi.

Hozirda Rossiyaning ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga tobora ko'proq ahamiyat berishi kuzatilmoqda. Bu yerda Moskva mintaqaviy xavfsizlik tizimini shakllantirish jarayonini koordinatori vazifasini o'z bo'yniga oladi. Janubiy Kavkaz va uning atrofidagi so'nggi voqealar Rossiyani o'zining Markaziy Osiyolik sheriklari bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorlik masalalariga qo'shimcha turtki berdi. 2008-yil sentabr boshlari Moskvadagi KXShT sammitida Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Rossiyaning KXShTni harbiy tarkibini kuchaytirish va koalision harbiy qurilish Tashkiloti doirasida chuqurlashtirish to'g'risidagi taklifini qo'llab-quvvatlashdi.

90-yillardan farqli ravishda Markaziy Osiyoda rus biznesi va Rossiya iqtisodiy siyosati sezilarli darajada faollashuvi kuzatila boshlandi. Shu bilan birga Moskvaning strategik manfaatlari asosan Rossiya investisiyasining asosiy qismini yo'naltirilgan neftgaz sohasiga tegishli edi. Nisbatan yuqori loyiha-investision faollik mintaqaning aynan uglevodorodlarni katta zaxiralariga ega mamlakatlarida (Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston) sezilarlidir. Bu yerda Moskvaning harakati neft va gaz konlarini qidirish, o'zlashtirish va yetkazib berishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, Rossiya kompaniyalari (asosan "Gazprom") neft mahsuloti bozorlarini (ayniqsa Qirg'iziston va Tojikistonni) o'zlashtirish bilan tobora faolroq shug'ullanishmoqda.

Shu bilan birga Rossiyaning Markaziy Osiyoda neftgaz sohasidagi iqtisodiy faolligi 90-yillarga nisbatan deyarli o'zgarmadi. Moskva avvalgidek iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga katta ahamiyat bermayapti. Rossiyaning sust iqtisodiy faolligini muhim omillaridan biri savdo-iqtisodiy aloqalarning holati hisoblanadi. 2000-2007-yillar davomida mintaqa davlatlarini Rossiya tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 4%dan oshmadi. Yangi mingyillikda Rossiyadagi keskin va umuman ijobiy o'zgarishlarga qaramay, Markaziy Osiyodagi Rossiya tashqi siyosati natijalari ahamiyatli namoyon bo'lmoqda.

Bir tomondan, Rossiya Federatsiyasi markazdan qochish tendensiyalarini sekinlashtirishga, o'z pozitsiyasini mustahkamlashga, o'ziga ishonchsizlikni yo'qotishga muvaffaq bo'ldi. Moskva bunda o'z Markaziy Osiyo siyosatiga katta noziklik, pragmatizm, uzviylik va izchillik elementlarini qo'shdi. Ma'lum darajada bu mintaqani strategik ahamiyatini oshganligini tushunish va shu bilan birga tashqi siyosat olib borish uchun ulkan resurslarning mavjudligi bilan muhim bo'ladi. Boshqa

tomondan, Rossiya mintaqadagi na geosiyosiy, na geoiqtisodiy vakuumni to'ldira olmadi, chunki Moskvada Markaziy Osiy bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishni zaruriyati to'liq anglab yetilmadi. Natijada Rossiya Federatsiyasining mintaqa mamlakatlari bilan iqtisodiy yaqinlashuvida sezilarli siljishlar sodir bo'lmadi. Shunday taassurot uyg'oniyaptiki, unga ko'ra mintaqani strategik muhimligini qabul qilish avvalgidek "buyuk saltanat" maqomini qayta tug'ilishi va o'z energetik xavfsizligini oshirishga urinish bilan bog'liq. Rossiya tomonidan mintaqada iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlamasdan siyosiy faollikni oshirish hozirgi paytda Rossiya-Markaziy Osiyo yaqinlashuv jarayonini kafolati bo'lishi dargumondir. Buning yaqqol misoli YevrOsIHni (YevrAzES) haliyam o'z nomiga mos kelmasligi hisoblanadi: u hali ham to'liq iqtisodiy tashkilot bo'lmadi.

Afsuski, bugungi kunda ta'kidlash lozimki, Moskvada Markaziy Osiyo nafaqat Rossiyani pozitsiyasini mustahkamlashda, balki, avvalo, Rossiya Federatsiyasini samarali va kompleks rivojlanishini anglash shakllanmagan. Birinchi navbatda, bu globallashtayotgan jahon iqtisodiyoti sharoitida sanoat-innovation salohiyatni saqlash va oshirishga doirdir.

Bundan tashqari, iqtisodiy aloqalarni juda past darajadagi davomi Markaziy Osiyoni vaqti kelib boshqa jahon iqtisodiy markazlari bilan aloqalarni rivojlantirishni intilishga majbur qiladi. Mintaqani boy mineral resurslari ertami-kechmi kuchli davlatlar va iqtisodiy bloklarning bugungidan ham kuchliroq raqobat ob'ektiga aylanadi. Chunki Rossiya o'zining xom-ashyo eksportli iqtisodiyoti, kuchsiz sanoat va ilmiy salohiyati bilan bu raqobatli kurashda yutib chiqa olishi dargumondir.

Natijada Rossiya-Markaziy Osiyo munosabatlari kelajagi asosan Rossiyaning o'ziga bog'liq bo'ladi. Bu shu bilan bog'liqki, postsovet hududida faqatgina Rossiya o'zining iqtisodiy va geosiyosiy salohiyatini hisobga olib, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanish yetakchisi rolini o'ziga olishi mumkin.

Buning uchun Rossiya Federatsiyasi Markaziy Osiyoni "zararli mintaq" sifatida qarashdan voz kechishi va faqatgina Markaziy Osiyo Rossiya kapitalini qo'yish uchun samarali joy ekanligini anglashi lozim.

Bizni notinch zamonda, global, mintaqaviy va milliy miqyosdagi tahdidlar sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari va Rossiya kabi bir biriga juda kerak va o'zaro iliq aloqalarsiz mavjudlikni o'ylasholmaydi. SSSRning qulagandan keyin uning hududida o'z mamlakati va xalqining milliy manfaatlari va xavfsizligini ta'minlash muaamosi ko'ndalang turgan yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. MDH miqyosida postsovet hududida vujudga kelgan boshqa davlatlar qatorida birlashgan Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari bu qoidadan istisno qilinmadi. Rossiya

tashqi siyosatini bugun va kelajakda muhim strategik maqsadi sifatida mustahkamlab qo'yilgan muhim hujjatlardan biri "Rossiya chegarasi bo'ylab yaxshi qo'shnicilik aloqalarni shakllantirish, Rossiya Federatsiyasiga chegaradosh mintaqalarda mavjud va vujudga kelayotgan mojarolarni hal qilish va oldini olishni", shuningdek "xorijdagi Rossiya fuqarolari va vatandoshlarini huquq va erkinliklarini har tomonlama himoya qilishni" aniqlashtiradi. Rossiya chegarasi asosan postsovet hududida vujudga kelgan YaMD bilan chegaradoshligi va u yerda yigirma milliondan ortiq Rossiya fuqarosi yashashidan kelib chiqqan holda RF rahbariyati MDH mamlakatlarini Rossiya tashqi siyosiy faoliyatining eng muhim yo'nalishiga kiritadi. "Rossiya tashqi siyosatini istiqbolli yo'nalishi,-- deyiladi RF tashqi siyosiy Konsepsiyasida,-- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ni a'zo-davlatlari bilan mamlakat milliy xavfsizlik masalalarida ko'ptomonlama va ikkitomonlama hamkorlikni ta'minlash hisoblanadi. Asosiy e'tibor MDHning a'zo-davlatlari bilan yaxshi qo'shnicilik munosabatlari va strategik hamkorlikni rivojlantirishga qaratiladi".

Rossiya yetakchilari Yevrosiyo qit'asi markazida har biri mustaqil tashqi va ichki siyosat yurgizayotgan, o'z milliy manfaatlarini himoya qilayotgan va o'z mamlakati xavfsizligini ta'minlashga harakat qilayotgan beshta Markaziy Osiyo davlatini vujudga kelishini tarixiy haqiqat kabi qabul qilishdi. Va, albatta, ularning bu muammolari orasida Rossiyaga katta joy ajratilgan. O'z navbatida, Rossiya rahbariyati ham hozirgi paytda o'zi uchun muhim bo'lgan bu mintaqaga tobora ko'proq e'tibor qaratyapti. Ammo har doim bunday bo'lmagan, chunki Rossiya siyosatining Markaziy Osiyo davlatlariga munosabati ular mustaqilligini e'lon qilgan paytdan va hozirgi davrda bir necha bor jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. O'tgan asrning 90-yillarida, ayniqsa, RF tashqi ishlar Vaziri A.Kozirev davrida Rossiya uning taraqqiyotiga halaqit beruvchi bu mintaqadan chiqib ketish siyosatini yurgizdi. Uni Markaziy Osiyoga qaytish va izolyatsionizm siyosatidan chekinish jarayoni V.V.Putinning prezident saylovlarida g'alabasidan keyin haqiqatga aylandi va D.Medvedev tashqi siyosatida yanada rivoj topdi. Mintaqa mamlakatlariga munosabatning keskin o'zgarishi sabablari Rossiya siyosatini yangi mingyillikda dunyoda yuzaga kelgan va uning xavfsizligiga jiddiy xavf solayotgan geostrategik va geosiyosiy holat hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasi milliy xavfsizlik Konsepsiyasi ushbularga e'tibor qaratadi: "Rossiyani siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa sohalaridagi pozitsiyasini kuchsizlantirishga qaratilgan bir qator davlatlarning faolligi oshdi". Shu bilan birga V.Putin prezidentligi davrida mamlakat tashqi siyosati faollashgani bois, mamlakat dunyoda o'z siyosiy pozitsiyasini mustahkamladi. Rossiya ba'zi jahon kuch

markazlari tomonidan kuchli bosimni boshdan kechirmoqda. Bu esa uning geostrategik va geosiyosiy pozitsiyasida salbiy namoyon bo'lyapti. Xususan, uning g'arbiy chegaralari bo'ylab NATO davlatlari joylashib olgan. Rossiya milliy manfaatlariga AQSh va uning NATOdagi ittifoqchilarini Kaspiy mintaqasi davlatlarida o'z siyosiy va harbiy-siyosiy pozitsiyalarini mustahkamlashi tobora katta xavf tug'diryapti.

Rossiya Federatsiyasi milliy xavfsizlik konsepsiyasi shunga e'tibor beradi-ki, zamonaviy sharoitlarda "Rossiya Federatsiyasi milliy xavfsizligiga xavf ko'p qutbli dunyoda boshqa davlatlarning Rossiyani ta'sir markazlari biri sifatidagi faoliyatiga qarshi harakat qilish, milliy manfaatlarini amalgam oshirishiga halaqit berish va Yevropada, Yaqin Sharqda, Kavkazorti, Markaziy Osiyo va Osiyo-Tinch okean mintaqasida uni pozitsiyalarini kuchsizlantirishga urinishlari orqali namoyon bo'lmoqda". Shu tarzda, Markaziy Osiyo bu hujjatda "boshqa davlatlar" uni pozitsiyasini kuchsizlantirishga va milliy manfaatlarini amalga oshirishga halaqit berishga urinayotgan mintaqqa sifatida tilga olinadi.

Qadimgi zamonlardan oq Markaziy Osiyo tarixi va tarixiy taqdiriga uning Yevrosiyo geosiyosiy aloqalarini kesishgan joyida joylashgani ta'sir qilgan. Markaziy Osiyodagi holat butun Yevrosiyo qit'asida kuchlar balansiga jiddiy ta'sir ko'rsatardi. Bu uning Yevropa va Osiyoni tutashgan qulay geosiyosiy joyi bilan bog'liq edi. 19-asrning ikkinchi yarmidagi Katta o'yin natijasida Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasiga qo'shildi va Sobiq sovet ittifoqi qulaguncha boshqa davlatlar uchun erishib bo'lmaydigan amaliy zonaga aylandi. Uning qulashidan keyin geosiyosiy vakuumni tugatilishi mintaqani dunyoga ochdi. XXI asr boshida Markaziy Osiyoni geostrategik va geosiyosiy holatida global siyosatda uni ahamiyatini jiddiy o'sganini ta'riflovchi tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sovet ittifoqi qulagandan keyin bu mintaqada geosiyosiy vakuumning barham topishi, uniqulay geosiyosiy joylashuvi, strategik hom-shyo va birinchi navbatda energetik resurslarning katta zaxirasi mavjudligi, G'arb va Sharqni bog'lovchi transport infrastrukturasi, xalqaro terrorizm qarshi kurash plasdarmini yaratish istiqbollari uni buyuk davlatlarni geosiyosiy da'vo ob'ektiga aylantirdi.

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi pozitsiyasi asosan Rossiya Federatsiyasining Sovet Ittifoqi inqirozidan so'ng vujudga kelgan dunyo geostrategik kuchlar taqsimotidagi roli va o'zni bilan aniqlanadi. 1991-yildan keyin yuzaga kelgan yangi geosiyosiy vaziyatda Rossiya yetakchilarida mamlakat xavfsizligini ta'minlash jihatidan uning janubiy chegaralari o'ziga xos havotir uyg'otdi. Mamlakat milliy xavfsizlik Konsepsiyasida belgilangan Rossiya xavfsizligiga asosiy tahdidlar tahlili

shundan dalolat beradi-ki, ularning katta qismi Markaziy Osiyoga tegishlidir. Ular qatorida quyidagilar tilga olinadi:

-bevosita Rossiya chegaralari yaqinida chet el harbiy bazalari va yirik harbiy kontingentlar paydo bo'lish ehtimoli

-Rossiya Federatsiyasi davlat chegaralari yaqinida va tashqi MDH a'zo-davlatlari chegaralarida mojarolarning yuzaga kelishi va kengayishi

-boshqa davlatlarning uning milliy manfaatlarini amalga oshirishga halaqit berish va pozitsiyalarini kuchsizlantirishga urinishlari.

Kesishgan yerlardagi strategik makonlar ustidan nazorat uchun kurashning kuchayishi Markaziy Osiyoni ham chetlab o'tmadi, modomiki kim mintaqani nazorat qilsa, u geosiyosiy jihatdan Yevrosiyoni markaziy qismi, uning resurs imkoniyatlari va transport aloqalari ustidan nazorat qilish imkonini qo'lga kiritadi. U Rossiyani uning uchun strategik muhim bo'lgan mintaqadan, birinchi navbatda Amerika Qo'shma Shtatlari tomonidan siqib chiqarish shaklini oldi. Bu buyuk davlatning Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategiyasi bu mamlakatning Yevrosiyodagi nisbatan umumiy strategiyasining bir qismi hisoblanadi. AQShning mintaqadagi eng muhim maqsadi uning energoresurslari ustidan uzoq muddatli nazorat o'rnatish, shuningdek Markaziy Osiyoda ishtirokini kengaytirish hisoblanadi. Ma'lumki, amerika harbiy bazasi Qirg'izistonda joylashgan.

Rossiya xavfsizligiga ta'sir qiluvchi omil Markaziy Osiyodagi terroristik islom tashkilotlarining o'sib borayotgan faoliyati hisoblanadi. Ularning yetakchilari asosan Rossiyaning janubida joylashgan 20 million musulmon aholisi orasiga kirib borishga harakat qilishyapti.

Haligacha Markaziy Osiyo portlashi oson bo'lgan millatlararo va davlatlararo mojarolar mintaqasi bo'lib qolmoqda. Mintaqaning ko'pchilik mamlakatlarida qo'shnilar bilan hali ko'pchiligi hal qilinmagan hududiy tortishuvlari bor. Etnik tarqoqlik va umum e'tirof etilgan chegaralarning yo'qligi yer va suv resurslarining tanqisligi bilan chuqurlashyapti. Eng ko'p chegara tortishuvlari O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida mavjud. Kuchli mojaroli omil rolini qo'shni davlatlar hududida yirik etnik jamoalarining mavjudligi o'ynaydi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga bir qator davlatlar hududida yuzaga kelgan anklavlar qo'shimcha chigallik qo'shmoqda. Mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar keskinlashuvining boshqa manbasi suv-energetik muammosi hisoblanadi.

Xulosa shuki, Markaziy Osiyo mintaqasi Rossiyaning tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi. Endilikda Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan siyosati qisman o'zgarishlarga uchradi. Mustaqilligimizning dastlabki o'n yilligida Rossiya Markaziy Osiyoga nisbatan befarq siyosat yurgizgan bo'lsa, hozirgi davrda Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Rossiyaning asosiy tashqi siyosiy yoʻnalishi qanday?
2. Rossiya va MO davlatlarining oʻzaro munosabatlari haqida aytib bering.
3. Rossiyaning MDH doirasida hamkorligining kelajagi qanday?
4. MDH doirasida integrasion jarayonlar qaysi kelishuv va bitimlar asnosida rivojlanmoqda?
5. MDH ga aʼzo davlatlar hamkorlikning nodavlat strukturasi yaratishda qanday pozitsiyani egallashadi?
6. MDH doirasida hamkorlikning kelajagi qanday?
7. ShHTning soʻnggi Sammiti natijalari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. “Qozogʻiston, Rossiya va Belarus ittifoqi” mavzusida prezentatsiya tayyorlang.
2. “MDH davlatlarining hamkorligining asosiy yoʻnalishlari” mavzusida referat tayyorlang.
3. “ShHT” mavzusida maʼruza tayyorlang.
4. “ShHTning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni taʼminlashga qaratilgan harakatlari” mavzusida referat tayyorlang.

10-BOB. MARKAZIY OSIYO VA ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR

10.1. Markaziy Osiyoning jahon siyosatida tutgan o‘rni va ahamiyati

Dars maqsadi:

- talabalar Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;
- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;
- talabalarga Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to‘la ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlarini singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *Markaziy Osiyo mintaqasi, ShHT, YerosIH, KHShT, mintaqaviy integratsiya, KHShT, transchegaraviy daryolar, delimitatsiya, demorkatsiya.*

Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy koordinatalar tizimida muhim o‘rin tutadi. Qo‘shni mintaq va davlatlardagi tinchlik-osoyishtalik ko‘p jihatdan ushbu mintaqaning siyosiy barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishga bog‘liqdir. Bu hol, birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari tarixiy rivojlanishining o‘ziga xosligi, chunonchi, bunga nisbatan munosabatda keskin yondashuvlarni qabul qilmasligi xalqaro terrorizm, ekstremizm va separatizmning nafaqat mintaqada, balki qo‘shni davlatlar hududida tarqalishiga to‘sqinlik qiladigan muhim omil sifatida xizmat qiladi. Ikkinchidan, mintaqada narkotrafikka qarshi kurashish, yadro xavfsizligini (mintaqani yadrodan xoli hudud deb e‘lon qilish tashabbusi orqali) ta‘minlashda birgalikda harakat qilish zarurati anglab yetilgan. Mintaqa xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan integrasion jarayonlar kelgusida global xavfsizlik tizimiga ijobiy ta‘sir etishi shubhasizdir. Chunki mintaq jiddiy harbiy-siyosiy omil bo‘lishi bilan bir qatorda Rossiya va Xitoy singari yirik davlatlar bilan harbiy, siyosiy va iqtisodiy sohada yaqindan hamkorlik qilib kelmoqda. Uchinchidan, energetika zaxiralarining global inqirozi kutilayotgan bir paytda, mintaq ushbu zaxiralar nuqtai nazaridan katta imkoniyatlarga ega. To‘rtinchidan, mintaqadagi qator davlatlar iqtisodiyotining jadal rivojlanib, ular o‘rtasidagi integrasion jarayonlarning mustahkamlanib borayotgani kelgusida bu hududda globallashuv tahdidlariga dosh bera oladigan yoki uning imkoniyatlaridan samarali foydalana oladigan iqtisodiy jihatdan o‘ta rivojlangan markaz vujudga kelishi mumkinligidan dalolat beradi. Beshinchidan, mintaq davlatlarida demokratiya tamoyillarining milliy-madaniy xususiyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan siyosiy taraqqiyotning o‘ziga xos modellari

shakllantirilmoqda. Markaziy Osiyoda barqaror siyosiy tizimning vujudga keltirilishi esa mintaqa manfaatlarini global xalqaro munosabatlar darajasida e'tirof etilishiga shart-sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik Konsepsiyasida ta'kidlanganidek, Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiradigan quyidagi umumiy xususiyatlarni keltirish mumkin:

— yaxlit ma'naviy va madaniy-tarixiy meros, kishilar e'tiqodi, tili va mintalitetining mushtarakligi;

— suv arteriyalari, kommunikatsiya va energetika zaxiralarining umumiyliigi; iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasi, aholi turmush sharoitlarining nisbatan bir-biriga yaqinligi;

— jamiyatni demokratlashtirish, huquqiy davlatni shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolarning o'xshashligi;

— mintaqaviy muammolar — Orolidagi ekologik inqiroz, suv va yonilg'i-energetika zaxiralaridan oqilona foydalanish, jahon transport, axborot va boshqa kommunikatsiya tizimlariga integratsiyalashuvi masalalari; omillarning barchasi mintaqaviy xavfsizlikning asosini tashkil etgan mintaqaviy integratsiyaning zaruratini belgilab beradi. Jahon siyosatida tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan O'zbekiston, mintaqadagi geosiyosiy mavqeyi jihatidan, integratsiya jarayonining tabiiy o'zagini tashkil etishi mumkin.

— Markaziy Osiyo mintaqasi sobiq Ittifoqning Osiyo qismidagi O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston kabi mamlakatlarni qamrab oladi. Qisman (etnik, diniy va jo'g'rofiy nuqtai nazardan) Afg'onistonni ham ushbu mintaqaga qo'shish mumkindek ko'rinadi. Ammo uning Markaziy Osiyo mintaqasining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishi uchun u zarur ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy, huquqiy va siyosiy belgilarga ega emas.

Kelgusida, afg'on zaminida tinchlik o'rnatilishi, ijtimoiy soha va iqtisodiyotning tiklanishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilishi bilan u Markaziy Osiyo xalqlari oilasiga qabul qilinishi va tegishli geosiyosiy maqomga ega bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Binobarin, yangi Afg'onistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan integratsiyalashuvi natijasida shakllangan taqdirdagina u shunday imkoniyat va maqomga ega bo'lishi mumkin. Chunki u energetika va transport kommunikatsiyalari o'tgan tranzit davlatgina emas, globallashuv sharoitida izchil va samarali rivojlanib borayotgan davlatlararo iqtisodiy hamjamiyatning tarkibiy qismiga aylanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasining uyg'un va muvafaqqiyatli taraqqiyotining omili hisoblangan hududiy va tarixiy mushtaraklikdan

tashqari davlatlararo munosabatlardagi xalqaro-huquqiy tartibning shakllangani bilan ham ajralib turadi. Bu munosabatlar xalqaro huquqning umume'tirof etiladigan va me'yorlari talablariga javob beradigan integratsiyalashuvning yangi shart-sharoitlarda amalga oshirilayotgani bilan belgilanadi. Ammo, Turkmaniston bu jarayonlardan chetroqda turibdi. Bizningcha bu vaqtinchalik hol bo'lsa kerak. Chunki, ertami kechmi, ushbu davlat Markaziy Osiyo integratsiyasi jarayoniga uyg'unlashuvi zarur. Zero, mintaqa transport-energetika tizimi, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning rivojlanishi, yalpi xavfsizlik shart-sharoitlarining paydo bo'lishi Turkmaniston milliy manfaatlariga mos bo'lgan davlatlararo munosabatlarning samarali mintaqaviy tizimiga qo'shilishga undaydi. Bu tizim milliy manfaatlarning to'liq hisobga olinishi negizida mintaqaviy manfaatlarni belgilab olish, shuningdek, mehnat taqsimoti tizimi, yagona bozor va yaxlit iqtisodiy makoniga xizmat qilmog'i zarur.

Markaziy Osiyo tarkibiga shimoldan Tyan-Shan, Janubdan Hisor tog'lari bilan o'ralgan yirik submintaqa — Farg'ona vodiysi kiradi. Hududiy jihatdan, uning tarkibiga O'zbekiston, Tojikiston hamda Qirg'iziston kiradi. Uzunligi 300 km., kengligi 170 km., balandligi 330-1000 m.gacha. Iqlimi kontenental. Yanvarning o'rtacha harorati — 2-30S, iyulda esa 24-270S tashkil etadi. Yog'ingarchilikning o'rtacha yillik miqdori 100-500 mm. Tashkil etadi. Sirdaryo va uning irmoqlari So'x, Isfara va boshqa daryolar suvi bilan sug'oriladi. Uning hududidan bir necha kanallar (Katta Farg'ona, Janubiy Farg'ona) oqib o'tadi. Qayroqum suv ombori ham shu hududda joylashgan. Vodiy sug'orma paxtachilikning muhim zonasi hisoblanadi.

Qariyb 22 ming kv.km. maydonga ega vodiy dengiz sathidan 400-500 m. balandlikdagi kenglikda joylashgan. Asrlar mobaynida yaxlit hududga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi o'tgan asrning 20-yillarida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston o'rtasida bo'lingan. Chegaralar taxminan belgilangani sabali eksklav va anglavlar vujudga kelgan.

Vodiy hududida 7 milliondan ziyod aholi istiqomat qiladi; ulardan 75 foizi — qishloq joylarda yashaydi. Iqtisodiyotning yaxshi rivojlangani hamda aholining tig'iz joylashgani sabali vodiy Markaziy Osiyodagi eng kambag'al mintaqalardan hisoblanadi. Transport-kommunikatsiya nuqtai nazaridan jug'rofiy joylashuvi qulay bo'lsa-da, Afg'oniston va Janubi-G'arbiy Osiyodagi (Iroq va Erondagi) vaziyatning barqarorligi dengizga chiqish imkoniyatlarining cheklangani mintaqaning jo'g'rofiy hamda geosiyosiy salohiyatdan to'liq foydalanishga imkon bermayotir. Shuning uchun hozirgi davrda Shimoli-G'arbiy yo'nalish — mintaqaning energetik,

ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy va kommunikatsiya aloqalarining asosiy yo'li bo'lib qoldi.

Birgina O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston ko'rsatkichlari olib qaralsa, ushbu hududda mintaqa aholisining 54 milliondan ortig'i istiqomat qiladi; YaIM 182,5 milliard AQSh dollarni, mudofaaga yo'naltirilgan xarajatlar yarim milliardga yaqin AQSh dollarini tashkil etadi.

Ma'lumki, sobiq ittifoq tarkibidagi respublikalar umumittifoq xo'jalik majmuiga kiritilgani bois jahon Iqtisodiyotiga bevosita chiqa olish imkoniyatidan mahrum bo'lgan bir tizim edi. O'tgan asrning 90-yillarida boshqa respublikalardan keltirilgan sof moddiy mahsulot ulushi Qozoqistonda - 39,9 foizni, Tojikistonda - 50,2 %, O'zbekistonda - 43,2 %, Qirg'izistonda - 50,0 %, Turkmanistonda - 50,7 %ni tashkil etgan. Markaziy Osiyo davlatlarining Ittifoq tashqarisidagi tovar ayrboshlash miqdori 10,5-16 foizni tashkil etgan edi. Vaholanki, ittifoq bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 45 foizdan ziyod bo'lgan. Yana bir omil aksariyat Markaziy Osiyo mamlakatlarining xom ashyoga ixtisoslashganligidir. Aksariyat tayyor mahsulotlar xom ashyo evaziga boshqa respublikalardan keltirilgani sababli mintaqada qo'shimcha qiymatga ega mahsulotni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sanoat industriyasi yetarli darajada rivojlanmagan edi.

90-yillar boshidagi inqiroz va shakllanish davrida Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy va tuzilmalarida turli yo'nalishdagi o'zgarishlar yuz bera boshlaydi.

Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iziston va O'zbekistonda (har birida o'ziga xos tarzda) 90-yillarning birinchi yarmida agrarlashuv, aksilindustriallashuv, aksilshaharlashuv, investision jarayonlarning qisqarishi, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasining torayishi, ilmiy salohiyatning qisman yo'qotilishi kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda, bozor islohotlari sur'ati oshib boradi. 90-yillar MOD turli miqyos va darajada yangi bozor tuzilmalari va institutlari shakllanib, rivojlanadi. Mohiyatan bu jarayonlar inqilobiy tus kasb etgan edi. Zero, ular mulkka davlatning mutlaq hukmronligi o'rnatilgan tizimdan xususiy mulk, ijtimoiy va boshqaruv tizimida demokratik tamoyillarning ustivorligiga asoslangan tizimga o'tish jarayonini ifodalagan edi.

Markaziy Osiyo davlatlarining deyarli barchasida islohotlar dastlab mahsulotlar va xizmatlar hajmining qisqarishi, keyinchalik esa bu boradagi taqchilikka barham bergan — narhlarning erkinlashtirilishi; savdo, xizmatlar sohasi, qishloq xo'jaligi, sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi kichik, o'rta hamda qisman yirik korxonalarining xususiylashtirilishidan boshlandi. Natijada yollanma va oilaviy mehnatdan

foydalanadigan xususiy korxonalar, hissadorlik kompaniyalar, birjalar paydo bo'ldi. Bundan tashqari, ikki darajali bank tizimi shakllantirila boshlandi. Bu tizimda davlatning markaziy bankidan tashqari, tijorat banklarining keng tarmoqli tizimi ham tuzilib, faoliyat yurita boshlaydi. Milliy valyutalar joriy etilib, ularning konvertatsiyasi, valyuta nazoratini kuchaytirish, chet el kapitalini jalb etish uchun zarur shart-sharoit yaratildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish milliy tizimi vujudga keltirildi, mahsulotlar, ishchi kuchi, kapital va xizmatlar bozorining normal faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoit hozirlandi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 90-yillarning oxirida iqtisodiyotning xususiy va aralash sektorida band bo'lganlar hamda YaIM ulushi Qozoqiston - 77 va 55 foizni; Qirg'izistonda - 73 va 70 foizni; Tojikistonda - 61-62 va 30-35 foizni; Turkmanistonda - 59 va 25-30 foizni; O'zbekistonda - 69 va 45 foizni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, MOD barchasida iqtisodiyotning xususiy va aralash sektorida mehnatga yaroqli aholining ko'pchiligi jalb etilgan. Ushbu sektorlarning MOD YaIM ulushi ham yildan-yilga ortib bormoqda. Bularning barchasi mazkur davlatlarning bozor iqtisodiyoti sari jadal intilayotgani va aholining aksariyati bu jarayonlarda faol ishtirok etayotganidan dalolat beradi.

Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoda kuchlarning geosiyosiy joylashuvi 2001-yil 11-sentyabrdan keyin tubdan o'zgardi, uning mohiyatini G'arb mamlakatlarning mintaqaga kirib kelishida ko'rish mumkin. Jahonning AQSh, Rossiya, XXR, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari kabi hozirda mintaqada mavjud yirik davlatlari o'rtasida Markaziy Osiyoga taalluqli masalalar yuzasidan ko'pincha mushtarak pozisiyalar bilan birga, bir qator qarama-qarshiliklar ham borligini mintaq mamlakatlari anglaydilar. Ayni chog'da, hech bir mamlakat, u qanday bo'lishidan qat'i nazar, Afg'onistondagi tinchlikning va Markaziy Osiyodagi uzoq muddatli barqarorlikning samarali kafolati bo'la olmasligini ham tushunib yetadilar.

Bugungi kunda mintaqada xavfsizlikning, strategik barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni birgalikda hal qilish, Markaziy Osiyo davlatlarini, ularning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda sheriklik va hamkorlikni mustahkamlash imkonini berish asosida birlashtiruvchi strukturasi yaratish zaruriyati tobora ortib bormoqda.

Mintaqaviy xavfsizlikning bunday modeli ko'p andozali va ko'p darajali xarakterga ega bo'lishi, buning ustiga, mintaqaviy xavfsizlik tizimi xalqaro xavfsizlik tizimining tarkibiy bir qismi bo'lishi kerak, G'arbning harbiy-siyosiy jihatdan mavjudligi bo'lsa, Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi tizimini global darajada ta'minlaydi. Xususan, Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlikni ta'minlash muammosi, asosan, ikki strategik yo'nalish o'rtasidagi o'zaro ta'sir – bir tomondan, AQSh bilan sheriklik,

ikkinchi tomondan esa, Rossiya va Xitoy bilan hamkorlik asosida hal qilinishini taxmin qilish mumkin. Bu uchta asosiy “o‘yinchi” jahon markaziy kuchlari geosiyosiy manfaatlari strategiyasida bir-birini to‘ldirib boradi. Bunda esa, Eron, Turkiya, Hindiston, Pokiston, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarda, eng avvalo, Afg‘oniston yo‘nalishini ham o‘z ichiga olgan iqtisodiy hamkorlik va transport kommunikatsiyalari loyihalarida ishtirok etish yo‘li bilan o‘z faolligini oshirib boradi. Hozirda amerikalik senator U.Fulbrayt tomonidan taklif etilgan «Kooperativ xavfsizlik» tizimini shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keldi, uning mohiyati tahdidlarni nafaqat qaytarish, balki, ularning oldini olish uchun ham davlat, ham nodavlat strukturalarini birlashtirishdan iborat.

Mintaqaviy xavfsizlikning yangi tizimi uning tarkibiga kiruvchi komponentlarning bir necha bosqichidan iborat bo‘lishi kerak. Bunda mazkur bosqichlarni uyg‘unlashtirishning shunday mexanizmini yaratish kerakki, ular bir-biriga qarama-qarshi bo‘lmasin, aksincha, bir-birini to‘ldirsin. Masalan, bir bosqichda urg‘u harbiy-texnik hamkorlikka, chegaralar muhofazasiga, havo hujumidan mudofaaga berilsa, boshqa bosqichda, asosiy diqqat-e’tibor terrorizm, ekstremizm, narkobiznes, qurol-aslaha kontrabandasiga qarshi kurashga, chegara hududida o‘zaro ishonch tadbirlarini va chegara bo‘ylab hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilishi mumkin.

Xavfsizlikning birinchi bosqichi - bu Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zi bo‘lishi kerak, ular o‘rtasidagi munosabatlarni mintaqada harbiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni va ustuvor rivojlanishni kafolatlaydigan o‘zaro hamkorlik va yaxshi qo‘shnichilik bosqichiga ko‘tarish kerak bo‘ladi.

Shu munosabat bilan, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish o‘ta muhim hisoblanadi. Bugun har bir Markaziy Osiyo davlatining milliy xavfsizligi uning o‘z qo‘shnilari va dunyo hamjamiyati bilan manfaatlar mushtarakligi asosida belgilanishi istiqboli aniq-ravshan ko‘zga tashlanmoqda.

Diniy ekstremizm va xalqaro terroristik tashkilotlar faoliyati, shuningdek mintaqada narkotrafik miqyosining o‘sib borishi muammolarining mavjudligi hozirda Markaziy Osiyo mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun o‘zaro hamkorlikni kengaytirishga asos bo‘layotir. Aynan shu yo‘nalish mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning kelajakdagi rivojlanishning taraqqiyparvar yo‘ldan borishi, mintaqada demokratik, ochiq jamiyatlarni shakllantirish uchun fundamental shart sifatida tayanch omiliga aylanishi mumkin.

Markaziy Osiyo mamlakatlari hamkorlikni hozirda mavjud ShHT, KXShT doirasida faollashtirishi zarur. Xalqaro tashkilotlarning, ayniqsa, BMT, YeXHT, NATO tashkilotlarining diqqat-e'tiborini mazkur muammoga kengroq qaratish va bu xavf-xatarga qarshi kurash tadbirlarida ular beradigan moddiy va harbiy-siyosiy yordam kafolatini olish kerak.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun xavfsizlikning ikkinchi bosqichi bo'lib, kuchli jahon markazlari - AQSh, Rossiya, Xitoy, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya bo'lishi kerak.

AQSh uzoq muddat mobaynida mintaqa mamlakatlari bilan xavfsizlik sohasidagi turli dasturlar bo'yicha hamkorlik qilayotir va bu omil aksilterror operatsiyalari doirasidagi o'zaro hamkorlik uchun asos yaratdi.

Rossiya, shubhasiz, Markaziy Osiyo mintaqasining an'anaviy tarzda muhim geosiyosiy va geoiqtisodiy rol o'ynaydigan tabiiy sherigi hisoblanadi. Keyingi vaqtda Rossiya mintaqada o'zining tashqi siyosatini ham faollashtirdi. Jumladan, Rossiya xavfsizlik sohasida AQSh bilan sheriklik orqali o'z xalqaro imidjini mustahkamlash uchun yuzaga kelgan vaziyatdan maksimal foydalanishga harakat qilmoqda.

Ayni chog'da shu narsa ayon va ravshanki, AQSh bilan bunday hamkorlik, ayniqsa, xalqaro vaziyatning yuqori dinamikasi e'tiborga olinsa, Rossiya uchun bir qator tahdidlarga ham ega. Shu munosabat bilan, RF o'z tashqi siyosiy strategiyasiga Markaziy Osiyo mintaqasiga oid pozitsiyasini aniq belgilab olish uchun tegishli o'zgartishlar kiritishi lozim.

Markaziy Osiyoda Xitoyning siyosati xavfsizlik, savdo-sotiq va uglevodorodlar muammolariga qaratilgan. Bunday siyosat doirasida Xitoy rahbariyati qo'shni mamlakatlar bilan bo'lgan munosabatlarini, "do'st bo'lmagan yirik davlatlarga" XXR va uning qo'shnilari o'rtasidagi ehtimoliy qarama-qarshiliklardan foydalanishga imkon bermaslik maqsadida, chuqurlashtirishga harakat qiladi. Shu ma'noda xitoylik siyosatchilar va tadqiqotchilar Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalariga hamisha alohida e'tibor berib kelganlar va shunday bo'lib qoladi. Shu bilan birga, Xitoy pozitsiyasining YeI va AQSh bilan Markaziy Osiyo mintaqasidagi energiya zaxiralaridan foydalanish masalalari bo'yicha yaqinlashishi muhim hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib, Yevropa Ittifoqida Markaziy Osiyo va Afg'onistonga nisbatan turli yondashuv asosida, ko'p nuqtai nazarli va ko'p bosqichli siyosat o'tkazish zaruriyatini anglash ortib bormoqda. Xususan, ekspertlar fikriga ko'ra, Yevropa mamlakatlari o'ziga strategik yaqin joylashgan Markaziy Osiyoda o'zining ishtirokini orttirib borishi lozim, negaki, mintaqa davlatlari bilan faol hamkorlik Yevro-Atlantikaga oid xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Yevropaning xalqaro maydonida birmuncha "ahamiyatsiz" pozitsiyalari

unga o'ta muhim uchinchi neytral tomon rolini o'ynash imkonini beradi, biroq bu YeIdan Markaziy Osiyo mintaqasida uzoq muddatga qolishni talab etadi.

Ba'zi yapon ekspertlarining ta'kidlashlaricha, Tokioning mintaqa davlatlari bilan ko'p tomonlama asosda o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga urinishi Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi "yangilangan tashqi siyosatiga oid strategiyasi" tayanch jihatlaridan biri bo'lib qolishi mumkin. Shu munosabat bilan Yaponiya Markaziy Osiyoda mintaqa ichidagi hamkorlikni mustahkamlashga qiziqish bildirmoqda.

Xavfsizlikning uchinchi bosqichi bo'lib, xalqaro institutlar – ShHT, BMT, KXShT, YeXHT, NATO, shuningdek Markaziy Osiyoda o'z manfaatlariga ega bo'lgan mamlakatlar, eng avvalo, Hindiston, Eron, Turkiya va Pokiston hisoblanadi.

Markaziy Osiyo davlatlari, mintaqada xavfsizlikni mustahkamlashga real hissa qo'shish imkoniga ega bo'lgan ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmi sifatida qaralayotgan, Shanxay hamkorlik tashkilotiga katta umid bildirishmoqda. Terrorizm va diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya va boshqa tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlikda choralar ko'rish ShHT faoliyatining muhim jihati bo'lib qolishi mumkin. Bunda ShHT ochiq va oshkora tashkilotligicha qolishi, Markaziy Osiyoda integrasion manfaatlarni rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishi lozim va mintaqada xavfsizlikni mustahkamlashda real ishtirok etishi kerak. ShHT hozirgi kunda to'liq xalqaro tashkilot sifatida oyoqqa turish bosqichida bo'lib, ustiga-ustak, u hali geosiyosiy omillar ta'siridan xoli emas.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun, shuningdek xavfsizlik sohasidagi yetakchi xalqaro tashkilotlar – BMT, YeXHT, NATO bilan hamkorlik qilish barqarorlikni ta'minlashning muhim mexanizmi bo'lib hisoblanadi. Ularning mintaqaviy jarayonlarga jalb qilinishini terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi hamjihatlikda kurashish, jumladan, mintaqa davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy muammolarini hal qilish ehtiyoji taqozo etadi.

Shu bilan bir vaqtda, ekspertlarning, BMT faoliyatini tashkil etishni qayta ko'rib chiqish, uni hozirgi dunyo voqeliklariga muvofiqlashtirish zarur, degan fikrlariga qo'shilish mumkin. BMTning hamkorlik va hozirgi zamon xavf-xatarlari va tahdidlariga qarshi faoliyat ko'rsatishda egiluvchan mexanizmga aylanishigina unga global xavfsizlikni ta'minlashdagi yetakchi rolni saqlab qolishiga imkon beradi.

Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash yo'lida tayanch rollardan biri YeXHTga tegishli bo'lib, u, yangi transmilliy tahdidlarga qarshi kurashning umumiy strategiyasida muvofiqlashtiruvchi

rolini oshirishdagi matndati (vakolati)ni kengaytirishni ham qo'shgan holda, o'z ustuvorliklarini qayta baholash va o'zgartirishga tayyor turishi zarur.

Markaziy Osiyo davlatlari, YeXHT tomonidan, faqat ziddiyatlarning ehtimoliy o'choqlari monitoringi doirasidagina emas, balki barcha o'lchamlarda, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnik va ma'rifat sohalarini ham o'z ichiga olgan barchasining barqaror rivojlanishiga oid harakatlarni qo'llab-quvvatlashda ko'rsatiladigan yordamga umid qilishga haqlidirlar.

Xavfsizlikning Markaziy Osiyo mintaqasida shakllanayotgan yangi arxitekturasida KXShT ham o'z o'rnini egallashga urinmoqda. KXShTning to'liq institutionallashtirishining Afg'onistondagi vaziyatni hal qilish jarayonlariga NATO'ni to'g'ridan-to'g'ri harbiy jihatdan jalb qilish bilan bir vaqtda sodir bo'lishi tasodifiy hol emas. Bir tomondan, harbiy bazalarning, ikkinchi tomondan, KXShT tezkor harakatlanish kollektiv kuchlari va NATO mamlakatlaridan iborat xalqaro koalitsiyaning mavjudligi mohiyat jihatidan misli ko'rilmagan tarixiy holatni vujudga keltirdi. MDHning "janubiy chegaralarida" xavfsizlikni ta'minlash maqsadida tuzilgan KXShT kelajakda mazkur sohada, ko'p jihatdan konfrontasion g'oyaviy bo'yoqdan xoli bo'lgan, xalqaro o'zaro harakatlarning samaradorligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Davom etayotgan terrorizmga qarshi global kurash NATOning xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni, shuningdek Markaziy Osiyodagi xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini oshirishga xizmat qiladi. NATOga Afg'onistondagi tinchlikparvar kuchlar shtabi boshqaruvining o'tishi buning isbotidir. NATOning bu mamlakatdagi faoliyati uning tinchlik yo'li bilan qayta qurilishiga xizmat qilib, butun mintaqada barqarorlikni mustahkamlashga imkon yaratadi. Bundan tashqari, NATO mintaqada davlatlari bilan harbiy-texnik sohada, kadrlar bilan ta'minlashda va h.k.da faol hamkorlik qilmoqda. Biroq, terroristlar uchun Markaziy Osiyo (u yerda ularning yoyilib ketgan tarmog'i mavjud) davlatlariga kirib borish, Amerika bazalariga hujum qilish, uning hukmron rejimlarini izdan chiqarish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu holda Amerika kontingenti va Markaziy Osiyo davlatlari xavf ostida qoladi.

Ular Markaziy Osiyo davlatlaridan Amerika harbiy bazalari evakuatsiyasiga erishishga harakat qilmoqdalar.

Markaziy Osiyo sharoitida diniy ekstremizm va demokratik islohotlar o'tkazish masalalari o'zaro kesishmoqda. Shuning uchun, alohida tadqiqotchilar va siyosatchilarning, radikal tashkilotlarga diniy targ'ibotda erkinlik berish to'g'risidagi fikriga qo'shilishga to'g'ri keladi. Boshqa tarafdin, Markaziy Osiyo hududida suv ta'minoti hamda transchegaraviy suv zaxiralaridan foydalanish masalasi hal qilinmagani, qo'plab

mintaqaviy, ichki va lokal nizolarning bartaraf etilishiga to‘siqlik qilib, mintaqadagi beshta davlat o‘rtasidagi munosabatlarda og‘riqli nuqta bo‘lib qolayotir va ularning iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta‘sir etayotir. Biroq, bu masala, o‘z spesifik xarakteriga ko‘ra, bo‘lishdan ko‘ra birlashtirish rolini o‘ynaydi, chunki, ularni hal qilish uchun birgalikda harakat qilish talab etiladi.

Markaziy Osiyo davlatlari umumiy mintaqaviy bozorni yaratish, fuqarolar tinchligi va millatlararo birdamlikni saqlashda, hududiy yaxlitlikni ta‘minlashda, shuningdek, nizolar paydo bo‘lishi sabablarini bartaraf qilishda umumiy strategik manfaatlarga egadirlar.

Yuqorida sanab o‘tilgan omillar Markaziy Osiyoning uzoq muddatli davrda ustuvor va barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun alohida ahamiyatga egadir.

Shuningdek, xalqaro huquqqa tayangan holda mintaqaviy xavfsizlik tizimini yaratish uchun quyidagi jihatlarga e‘tibor berish lozim:

Birinchidan, yangi birlashmalarni tuzmasdan, mavjud bo‘lgan institutlar ahamiyatini oshirish zarur.

Ikkinchidan, mintaqaviy xavfsizlik siyosiy tus olmasligi lozim. Uning asosiy maqsadi – ekstremizm, terrorizm, giyohvand moddalar va qurol-aslaha savdosiga qarshi kurashdan iborat bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, hozirgi kunda mintaqaning xavfsizlikka tahdid tug‘dirayotgan davlatlar o‘rtasidagi chegara, transchegaraviy daryolar, transport kommunikatsiyalari va boshqalardan foydalanish bilan bog‘liq muammolarni xalqaro huquq normalariga rioya qilgan holda hal etish.

To‘rtinchidan, mintaqaviy xavfsizlik tizimi uning tarkibiga kiruvchi davlatlarning milliy xavfsizligi o‘rnini bosmasligi kerak.

U xavfsizlik milliy tizimining o‘zaro hamkorligi va o‘zaro almashinuvi uchun maksimal sharoitlarni yaratishga, shuningdek xavfsizlikning umumiy xavf-xatarlariga qarshi kurashish uchun milliy tizim xatti-harakatlarini birlashtirishga qaratilishi zarur.

Beshinchidan, mintaqaviy xavfsizlik tizimi ishonchli moliyaviy baza asosida tuzilishi lozim.

Oltinchidan, mintaqadagi geosiyosiy vaziyatni va yuzaga kelgan, kuchlarning taqsimlanishini e‘tiborga olgan holda, Markaziy Osiyo uchun xavfsizlik tizimi bir necha bosqichdan iborat bo‘lishi kerak. U xalqaro xavfsizlikning bir qismiga aylanib, xalqaro hamkorlik va xavfsizlikning muvofiq strukturalari (BMT, YeXHT, NATO va b.) bilan uyg‘un tarzda faoliyat yuritishi lozim.

Shu o‘rinda aytish lozimki, mazkur sanab o‘tilgan jihatlari Markaziy Osiyo xavfsizligining yangi arxitekturasi shakllanish jarayonini boshidan kechirib, u Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zi uchun va boshqa qator

davlatlar uchun ham strategik manfaatlarning yaqinligi yoki mos kelishini nazarda tutmoqda.

2008-yilning 2-4-aprel kunlari Buxarestda bo‘lib o‘tgan sammitda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “6+3” muloqot guruhi doirasida bildirgan tashabbuslarini inobatga olgan holda ushbu yo‘nalishda ishlarni jonlantirish va samaradorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

10.2. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash muammolari

Dars maqsadi:

- talabalar Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasida tasavvur hosil qilishlariga ko‘maklashish;

- nazariy tushunchalardan foydalanishni hamda amaliyotda ularni qo‘llashni o‘rgatish;

- talabalarga Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlari borasidagi to‘la ma’lumotlarni yetkazish hamda ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlarini singdirish.

Tayanch iboralar va tushunchalar: *Markaziy Osiyo mintaqasi, ShHT, YerosIH, KHShT, Afg‘on muammosi, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, narkotrafik.*

Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik muammolari to‘g‘risida to‘xtalar ekanmiz, fikrimizcha, mintaqa davlatlari atrofidagi vaziyatni bir butun holda o‘rganish hamda ularda kechayotgan tub o‘zgarishlar, jumladan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Zero, yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek «xavfsizlik» tushunchasi bugungi kun nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda har tomonlama va ko‘p tomonlama yondashuvni talab qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, ayniqsa xavfsizlik sohasidagi yangi tuzilmalar va jamiyatni barqarorlashtirishga hissa qo‘shadigan ijtimoiy guruhlar ancha sekin qaror topadi. Sobiq ittifoq xavfsizlik tizimining parchalanishi va zamonaviy xavfsizlik tizimining shakllanishi jarayonida jamiyatda tabiiyki ijtimoiy keskinliklar yuzaga keladi. O‘ziga xos «o‘tish davri»da ijtimoiy keskinlar o‘ta murakab bo‘lib, ijtimoiy portlashga nisbatan salbiy omil hisoblanadi. Uning murakkabligi shundan iboratki, xavfsizlik tizimi barcha ijtimoiy hayot sohalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, uni tashkil etgan soha elementlaridagi nosozliklar oxir-oqibat barcha sohalarni qamrab oladi va kutilmagan keskinliklarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda mintaqaviy muammolarning turkum omillari yalpi xavfsizlikka asosiy tahdid solayotgan bir davrda, fikrimizcha, mintaqaviy xavfsizlik bo'yicha tadqiqot olib borgan mutaxassislarning fikrini ko'rib chiqish va ularni tadqiq etish muhim. Tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan Markaziy Osiyo xavfsizligiga tahdidlarni asosan 5 blokka ajratish mumkin.

Birinchi blokka e'tirof etilgan diniy va siyosiy ekstremizmni, xalqaro terrorizmni va narkobiznes kabi omillarni kiritdik. Ular tomonidan mazkur tahdidlar bilan bog'liq muammolar borgan sari chuqurlashib borayotganligi ta'kidlanadi.

Globalashuv jarayonining rivojlanishi nafaqat ijobiy, balki salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Xalqaro terrorizm, diniy va siyosiy ekstremizm, narkobiznes, noqonuniy qurol savdosi, uyushgan jinoyatchilik kabi omillar dunyoga keng va tez tarqalishi tendensiyasi kuzatilmoqda. Dunyoda sodir bo'layotgan voqealar global muammolarning xarakteri va mohiyatining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi ham bundan xoli emas. Bugungi kunda diniy ekstremistik tashkilotlarning terroristik tahdidlar sonini oshirishga va ichki beqarorlik vaziyatini keltirib chiqarishga qaratilgan faoliyati nafaqat musulmon aholisiga ega bo'lgan davlatlarda, balki MDH, Rossiya, Ukraina va Yevropa davlatlarida ham kuzatilmoqda. Diniy ekstremistlarning faoliyati esa katta moliyaviy tarmoqlar vositasida tashqi kuchlar orqali boshqarib kelinmoqda.

Hozirgi kunda eng og'ir uyushgan jinoyatchilik bu - xalqaro terrorizmdir. Terrorizm kecha yoki bugun vujudga kelmagan, u o'zining tarixi, sabablari va o'ziga xos ta'sir etuvchi omillarga egadir. Biz terrorizmni tarixi to'g'risida emas, balki uning nima ekanligiga qisqacha to'xtalmoqchimiz.

Terror - lotin tilidan qo'rquv, daxshat, xatar tushunchalarini anglatadi. Bugunga kelib xalqaro terrorizm ilmiy, siyosiy xarakterga ega bo'lgan ochiq haqiqatga aylandi.

Xalqaro munosabatlarda shu kungacha terrorizm atamasiga universal izoh mavjud emas, har bir davlat o'z yondoshuvlaridan kelib chiqqan holda talqin qilishga harakat qiladi. Masalan:

1. AQSh Mudofaa vazirligining bergan izohiga ko'ra, terrorizm – bu ma'lum bir guruhlarning siyosiy, diniy va g'oyaviy, nopok maqsadlarga erishish uchun hokimiyat va jamiyat o'rtasida qo'rquv uyg'otishga qaratilgan zo'ravonligi.

2. AQSh hukumati Agentliklarining e'tirof etishicha, siyosiy zo'ravonlikning barcha ko'rinishlari bu – terrorizmdir .

3. AQSh Federal qidiruvlar byurosi tomonidan: terrorizm – bu shaxs yoki ma'lum bir ob'ektga noqonuniy kuch ishlatish, zo'ravonlik bilan

hukumatni qo‘rqitish yoki majburlash orqali o‘zining siyosiy yoki ijtimoiy maqsadlariga erishish harakatidir .

4. AQSh Davlat departamentining bergan izohi quyidagichadir: terrorizm – bu davlatning ichidagi ba’zi bir guruhlar yoki boshqa bir davlatning josuslari tomonidan jamiyatga ta’sir etish maqsadida oldindan ko‘zlangan va rejalashtirilgan holda noharbiy ob’ektlarga nisbatan olib boriladigan, siyosiy motivga ega bo‘lgan zulm va zo‘ravonlik .

5. G‘arb olimlarining fikricha, terrorizm – shaxs yoki guruh, ba’zi hollarda davlat tomonidan olib boriladigan jinoiy faoliyat.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, mazkur muammoga turlicha yondashuvlar mavjud. Ammo shunga qaramasdan, mavjud konsepsiyalarning barchasida terrorizm o‘zining yovuz niyatlariga erishish maqsadida begunoh insonlarning hayotiga xavf tug‘dirayotgan guruhlar faoliyatidan iborat bo‘lib, uning g‘oyatda og‘ir jinoyat ekanligi ta’kidlanadi.

Hozirgi davrda terrorchilarning an’anaga aylangan faoliyat shakli bu diniy ekstremizmdir. Ularning, xususan, «islom» dinini niqob qilib, insoniyatning muqaddas qadriyatlari va ideallari orqali o‘z yovuz niyatlariga erishmoqchi bo‘layotgani eng dahshatlidir. Undan ham dahshatlisi, ayrim davlatlarning terrorizmni qo‘llab-quvvatlashidir. Zamonaviy xalqaro huquq normativlari terrorizmni noqonuniy zo‘ravonlik, kuch ishlatish, jamiyat o‘rtasida xavf uyg‘otish, amaldor shaxslar hayotiga suiqasd qilish, davlatni tanlagan demokratik yo‘lidan qaytarish kabi eng og‘ir jinoyatlarda ayblaydi. Dunyoda oxirgi o‘n yillikda sodir etilgan terrorchilik harakatlarining eng ko‘p miqdori 1997-yilda ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lib, 12941 kishi hayotdan ko‘z yumgan .

Terrorizmga qarshi kurash muammosi barcha davlatlarning milliy manfaatlariga javob beradi. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan mazkur muammo bo‘yicha bir qancha xalqaro konferensiyalar, loyihalar, shartnomalar ishlab chiqilgan. xalqaro hamjamiyatning har bir a’zosi Jeneva konvensiyalarini (1937-1949-y.) bajarish majburiyatini olgan. Masalan: AQSh terrorchilikka qarshi kurashga yiliga 5 mld. AQSh dollari miqdorida mablag‘ sarflaydi. Shunga qaramasdan, bu ofatning oldini olish borgan sari qiyinlashib bormoqda.

Ma’lumki, 2001-yil 11-sentyabrda insoniyat terrorizmni global shakli bilan to‘qnash keldi. AQShda sodir etilgan voqealardan so‘ng terrorizmga nisbatan dunyo siyosati tubdan o‘zgardi. Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm to‘g‘risida to‘xtalar ekanmiz, bevosita biz uni Afg‘oniston bilan bog‘laymiz. Tadqiqotchilar ham mazkur omillarni Afg‘oniston bilan chambarchas bog‘laydilar. Markaziy Osiyo esa bevosita Afg‘oniston bilan chegaradosh. Markaziy Osiyo davlatlarida mustaqillikning birinchi yilidan

boshlab Afg'oniston masalasi ham milliy, ham mintaqaviy xavfsizlik borasida ustuvor masala sifatida e'tirof etildi.

Xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm narkobiznes bilan o'zaro bog'liq. Mintaqada diniy ekstremistik markazlarni va xalqaro terrorchilik tashkilotlarini boshqarib turuvchi va idora qiluvchi kuchlar narkotrafikni ham nazorat qiladilar. Terroristik va ekstremistik harakatlarni olib borish o'z-o'zidan katta moliyaviy xarajatlarni talab qiladi. Bu esa o'z navbatida narkobiznes bilan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda afg'on narkotiklar muammosi o'ta dolzarb masalaga aylandi. Urushdan so'ng mamlakatni qayta tiklash masalasining xalqaro hamjamiyat tomonidan orqaga surilishi, iqtisodiy-gumanitar yordamning yetarli darajada ajratilmaganligi aksariyat aholining og'ir ahvolga tushishiga olib keldi va mamlakatda ommaviy narkotik yetishtirish va ishlab chiqarish boshlandi.

Mintaqa davlatlarining jug'rofiy joylashuvi, ularda boshlangan ijtimoiy formatsiyalar, samarali mintaqaviy xavfsizlik tizimining endigina shakllanayotganligi kabi omillar narkobaronlar uchun qulay imkoniyatlar ochib bermoqda. Mintaqaning doimiy ravishda beqaror hududga aylanishi birinchi navbatda narkobaronlar manfaatiga mos keladi. Ko'rinib turibdiki, terrorizm va ekstremizm narkobiznes bilan o'zaro bog'liq holda faoliyat olib bormoqda. Ma'lum bir vaqtda narkobiznes terrorizmga moliyaviy ko'mak bersa va u orqali diniy ekstremizm g'oyalaridan foydalanilsa, boshqa vaqtda terrorizm va ekstremizm narkotrafikni ta'minlovchi vositaga aylanadi. U yoki bu holatda ham birinchi navbatda Markaziy Osiyo mintaqasiga katta xavf solinadi. Mintaqadagi beqarorlik esa dunyo xavfsizlik tizimiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur harakatlar bevosita uyushgan jinoyatchilik va noqonuniy qurol savdosi bilan bog'liq. Terrorizm zo'ravonlik, kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirilar ekan, bugungi kunda globallashtirish va taraqqiyot natijasida xalqaro hamjamiyat oldida yana bir tahdid – bioterrorizm vujudga kelmoqda. Terroristlarning eng zamonaviy qurollar bilan qurollanish tendensiyasi shak-shubhasiz yadroviy va ommaviy qirg'in qurollari tahdidini vujudga keltirmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi yadro quroliga ega bo'lgan davlat qurshovida joylashganligi ham bu tahdidlarning ehtimollik darajasi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Markaziy Osiyoda harbiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka kafolat beruvchi mintaqaviy xavfsizlik tizimi shakllanmoqda. Ammo tan olish kerakki, bu jarayon Afg'onistondagi mazkur kompleks muammolar natijasida bir qancha qiyinchiliklarga uchramoqda.

2001-yil 11-sentyabrda N'yu-York va Vashingtonda sodir etilgan voqealardan so'ng xalqaro terrorizmga qarshi global urush e'lon qilindi.

Natijada uning ildiziga katta zarba berildi va Afg'onistondagi vaziyat barqarorlashdi. Ammo hozirda ham mazkur tahdidlarning shakllanishi va avj olishiga ta'sir ko'rsatayotgan bir qancha omillar, shart-sharoitlar mavjud. Jumladan, bular quyidagilar:

-Afg'onistonda olib borilgan aksilterror operatsiyasidan so'ng mamlakatdagi og'ir ijtimoiy vaziyat;

-harbiy-siyosiy keskinlik kuchaymoqda;

-narkotrafik masalasi (ma'lumotlarga qaraganda urushdan so'ng narkotik yetishtirish 3-4 barobarga ortgan);

-asosiy faoliyati Markaziy Osiyoga qaratilgan yirik xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlarning ("Al-Qoida", "Tolibon", O'zbekiston islom harakati) batamom yo'qotilmaganligi, buning oqibatida mintaqaga terroristik va ekstremistik kuchlarning kirib kelishi va vaziyatni keskinlashtirishga harakat qilishi kuzatilmoqda. Bu bevosita Qirg'iziston va Andijon voqealari bilan bog'liq;

-mamlakatda AQSh va Yevropa davlatlari siyosatiga nisbatan noroziliklarni kuchayib borishi.

Tahdidlarning ikkinchi blokiga tadqiqotchilar tomonidan ko'rsatib o'tilgan davlatlararo qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni kiritish mumkin. Bular birinchi navbatda mintaqada davlatlari o'rtasidagi chegaraoldi daryo suvlaridan samarali foydalanish muammolari, chegaralarni delimitatsiya qilish bilan bog'liq hududiy masalalar va etnik ziddiyatlar, ekologik, iqtisodiy muammolar va boshqalardir.

Suv ta'minoti va chegaraoldi suv resurslaridan hamkorlikda foydalanish muammosi Markaziy Osiyo davlatlari rivojiga to'sqinlik qilayotgan omillardan biri hisoblanadi. Suv muammosi – Markaziy Osiyo mamlakatlarida davlat qurilishidagi yaxlit jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi, milliy xavfsizlik manfaatlariga bevosita daxldor bo'lgan mavzu. Chunki suv doimo taraqqiyotning eng muhim geoiqtisodiy va strategik resursi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Ularni nazorat qilgan holda, nafaqat o'z iqtisodiyotini va ijtimoiy sohani o'zgartirish, shuningdek, umuman, Markaziy Osiyodagi vaziyatni ham nazorat qilish mumkin.

Mintaqaning cheklangan suv resurslaridan samarasiz foydalanish natijasida kelgusida ularning kamayib ketishi Markaziy Osiyoda geosiyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik jarayonini kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarining kelgusidagi rivoji suv ta'minoti muammosining muvaffaqiyatli ravishda hal etilishiga bog'liqdir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqilikka erishganidan so'ng, mintaqadagi suv masalalarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Yangidan tashkil topgan beshta mustaqil davlat o'z yo'lini bozor iqtisodiyotiga

qadam tashlash bilan boshladi, bu esa beqaror ekologik vaziyat sharoitlarida mintaqaning ayrim hududlarida suv resurslarini boshqarish va undan foydalanish masalalariga yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qildi. Mintaqaning har bir davlati atrof-muhit muammolariga munosabatni o'zgartirgan holda hamda xalqaro suv huquqi tamoyillariga muvofiqlashtirish zaruratini anglagan holda, o'zining milliy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot manfaatlarini belgiladi.

Suv muammolari XXI asrga kelib insoniyat oldida turgan eng asosiy muammolardan biri bo'lib qoldi. Bugungi kunga kelib shu narsa aniq bo'lmoqdaki, alohida davlatlar o'rtasidagi huquqiy asosni ta'minlamay turib, suv muammolarini hal qilishga erishish mumkin emas. Shuning uchun ham hozirgi kunda huquqiy asos uni amalga oshirishning asosiy vositasi deb hisoblanmoqda. Bunday sharoitda, umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlarini va shu bilan birga milliy xavfsizlik va barqarorlik nuqtai nazaridan O'zbekistonning ushbu jarayonda jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi sifatida ishtirok etishi dolzarb masalalardan biridir. Shuning uchun ham mintaqa davlatlari milliy manfaatlarining o'zaro uyg'unligiga erishish va ularni muvofiqlashtirish ehtiyoji seziladi. Davlat rahbarlari tomonidan bir qancha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu muammolar hukumatlararo qo'mita darajasida hamkorlikda bartaraf etilmoqda. Ammo, bu sohada hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Zero, mazkur muammolarning o'zaro hamkorlikda bartaraf etilishi bugungi kunda ustuvor vazifalar sirasiga kiradi. Markaziy Osiyoda suv-energetika, ekologiya muammolarining ijobiy hal etilishi natijasida mintaqaning iqtisodiy barqarorligiga erishish imkoniyatlari ochiladi.

Markaziy Osiyoda yashayotgan xalqlarning muhim hayotiy manfaatlariga daxldor bo'lgan iqtisodiy, suv-energetika, transport-kommunikatsiya, ekologiya xarakteridagi umum-mintaqaviy masalalarni hal qilish uchun o'zaro hamjihatlik va amaliy harakatlar mexanizmini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi .

Tahdidlarning uchinchi blokida tadqiqotchilar globallashtirish oqibatida mintaqa davlatlari ilg'or bosqichlar bilan rivojlanayotgan texnologik taraqqiyotdan ortda qolib ketishlarini ko'rsatib o'tmoqdalar . Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan globallashtirish jarayoni albatta ob'ektiv va qonuniy bo'lishi bilan bir qatorda, u juda shavqatsiz jarayondir. Bu xususiyat shundan iboratki, uning imkoniyatlari hamma davlatlarga birdek taqsimlanmaydi. Undan faqat rivojlangan davlatlar, balki transmilliy korporatsiyalar ham katta daromad oladilar.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun bu jarayondagi eng katta xavf - ularning xalqaro bozorda xosh ashyo bazasi yo'nalishida qolib

ketishlaridir. Bu esa mintaqa iqtisodiy xavfsizligining ustuvor omilidir. Bu jarayonda mintaqa davlatlarining muammoni hal qilishlari o'ta mushkul vazifa hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani shakllantirish va kengaytirish masala yechimining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Integratsiya esa birinchi navbatda ishtirokchi davlatlardan ishlab chiqarish salohiyatini o'stirishni talab etadi. Ko'rinib turibdiki, agarda davlat ma'lum bir iqtisodiy ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lmasa, globalizatsiya jarayoni unga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, mintaqa davlatlari bu masalaga o'rta va uzoq muddatli istiqbolda ham to'qnash keladilar.

To'rtinchi blokda tahdidlar bevosita geosiyosat. Markaziy Osiyo mintaqasi insoniyat rivojlanishida, xalqaro kuchlar muvozanatida doimo muhim rol o'ynab kelgan. Ba'zi bir chet el olimlari mintaqaning geosiyosiy ahamiyatini oshirishga urinmasalar-da, ularning barchasi quyidagi omillarga katta e'tibor qaratadilar va ularni tahdid sifatida ko'rsatadilar.

Birinchi, bu mintaqa neft va gaz zaxiralariga boy hudud ekanligidir. Undan tashqari hudud oltin, uran, rangli metallar kabi strategik rusurslar bazasiga ega.

Ikkinchi, Markaziy Osiyo Shimol va Janub, Sharq va G'arbning o'ta muhim transport-kommunikatsiya yo'llarining kesishgan nuqtasida joylashgan. Shunga qaramasdan mintaqa kontinental hudud hisoblanib, u mustaqil ravishda dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatidan mahrum. Undan tashqari mintaqa Rossiya, Xitoy kabi yirik davlatlarning bozoriga yaqin joylashgan. Bu esa mintaqa bozoriga katta tahdid ekanligini anglatadi.

Uchinchi, Markaziy Osiyo islom va xristian, sharq va g'arb sivilizatsiyalarining to'qnash chizig'i hisoblanadi. Mazkur omil ham xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Chunki bugungi kunda mintaqa islom dini keng tarqalgan geosiyosiy makon maqomiga egadir.

To'rtinchidan, bu mintaqada dunyoning yirik geostrategik kuchlari bo'lmish Rossiya, Xitoy va AQSh manfaatlari kesishadi. Shu nuqtai nazardan mintaqa juda mushkul geosiyosiy qurshovda joylashgan. Shimoldan Rossiya bilan, sharqdan Xitoy bilan, janubdan islom dunyosi bilan, g'arbdan AQSh va Yevropa davlatlari bilan tutashligi mintaqaning davlatlari tashqi siyosatida ko'p qirrali qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Bu holat mintaqa davlatlari geosiyosiy harakatlanishining chegaralanishiga olib keladi va ko'p hollarda tanlov huquqidan mahrum etadi. So'ngi davrlarda mintaqada tashqi kuch omili tobora kuchayib borayotganligi kuzatilmoqda. Albatta yuqorida e'tirof etilgan mintaqaning geosiyosiy va geoiqtisodiy omillari yirik davlatlar e'tiborini o'ziga jalb etmasdan qolmaydi. Lekin ularning manfaatlari mintaqa davlatlarining manfaatlariga

har doim ham mos kelavermaydi. Eng katta xavf bu, avvalombor, yirik davlatlarning o‘zaro manfaatlaridagi qarama-qarshiliklardir. Shu o‘rinda mintaqa davlatlari o‘z milliy va mintaqaviy manfaatlarining ustuvorligini saqlagan holda tashqi siyosat, xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashning dolzarb muammolari borasida umumiy mintaqaviy yondashuvni ishlab chiqishlari maqsadga muvofiq. Bugungi kunda mintaqa davlatlari oldida turgan muhim vazifa – xavfsizlik, barqarorlik, terrorizm va ekstremizm bilan bog‘liq o‘tkir muammolarni hal etish borasida mintaqa davlatlarining yagona siyosatini ishlab chiqishga erishishdan iborat.

Beshinchi blokka bugungi kunda ayrim g‘arb davlatlarining o‘z milliy manfaatlarini kengaytirishda asosiy vositaga aylangan «demokratiya eksporti», «ikkilamchi me‘yor» siyosati va «axborot xuruji» kabi vositalar nazarda tutiladi.

Sobiq ittifoqi parchalangandan so‘ng bu hududda ko‘plab yangi davlatlar vujudga keldi. Ular totalitar tuzumdan katta aziyat chekkan holda, mustaqillikdan so‘ng bu tuzumdan qochishga, yangi tizim barpo etishga, xalqaro munosabatlarda munosib o‘rin egallashga harakat qildilar. Bu holat esa bu hududda ayrim g‘arb davlatlarining geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlari yuzaga chiqishiga katta imkoniyatlar ochib berdi. Natijada g‘arbona demokratiya modeli targ‘ib qilina boshlandi. Albatta, bu harakatlar turli xil nodavlat tashkilotlar, loyihalar, fondlar orqali amalga oshirildi. Nodavlat tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o‘rni juda muhim albatta. U demokratiya, fuqarolik jamiyat qurilishidagi eng asosiy mezonlardan biri. Ammo bu tashkilotlarning fuqaro, shaxs, jamiyat va davlatning umumiy manfaatlari, demokratik jarayonlarning nazoratchisi sifatida emas, balki ayrim davlatlar manfaatlarining himoyachisi sifatida faoliyat yuritishi ularga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lish bilan birga xalqaro huquq mezonlarining buzilishiga olib keladi.

Mintaqadagi beqarorliklar oxir-oqibat nafaqat mintaqa davlatlarining milliy xavfsizligiga, balki mazkur yirik kuch markazlarining manfaatlariga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Undan tashqari mazkur xalqaro nodavlat tashkilotlar tomonidan davlatlarning ichki ishlariga aralashish holatlari kuzatilmoqda. Buning natijasida davlatlardagi huquq-tartibot va sud organlarining faoliyatida kiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bunday aralashishlar xalqaro huquq me‘yorlariga zid bo‘lib, davlat manfaatlariga tahdid soladi.

Nazorat uchun savollar va topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyo Respublikalarining asosiy tashqi siyosiy yo‘nalishi qanday ?

2. Rossiya va MO davlatlarining o‘zaro munosabatlari haqida aytib bering.

3. Rossiyaning MDH doirasida hamkorligining kelajagi qanday ?

4. Markaziy Osiyo Respublikalari doirasida integrasion jarayonlar qaysi kelishuv va bitimlar asnosida rivojlanmoqda ?

5. MDH ga a‘zo davlatlar hamkorlikning nodavlat strukturasi yaratishda qanday pozisiyani egallashadi ?

6. MDH doirasida hamkorlikning kelajagi qanday ?

7. ShHTning so‘nggi Sammiti natijalari.

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. “Qozog‘iston, Rossiya va Belorus ittifoqi” mavzusida prezentatsiya tayyorlang.

2. “MDH davlatlarining hamkorligining asosiy yo‘nalishlari” mavzusida referat tayyorlang.

3. “ShHT” mavzusida ma’ruza tayyorlang.

4. “ShHTning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni taminlashga qaratilgan harakatlari” mavzusida referat tayyorlang.

GLOSSARIY

Anarxizm (yun. anarchia – beboshlik, hokimiyatsizlik) - davlat boshqaruvi va institusional boshqaruvning milliy miqyosdagi barcha shakllaridan batamom voz kechishga da'vat etuvchi ijtimoiy-siyosiy oqim.

Globalashuv - iqtisodiyot, ijtimoiy munosabatlar va boshqa turli sohalarda milliy davlat chegaralarining shaffoflashuv jarayoni.

Diplomatiya – davlatning tashqi siyosatini belgilovchi xalqaro munosabatlarning amaliy usullari va amaliyoti. Davlat yordamida o'z tashqi siyosatini amalga oshiradi.

Donor mamlakat – nochor davlatlarga beg'araz yordam beruvchi mamlakat.

Isteblishment – 1) jamiyatdagi mustahkam o'rin; 2) jamiyatda nufuzli o'rin egallovchi va mavjud tuzumni saqlab qolish, faoliyat yuritishida muhim rol o'ynovchi qatlam (ijtimoiy guruh).

Kioto protokoli – 1997-yilda Kioto (Yaponiya)da imzolangan bitim. Uni imzolagan tomonlar global isish va iqlim o'zgarishining oldini olish maqsadida atmosferaga «parnik effekti» qo'zg'atadigan gazlar chiqarishni kamaytirish majburiyatini olishgan.

Konvensiya (lot. soventio - kelishiv, bitim). Biror-bir maxsus masala bo'yicha xalqaro bitim va shartnomalar turidan biri bo'lib, ko'rilayotgan maxsus soha bo'yicha davlatlarning o'zaro huquqlari va majburiyatlarini o'rnatadi.

Konservativizm – 1) barcha eskirgan, yo'qolib ketgan narsalarga sodiqlik; 2) ijtimoiy hayot, ilm-fan va san'atda yuz berishi zarur bo'lgan taraqqiyot omiliga qarshi harakat.

Konsolidatsiya – davlat, ijtimoiy guruh va tashkilotlar urinishi, harakati imkoniyati va qarashining qo'shilib ketishi, birlashishi, birikishi bilan izohlanadi.

Lobbi (yoki lobbizm) – mintqa va mamlakatlarning alohida ijtimoiy-siyosiy kuchlari pozitsiyalari, ijtimoiy harakatlar manfaatlarini, umumijtimoiy va global muammolar yechimlarining strategiyalar va doktrinalarini qo'llab quvvatlash kabilar bilan belgilanadi.

Federatsiya (lot. «foederare» - ittifoq bo'lib mustahkamlash) – davlat tuzilishi shakllaridan biri. Federativ davlatlar murakkab tuzilishga ega davlatlar deb ham yuritiladi.

Feminizm – ayollarning siyosiy huquqlarda erkaklar bilan tenglashish.

Fors-major (act of God force – «Tangri qudratining natijasi») – yong'in, tabiiy ofat, urush kabi kutilmagan, tabiiy ofatlar natijasida

tomonlardan biri o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmay qolishi.

Fundamentalizm – atamasi ilk bor rasmiy ravishda 1908 yilda AQShning Kaliforniya shtati protestantlari tuzgan «Xristian dinining fundamental tushunchalari konferensiyasi» tomonidan qo'llanilgan.

Xalqaro va ichki siyosat - bir vaqtning o'zida ham ichki, ham xalqaro aspektga ega bo'lgan davlat siyosatini ko'rsatish (namoyon etish uchun ilmiy ibora sifatida fanga kiritilgan atama.

Xalqaro munozara – davlatlararo yoki boshqa xalqaro huquq sub'ektlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, shuningdek, tinchlik va xavfsizlikni xavf ostiga qo'yilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarda huquq me'yorlariga muvofiq, tinchlik vositalari bilan hal qilinadigan muzokaralar, tomonlar maslahati, tekshiruv, yarashish, vositachilik, xalqaro arbitraj, sud ish ko'rishi va boshqalardir. X.m. tinch yo'l bilan hal qilinmasligi tomonlar o'rtasida qurolli nizolar (urush) paydo bo'lishining dastlabki sharti bo'lishi ham mumkin.

«Xalqaro munosabatlar» tushunchasi va mezonlari - ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos turi bo'lib, ijtimoiy hayotning turli sohalari - iqtisodiy ayirboshlashdan to sport musobaqalarigacha bo'lgan jabhalarni qamrab oladi. o'z xususiyatiga qarab, xalqaro munosabatlarning ishtirokchisi bo'lgan ma'lum ijtimoiy birlikka xos munosabatlardan farq qiladi. ishtirokchilari turlicha bo'lgan davlatlar, nodavlat birlashma va individlar uning tarkibiga kiradi. (odamlar) Xalqaro munosabatlar yoki ijtimoiy hayot sohalari - iqtisodiy, siyosiy, harbiy strategik, madaniy, mafkuraviy munosabatlar yoki ularning ishtirokchilariga qarab, davlatlararo, turli xalqaro tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha sinflarga bo'linadi. Xalqaro munosabatlar rivojlanishi darajasiga qarab, ular baland, o'rtacha yoki past darajalarga ajratiladi. Biroq, xalqaro munosabatlarni geopolitik mezonlar asosida global hamda submintaqaviy (mas., Karib havzasi mamlakatlari) darajalarga ajratish juda samarali hisoblanadi. Keskinlik darajasi nuqtai nazaridan xalqaro munosabatlarning turli - barqarorlik va notinchlik, ishonch va adolat, hamkorlik va janjal, tinchlik va urush holatlari bo'lishi mumkin.

Xalqaro nohukumat tashkilotlar - hukumatlararo bitimlar asosida tuzilmagan va faqatgina bir davlat hududi doirasida faoliyat yuritmaydigan tashkilotlar (shuning uchun ularni transmilliy deb atashadi). Shu bilan birga, ularning faoliyati foyda olishga qaratilmagandir .

Xalqaro xavfsizlik – xalqaro munosabatlardagi kafolatlangan barqarorlik, dunyo hamjamiyatining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy sohalardagi adovat, harbiy nizo va urushlar oldini olish sharoitlarining

shakllangan holati. Milliy xavfsizlikni himoyalash darajasi to'g'ridan-to'g'ri xalqaro xavfsizlik bilan bog'liq. X. x. milliy va mintaqaviy xavfsizlikni o'ziga mujassam qilgan. U – milliy xavfsizlikdan farqli ravishda, davlat xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi bilan murakkab bog'liqligini e'tirof etadi.

Xarizma yoki xarizmatik legitimlik – siyosat va sotsiologiyada – umumiy ommadan ajratib turuvchi shaxs xususiyatlarining majmui; rahbar shaxs xususiyatiga yoki uni o'z tarafdorlarini jalb qilish qobiliyatiga asoslangan ta'siri. Biror shaxsning boshqalarga nisbatan misli ko'rilmagan darajada ustun xususiyatlarga egaligi. «Xarizma» tushunchasi ilk bir italiyalik ruhoni S.Paul tomonidan mo'jizaviy qobiliyatga ega bo'lgan nasroniylar payg'ambari Isoga nisbatan ishlatilgan. Ammo ilmiy tushuncha sifatida «xarizma» asosan nemis sotsiologi Veber tomonidan chuqur tadqiq qilinib, «ehson» deya nomlangan.

Shariat (arab. - to'g'ri yo'l) - Islom huquq tizimi. Qur'on asosida tuzilgan diniy-huquqiy normalarning davlat, meros, jinoiy, nikoh va oila huquqi bilan uyg'unligi. Ilk Islomda jamiyatni huquqiy boshqarish Qur'on asosida olib borilgan. Shariat huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariat hozir ham dunyoning eng yirik huquqiy tizimlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Shartnoma huquqi - suveren davlatning boshqa davlatlar bilan shartnomalar imzolash huquqi.

Shengen shartnomasi (1985-yil 14-iyun, 1990-yil 19-iyun, 1996-yil 25-mart) - bu shartnomaga binoan unga imzo chekkan davlatlar o'rtasida kapital, tovar va fuqarolarning erkin harakatlanishi o'rnatiladi. Ya'ni, fakt jihatdan davlatlararo chegaralar bekor qilinadi. Mazkur davlatlarning yagona umumiy tashqi chegarasigina mustasno. Bitim Lyuksemburgda yetti davlat - Yevropa ittifoqi a'zolari: Belgiya, Germaniya, Ispaniya, Lyuksemburg, Niderlandlar, Portugaliya va Fransiya o'rtasida imzolangan.

1997-yildan boshlab mazkur bitimga Avstriya va Italiya qo'shildi. Garchi Gresiya bitimni imzolagan bo'lsa ham amalda qo'llanmasligining boisi barcha sharoitlarning yaratilmaganligidir. Skandinaviya mamlakatlari Daniya, Islandiya, Norvegiya, Finlandiya, Shvesiya Shengen shartnomasiga qo'shilish istagini bildirdi, ammo Norvegiya asosiy talab qilinadigan shartga javob bermaydi, chunki u YeI a'zosi emas. Britaniya va Irlandiya bitimga o'z munosabatini bildirgani yo'q.

Ekstremizm (fr. *extremisme*, lot. *extrmus* – so'nggi) – so'nggi choralarni qo'llash va keskin hamda qat'iy qarashlarga ega guruhlarini ifodalovchi atama. E. o'z maqsadiga erishishda eng radikal usullar - zo'ravonlik va terrordan foydalanadi. Bugungi kunda E.ning turli

ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, neofashistik tashkilotlar, diniy ekstremistlar shular jumlasidandir.

Elektorat – saylovlarda ma’lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider)ga ovoz beruvchi saylovchilar davrasi; ma’lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

Elita (frans. elite – eng sara) – haqidagi nazariyalar dastavval, Aflotun, Arastu qarashlarida bayon qilingan bo‘lib, XX asr boshlarida V.Pareto, G.Mosko, R.Mixelee ta’limotida sistemali ravishda tadqiq etilgan. Jamiyat ierarxiyasida, fan, madaniyat, harbiy soha va boshqalardagi oliy ijtimoiy guruhlar.

Emigrant (lot. yemigrare – chiqish) - o‘z davlati fuqaroligini tark etgan yoki boshqa davlatga butunlay yashash uchun ko‘chib ketgan shaxs.

Emissar - boshqa mamlakatda turli (asosan maxfiy) topshiriqlarni bajaruvchi davlat yoki xususiy tashkilotning maxsus vakili.

Erkin savdo bo‘yicha Shimoliy Amerika bitimi - AQSh (NAFTA), Kanada va Meksika o‘rtasida tuzilgan bo‘lib, erkin savdo zonasi tuzishni nazarda tutadi.

TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar:

1. Muxammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. O'quv qo'llanma. – Toshkent, Barkamol fayz media, 2017, - 292 b.
2. Muhammadsidiqov M.M. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, ToshDSHI, 2017, - 240 b.
3. Мухаммадсидиқов М.М. Хорижий Шарқ ва Ғарб мамлакатларидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар. Ўқув кўлланма. – Тошкент, ТошДШИ, 2013. – 160 б.
4. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, ToshDSHI, 2013. – 176 b.
5. Muhammadsidiqov M.M. Musulmon mamlakatlari va zamonaviy xalqaro munosabatlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent, O'zXIA, 2019, - 264 b.
6. Munavvarov Z.I. Xalqaro munosabatlarga kirish. – Toshkent, O'zXIA, 2019, - 204 b.
7. Каримова Н.Э. Международные отношения стран Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2017. – 204 с.
8. Каримова Н., Пьянова Е., Азимов К. Особенности развития стран Дальнего Востока. Учебное пособие. – Ташкент, 2009. – 234 с.
9. Шарапов А.А. Осиё-Тинч океани минтақаси давлатлари ва Ўзбекистон Республикаси муносабатлари. Монография. – Тошкент, 2014. – 216 б.
10. Петрова Л.П., Каримова Н.Э. Кузьмина Е.М. Региональные аспекты современных МО. Т.: ТашГИВ, 2002.
11. Шарапова С., Каримова Н., Шарапов А. Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран Востока и Запада. Учебное пособие. - Ташкент: Фан, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

10. Актуальные проблемы глобализации. Круглый стол в редакции журнала «МЭ и МО» // МЭ и МО. – 1999. – №4. – С. 37-52.
11. Актуальные проблемы глобализации. Круглый стол в редакции журнала «МЭ и МО» // МЭ и МО. – 1999. – №5. – С.41-57.
12. Александров А.И. Монархии Персидского залива: этап модернизации. –М., 2000.
13. Алексеев, Михайлов. Евразийское экономическое сообщество // Международная жизнь. 2000. № 11. С.38-39.

14. Альблон А.С. Центральная Азия: Средиземье Евразийского материка // Общественное мнение. –Ташкент, 1998. №1.
15. Аракс М. Европейский Союз. Видение политического объединения. –М., 1998.
16. Арин О. Азиатско-Тихоокеанский регион: мифы, иллюзии и реальность. –М., 1997.
17. Арифметика ЕС // Новое Время. – 2004. – №7. – С.7-10.
18. АСЕАН и ведущие страны АТР: проблемы и перспективы. – М., МГУ, 2003.
19. Асирбабаева К.С. Сотрудничество между Р. Узбекистан и Р.Кореей как фактор межрегионального сотрудничества // Материалы международной научной конференции по кореведению в СНГ: проблемы и решения. – Т., 2006. – С. 368-375.
20. Асирбабаева К.С. Становление и развитие отношений между Р.Узбекистан и Р.Кореей // Востоковедение. –2001. – №2. – С.42-45.
21. Асирбабаева К.С. Страны АТР во внешней политике Р.Узбекистан на примере Р. Корея // Востоковедение. –2005. – №1. – С. 117-120.
22. Ата-Мирзаев О., Генштке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: Историко-демографический аспект. Ташкент, 1998.
23. Бакланов А.Г. Ближний Восток: региональная безопасность и интересы России. М., 1999.
24. Баранчук Н. А. Тенденции развития ситуации в странах Магрибы и национально-государственные интересы России // Вестник Московского Университета. Серия 8. Социология и политология. 2003. С.28-30.
25. Белокреницкий В.Я. Проблемы и перспективы формирования Центральноазиатского макрорегиона // Восток. 1993. Р.4-47.
26. Бжезинский З. Великая шахматная доска. Господство Америки и его геостратегические императивы. М.: Международные отношения, 1998.
27. Бжезинский З. Преждевременное партнерство // Политические исследования. 1994. № 1. С. 66.
28. Бовт Г. Косовская драма // Сегодня. - 1998. - 14 окт.
29. Бондаренко С. Ближний, Средний Восток, Северная Африка: развитие нефтегазовой отрасли // Азия и Африка сегодня. 2005. №8. С.21-27.

30. Борисов А. Б. Роль ислама во внутренней и внешней политике Египта. М., 1991.
31. Борко Ю. Евросоюз: углубление и расширение интеграции // МЭ и МО. – 1998. – №8.
32. Боровой В. Региональная политика во внешнеполитической стратегии КНР после окончания «холодной войны» // Международные отношения. 2005. №1. С.55-60.
33. Булычев Г. Корейская политика России: попытка схематизации // Проблемы Дальнего Востока. 2000. №2. С.5-12.
34. Бухорий М. Арабская Республика Египет. Т., 2002.
35. Быков П., Власов П. Сверхновая Европа // Эксперт. 2000. №7. С. 52-55.
36. Бэттлер А. Биполярность: призрак или реальность? // Проблемы Дальнего Востока. –2001. – №1. –С.44-49.
37. Валев Э.Б. Югославский клубок // География. - 1996. - №13. - С.4.
38. Ванин Ю. КНДР на «форсированном марше» // Проблемы Дальнего Востока. –1998. –№5. –С.20-31.
39. Василенко И.А. Геополитика современного мира. М., 2006.
40. Васильев А. М. Египет и египтяне. М., 2000.
41. Васильев Л.С. История Востока. В 2-х т. М., 1998.
42. Власов П. Сверхновая Европа // Эксперт. 2000. №6. С. 18.
43. Внешняя политика Российской Федерации. М., 2000.
44. Внешняя политика России: мнения экспертов: Аналитический доклад по заказу московского представительства Фонда им. Ф. Эберта. М., 2001.
45. Внешняя политика: российские интересы и задачи нового этапа // Мониторинг общественного мнения. 2004. №2 (70). С.23-25.
46. Волков А. Северные страны Европы: ситуация меняется // МЭМО. №2. 2001. С.34-37.
47. Воробьев В. От Шанхая до Шанхая. К созданию Шанхайской организации сотрудничества // Ж.Проблемы Дальнего Востока. –2001. – №3. –С.6 –12.
48. Гаджиев К.С. Введение в геополитику. - М., 1998.
49. Гаджиев К.С. Геополитика. М., 1997.
50. Гаджиев К.С. Геополитика Кавказа. М., 2001.
51. Галенович Ю. М. Россия - Китай - Америка. От соперничества к гармонии интересов? М.: «Русская панорама», 2006.
52. Ганоненко А.Л., Полянский В.Г. Развитие региона: методы управления. –М.: Изд-во РАГС, 1999.
53. Гафуров С.М. Королевство Саудовская Аравия. Т., 2001.

54. Гафуров С.М. Национальная, региональная и глобальная безопасность: роль и место арабских государств Персидского залива и Республики Узбекистан. – Т., 2005.
55. Гегелашвили Н. Дискуссии о новой стратегии США в Центральной Азии // США-Канада ЭПИ. 2005. № 7. С. 107-118.
56. Гельбрас В. Г. Китайская реальность России. М.: «Муравей», 2001. 320 с.
57. Геополитика современного мира: учеб. Пособие / И. А. Василенко. М., 2007.
58. Гладкий Е.Н., Чистобаев А. Основы региональной политики. М., 1998.
59. Глобальное сообщество: новая система координат // Подходы к проблеме. –Спб., 2000. –С.11-95.
60. Гончаренко С. Саммит АТЭС в Куала-Лумпуре // Проблемы Дальнего Востока. –1999. –№1. –С.32-40.
61. Гончаренко С. Саммит АТЭС в Окленде // Проблемы Дальнего Востока. –2000. –№1. –С.12-23.
62. Грэхэм Т. Вопросы из Вашингтона: Есть ли у России достаточно уверенности в своих силах, чтобы вести конструктивный разговор с США // Независимая газета. 2001. 21 марта.
63. Гудби Дж. Неразделенная Европа. М.: Международные отношения, 2000.
64. Давыдов А. Китай в современной внешнеполитической стратегии США // Проблемы Дальнего Востока. 2005. № 3. С. 44-60.
65. Данг Тхи Хиеу Ла. Рынок с социалистической ориентацией // Азия и Африка сегодня. № 12. 2002. С. 34-35.
66. Данилов Д.А., Можеев А.Л. Структуризация пространств, безопасности на Западе и Востоке Европы. М., 2000.
67. Дергачев Л.А. Геополитика. Киев, 2000. С.269-281.
68. 10 лет СНГ // Компас. 2001. №49. С.45-47.
69. Дубровин Д. «Несоциалистический» Вьетнам // Азия и Африка сегодня. 2001. №5. С.31-32.
70. Дугин А. Основы геополитики. М.: Арктогея, 2000.
71. Дугин А.Г. Основы геополитики. Геополитическое будущее России. М., 1997.
72. Европейская политика в области обороны // Компас. –2000. –№32.
73. Егорин А.З. История Ливии. XX век. М.: Институт востоковедения РАН, 1999.

74. Жебин А.З. О возможных сценариях развития ситуации на Корейском полуострове // Корейский полуостров и вызовы XX века. М.: ИДВ РАН, 2003. С. 38-45.
75. Зайцев Б. ЕС на пути к созданию новой архитектуры безопасности // Компас. №2. 2001. С. 32-34.
76. Засыпкин А.С. Безопасность в Персидском заливе // Международная жизнь. №1. 2009. С. 3-5.
77. Зудина Л.П. Союз Арабского Магриба: возможности развития в контексте глобализации // Сборник "Ближний Восток и современность". Выпуск 16. М., ИИИиБВ, 2002.
78. Ивасита А. Москва – Пекин: «стратегическое партнерство» и пограничные переговоры // МЭиМО. – 2000. – №11. – С.92-96.
79. Ирано-иракская война 1980-1988 гг. Симферополь, 2000.
80. История Ирака. М., 2000.
81. История Кореи. Новое прочтение. Под ред. Торкунова А.В. М., 2003.
82. Кам Сам Гу. Китай и Центральноазиатский регион (взгляд из Сеула) // Проблемы Дальнего Востока. 2002. № 5. С. 35-40.
83. Кан Ван Сок. Роль России в объединении Кореи // Проблемы Дальнего Востока. 1999. №1. С.41-49.
84. Каримов В. Из истории модернизации Республики Корея // Ижтимоий фанларнинг долзарб муаммолари. Иккинчи анъанавий илмий-услубий конференция материаллари туплами. Тошкент, 2011 йил, 12 май. 45-47 б.
85. Каримов В. Из истории урбанизации Южной Кореи: Сеул // Актуальные вопросы современных международных отношений. – Ташкент: ТашГИВ. – Ташкент, 2010. С. 54-58.
86. Каримова Н.Э. Африканское направление внешней политики Китая в свете Целей развития тысячелетия // Узбекистон Республикаси Конституцияси – жамиятнинг барқарор ривожланиш кафолати: сиёсий, ҳуқуқий ва ташкилий жихатлари. Илмий-амалий конференция материаллари туплами. 3 декабрь, 2010. – Тошкент, 2010. С. 121-124.
87. Каримова Н.Э. Центральная Азия - Республика Корея: исторические и культурные связи // Центральная Азия: актуальные проблемы и перспективы интеграции. Материалы круглого стола. Астана - 2009. С. 41-55.
88. Катамидзе В. Ирако-кувейтский конфликт. М., 2000.
89. Кимура Х. Японское направление внешней политики России // МЭиМО. 2003. №3. С.84-94.

90. Кистанов В. АТР на пороге XXI века: к тихоокеанскому сообществу «азиатским путем»? // Проблемы Дальнего Востока.– 1998.–№1. –С.28-39.
91. Клепацкий Л. Глобализация и национальные интересы // Ж. Международная жизнь. –2000. – №1. – С.87-95.
92. Корейский полуостров и вызовы XX века. М.: ИДВ РАН, 2003.
93. Кошелев В. С. Египет: уроки истории (1979-1981). М., 1985.
94. Кузнецов В. Что такое глобализация? // МЭ и МО.– 1998. – №2. –С.12-21.
95. Кузнецов В. Что такое глобализация? // МЭ и МО.– 1998. – №3. – С.14-19.
96. Ландабасо А. К вопросу о теории регионального развития // МЭ и МО. – 1998. –№3. –С. 133-137.
97. Ларин А. Американский фактор в российско-китайском стратегическом партнерстве // Проблемы Дальнего Востока. –2000. – №6. –С.20-32.
98. Лаумулин М.Т. Европейский Союз как новая геополитическая сила // Казахстан – Спектр. 2001. №5. С.51.
99. Лебедева М. Мировая политика. – М.: Аспект-Пресс, 2003.
100. Леонтьева Е. Япония // МЭиМО. 2001. №8. С.109-118.
101. Ли Вл.Ф. Россия и Корея в геополитике Евразийского Востока. – М., 2000.
102. Листопадов Н. Бирма. Страна к югу от горы Меру. М.: Ин-т Востоковедения РАН, 2002.
103. Листопадов Н. Мьянма. Есть о чем сказать // Международная жизнь. №2. 2003.С. 41-43.
104. Листопадов Н. Мьянма. «Солдат-буддист» // Азия и Африка сегодня. № 6. 2003. С. 27-29.
105. Маквайер Ф. Военно-промышленный комплекс стран – участниц ССАГПЗ. Вызовы и ответы. Нью-Йорк, 2001.
106. Малые страны Европы - Португалия, Нидерланды, Бельгия. Экономика и политика // Компас. №1. 1999. С. 20-22.
107. Международные экономические отношения. –М., 1998.
108. Мелихов И.А. Арабские монархии Персидского залива на этапе модернизации (70-90-е годы) // Автореферат дисс. док.ист.наук. М., 2000.
109. Мельченко Б. Н. Лаос. М.,1994.
110. Михайлов В.А. Внешняя политика Российской Федерации. М., 2000.

111. Михеев В. Китай в свете тенденций глобализации и азиатского регионализма // Проблемы Дальнего Востока. –2000. –№3. –С.35-56.
112. Мунавваров З.И. Узбекистан и арабский мир: перспективы сотрудничества. Т., 1997.
113. Мясников В. Россия и Китай: перспективы в АТР в XXI веке // Проблемы Дальнего Востока. –1998. –№6. –С.5-22.
114. Нартов Н.А. Геополитика. Учебник. М.: Юнити, 2004.
115. Николаева К.С. Основные принципы «мирной» внешней политики Китайской Народной Республики // Сборник научных статей преподавателей, аспирантов и студентов кафедры Международных отношений ТашГИВ. – Ташкент, 2009. – С. 38-41.
116. Николаева О. Японская политика сегодня: и снова коалиция // МЭиМО. 1999. №9. С.91-97.
117. Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. М., Владос, 2001.
118. Основы региональной политики. –М., 1998.
119. Орлов В. Внешняя политика и российские регионы // Международная жизнь. –2000. –№10.
120. Панарин А.С. Глобальное политическое прогнозирование. –М., 2000.
121. Пахомова Л. Трудный путь к демократии // Азия и Африка сегодня. 2001. №11. С.7-12.
122. Петраков В. «Учителя и ученики» в ОБСЕ // Международная жизнь. №5. 2001. С.15-17.
123. Погадаев В. Бруней: маленький да удаленький // Азия и Африка сегодня. 2001. №9. С.56-59.
124. Политическая история государств Азии и Северной Африки. XX век. М., 1996. Т.1-2.
125. Польша, Чехия, Венгрия - новые члены НАТО // Компас. №13. 1999. С. 25-27.
126. Проблемы регионального развития. Модели и эксперименты. Сб. статей. –М., 1997.
127. Самойленко В. АТР: станет ли Великий океан мелководным озером? // Проблемы Дальнего Востока. –1999. №5. – С.5-18.
128. Сантер Д. Крушение «европейской мечты». – М., 2006.
129. Свешников А. А. Концепции КНР в области внешней политики и национальной безопасности // Китай в мировой политике. М.: РОССПЭН, 2001. С.130-136.

130. Семененко И. Группы интересов в Евросоюзе: региональный аспект // МЭ и МО.– 1998. –№4.
131. Семин А. Внешнеполитические ориентиры Японии 90-х гг. // Проблемы Дальнего Востока. 2000. №2. С.23-30.
132. Семин А. Токио – Пекин: непростой диалог // Проблемы Дальнего Востока. 1999. №3. С.45-49.
133. Сергеев М.С. История Марокко – XX век. М., 2001.
134. Сергунин А. США и Россия и международная безопасность в АТР в постконфронтационную эпоху // Проблемы Дальнего Востока. –1998. –№4. –С.5-14.
135. Скоробатюк И. О воззрениях корейцев на объединение // Проблемы Дальнего Востока. 1998. №2. С.50-55.
136. Современные международные отношения. –М., 2000.
137. Сорокин К.Э. Геополитика современности и геостратегия России. М., 1996.
138. Степанов Е. Д. Пограничная политика КНР // Китай в мировой политике. М.: РОССПЭН, 2001. С.165-170.
139. Суюмбаев М., Мамытова А. Природные ресурсы как фактор развития Центральной Азии // Центральная Азия и Кавказ. 1998. №1. С.34-37.
140. Ся Ишань. О китайско-российских отношениях в новой обстановке // Проблемы Дальнего Востока. –1999. – №6. –С.13-15.
141. Такэхиро Того. Японо-российские отношения: прорыв в XXI в. // Проблемы Дальнего Востока. –1998. –№1. –С.7-17.
142. Терентьев А. Торийская внешняя политика Тони Блэра // Мировая экономика и международные отношения. 2005. №9. С. 46-55.
143. Торкунов А. Международные отношения после косовского кризиса // Международная жизнь. – 1999. - №12. - С.44-47.
144. Тураев А.С. АҚШ неоконсерватизми // ЎзМУ хабарлари. 2016. №3. – Б.209-2012
145. Тураев А.С. Неоконсерватив гегемонизм ва энергетик хавфсизлик парадигмаси//Актуальные научные исследования в современном мире: XI Междунар. научн. конф., 26-27 марта 2016 г., Переяслав-Хмельницкий. // Сб. научных трудов - Переяслав-Хмельницкий, 2016. - Вып. 11, ч. 2 . – С.75-80
146. Тураев А.С. Неоконсервативные взгляды на реформирование

общества: демократизация и идеология гегемонизма //Международной научно-практической конференции «Философия в современном мире», посвященной 25-летию семинара «Проблема обоснования знания» и 70-летнему юбилею профессора Кудряшева Александра Федоровича. Уфа, 25 января 2017.

147. Turaev A.S.. Neconservatism in the "Greater Middle East" // *ISJ Theoretical & Applied Science*, 2019. 05 (73), 314-318.

148. Травкина Н. Внутренняя политика Дж.Буша: некоторые особенности // США-Канада ЭПИ. 2005. № 10. С. 3-21.

149. Трубников В. Десятилетие СНГ // *Международная жизнь*. 2001. №11. С.45-47.

150. Уайт С., Лайт М., Лоунхард Дж. Белорусь, Молдавия, Украина: к востоку или к западу // МЭМО. 2001. №7. С.24-26.

151. Ушаков Л.Д. Экономический подъем Великобритании 90-х гг. Москва, 1995.

152. Фицджеральд Ч.П. История Китая. М., 2005.

153. Хакимов Б. Коллективная безопасность СНГ // *Международная жизнь*. –2001. –№7.

154. Ходжаев А. Китайский фактор в Центральной Азии. Ташкент, 2007. – 171 с.

155. Цветов П. Вьетнам на грани веков // *Азия и Африка сегодня*. №10. 2002. С. 24-25.

156. Центрально-азиатская интеграция: проблемы и перспективы // *Перспектива*. –1993. –№1-2. –С.52-57.

157. Цыганков П. Международные отношения. - М.: Новая школа, 1996.

158. Чжан Чантай. Итоги развития ситуации в АТР в 1997 г. // *Гоцзи чжанълюэ яньцзю*. –Бэйцзин, 1997. – №1. –С.20-25.

159. Чижов. Стамбульский саммит // *Международная жизнь*. №1. 2000. С.45-48.

160. Чугров С. Мир «после холодной войны» в концепциях японских политологов // МЭиМО. 1999. №9. С.98-107.

161. Чугров С. О традиционализме в японском мышлении // МЭиМО. 1999. №1. С.58-66.

162. Шалак А.В. Основы геополитики. Учебное пособие. Иркутск: Изд-во ИГЭА, 2001.

163. Шарипов У.З. Международные отношения в регионе Персидского залива и роль нефтяного фактора (Запад и страны региона) // *Автореф. дисс. докт.полит.наук*. М., 1999.

164. Шишков Ю. Интеграция и дезинтеграция: корректировка концепции // МЭ и МО. –1993. –№10. –С.50-68.

165. Шлындов А. Япония в ООН // Проблемы Дальнего Востока. 2002. №1. С.62-76.

166. ЮВА в конце XX века: политика и экономика. – М., ИНИОИ, 2001.

167. Яковлев А. Модернизация по-саудовски // Азия и Африка сегодня. №4. 2003. С.34-36.

168. Яковлев В. Военные аспекты сотрудничества СНГ // Международная жизнь. –2002. –№1.

169. Яскина Г. Малайзия: из опыта преодоления последствий экономического кризиса // Проблемы Дальнего Востока. 2001. №5. С.70-78.

170. Van K.M. Korea – US relations in the post–Cold War world // Journal of Northeast Asian Studies. 1992, Summer, Vol.XI, №1. – P.52 – 53.

Internet-saytlari

171. Бжезинский З. Америка терпит катастрофу (для газеты Los Angeles Times) // <http://www.lenta.ru/>

172. Бжезинский З. Великая шахматная доска // <http://rus-sky.org/history/library/bzhezins.htm>/ВЦИОМ на Полит.Ру.

173. Выступление Президента Республики Узбекистан Ислама Каримова на пленарном заседании Саммита ООН «Цели развития тысячелетия». 20.09.2010 // <http://www.mfa.uz>

174. Ивашов Л.Г. В чем состоит геополитическая стратегия США-НАТО? // <http://old.iamik.ru/14387.html>

175. Кабанов Н. Секреты тотальной власти // http://rusarmageddon.narod.ru/HTML/23_19.htm

176. Лисичкин В., Шелепин Л. Глобальная империя зла // <http://www.x-libri.ru/elib/lssh1001/00000125.htm>

177. Межлумянц А.Р. Геополитическая стратегия Бжезинского и ее исторические перспективы // <http://whiteworld.ru/s000102.htm>

178. Нарочницкая Н. Старая Европа // <http://pravoslavie.ru/analit/index.htm>

179. Николаева К.С. Китайская политика «мягкой экспансии» в Африке: история и современность // Материалы XX молодежной научной конференции студентов, аспирантов и молодых ученых «Ломоносов-2013», МГУ им. Ломоносова. Москва, 2013 // http://lomonosov-msu.ru/archive/Lomonosov_2013/structure_20_2215.htm.

180. Обзор событий по материалам сервера: <http://lenta.ru/news/2008/12/09/lisbon/>

181. Обзор событий по материалам сервера:
<http://www.lenta.ru/news/2008/06/13/reject/> Ирландцы заблокировали принятие новой европейской конституции.
182. Обзор событий по материалам сервера: //www.inforport.ru/main_po – rup.php?ID- =260054. В Бельгии прошло очередное заседание Совета сотрудничества Узбекистан – ЕС. 24/01/2001.
183. Обзор событий по материалам сервера: http://www.kabar.kg/russ_news/-Nov/12html/ Председатель Совета ЕС обсудил в Ташкенте перспективы сотрудничества стран Евросоюза с Узбекистаном. 01/11/2001.
184. Обзор событий по материалам сервера
[//http://www.uza.uz/business/2001/11/01 - print/shtml/23/11/2001](http://www.uza.uz/business/2001/11/01 - print/shtml/23/11/2001)
185. Панарин И.П. Дипломатия и политика // <http://www.panarin.com>
186. Руководитель отдела по связям со странами Центральной Азии, Кавказа и Монголии обсудил перспективы сотрудничества Узбекистана и ЕС. 23/11/2001
187. <http://www.rian.ru/analytics/20080807/150161800.html>
188. <http://www.worldstory.ru/livia/01.html>

KIRISH.....	3
1-BOB. O‘QUV KURSINING PREDMETI VA VAZIFALARI	
1.1. O‘quv kursiga kirish.....	5
2-BOB. MINTAQAVIY INTEGRASION BIRLASHMALAR. INTEGRATSIYA TUSHUNCHASI. INTEGRASION BIRLASHMALARGA TAVSIF	
2.1. Integratsiya tushunchasi: mazmun va mohiyati	10
2.2. Mintaqaviy integrasion birlashmalarning asosiy turlari	19
3-BOB. OSIYO-TINCH OKEANI MINTAQASI DAVLATLARI ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARDA	
3.1. Osiyo-Tinch okeani mintaqasining geosiyosiy va geostrategik o‘rni.....	24
3.2. OTOM mintaqaviy birlashmalari	26
3.3. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari	33
3.4. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari iqtisodiy hamkorligi tashkiloti .	41
4-BOB. XITOIY XALQ RESPUBLIKASI VA OSIYO MINTAQASI	
4.1. Osiyo mintaqasining xususiyatlari	45
4.2. Xitoy Xalq Respublikasining milliy rivojlanish strategiyasi va uning asosiy yo‘nalishlari.....	48
4.3. Xitoy Xalq Respublikasining tashqi siyosiy maqsadlari	53
5-BOB. YAPONIYA VA KOREYA RESPUBLIKASI ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA	
5.1. Yaponiya xalqaro munosabatlar tizimida	58
5.2. Koreya Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari.....	62
5.3. KXDR yadroviy dasturi va ikki Koreya birlashuvi muammosi	71
6-BOB. YEVROPA DAVLATLARI MINTAQAVIY SIYOSATINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
6.1. Yevropa Ittifoqi: maqsadi, vazifalari va faoliyati tamoyillari	78
6.2. Yevropa Ittifoqining rivojlanish muammolari	88
7-BOB. ARAB DAVLATLARI XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA	
7.1. Fors ko‘rfazi monarxiyalari zamonaviy xalqaro munosabatlarda	95
7.2. Arab Mag‘ribi davlatlarining zamonaviy xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni	105
7.3. Islom Hamkorlik Tashkiloti zamonaviy xalqaro munosabatlarda	111
8-BOB. AMERIKA QO‘SHMA SHTATLARI ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA	
8.1. AQShning jahon hamjamiyatidagi roli	121
8.2. AQSh tashqi siyosatida Yaqin Sharq mintaqasining o‘rni: demokratlashtirish va neokonservativ gegemonlik strategiyasi	133

**9-BOB. ROSSIYA FEDERATSIYASI ZAMONAVIY XALQARO
MUNOSABATLAR TIZIMIDA**

9.1. Rossiya Federatsiyasining jahon hamjamiyatidagi roli	150
9.2. Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatida Yaqin Sharq mintaqasining o‘rni	157
9.3. Rossiya Federatsiyasi tashqi siyosatida Markaziy Osiyo yo‘nalishi	162

**10-BOB. MARKAZIY OSIYO VA ZAMONAVIY XALQARO
MUNOSABATLAR**

10.1. Markaziy Osiyoning jahon siyosatida tutgan o‘rni va ahamiyati	170
10.2. Markaziy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlash muammolari.....	180
GLOSSARIY.....	189
TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	193

Muhammadolim Muhammadsiddiqov

Siyosiy fanlar doktori, dotsent

**ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLARNING
MINTAQAVIY JIHATLARI**

Darslik

Taqrizchilar:

Z.I. MUNAVVAROV,

siyosiy fanlar doktori, professor

S.A. JO'RAYEV,

siyosiy fanlar doktori, professor

D.I. MADAMINOVA,

siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

“Qaqnus media” nashriyoti, 2019

Босишга рухсат этилди: 28.12.2019.

Офсет қоғоз. Қоғоз бичими 84x108 1/16.

Times New Roman гарнитураси. Шартли босма табоғи 7,25.

Нашр ҳисоб табоғи 6,93. Адади 200.

«ЗАМОН ПОЛИГРАФ» ОК босмахонасида чоп этилди.

Манзил: Тошкент шаҳри. Юнусобод тумани,

Бободехқон маҳалласи 45-уй.